

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**



TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____ prof. A.A.Karimov
“ _ ” _____ 2014-yil

“O`zbek va rus tillari” kafedrası

“O`QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan o`quv-uslubiy majmua



Toshkent-2014

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanidan tayyorlangan majmua kafedra professor-o`qituvchilarining yig`ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2014-yil 20 майдаги 20-sonli bayonnoma)

Kafedra mudiri

prof. N.Husanov

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanidan tayyorlangan majmua “Moliyaviy menejment” fakulteti Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan hamda nashrga tavsiya etilgan (2014-yil ___ sonli bayonnoma)

Fakultet dekani

O. Astanakulov

“O`zbek tili” fanidan tayyorlangan majmua Toshkent moliya instituti Ilmiy-uslubiy kengashida muhokama etilgan va ma`qullandi (2014-yil ___ sonli bayonnoma)

Kengash raisi:

A.Karimov

**“O`zbek tili” fani bo`yicha
o`quv-uslubiy majmuadagi ma`lumotlar
RO`YXATI**

1. O`quv dasturi.....	3
2. Ishchi dasturi.....	23
3. Ta`lim texnologiyasi.....	44
4. Testlar.....	121
5. Nazorat uchun savollar (JN, ON, YaN).....	153
6. Umumiy savollar.....	163
7. Tarqatma materiallar.....	171
8. Glossariy.....	213
9. Referat mavzulari.....	226
10. Adabiyotlar ro`yxati.....	228
11. Tayanch konspekt.....	231
12. O`quv materiallari (o`quv qo`llanma).....	273
13. Xorijiy manbalar.....	281
14. Annotatsiyalar.....	283
15. Mualliflar haqida ma`lumot.....	290
16. Foydali maslahat.....	294
17. Normativ hujjatlar.....	298
18. Baholash mezonlari.....	303

Kafedra mudiri

N.Husanov

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi
№ BD-5141100-3.03
2008- yil "23" avgust

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirining 2008-yil "23"
avgustdagi "263"-sonli buyrug'i
bilan tasdiqlangan

TAJRIBA-SINOV

**O`qituvchi nutqi madaniyati
fanining**

O`QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi: 140000 – O'qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani
Ta'lim yo'nalishi: Barcha bakalavriat yo'nalishlari uchun

Toshkent – 2008

Fanning o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2008- yil «20» avgustdagi «4»-son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi.

To'zuvchilar:

Rasulov Ravshanxo'ja – Umumiy tilshunoslik kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

Mo'ydinov Qodirjon - Umumiy tilshunoslik kafedrası katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Husanov Nishonboy – Toshkent moliya instituti professori, filologiya fanlari doktori

Yo'ldoshev Ma'ruf – Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Fanning o'quv dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti Ilmiy-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2008-yil 4-avgustdagi 2-sonli bayonnoma)

Kirish

O'qituvchi nutqi madaniyati kursi jamiyat madaniy taraqqiyoti, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisi sanaladi. Ushbu dastur nutq madaniyati tarixi, madaniy nutq, unga qo'yiladigan talablar haqida ma'lumot beradi.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad talabalarga - nutq madaniyatini o'rganish tarixiga oid ma'lumotlar, madaniy nutq, unga qo'yiladigan talablar haqida to'la ma'lumot berish; nutqning asosiy sifatleri (to'g'riligi, aniqligi, tozaligi mantiqiyliigi, ta'sirchanliigi, maqsadga muvofiqligi) to'g'risida ma'lumot berish; olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini shakllantirish. "O'qituvchi nutqi madaniyati" fanini o'qitishda talabalarning o'zbek tilshunosliigi, falsafa, mantiq, kabi fanlardan egallagan bilimlariga asoslaniladi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

O'qituvchi nutqi madaniyati o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- nutq madaniyati tarixi, Sharq va G'arb olimlari, adiblari, jamoat arboblariining bu boradagi qarashlari; adabiy til norma (me'yor)lari; madaniy nutqqa qo'yiladigan talablarni bilishi kerak;
- nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari; madaniy nutq ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- o'z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan o'zviy ketma-ketliigi

O'qituvchi nutqi madaniyati fani ixtisoslik fani hisoblanib, barcha bakalavr yo'nalishlarining 5-semestrida o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida umumkasbiy blok fanlaridan etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

Fanning ta'limdagi o'rni

O'qituvchi nutq madaniyati fani talabalarni bo'lajak o'qituvchilikka tayyorlash jarayonida ularning madaniy nutq malakalarini shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Chunki nutq madaniyatini mukammal egallash jamiyatimizdagi har bir soha egasi uchun zaruriy qurol sanaladi.

Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning nutq madaniyati fanini o`zlashtirishlari uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o`zlashtirishda darslik, o`quv va uslubiy qo`llanmalar, amaliy mashg`ulot ishlanmalari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutilgan.

Asosiy qism

Fanning nazariy (leksiya) mashg`ulotlari mazmuni

O`qituvchi nutqi madaniyati fani, uning mundarijasi, maqsadi, vazifasi va ahamiyati. O`qituvchi nutq madaniyati fani o`zbek tilshunosligining o`ziga xos amaliy sohasi ekanligi. U tilshunoslikning nazariy kurslaridan olingan bilimlarga suyanagan holda to`g`ri va ta`sirchan nutq to`zish yo`llarini o`rgatishi. Nutq madaniyati – amaliy jihatdan nutqning xilma-xil muammolarini tadqiq qiluvchi fan. Tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida chiroyli nutq to`zish qonuniyatlari, sirlari, til normalari, nutq, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo`lgan kamchilik va xatolar, nutqning talaffo`ziga doir muammolar yo`zasidan baxs yuritadi.

Adabiy norma va nutq madaniyati

Til normasining ilmiy nuqtai nazardan o`rganish o`zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslashning muhim shartlaridan biri ekanligi.

Adabiy tilning rivojlanish qonuniyatlarini, adabiy til normalarining umumiy holatini o`rganish.

O`zbek adabiy tili normalari (me`yorlari) ya`ni, leksik – semantik, talaffo`z (orfoepik), yozuv (grafika), fonetik, aktsentologik, grammatik, so`z yasalish, imloviy, uslubiy, punktuatsion normalar haqida ma`lumot berish.

Nutq madaniyati va notiqlik san`ati tarixidan

Nutq madaniyati tushunchasi aynan notiqlik san`atining o`zi emas, balki u notiqlik mahoratiga nisbatan olganda qandaydir o`ta oddiy va o`ta siyqa tushuniluvchi hodisa ham emasligi.

Notiqlik mahorati.

Notiqlik turlari. Notiqlik san`ati tarixiga nazar.

G`arb va Sharq notiqalari haqida ma`lumot berish.

Til va nutq. Nutq odobi.

Til va nutq bir-biri bilan bog'liq hodisa ekanligi.

Til moddiy material bo'lib, shu material asosida nutq tashkil topishi.

Til va nutqning dialektik munosabati.

Tilning o'z vazifasini nutq orqali amalga oshirishi. Nutq faoliyati.

Nutq odobi va nutqiy etiket.

Nutqning kommunikativ sifatlari

Nutqning asosiy sifatlari, xususiyatlari, nutqning to'g'riligi, nutqning aniqligi, nutqning tozaligi, nutqning mantiqiyliqi, nutqning ta'sirchanligi, nutqning maqsadga muvofiqligi.

Grammatik stilistika va nutq madaniyati

Nutq madaniyati bilan stilistikaning o'zaro munosabati.

Grammatik stilistikaning ikki xil ko'rinishi ya'ni, morfologik va sintaktik stilistika haqida.

Nutq madaniyati bilan nutqiy uslublar teng hodisa bo'lmaganidek, tilshunoslikning nutq madaniyati uslubiyat deb yuritilayotgan sohalari ham batamom teng hodisalar emasligi.

Har bir nutq uslubini belgilaydigan xususiyatlar.

Terminlar.

Ta'lim jarayonida nutq madaniyati masalalari. Yozma nutq madaniyati

Nutq madaniyati muammolari dars mazmuni va samaradorligi bilan bevosita bog'liqligi, aloqadorligi.

Nutq texnikasi.

Hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar turli nutq normalarini, notiqlik san'ati masalalarini o'rganadilar.

1. G'arb madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni.

2. Sharq madaniyati tarixida notiqlik san'atining o'rni.

3. Xalq og'zaki ijodida nutq odobi masalalari.

4. Kaykovus suxandonlik xususida.

5. Alisher Navoiy ijodida nutq madaniyati va notiqlik san'ati masalalari.

6. Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarida notiqlik, milliy muomala madaniyati masalalari.

7. Badiiy asarda nutq madaniyati masalalari: Abdulla Qahhorning so'z tanlash mahorati (nutqning kommunikativ sifatlari).

8. Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari.

9. Nutqiy etiketni o'rganish.

10. Yozma nutq madaniyati. O'zbek tilida ish yuritish.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ro'za mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini ma'ro'za qilish va savol-javoblar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ro'zalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. G'arb madaniyatida notiqlik san'atining o'rni.
2. Nutq odobi.
3. Adabiy norma.
4. Nutqda egalik qo'shimchalaridan foydalanish normalari.
5. Ovozni ishlatish, o'qituvchi ovozining hususiyatlari.
6. Nutqiy asarlar va ularning janrlari.
7. Internet materiallari bilan ishlash.
8. Me'yoriy yozma hujjatlar bilan ishlash.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti quyidagilardan iborat:

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)
6. www.nuqf.intal.uz

Didaktik vositalar.

Didaktik vositalar ro'yxati beriladi.

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).
- **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- **kompyuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar:

1. Ko'ng'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari.- T.: O'qituvchi, 1992.
2. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. -T.: O'qituvchi, 1993.
3. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati . – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti , 2004.
4. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. –T.: Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona, 2007.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq 1998.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi.- T.: O'zbekiston 1999.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. T.: 2007.
5. Siddiq Mo'min . So`zlashish san'ati.- Farg'ona, 1997.
6. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari.- T.: Ma'naviyat, 1999.
7. Ortiqov A., Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.- T., 2002.

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

Rektorning ____-sonli
buyrug`i bilan
TASDIQLANGAN
(2014-yil 21-iyun)

O`quv-uslubiy boshqarma
tomonidan ro`yxatga
olindi
№ _____
2014-yil 20-iyun

“KELISHILDI”
TDPU O`QUV ISHLARI
BO`YICHA ROREKTORI
_____ D.Ergashev
2014-yil ” ____ ” ” _____ ”



“O`QITUVCHI NUTQI
MADANIYATI”
ISHCHI O`QUV DASTURI

Oliy ta`limning

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar soha; 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq.
Ta`lim sohalari:	110 000 –Pedagogika; 230 000 – Iqtisod.
Ta`lim yo`nalishlari:	5140900 - “O`qituvchilarni tayyorlash va pedagogika fani” ta`lim sohasidagi 5140900 - Kasb ta`limi yo`nalishi uchun

TOSHKENT - 2014

Fanning ishchi o`quv dasturi o`quv va ishchi reja hamda o`quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: filolgiya fanlari doktori, professor N. Husanov
filolgiya fanlari nomzodi, dotsent D. Rasulmuhamedova

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent O`.Lafasov
filologiya fanlari nomzodi A.Saparov

Fanning ishchi o`quv dasturi kafedraning 2014-yil dagi 20-maydagi 20-sonli majlisida muhokama etilib, fakultet Kengashida ko`rib chiqish uchun tavsiya qilingan.

Kafedra mudiri

N.Husanov

Fanning ishchi o`quv dasturi Moliyaviy menejment fakulteti Kengashida muhokama etilgan va nashrga tavsiya qilingan (2014-yil 5-iyundagi 10-sonli bayonnoma).

Fakultet dekani

O.Astanakulov

Kelishildi:

O`quv ishlari bo`yicha prorektor

A.Karimov

KIRISH

Nutq madaniyati insonning ma`naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma`rifiy rivojida muhim rol o`ynaydi.

Nutq madaniyati tildan maqsadga muvofiq foydalangan holda to`g`ri va chiroyli nutq tuzishni o`rgatadi.

Ta`lim va tarbiya jarayonida asosiy vosita o`qituvchining nutqi hisoblanadi. Ayniqsa, mutaxassislik sohalari bo`yicha o`qituvchi uchun nutq madaniyatini mukammal bilish talab etiladi.

Ushbu dastur madaniy nutq va unga qo`yiladigan talablar, o`qituvchining nutq madaniyati uchun zarur bo`lgan kommunikativ sifatlar haqida ma`lumot beradi.

1.1. Fanning maqsadi va vazifalari

Fanning maqsadi - talabalarga madaniy nutq va unga qo`yiladigan talablar haqida to`la ma`lumot berish; nutqning asosiy sifatleri (to`g`riligi, aniqligi, tozaligi, mantiqiyliqi, ta`sirchanliqi, maqsadga muvofiqligi) to`g`risida ma`lumot berish; olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini shakllantirish.

Fanning vazifasi - talabalarning tom ma`nodagi adabiy nutq malakalarini hosil qilishlariga ko`maklashishdan iborat. Iqtisodiy bilimga ega bo`lgan mutaxassis yoki shu soha bo`yicha o`qituvchi qo`l ostidagi kishilar va talabalar qalbiga yo`l topa olishi, ularni ijodiy va samarali mehnatga rag`batlantira olish kerak. O`qituvchining nutq madaniyati hamda o`quvchilar bilan muloqotga kirisha olish malakalarini shakllantirish.

1.2. Fanni o`zlashtirgan talabaning malakaviy darajasi

“O`qituvchi nutqi madaniyati” o`quv fanini o`zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- o`qituvchi faoliyatida nutq madaniyatining tutgan o`rni hamda o`quvchilar bilan muloqotga kirisha olish to`g`risida tasavvurga ega bo`lishi;

- adabiy til norma (me`yor)lari; madaniy nutqqa qo`yiladigan talablarni bilishi; nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari ,madaniy nutq ko`nikmalariga ega bo`lishi;

o`z nuqtai nazarini ilmiy asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo`llay olishi;

- o`qituvchi o`z soha terminlarini bilishi va nutqiy jarayonlarda ulardan to`g`ri foydalana olishi hamda adabiy tilda sof gaplasha olish ko`nikmalariga ega bo`lishi lozim.

1.3.Fanning o`quv rejasidagi boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fani ixtisoslik fani hisoblanib, barcha bakalavr yo`nalishlarining 5-semestrda o`qitiladi. Dasturni amalga oshirish o`quv rejasida umumkasbiy blok fanlaridan yetarli bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishlik talab etiladi.

1.4. Fanni o`qitishda qo`llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va ularning mazmun mohiyati.

Talabalarning "O`qituvchi nutqi madaniyati" fanini o`zlashtirishlari uchun o`qitishning ilg`or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o`zlashtirishda darslik, o`quv va uslubiy qo`llanmalar, amaliy mashg`ulot ishlanmalari, tarqatma materiallar, elektron materiallardan foydalaniladi.

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta`limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo`llanilishi nazarda tutilgan.

Har bir mavzu yakunida axborot va pedagogik texnologiyalari keltirilgan hamda ularni qo`llash yuzasidan aniq tavsiyalar mazkur fandan ishlab chiqilgan o`quv-uslubiy majmua(O`UM)da bayon etilgan.

«O`qituvchi nutqi madaniyati» fanining *ma`ruza mashg`ulotlarida* ma`lumotlarni ko`rgazmali taqdim etish usullari va vositalari:

insert jadvali:

- mustaqil o`qish, ma`ruza tinglash jarayonida olinadigan ma`lumotlarni yaxlit bir tizimga keltirishga imkoniyat yaratadi.
- oldindan olingan ma`lumotni yangisi bilan o`zaro bog`lash qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Klaster (Klaster - tutam, bog`lash):

Ma`lumot xaritasini tuzish va vositasi-barcha fikr konstitutsiyasini fokuslash va aniqlash uchun asosiy omil atrofida g`oyalarni yig`ish.

Toifali jadval:

Toifa - mavjud holat va munosabatlarni aks ettiradigan belgi (umumiy).

- ajratilgan belgilarga ko`ra olingan ma`lumotlarni birlashtirishni ta`minlaydi;
- tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

Kontseptual jadval:

O`rganilayotgan xodisa tushuncha, qarash, mavzu va shu kabilarni ikki va undan ortiq jihat bo`yicha taqqoslash imkonini beradi. Tizimli mushohada qilish, ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko`nikmasini rivojlantiradi.

BBB jadvali:

Bilaman, Bilishni xoxlayman, Bildim

- matn (mavzu, bo`lim) bo`yicha tadqiqot ishlari olib borish imkonini beradi;
- tizimli mulohaza kilish, tarkibga ajratish ko`nikmalarini beradi.

T-jadval:

Bita kontseptsiya (ma`lumot)ning jihati o`zaro solishtirish (ha/yuk, ha/qarshi). Tanqidiy mushohada rivojlantiradi.

BLOT-tahlil jadvali:

Tashkilot resurslari holatini tahlil qilish va baholash vositasi. Bu kabi tahlilni tashkilot bo'yicha umumiy tarzda yoki alohida muammo yoki loyixa bo'yicha ham amalga oshirish mumkin. Tizimli mushohada kilish, taqqoslash, solishtirish, taxlil va sintezni amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Loyihalash metodi:

Kelajakda amalga oshiriladigan ishlarni rejalashtirish bo'lib, loyiha, ma'lum bir hisob-kitob, chizma va boshqalarga asoslangan holda tavsiflash, bayon qilish shaklida mujassamlashgan g'oya, fikr.

« O`qituvchi nutqi madaniyati » fanining amaliyot mashg'ulotlarida muammoni jamoali tarzda xal etishning usullari va vositalari:

Aqliy hujum:

Bu uslubda qo'yilgan savol, maummo, masalani butun guruh bilan birgalikda muhokama kilinadi. U talabalarni o'quv jarayonida mashg'ulotlar faol qatnashishlarini topish va bayon qilish chog'ida boshqalarni ham fikrini jalb qilish, o'z fikrlarini aytishga yo'naltiruvchi metoddir.

Bahs:

O'z fikrini ifoda etishni xoxlovchilar orasida biron bir munozarali masalani muhokama kilish, xaqiqatni aniqlash va to'g'ri qarorni qabul qilish.

Muzokaralar:

Eshitish aniq tashkil etilgan ikki tomon fikrlari almashinuvi.

Pinbord texnikasi:

Muammoni xal etish buyicha g'oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Delfi texnikasi:

Muammoni hal etishning jamoali baholash va tanlash imkonini beradi.

6-6 texnikasi:

Qo'yilgan muammoni xal etish buyicha jamoa tomonidan ifodalangan variantlardan eng yaxshisi baholanadi va tanlanadi, keyin quyidagi xarakterlar algoritmgga muvofiq ma'lum belgilar bo'yicha guruhlanadi.

Keys stadi:

Talabalarni qaror qabul qilishga o'rgatishda muammoli vaziyat hosil kilib, uni echishni o'rganish metodi.

Shuningdek, «« O`qituvchi nutqi madaniyati » fanining amaliyot mashg'ulotlarida kompyuter dasturlaridan (Microsoft PowerPoint, Web Trust, SYS Trust), slaydlardan, multimedia ta'lim vositalaridan, INTERNET sahifalari va tizimlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabalarga ushbu fanni o'zlashtirishda mavjud o'quv adabiyotlaridan, testlar majmuasi va boshqa manbalardan foydalanish tavsiya etiladi.

1.5. Bakalavriatning barcha ta'lim yo'nalishlari uchun

№	Mavzular nomi	Jami soat	Shu jumladan:		
			ma'ruza	amaliy mashg'ulot	mustaqil ta'lim
1	2	3	4	5	6
1.	“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari.	6	2	2	2
2.	Nutqning kommunikativ sifatlari. O`qituvchi nutqining to`g`riligi	6	2	2	2
3.	O`qituvchi nutqining aniqligi	6	2	2	2
4.	O`qituvchi nutqining mantiqiyliigi	8	2	2	4
5.	O`qituvchi nutqining sofligi	8	2	2	4
6.	O`qituvchi nutqining boyligi	6	2	2	2
7.	O`qituvchi nutqining jo`yaliligi va ifodaliligi	12	4	4	4
8.	O`qituvchining nutq texnikasi	8	2	2	4
	Jami:	60	18	18	24

2. O`QUV MATERIALLARI MAZMUNI

2.1. MA`RUZA MASHG`ULOTLARI

2.1.1. “O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining tuzilishi, maqsadi va vazifalari (2 soat)

«O`qituvchi nutqi madaniyati» fanining tuzilishi, maqsadi va vazifalari. Nutq madaniyati va boshqa fanlar. « O`qituvchi nutqi madaniyati » fanining manbalari.

Iqtisodiyotning rivojida tilning vazifalari: iqtisodiy bilimlarni avloddan-avlodga yetkazish, iqtisodchilar o`rtasida o`zaro fikr almashish vositasi, iqtisodiy tafakkur yuritish quroli.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Muammoli topshiriqlar, blits-savol, aqliy hujum, kompyuter, slaydlar, multemediya apparatidan “birgalikda o`rganish” usuli, texnikalari: insert, savol-javoblar, prezentatsiyadan foydalaniladi.*

[A1, A 2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A11; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q20]

2.1.2. Nutqning kommunikativ sifatlari. O`qituvchi nutqining to`g`riligi (2 soat)

Nutqning madaniyligini ta`minlashda to`g`rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, joyanlik kabi kommunikativ sifatlarning ahamiyati. Nutqning to`g`riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori ekanligi, adabiy me`yor va uning ahamiyati. Adabiy me`yorning barqaror hodisa ekanligi. O`qituvchi nutqining to`g`riligi nutq madaniyati haqidagi ta`limotning bosh masalasidir.

O`zbek adabiy tili me`yorlari: leksik me`yorlar, talaffuz me`yorlar, so`z yasash me`yorlari, morfologik me`yorlar, sintaktik me`yorlar, uslubiy me`yorlar.

Adabiy me`yor va badiiy nutq.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Ma`ruza, vizuallashtirish, aqliy hujum, muhokama, texnikalari: test o`tkazish, B/B/B jadvali*

[A1, A2, A5, A6, A7, A9, A11, A12; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q18]

2.1.3. O`qituvchi nutqining aniqligi (2 soat)

O`qituvchi nutqida aniqlik va muloqot. Fikrning aniq va ravshanligi. Nutqiy ifoda va fikr. Nutq va voqelik o`rtasidagi munosabat. O`qituvchi nutqining aniqligi va so`z tanlash. So`zning leksik ma`nosi va nutq. O`qituvchi nutqida sinonimlarning ahamiyati. Nutq tuzishda polisemantik, shakldosh so`zlar, tarixiy va arxaik so`zlarning ahamiyati.

Yunon donishmandi Aristotel, rus adibi L.N.Tolstoy, fransuz faylasufi Mishel Manten, fransuz adibi Anatil Franslarning nutq aniqligi haqida fikrlari

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, insert, birgalikda o`qish, aqliy hujum, muammoli topshiriqlar usuli, texnikasi: “o`yla-ishla va juftlikda fikr almash”, “ko`p-ko`p”, blits-so`rov, grafik organayzer.*

[A1, A2, A3, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q24]

2.1.4. O`qituvchi nutqining mantiqiyliigi (2soat).

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to`g`ri va to`liq anglanishi uchun zaruriy bo`lgan sifatlaridan biri ekanligi, mantiqiylikning, nutqning to`g`riligi va aniqligiga aloqadorligi. Mantiqiylikda so`zlar va gaplar o`rtasidagi semantik aloqalar. Narsa va tushuncha mantiqiyliigi. O`qituvchi mantiqiy nutq tuzishda ijodiy matnlardan foydalanishi. O`qituvchi o`z nutqida mantiqiylikka erishish uchun gapdagi so`zlar tartibiga e`tibor berish. Tildagi funksional sintaktik vositalar, jumalar va abzatslar o`rtasidagi bog`liqlik.

Nutqning mantiqiyliigi fikr izchilligi, tushuncha va fikrlar o`rtasidagi munosabatda namoyon bo`lishi.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Ma`ruza, muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, texnikasi: "o`yla-ishla va fikr almash", blits-so`rov, grafik organayzer: klaster, "Savol-javob" jadvali, sinkveyn.*

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13 Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q20, Q24]

2.1.5. O`qituvchi nutqining sofligi (2 soat).

Nutqning sofligi nutq va jamiyat munosabatida namoyon bo`lishi. O`qituvchi nutqining sofligi insonning ma`naviy-ma`rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko`rsatkichdir. O`qituvchi nutqining sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar: shevaga xos so`z, ibora, grammatik shakllar, urg`u va talaffuz; o`rinsiz qo`llangan xorijiy so`zlar (varvarizmlar); jargon va argolar; dag`al va haqorat so`zlar (vulgarizmlar); parazit so`zlar; idoraviy so`z va iboralar; kanselarizmlar.

Sof nutqni shakllanishida badiiy asarlarning o`rni.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, insert, aqliy hujum, texnikalar: blits so`rov, klaster, insert.*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q18, Q19, Q20]

2.1.6. O`qituvchi nutqining boyligi (2 soat).

Nutqning boyligi til unsurlaridan qay darajada foydalanishga bog`liq ekanligi. Nutq tuzishda o`qituvchining til vositalaridan foydalanish imkoniyati va nutqiy zahirasi. O`qituvchining so`z boyligi. O`qituvchining so`z boyligini oshirishda badiiy asarlar, lug`atlarning o`rni. Nutq boyligi va sintaktik vositalari.

Nutqning boyligi mehnat, izlanish, ko`p o`qishga bog`liqdir.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, texnika: prezentatsiya, aqliy hujum, grafik organayzer: klaster*

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q19, Q20]

2.1.7. O`qituvchi nutqining jo`yaliligi, nutqning ifodaliligi (4 soat).

O`qituvchi nutqning jo`yaligi nutqiy muloqotda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Jo`yalik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday aloqalantirish va bir-biri bilan bog`lashki, buning natijasida nutq konkret muloqotning maqsadi va sharoitlariga javob beradigan tarzda tarkib topadi. O`qituvchi nutqining yozma, og`zaki shakllarida joyanlikning o`rni. Jo`yalik va nutqiy vaziyat.

O`qituvchi nutqining ta`sirchanligini ta`minlashda ifodalilikning o`rni. Ifodalilik tinglovchi yoki o`quvchi diqqatini o`ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatdir. Nutqning ifodaliligining turli uslublarda o`ziga xos ekanligi. Ifodalilikni yuzaga kelishida tovush qurilishi, so`z xazinasini, morfologik shakllar, sintaktik birliklar, intonasiyaning o`rinliliigi.

O`qituvchi nutqining ifodaliligini tanlashda frazeologizmlarning, ko`chma ma`noli so`larning, tasviriy vositalarning ahamiyati.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Mualliflik ma`ruzasi, B.B.B jadvali, klaster, blits so`rov*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.1.8. O`qituvchining nutq texnikasi (2 soat).

Nutq texnikasi o`qituvchi nutqi madaniyatining muhim qismidir. Nutq texnikasi – ovoz sifati, to`g`ri nafas olish, aniq taffuz, aniq leksiya. O`qituvchining nutq texnikasi o`quvchilar uchun etalon namuna ekanligi. O`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar: nuqsonli ovoz, tovushni noaniq aytish, nafas olishdagi tartibsizliklar.

Nutq texnikasini takomillashtirishda fonetika fonologiyaning ahamiyati.

Qo`llaniladigan pedagogik va axborot texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, sinkveyn, slayd.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2. AMALIY MASHG`ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO`YICHA KO`RSATMALAR

2.2.1. “O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining tuzilishi, maqsadi va vazifalari (2-soat)

- 1.«O`qituvchi nutqi madaniyati» fanining maqsadi va vazifalari.
- 2.Til va nutq birligi. Ularning o`xshash va farqli jihatlari.
- 3.Til madaniyati va nutq madaniyati. Mutafakkirlarning bu boradagi qarashlari.
- 4.Nutq madaniyatining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Muammoli topshiriqlar, blits-savol, aqliy hujum, kompyuter, slaydlar, multemediya apparatidan “birgalikda o`rganish” usuli, texnikalari: insert, savol-javoblar, prezentatsiyadan foydalaniladi.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8; Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.2. Nutqning kommunikativ sifatlari. O`qituvchi nutqining to`g`riligi (2 soat)

1. Nutqning kommunikativ tasnifi.
2. O`qituvchi nutqining to`g`riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning asosi ekanligi.
3. O`qituvchi nutqining to`g`riligini buzuvchi vositalar.
4. Nutqning to`g`riligi buzilgan matnlar bilan ishlash.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Ma`ruza, vizuallashtirish, aqliy hujum, muhokama, texnikalari: test o`tkazish, B/B/B jadvali*

[A1, A2, A5, A6, A7, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.3. O`qituvchi nutqining aniqligi (2 soat).

1. O`qituvchi nutqining aniqligi va muloqot.
2. O`qituvchi nutqida aniqlik va so`z tanlash.
3. Nutq tuzishda polisemantik, shakldosh, tarixiy va arxaik so`zlarning ahamiyati.
4. O`qituvchi nutqining aniqligi buzilgan matnlar bilan ishlash.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Vizual ma`ruza, insert, birgalikda o`qish, aqliy hujum, muammoli topshiriqlar usuli, texnikasi: "o`yla-ishla va juftlikda fikr almash", "kop-kop", blits-so`rov, grafik organayzer.*

[A1, A2, A3, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q14, Q15, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.4. O`qituvchi nutqining mantiqiyliigi (2soat).

1. Shakl va mazmun birligi - mantiqiy nutqning zaruriy jihati.
2. O`qituvchi nutqining mantiqiyliigi va izchilligining uzviy bog`liqligi.
3. O`qituvchi mantiqiy nutq tuzishda ijodiy matn yaratishning ahamiyati.
4. O`qituvchi nutqining mantiqiyliigi va izchilligini ta`minlovchi vositalar.

Qo`llaniladigan ta`lim texnologiyalar: *Ma`ruza, muammoli usul, suhbat, aqliy hujum, texnikasi: "o`yla-ishla va fikr almash", blits-so`rov, grafik organayzer: klaster, "Savol-javob" jadvali, sinkveyn.*

[A1, A2, A5, A6, A7, A 8, A9, A11, A12; Q13, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.5. O`qituvchi nutqining sofligi (2 soat).

1. Nutq sofligining nutqiy munosabatlarda namoyon bo`lishi.
2. O`qituvchi nutqining sofligini ta`minlash.
3. O`qituvchi nutqining sofligini buzuvchi omillar: varvarizm, jargon va argolar, vulgarizmlar, parazit so`zlar, kanselarizmlar.
4. O`qituvchi nutqining sofligi va tozaligi buzilgan matnlar bilan ishlash.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalar: *Vizual ma'ruza, insert, aqliy hujum, texnikalar: blits so'rov, klaster, insert.*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q18, Q19, Q20]

2.2.6. O`qituvchi nutqining boyligi (2 soat).

1. Nutqning boyligi. O`qituvchining so`z boyligi.
2. Nutq tuzishda o`qituvchining til vositalaridan foydalanish imkoniyati va nutqiy zahirasi.
3. O`qituvchining nutq boyligi va sintaktik vositalari.
4. Badiiy nutqda nutq boyligining aks etishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalar: *Vizual ma'ruza, texnika: prezentatsiya, aqliy hujum, grafik organayzer: klaster*

[A1, A2, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q15, Q16, Q17, Q19, Q20]

2.2.7. O`qituvchi nutqining jo`yaligi va ifodaliligi (4 soat).

1. O`qituvchi nutqida jo`yalilik va nutqiy vaziyat.
2. O`qituvchi nutqining ta`sirchanligini ta`minlashda ifodalilikning o`rni.
3. Badiiy adabiyotda, matbuotda jo`yalik va ifodalilikning aks etishi.
4. Matbuotda nutqiy ifodalilikning aks etishi.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalar: *Mualliflik ma'ruzasi, B.B.B jadvali, klaster, blits so`rov*

[A1, A2, A3, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q15, Q16, Q17, Q18, Q19, Q20]

2.2.8. O`qituvchining nutq texnikasi (2 soat).

1. Nutq madaniyatining kasbiy faoliyatdagi o`rni.
2. Nutq texnikasi o`qituvchi nutqi madaniyatining muhim qismi.
3. O`qituvchi nutq texnikasining o`ziga xos xususiyatlari.
4. O`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar: nuqsonli ovoz, tovushni noaniq aytish, nafas olishdagi tartibsizliklar

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalar: *Vizual ma'ruza, sinkveyn, slayd.*

[A1, A2, A3, A4, A5, A6, A7, A8, A9, A11, A12; Q13, Q14, Q15, Q16, Q17, Q18, Q20]

3.1 MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Mustaqil ta'lim talabaning bajaradigan ilmiy izlanishi bo'lib, nutq madaniyatini o'rganishda mavzularni to'laroq o'zlashtiradi.

Mustaqil ish uchun ajratilgan soatlarni talaba o'zlashtirish uchun ularga referat yoki mustaqil ish shaklida mavzular taqsimlab beriladi. Mustaqil ta'limning

mavzulari talabalar uchun mustaqil o'zlashtirishlari shart bo'lgan mavzular va amaliy mashg'ulotlardan tashkil topgan. U talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash va kengayishiga, o'qitilayotgan va o'tilgan mavzularni kengroq va chuqurroq o'rganishda hamda dunyoqarashini yana ham kengayishiga yordam beradi. Shuningdek, mustaqil ta'limga ta'limga mo'ljallangan topshiriqlar, ma'ruza, amaliy, seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishga qaratilgan. Bundan tashqari talabalar, ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirishlari natijasida ilmiy maqolalar tayyorlashlari mumkin, hamda ilmiy-amaliy konferentsiyalarda ilmiy ma'ruzalar qilishlari mumkin. Referat, taqdimot, ma'ruzalar kafedra tomonidan belgilab berilgan hajmda bo'lishi kerak. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distantion) ta'lim.

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fani bo'yicha mustaqil ta'limining mazmuni

Ishchi o'quv dasturining mustaqil ta'limga oid bo'lim va mavzulari	Mustaqil ta'limga oid topshiriq va tavsiyalar	Bajarish muddatlari	Hajmi(soatda)
So'z qudratli va buyuk vosita	Taqdimot tayyorlash	Mavzu yakunida	
Mutafakkirlarning til, nutq va so'z haqidagi qarashlari.	Test va slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	
Yoshlarda yuksak ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda nutq madaniyatining o'rni	Test va slayd tayyorlash	Oraliq baholashda	
O'qituvchi nutqining o'ziga xos xususiyatlari	Test va slayd tayyorlash	Mavzu yakunida	
Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi kerak. Nutqiy etiketni o'rganish.	Taqdimot va slayd tayyorlash	Mavzu jarayonida	
Badiiy asarda nutq madaniyati masalalari: Abdulla Qahhorning so'z tanlash mahorati	Slayd tayyorlash	Amaliy mashg'ulot davomida	
Yunon donishmandi Aristotel, rus adibi L.N.Tolstoy, fransuz faylasufi Mishel Manten,	Referat tayyorlash	Oraliq baholashda	

fransuz adibi Anatil Franslarning nutq aniqligi haqidagi fikrlari			
Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat va Abdulla Qodiriy asarlarida notiqlik, milliy muomala madaniyati masalalari.	Taqdimot tayyorlash	Oraliq baholashda	
Nutq madaniyatini egallash yo'llari. Ommaviy axborot vositalarining til xususiyatlari.	Referat taqdimot	Mavzu jarayonida	
Kaykovus suxandonlik xususida	Taqdimot tayyorlash	Mavzu yakunida	

3.2. Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanini o`qitishda multimedia jihozlaridan foydalanib, mavzular bo`yicha ishlab chiqilgan Power Point formatidagi jadvallardan, kompyuterdan, audio va video jihozlardan, dioproektor va kodoskoplardan foydalaniladi. Shuningdek, ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar davomida turli xil falsafiy tushunchalar va ularning xarakteristikalarini tavsiflovchi tarqatma materiallar, tahliliy jadvallar, slaydlar hamda ko`rgazmali qurollar qo`llaniladi.

Bundan tashqari quyidagilar ham qo`llaniladi:

- didaktik materiallar tayyorlash;
- delfa metodini qo`llash orqali ko`nikmalar shakllantirish;
- verbal ifodalash;
- “B/B/B” metodi;
- insert metodi;
- kontseptual metod;
- “CASE STUDY (keys)” metodi va boshqalar.
-

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanini o`rganishda talabalar dasturiy axborot tizimlari orqali falsafaning dolzarb yangiliklaridan xabardor bo`lishlari va o`qish jarayonida ulardan foydalanishlari mumkin.

4. REYTING BAHOLASH TIZIMI

4.1. Reyting nazorati jadvali

Bakalavriatning barcha ta'lim yo'nalishlari uchun

Рейтинг назорати турлари	Семестр хафталари																		Аттестация	Баллар	Саралаш баллари
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	20			
ЖН	0-5			0-6			0-6			0-6			0-6			0-6				0-35	39
ОН	0-17									0-18										0-35	
Σ (ЖН+ОН)	0-70																			0-70	
ЯН																			0-30	0-30	0
Жами	0-70																		0-30	0-100	56

4.2. JN bo'yicha baholash mezonlari

JN amaliy mashg'ulotlar o'zlashtirilishi bo'yicha yuqoridagi jadvalda keltirilgan semestr haftalari kesimida har bir mashg'ulotda talabani o'zlashtirishiga mos ravishda mezon asosida jami 0-35 ballgacha jamlanishi belgilangan.

4.3. ON bo'yicha baholash mezonlari

ON ma'ruza mashg'ulotlari materiallari asosida bir semestr davomi 2 marta o'tkaziladi. ON bo'yicha talaba jami 0-35 ballgacha jamlashi mumkin.

Fanning o'qitilgan mavzulari bo'yicha o'zlashtirish nazorati turli shakllarda o'tkazilishi mumkin. Mazkur fandan ON test sinovi shaklida o'tkazilganda testlar soni va ularga mos ravishdagi mezon 0-35 ball kesimida kafedra tomonidan alohida belgilanadi.

4.4. Σ (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

Σ (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ (JN+ON)
	JN	ON	
“O'qituvchi nutqi madaniyati” fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimining o'rni, insonning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabati bilan bog'liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, falsafiy tushunchalar haqida ijodiy fikrlaydi, falsafiy qonun va kategoriyalarning mohiyatini tushuntirib beradi, mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini	30-35	30-35	60-70

tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.			
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda "O'qituvchi nutqi madaniyati" fani haqida tasavvurga ega bo'ladi, mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-59
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda fan bilan bog'liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20 (19) 24	20-24	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda fan bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.5. YaN ni baholash mezonlari

YaN "Yozma ish" yoki "Test sinovi" shaklida (0-30) ballgacha belgilangan mezon asosida yoki majmual shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi. YaN og'zaki shaklda o'tkazilganda 0-30 bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq belgilangan:

YaN bo'yicha baholash mezonlari	YaN
O'qituvchi nutqi madaniyati fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda nutqi madaniyati va notiqlik san'ati tarixini biladi, nutqning kommunikativ tasnifi bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etadi, til va nutq haqida bilimlarga ega bo'ladi, xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda til va nutq haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	50-59
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulot mavzulari bilan bog'liq masalalar bo'yicha mavzu savollari mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda mavzu savollari bilan bog'liq masalalar yuzasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-38

5. DASTURNING INFORMATSION-KOMMUNIKATSION VA USLUBIY TA'MINOTI

Tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ta'limning zamonaviy, xususan, interfaol metodlari pedagogik va informatsion-kommunikatsion (mediata'lim, amaliy dastur, paketlari, taqdimot, elektron-didaktik) texnologiyalari majmual tarzda qo'llanilishi nazarda tutilgan. Jumladan, kompyuter dasturlari yordamida audit o'tkazish uchun talab etiladigan manbalar nazariy-amaliy jihatdan shakllantiriladi va olingan ma'lumotlar o'rganiladi. Buxgalteriya hisoboti va moliyaviy ko'rsatkichlarni avtomatlashtirish borasida amaliy dasturiy paketlardan

(“1C Predpriyatie”, “1C Buxgalteriya”, “BEM”, “Audit-ekspert” va hokazo) shuningdek, EXCEL jadval proessori kabilardan foydalaniladi.

6. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Mahmudov N. O`qituvchi nutqi madaniyati. Darslik. O`zbekiston milliy kutubxonasi. T.: 2009. 188 b.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo`ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati T: “IQTISOD-MOLIYA”, 2006. 132 b.
3. Ona tili – davlat tili. T: “Adolat”, 2004. 80 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud ahloq. T: “O`qituvchi”, 1992. 160 b.
5. Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1-qism. T: “Navro`z”, 1997. 95
6. Begmatov E. O`zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doir // “O`zbek tili va adabiyoti”, 2006. №4, 3-9 betlar.
7. Jamolxonov H.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. T: “Talqin”, 2005. 272 b.
8. Jumaxo`ja N.A. Istiqlol va ona tilimiz. T: “Sharq”, 1998. 160 b.
9. Yo`ldoshev M. Cho`lpon so`zining sirlari. T: “Ma`naviyat”, 2002. 80 b.
10. Kaykovus. Qobusnoma. To`ldirilgan 2-nashri. T: “Istiqlol”, 1994. 173 b.
11. Mahmudov N. Ma`rifat manzillari. T: “Ma`naviyat”, 1999. 64 b.
12. Qo`ng`urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T: “O`qituvchi”, 1992. 160 b.

Qo`shimcha adabiyotlar

13. Navoiy. Asarlar. 15-tomlik. 14-tom. T: G`G`ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.
12. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. T: “Ma`naviyat”, 2003. 112 b.
13. Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari (O`zbek tili 5-doimiy anjumani tezislari). T: “Sharq”, 1999. 256 b.
14. Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV-jild. T: «Ma`naviyat», 2006. 336 b.
15. Abdurahmonov X. Mahmudov N. So`z estetikasi. T.: Fan 1981, 38 b.
16. Nazarov K. Usmonov S. Tohirov O`. Yuristning nutq madaniyati. T.: 2003.
17. Ortiqov A., Nutq madaniyati va notiqlik san`ati. T.: 2002.
18. Qudratov T. Nutq madaniyati asoslari. T.: O`qituvchi, 2003.
19. Husanov N. Nutq madaniyati fanidan ma`ruza matnlari. T.: TMI, 2001, 106 b
20. Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T.: «Adolat», 2005. 90 b.
21. Mirtojiev M. Mahmudov N. Til va madaniyati T.: O`zbekiston, 1992.
22. Rustamov A. So`z xususida so`z. T.: «Yosh gvardiya», 1987, 160 b.
23. Meliboyev A. Nutq va mahorat. – T.: «O`zbekiston adabiyoti va san`ati». 2005-y, 21 oktabr.
24. Internet saytlari
 - www.tfi.uz
 - www.dersimiz.com
 - www.altinmiras.com
 - www.ziyonet.uz

Ta'lim texnologiyasi

1-mavzu	“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining mazmuni, maqsadi va vazifalari
----------------	--

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50 tagacha
Mashg'ulot shakli	Kirish ma'ruzasi Ommaviy, jamoaviy
Ma'ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> ● 1. “O`qituvchi nutqi madaniyati” fanining maqsadi va vazifalari. ● 2. Nutq madaniyati tarixidan. ● 3. Nutq madaniyati muammosining asoslanishi. ● 4. Nutq madaniyati va til madaniyati.
<p>O`quv mashg'ulotining maqsadi: o`quv fani bo`yicha umumiy tushuncha berish, nutq madaniyati fanining o`rganish ob`ekti haqida ma'lumot berish. Til va nutq munosabati, nutq madaniyati hamda til madaniyati haqida tushunchalar, ma'lumotlar berish.</p>	
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> ● fanning to`zilishini sharhlash; ● fan miqyosidagi metodik va tashkiliy ishlarning xususiyatlari, muddati va baholash mezonlari bilan tanishtirish; ● fanning ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini aniqlashtirish; ● fanning asosiy kategoriyalarini ajratib ko`rsatish; ● fanning metodologik asoslarini ochib berish; ● fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini bayon etish. 	<p style="text-align: center;">O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> ● fanga ajratilgan umumiy soatlar, haqida tushunchaga ega bo`ladilar; ● fanning ob`ekti, predmeti, maqsad va vazifalarini bilib oladilar; ● fanning asosiy kategoriyalarini o`zlashtiradilar; ● fanning metodologik asoslariga doir tasavvurlar hosil qilinadi; ● fanning boshqa fanlar bilan aloqadorligini taqqoslaydilar.
Ta'lim berish usullari	Ko`rgazmali ma'ruza, suhbat
Ta'lim berish metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, aqliy hujum, suhbat
Ta'lim berish vositalari	O`quv qo`llanma, proyektor, elektron ishlanma
Ta'lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya

1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Kirish ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar.
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv fanining nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1 ilova).</p> <p>1.2. Birinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (2- ilova).</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Tinglaydilar</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. O'qituvchi nutq madaniyati fanini o'rganish obyekti.</p> <p>2.3. Til va nutq munosabati, nutq madaniyati hamda til madaniyati haqida tushunchalar, ma'lumotlar berish.</p> <p>2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va</p>	<p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>O'tilgan axborotni analiz-sintez qilib, tizimlashtiradilar.</p> <p>Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'lishadi.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>

	mustahkamlash maqsadida savollar beradi.	
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1.Mavzu bo'yicha talabalarda yo`zaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ma'lumot egallash uchun "Mutafakkirlarning til, nutq va so`z haqidagi qarashlari" mavzusini tayyorlaydilar.	Savollar beradilar Uyga vazifani yozib oladilar Topshiriqni yozib oladilar.

1- ilova

1.3 "O`qituvchi nutqi madaniyati" fanining boshqa fanlar bilan aloqasi



1.4.T-sxema jadvalini to`ldiring.

MADANIYATLI SHAXS DEB KIMNI AYTISH MUMKIN ?	AKSINCHACHI?

1.5.FSMU texnologiyasi asosida quyidagi savolga javob bering

Nutq rivojlanishiga qanday omillar ta`sir qiladi?

F FIKRINGIZNI BAYON ETING		
S FIKRINGIZNING BAYONIGA BIROR SABAB KO`RSATING		
M KO`RSATILGAN SABABNI TUSHUNTIRUVCHI MISOL KELTIRING		
U FIKRINGIZNI UMUMLASHTIRING		
<table border="1"><tr><td data-bbox="204 2004 357 2049"></td><td data-bbox="357 2004 1326 2049"></td></tr></table>		

2- mavzu	Nutqning kommunikativ sifatlari. Nutqning to`g`riligi
---------------------	--

Ta`lim berish texnologiyasi

Mashg`ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50 tagacha	
Mashg`ulot shakli	Ma`lumotli ma`ruza Ommaviy, jamoaviy	
Ma`ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • 1. Madaniy nutq • 2. Nutqning kommunikativ sifatlari • 3. Nutqning to`g`riligi • 4. O`zbek adabiy tili me`yorlari 	
<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Nutqning madaniyligini ta`minlashda to`g`rilik kommunikativ sifatining ahamiyati. Nutqning to`g`riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarining poydevori ekanligi. Adabiy me`yor va uning ahamiyati. Leksik me`yor lug`atlarda aks etishi, leksik me`yor va tilning ichki imkoniyatlari. Adabiy talaffuz me`yorlari. Intonatsiya.</p>		
Pedagogik vazifalar:	O`quv faoliyati natijalari:	
<ul style="list-style-type: none"> • Madaniy nutqning o`ziga xos xususiyatlarini ochib berish • Nutqning kommunikativ sifatlari xususida to`xtalib o`tish • Nutqning to`g`riligi haqida tushuncha berish; • Adabiy til me`yorlari haqida ma`lumot berish; 	<ul style="list-style-type: none"> • Nutqning kommunikativ sifatlari haqida tasavvurga ega bo`ladilar • Nutqning to`g`riligi haqida tushunchaga ega bo`ladilar; • Nutqning to`g`riligi xususiyatlarini bilib oladilar; • Adabiy til me`yorlari haqida tushunchaga ega bo`ladilar 	
Ta`lim berish usullari	Ma`ruza, suhbat	
Ta`lim berish metodlari	Ma`ruza, tushuntirish, aqliy hujum, B/B/B metodi.	
Ta`lim berish vositalari	O`quv qo`llanma, proyektor, elektron ishlanma	
Ta`lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	

2.2.Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Ma'lumotli ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini to'zib chiqish.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi (1 ilova).</p> <p>1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>1.3. B/B/B metodining "Bilaman" ustunini to'ldirishni so'raydi.</p> <p>1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>Savollar bilan murojaaaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar.</p> <p>B/B/B metodining "Bilaman" ustunini to'ldiradilar.</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. B/B/B metodining "Bilmoqchiman" ustunini to'ldirishni so'raydi.</p> <p>2.2. Mavzu bo'yicha ma'ruza rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi.</p> <p>2.3. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p>	<p>B/B/B metodining "Bilmoqchiman" ustunini to'ldiradilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar.</p>
3. Yakuniy	3.1. B/B/B metodining "Bilib	B/B/B metodining "Bilib

<p>bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>oldim” ustunini to’ldirishni so’raydi. 3.2. B/B/B chizmalarini o’qitish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. 3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.4. Mavzu bo’yicha talabalarda yo`zaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.5 Mustaqil ish uchun har bir nutqning kommunikativ sifatlariga misollar to’plab kelish vazifasi beriladi. “Orfoepik, fonetik, aktsentologik, grammatik normalar” ga misollar to’plash.</p>	<p>oldim” ustunini to’ldirib, tugatadilar va o’z tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydilar. O’z tasavvurlarini boyitadilar va to’ldiradilar. Savollar beradilar Topshiriqni yozib oladilar.</p>
--	---	---

B/B/B JADVALI

B/B/B JADVALI - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo’lim bo’yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. “Mavzu bo’yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo’limlarini to’ldiradilar.
3. Ma’ruzani tinglaydilar, mustaqil o’qiydilar.
4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo’limni to’ldiradilar.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

O`zbek adabiy tili me`yorlari

1. Leksik - semantik me`yor
2. Talaffuz – (orfoepik) me`yor
3. Yozuv (grafika) me`yor
4. Fonetik me`yor
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me`yor
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me`yor
7. So`z yasalish me`yorlari.
8. Imloviy me`yor
9. Uslubiy me`yor
10. Punktuation me`yor

TOPSHIRIQLAR

GURUH №1

1. Leksik - semantik norma.

2. Talaffuz – (orfoepik) norma.

Yuqorida keltirilgan normalarga ta'rif bering va misollar keltiring

GURUH №2

1. Yozuv (grafika) normasi.

2. Fonetik norma.

Yuqorida keltirilgan normalarga ta'rif bering va misollar keltiring

GURUH №3

1. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) norma.

2. Grammatik (morfologik va sintaktik) norma.

Yuqorida keltirilgan normalarga ta'rif bering va misollar keltiring

GURUH №4

1. So'z yasalish normalari.

2. Imloviy norma.

Yuqorida keltirilgan normalarga ta'rif bering va misollar keltiring

GURUH №5

1. Uslubiy norma.

2. Punktuation norma.

Yuqorida keltirilgan normalarga ta'rif bering va misollar keltiring

3-mavzu	Nutqning aniqligi	
Ta'lim berish texnologiyasi		
Mashg'ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50 tagacha	
Mashg'ulot shakli	Ma'lumotli ma'ruza Ommaviy, jamoaviy	
Ma'ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • Nutq aniqligi. • Narsa va tushuncha aniqligi. • Nutq aniqligining ahamiyati 	
<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Nutqning aniqligi – fikrning aniq va ravshanligi. Nutq va voqelik o'rtasidagi munosabat. Nutqning aniqligi va so'z tanlash. So'zning leksik ma'nosi va nutq. Aniq ifodalashda sinonimlarning ahamiyati. Alisher Navoiyning «Muhokamatul lug'atayn» asarlaridagi so'zlar. Nutq tuzishda polisemantik, shakldosh so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlarning ahamiyati. Oybek, Adulla Qahhor, Cho'lpon. Asqad Muhtor, Maqsud Shayxzoda, Abdulla Oripov asarlarida aniqlikning ifodalanishi.</p>		
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Nutqning aniqligi haqida tushuncha berish; • polisemantik, shakldosh so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlar haqida ma'lumot berish; • O'zbek adiblari va ularning asarlari bilan tanishtirish; 	<p style="text-align: center;">O'quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Nutqning aniqligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar; • Polisemantik, shakldosh so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlar ma'lumotga ega bo'ladilar; • O'zbek adiblari va ularning asarlari bilan tanishadilar; 	
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza, suhbat	
Ta'lim berish metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, aqliy hujum, Venn diagrammasi.	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron ishlanma	
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	

3.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	<p>1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Ma'lumotli ma'ro'za uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini to'zib chiqish.</p>	Tinglaydilar, yozib oladilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi</p> <p>1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi.</p> <p>1.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Savollar bilan murojaaaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozib oladilar</p> <p>Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu bo'yicha ma'ro'za rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi.</p> <p>2.2. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar, ozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar.</p>
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Talabalarning polisemantik, shakldosh so'zlar, tarixiy va arxaik so'zlar haqidagi tasavvurlarini</p>	<p>“Venn diagrammasi”ni to'ldiradilar.</p> <p>O'z tasavvurlarini boyitadilar va to'ldiradilar.</p>

	<p>boyitish maqsadida “Venn diagrammasi”ni taqdim etadi.</p> <p>3.2. “Venn diagrammasi” ni namoyish etish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi.</p> <p>3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.</p> <p>3.4. Mustaqil ish uchun «So`z qudratli va buyuk vosita” mavzusini taqdim etadilar.</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>
--	---	---



1-ilova


VENN DIAGRAMMASI

VENN DIAGRAMMASI - 2 va 3 jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo'yish uchun qo'llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Farqli jihatlari





4-mavzu	Nutqning mantiqiyligi
----------------	------------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50 gacha	
Mashg'ulot shakli	Vizual ma'ruza Ommaviy, jamoaviy	
Ma'ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • Narsa va tushuncha mantiqiyligi • Nutq mantiqiyligiga zid holatlar • Matn tuzilishi va nutq mantiqiyligi 	
<p>O'quv mashg'ulotining maqsadi: Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlaridan biri ekanligi, mantiqiylikning, nutqning to'g'riligi va aniqligiga aloqadorligi. Mantiqiylikda so'zlar va gaplar o'rtasidagi semantik aloqalar. Narsa va tushuncha mantiqiyligi. Mantiqiy nutq to'zishda ijodiy matn yaratishning ahamiyati. Nutqning mantiqiylikiga gapda so'z tartibining ta'siri. Tildagi funksional sintaktik vositalar, jumlarlar va abzatslar o'rtasidagi bog'liqlik.</p> <p>Nutqning mantiqiylikiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi vositalarning vaqtli matbuotda berilishi.</p>		
Pedagogik vazifalar:	O'quv faoliyati natijalari:	
<ul style="list-style-type: none"> • Nutqning mantiqiyligi haqida tushuncha berish; • Mantiqiy nutq bilan tanishtirish; • Ijodiy matn haqida ma'lumot berish; • Tildagi funksional sintaktik vositalar bilan tanishtirish; 	<ul style="list-style-type: none"> • Nutqning mantiqiyligi haqida tushunchaga ega bo'ladilar; • Nutqning mantiqiylikiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni bilib oladilar; • Narsa va tushuncha mantiqiyligi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar; 	
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza, suhbat	
Ta'lim berish metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, aqliy hujum	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron ishlanma	
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	

4.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Vizual ma'ro'za uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini to'zib chiqish.	Tinglaydilar, yozib oladilar
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi 1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. 1.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Savollar bilan murojaaaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar. Tinglaydilar, yozib oladilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Mavzu bo'yicha ma'ro'za rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi. 2.2. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yo'zaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.	Savollar beradilar

	3.2 Mustaqil ishlash uchun “Yoshlarda yuksak ma`naviy fazilatlarni shakllantirishda nutq madaniyatining o`rni»mavzusida referat taqdim etiladi.	Vazifani yozib oladilar.
--	---	--------------------------

1-ilova

FSMU texnologiyasi asosida quyidagi savolga javob bering

Nutq mantiqligiga qanday omillar ta`sir qiladi?

F FIKRINGIZNI BAYON ETING	
S FIKRINGIZNING BAYONIGA BIROR SABAB KO`RSATING	
M KO`RSATILGAN SABABNI TUSHUNTIRUVCHI MISOL KELTIRING	
U FIKRINGIZNI UMUMLASHTIRING	

2-ilova

Mavzuni jonlantirish uchun savollar

- 1. Mantiqiy nutq qanday hodisa ekanligini bilasizmi?*
- 2. Nutqning mantiqiyligiga salbiy ta`sir ko`rsatuvchi vositalarni aytib bering*
- 3. Ijodiy matn haqida ma'lumot bering*
- 4. Mantiqiylik nutqning qaysi sifatlari bilan bog`liq?*
- 5. OAV larida nutqning mantiqiyligi buzilgan misollardan keltiring*

5-mavzu	Nutqning sofligi
----------------	-------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi


Mashg'ulot vaqti 4 soat	Talabalar soni 50 tagacha	
Mashg'ulot shakli	Ma'lumotli ma'ruza Ommaviy, jamoaviy	
Ma'ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • Nutqning sofligi • Nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar • Nutqning sofligi va badiiy asarlar 	
<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Nutqning sofligi insonning ma`naviy-ma`rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko`rsatkichdir. Adabiy nutqning sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar: shevaga xos so`z, ibora, grammatik shakllar, urg`u va talaffuz; o`rinsiz qo`llangan xorijiy so`zlar (varvarizmlar); jargon va argolar; dag`al va haqorat so`zlar (vulgarizmlar); parazit so`zlar; idoraviy so`z va iboralar; kanselyarizmlar. Nutqning sofligini buzuvchi unsurlarning badiiy adabiyotda va matbuoatda berilishi.</p>		
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> •Nutqning sofligi haqida ma'lumot berish; •Nutqning tozaligi. Nutq sof chiqishida xalaqit beradigan unsurlar bilan tanishtirish; 	<p>O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> •Nutqning tozaligi. Nutq sof chiqishida xalaqit beradigan unsurlar bilan tanishadi va ularni sharhlab beradi; •Badiiy adabiyotda nutqning sofligi buzilgan matnlar bilan ishlaydilar 	
Ta'lim berish usullari	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat	
Ta'lim berish metodlari	Loyihalash texnologiyasi, guruhlarda ishlash	
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, proyektor, elektron ishlanma	
Ta'lim berish sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	

5.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'lumotli ma'ro'za uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Mavzuni o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi.	Tinglaydilar
	1.2. Ikkinchi mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutlayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbliligini asoslaydi.	Tinglaydilar
	1.3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonini bilan tanishtiriladi (1-ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda tezkor-so'rov o'tkazib talabalarni faollashtiradi. 1.5. Talabalarga bugungi dars gruruhlariga bo'lingan holda kechishini bildiradi.	Tinglaydilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Har bir slaydni alohida izohlaydi. 2.3. Slaydning zaruriy nuqtalarini talabalarga yozdirib boradi.	Tinglaydilar, yozadilar. O'tilgan axborotni analiz-sintez qilib, tizimlashtiradilar.

	<p>2.4. Talabalarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash maqsadida ularga savollar beradi.</p> <p>2.5. Kursni 6 ta guruhga bo'ladi, ularni talabalar takliflari asosida nomlaydi. Har bir guruhga berilgan topshiriq asosida taqdimot tayyorlashini aytadi.</p> <p>2.6. Mavzu bo'yicha tayyorlangan topshiriq varaqalarini tarqatadi. (1-ilova).</p> <p>2.7. Guruhlarga topshiriqni bajarishda yordam beradi. Taqdimot materiallari to'liq va to'g'ri bo'lishini ko'zatadi.</p> <p>2.8. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Guruh sardorlari taqdimotini tashkillashtiradi. Aniqlik kiritish lozim bo'lsa, sardorni to'xtatadi, savollar beradi, muhokamasini kursga havola qiladi.</p> <p>2.9. Mavzu asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirok etgan talabalarni baholaydi va guruhlariga umumiy ball qo'yadi.</p>	<p>Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.</p> <p>Guruhlarga bo'linadilar.</p> <p>Fikr-mulohaza yuritadilar.</p> <p>Interfaol muloqotda ishtirok etadilar.</p> <p>O'z fikrlarini boshqalar bilan o'rtoqlashadilar.</p> <p>Fikr-mulohaza yuritadilar.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Mustaqil ishlash uchun nutqning sofliги buzilgan misollar to'plash vazifasi topshiriladi.</p>	<p>Savollar beradilar. Tinglaydilar.</p> <p>Uyga vazifani yozib oladilar.</p>

MA'LUMOT UCHUN MATERIAL 1. "Pinbord" texnikasi bilan tanishish



"Adabiy til me'yorlari" so'z birikmasiga "Pinbord" tuzing

	gor	xni	sh

1. Axborotni kategoriyalarga bo'lishning yagona usuli yo'q.
2. Bir kichik guruhdagi kategoriyalarga bo'lish ikkinchisidan farqlanishi mumkin.
3. Talabalarga ilgaridan bo'lish kategoriyalarini berish kerak emas: bu ularning mustaqil tanlovi bo'lsin.
4. Kategorial jadval natija sifatida emas, jarayon sifatida muhim.

”Adabiy til me’yorlari” so`z birikmasiga kategorial jadval tuzing

Til	Davlat	Ma’naviyat

3. “So`z ustasi” texnikasi bilan tanishing

“So`z ustasi” o`yini

Unda talaba yoki guruhlar bir-birlari bilan kim 5 daqiqa ichida nechta so`z topa olishi bo'yicha musobaqalashadilar. Ajratilgan vaqtda eng ko`p so`z topa olgan guruh yoki talaba g'olib hisoblanadi. Lekin birorta so`z qaytarib yozilmasligi kerak. O`yin oxirida eng ko`p so`z topa olgan “So`z ustasi” nomini oladi.

6-mavzu	Nutqning boyligi
----------------	-------------------------

Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50 tagacha
Mashg'ulot shakli	Muammoli ma'ruza Ommaviy, jamoaviy
Ma'ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • 1. So`z boyligini ta`minlovchi vositalar • 2. Nutqning boyligiga salbiy ta`sir qiluvchi holatlar • 3. Badiiy nutq va nutqning boyligi
<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Nutqning boyligi til unsurlaridan qay darajada foydalanishga bog`liq ekanligi. Nutq to`zishda notiqning til vositalaridan foydalanish imkoniyati va nutqiy zahirasi. Notiqning so`z boyligi. So`z boyligini oshirishda badiiy asarlar, lug`atlarning o`rni. Nutq boyligi va sintaktik vositalar. Badiiy nutqda va badiiy adabiyotda nutq boyligining aks etishi.</p>	
<p>Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • So`z boyligi haqida tushuncha berish; • O`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar bilan tanishtirish; • O`qituvchi nutqiga qo`yiladigan talablar bilan tanishtirish. 	<p>O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • So`z boyligi haqida tushunchaga ega bo`ladilar; • Nutqning boyligiga salbiy ta`sir qiluvchi holatlarni bilib oladilar; • Badiiy nutqqa qo`yiladigan talablar bilan tanishadilar.
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza, ommaviy, individual.
Ta'lim berish metodlari	Ma'ruza, tushuntirish, munozara, muammoli ta'lim.
Ta'lim berish vositalari	O`quv qo`llanma, proyektor, elektron ishlanma
Ta'lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya

6.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Muammoli ma'ro'za uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini to'zib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga o'tishni amalga oshiradi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini, ularga qisqacha ta'rif beradi. 1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. 1.3. Mashg'ulot muammoli ma'ro'za shaklida borishini ma'lum qiladi.	Savollar bilan murojaaaat qiladilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar. Tinglaydilar, yozib oladilar
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalar e'tiboriga muammoli masalani taqdim etadi. 2.2. Talabalarni muammoli masalani echishga da'vat etadi. 2.3. Muammoli masalani hal etish orqali birinchi o'quv birligini bayon etadi. 2.4. Talabalarga muammoli savol bilan murojaaaat etadi. 2.5. Muammoli savolni hal etilishi asosida ikkinchi o'quv birligi mazmunini ochib beradi. 2.6. Talabalarga muammoli vaziyat taqdim etadi. 2.7. Muammoli vaziyatni hal	Muammoli masala, savol va vaziyatni hal etish orqali o'z tasavvurlarini aniqlashtiradi va boshqalarniki bilan taqqoslaydi. O'z tasavvurlarini boyitadi. Tinglaydilar, munozaralarda ishtirok etadilar. Tinglaydilar, yozadilar. Tinglaydilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar.

	etilishi asosida uchinchi o'quv birligini bayon etadi. 2.8. Mavzu yo`zasidan yakuniy xulosalarni taqdim etadi.	
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yakuniy xulosalarni shakllantiradi. 3.2. Talabalarning mashg'ulot yo`zasidan fikr va mulohazalarini bilish maqsadida "Besh minutlik esse" yozishlarini tashkil qiladi. 3.2. "Besh minutlik esse"larni o'qitish orqali talabalarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. 3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.4. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi.	Tinglaydilar. "Besh minutlik esse" yozadilar. O'z fikrlarini boyitadilar va to'ldiradilar. Topshiriqni yozib oladilar.

1-ilova

Muammoli savollar

O`qituvchining nutq madaniyati boshqa kasb egalari nutq madaniyatidan nimasi bilan farq qiladi? Uning nutq madaniyatini egallaganlik darajasini tashhislash mumkinmi?

***1-misol.** O`qituvchi auditoriyaga kirdi. Talabalar o`rnidan turib, salom berishdi. Talabalardan biri guruhdan ajralib qoldi, ya'ni bir ovozdan salomlasha olmadi. O`qituvchi butun guruhni qaytadan salom berishga majbur qildi.*

Nima deb o`ylaysiz, o`qituvchi nutq madaniyatiga rioya qildimi?

2-misol. *Sinf rahbari darsdan keyin bolalarga e'lon qildi: «Bugun hammamiz qor uyumlarini maktab hovlisidan tozalaymiz».*

O`qituvchi nutqida qaysi kommunikativ sifat va nimaning hisobiga buzildi?

3-misol. O`qituvchilar xonasida ikki o`qituvchi suhbatlashayapti. *Har bir o`qituvchi notiq bo`lishi lozim, - dedi birinchi o`qituvchi. Ikkinchi o`qituvchi unga e`tiroz bildirdi:*

- Kechirasiz, har kim ham notiq bo`la olmaydi. O`qituvchi nutq madaniyatini puxta egallagan bo`lsa, yetarli.

Siz qaysi o`qituvchining fikrini yoqlagan bo`lardingiz? Fikringizni asoslang.

a

Besh minutlik esse

Yozma topshiriqning ushbu turida talabalardan quyidagi ikki vazifani bajarish talab qilinadi:

1. Mavzu bo`yicha nimalarni o`rganganliklarini bayon etish
2. Javobini topmagan bitta savol berish.

7-mavzu	Nutqning jo`yaliligi, nutqning ifodaliligi	
Ta`lim berish texnologiyasi		
Mashg`ulot vaqti 4 soat	Talabalar soni 50 tagacha	
Mashg`ulot shakli	Kirish - axborotli ma`ruza Ommaviy, jamoaviy	
Ma`ruza rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nutqning jo`yaliligi va nutqiy muloqot 2. Nutqning yozma va og`zaki shakllari 3. Nutqning ifodaliligi va uslublar 	
<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Nutqning jo`yaliligi nutqiy muloqotda muhim ahamiyatga ega ekanligi. Jo`yalilik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday aloqalantirish va bir-biri bilan bog`lashki, buning natijasida nutq konkret muloqotning maqsadi va sharoitlariga javob beradigan tarzda tarkib topadi. Nutqning yozma, og`zaki shakllarida joyalilikning o`rni. Jo`yalilik va nutqiy vaziyat.</p> <p>Nutqning ta`sirchanligini ta`minlashda ifodalilikning o`rni. Ifodalilik tinglovchi yoki o`quvchi diqqatini o`ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatdir. Nutqning ifodaliligining turli uslublarda o`ziga xos ekanligi. Ifodalilikni yo`zaga kelishida tovush qurilishi, so`z xazinasini, morfologik shakllar, sintaktik birliklar, intonatsiyaning o`rinliliigi. Badiiy adabiyotda, matbuotda jo`yalilik va ifodalilikning aks etishi.</p>		
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • nutq uslublari to`g`risida tushuncha berish; • uslub so`zining ma`nolari haqida ma`lumot berish; • uslub turlari bilan tanishtirish; • nutq madaniyati va uslubshunoslikning o`zaro aloqadorligini tushuntirish. 	<p style="text-align: center;">O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • o`tiladigan mavzularni sharhlab beradi; • uslub so`zining ma`nolarini aytib beradi; • uslub turlarini sanab o`tadi. • nutq madaniyati va uslubshunoslikning aloqadorligini aytib beradi. 	
Ta`lim berish usullari	Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat	
Ta`lim berish metodlari	Aqliy hujum, suhbat	
Ta`lim berish vositalari	O`quv qo`llanma, proyektor, elektron ishlanma	
Ta`lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	

7.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ro'za uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruza mavzusini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini to'zib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv mavzusi nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1-ilova). 2. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baho lash mezonini bilan tanishtiradi (2 ilova). 1.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar Berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzuning asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Stil (uslub) tushunchasi. 2.3. Nutq uslublari va ularning xususiyatlari. 2.4. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni beradi: - Uslubshunoslik fani nimalarni o'rganadi? - uslub so'zi qanday ma'nolarni bildiradi? - uslubsunoslik necha xil ko'rinishga ega? - uslubshunoslik va nutq	Tinglaydilar, yozadilar. O'tilgan axborotni analiz-sintez qilib, tizimlashtiradilar. Tinglaydilar, yozadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.

	madaniyati- ning o'zaro aloqadorligini qanday tushunasiz?	
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yo`zaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun topshiriqlarni taqdim etadi.	Savollar beradilar Uyga vazifani yozib oladilar

O`QUV-USLUBIY MATERIALLAR

II. O`QUV TOPSHIRIQLAR

Dokladchilarga taqsimlangan mavzular.

Dokladchilar	Mavzusi
1-dokladchi	So`zlashuv uslubining o`ziga xosligi
2-dokladchi	Badiiy uslub namunalari

Dokladlarni himoya qilish reglamenti.

<p>Boshlovchiga – 3-4 minut; Dokladchilarga -8 minutdan; Taqrizchilarga – 3-minutdan Opponentlarga – 3 minutdan; Savol – javob, muhokamaga -10 minut</p>
--

Dokladchilarni baholash mezon

Baholash mezon (ballarda)	Dokladchilar			
1.Doklad tuzilishi (1,0) -dolzarliligi; -himoyadagi aniqlik; - xulosalarni aniq keltirilishi. 2.Ma'lumotlarning yangiligi(0,5). 3.Ma'lumotlarni etkazish yo'llarining ishlab chiqilganligi (0,4).				

4.Reglamentga rioya qilishi (0,1)				
Jami:				

“Klaster” texnikasi bilan tanishing

Yozuvning tez yozilishi muhim. (Yozuvni sekinlashtiruvchi narsalarga e'tibor bermang.)




Hayolingizga kelgan shu so'z bilan bog'liq barcha narsani yozing, g'oyalarning sifatini o'ylamang: faqat yozing.



Berilgan vaqt tugagunga qadar yozishdan to'xtamang. G'ova tugab qolsa,

Iloji boricha tushunchalar orasidagi aloqani ko'paytiring. G'oyalarning bog'liqligi va aloqasi sonini cheklamang.



Savollar

Ekspert varag`i № 1

O`quv topshirig`i

1. Publitsistika so`ziga ta`rif bering
2. Publitsistik uslubning o`ziga xos jihatlari nimada?
3. Berilgan matndan publitsistik uslubga mosini aniqlang

Ekspert varag`i № 2

O`quv topshirig`i

1. So`zlashuv uslubning asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. So`zlashuvda so`z tanlash nimaga ko`ra belgilanadi?
3. Berilgan matndan so`zlashuv uslubga mosini aniqlang

Ekspert varag`i № 3

O`quv topshirig`i

1. Rasmiy uslubning qanday ko`rinishlari mavjud?
2. Rasmiy uslubning nutq standarti deganda nimani tushunasiz?
3. Berilgan matndan rasmiy uslubga mosini aniqlang

Ekspert varag`i № 4

O`quv topshirig`i

1. Badiiy uslubning janrlarini sanab o`ting
2. Badiiy uslubning fonetik xususiyati haqida to`liq ma`lumot bering
3. Berilgan matndan badiiy uslubga mosini aniqlang

Ekspert varag`i № 5

O`quv topshirig`i

1. Ilmiy uslubning leksik xususiyati haqida to`liq ma`lumot bering
2. Ilmiy uslubning grammatik xususiyati haqida to`liq ma`lumot bering
3. Berilgan matndan ilmiy uslubga mosini aniqlang

“Sinkveyn” texnikasi bilan tanishing

“SINKVEYN” texnologiyasi haqida tushuncha

“SINKVEYN” – bu besh satrdan iborat bo`lib, unda berilgan tushuncha birinchi satrdan to to`rtinchi satrgacha kengayib boradi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so`z) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda uni harakat-holat (fe`l) bilan to`ldiriladi. To`rtinchi qatorda so`z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so`zning ma`nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

8-mavzu	O`qituvchining nutq texnikasi	
Ta`lim berish texnologiyasi		
Mashg`ulot vaqti 2 soat	Talabalar soni 50 tagacha	
Mashg`ulot shakli	Kirish - axborotli ma`ruza Ommaviy, jamoaviy	
Ma`ruza rejasi	<ul style="list-style-type: none"> • 1. Nutq texnikasida ovozning o`rni • 2. Nutq jarayonida to`g`ri nafas olish • 3. Nutq jarayonida aniq talaffuz qilish 	
<p>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Nutq texnikasi o`qituvchi nutqi madaniyatining muhim qismidir. Nutq texnikasi – ovoz sifati, to`g`ri nafas olish, aniq talaffo`z, aniq leksiya. O`qituvchining nutq texnikasi o`quvchilar uchun etalon namuna ekanligi. O`qituvchi nutqida ko`zatiladigan kamchiliklar: nuqsonli ovoz, tovushni noaniq aytish, nafas olishdagi tartibsizliklar. O`qituvchining asosiy quroli nutq ekanligi. Nutq texnikasini takomillashtirish o`qituvchining doimiy vazifasidir.</p>		
<p style="text-align: center;">Pedagogik vazifalar:</p> <ul style="list-style-type: none"> • muammoli savol, masala va vaziyatlarni o`quv birligiga muvofiq ravishda taqdim etish; • nutq texnikasi haqida tushuncha berish; • o`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklar bilan tanishtirish; • fonatsiya jarayoni haqida ma`lumot berish; • o`qituvchi nutqiga qo`yiladigan talablar bilan tanishtirish. 	<p style="text-align: center;">O`quv faoliyati natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • muammoli savol, masala va vaziyatlarni hal etish orqali o`z tasavvurlarini aniqlashtiradilar; • nutq texnikasi haqida tushunchaga ega bo`ladilar; • o`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklarni bilib oladilar; • fonatsiya jarayonini aniq bilib oladilar; • o`qituvchi nutqiga qo`yiladigan talablar bilan tanishadilar. 	
Ta`lim berish usullari	Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat	
Ta`lim berish metodlari	Aqliy hujum, suhbat	
Ta`lim berish vositalari	O`quv qo`llanma, proyektor, elektron ishlanma	
Ta`lim berish sharoiti	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	

8.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruza uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. Talabalar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruza mavzusini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. O'quv mavzusi nomini aytadi. Mavzular va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi. (1- ilova). 1.2. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va o'quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3. Talabalar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Berilgan savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Talabalarni 5 ta kichik guruhlariga bo'ladi va guruhlarda hamkorlikda ishlash usuli, qoidalari bilan tanishtiradi. 2.2. Har bir guruhga savollar beriladi va ularga javob berish talab etiladi. 2.3. Guruhlarga topshiriqlarni bajarish uchun yordam beradi. 2.4. Guruh sardorlari berilgan savollarga komandaning javoblarini bayon qiladi. Aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, ya'na qo'shimcha savollar beradi, muhokamasini jamoaga havola etadi. 2.5. Mavzular asosida berilgan	Tinglaydilar, yozadilar. Atama tushunchasini nima ekanligini aytadi Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.

	ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha talabalarda yo`zaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun « O`qituvchi nutqining o`ziga xos jihatlari» mavzusida topshiriq beradi.	Savollar beradilar Uyga vazifani yozib oladilar

1-ilova

Mavzuni jonlantirish uchun savollar

- 1. O`qituvchi-pedagog nutqi qanday bolishi kerak?*
- 2. Nutq texnikasi nima?*
- 3. O`qituvchi nutqida kuzatiladigan kamchiliklarni bilasizmi?*
- 4. O`qituvchining asosiy quroli nima?*
- 5. Nutq texnikasini takomillashtirish uchun nimalarga e`tibor berish kerak?*
- 6. Nutq texnikasiga qo`yiladigan talablar?*

*O`qituvchi nutqiga
qo`yiladigan talablar*



*O`qituvchi nutqida
uchraydigan kamchiliklar*





“O' QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

MASHQLAR TO'PLAMI

Toshkent-2014

1-mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. O'qing. Quyidagi hikmatli ibora va fikrlarning ma'nosini izohlang.

So'zlaringda bo'lsin bo'sin fikru o'y yoniq,
Bo'lsin har so'zingda bir nuqta aniq. (*Xisrav Dehlaviy*)

“O'ylamasdan so'zlama, har bir so'zni o'ylab gapir, to aytgan so'zingdan pushaymon bo'lmagaysan”. (*Kaykovus*)

“Ey farzand, so'zning yo'z va orqa tomonini bilgil, ularga rioya qilgil, so'zlaganda ma'noli gapir, bu notqlikning alomatidir”. (*Kaykovus*)

“Shunday so'zlagilki, bu so'z bekor va zoye ketmasin” (*Kaykovus*)

“So'z eshitishdan qochma, kishi so'zni eshitish bilan notiq bo'ladi”
(*Kaykovus*)

“Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi”. (*Aristotel*)

"So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin,
Tilingga ehtiyot bo'l, tishing sinmasin." (*Yusuf Xos Hojib*)

"Bilib so'zlasa, so'z donolik sanaladi,
Nodonning so'zi o'z boshini yeydi." (*Yusuf Xos Hojib*)

"Aql ko'rki so'zdir va til ko'rki so'z,
Kishi ko'rki yo'zdir, bu yo'z ko'rki ko'z." (*Yusuf Xos Hojib*)

"Tug'ilgan o'ladi, ko'r, nom-nishonsiz qoladi,
So'zingni ezgu so'zla, o'zing abad o'lmaysan." (*Yusuf Xos Hojib*)

"Til muncha sharaf bila nutqning olami (quroli) dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir." (*Alisher Navoiy*)

«Aytur so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt» ."(Alisher Navoiy)

«So`zchi xolin boqma, boq so`z xolini,
Ko`rma kim der oni, ko`rgil kim ne der» ."(Alisher Navoiy)

«So`zdurki, nishon berur o`likka jondin,
So`zdurki, berur jonga xabar jonondin,
Insonni so`z ayladi judo hayvondin,
Bilkin, guhari sharifroq yo`q ondin. (Alisher Navoiy)

«Tarixda nom qoldirish uchun yo yaxshi sarkarda, yo yaxshi notiq bo`lish kerak».
(Sitseron)

“Qalam- eng yaxshi muallim” (Sitseron)

“Inson shoir bo`lib tugilishi mumkin, lekin notiq bo`lib yetishadi” (Sitseron)

“So`zni ishonch bilan gapir, eshituvchilarga ta`sir esa o`z-o`zidan kelib chiqadi”
(Gyote)

“Mavzuni chuqur o`rgan, so`zning o`zi keladi” (Katon)

“Inson notiqligi,saodat tildan,
Nazokat tildandir, nafosat tildan,
Hayot saboqlari ko`rsatar shuni,
Do`zax tildan erur va jannat tildan” (Abu Ali ibn Sino)

2-topshiriq. *Notiqlik va so`zning ahamiyati haqida yana qaysi donishmandlarning fikrlarini bilasiz?*

3- topshiriq. *So`z va nutq haqida qanday maqol va matallarni bilasiz?*

4- topshiriq. *Maqol, matal va hikmatli so`zlar yozma nutq mahsulimi yoki og`zaki?*

2-mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. *Nutqning to'g'riligiga putur yetkazuvchi, leksik me'yordan tashqari bo'lgan so'zlarga 20 ta misol yozing.*

2- topshiriq.

Quyida berilgan so'zlarning o'rniga tavsiya etilgan, o'zbek tilining leksik me'yoriga aylangan so'zlarni toping:

avtor, gonorar, grupp, ministr, oblast, programma, plan, redaktor, sekretar, tekst, tema, raport, rayon, komitet, apteka, ostanovka, programma, ,bilet

3- topshiriq.

1. *“Sabr”, “toqat”, “chidam”, “bag'rikenglik”, “tolerantlik”* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing.

2. *“Bosh”, “o'rtoq”, “yuz”* so'zlarining sinonimlarini toping va ularni qo'llab gap to'zing.

4- topshiriq.

Quyidagi misollarda qaysi o'rinlarda adabiy til me'yorlari buzilgan?

-Ayni paytda viloyat adliya boshqarmasi, huquq tartibot organlari bilan hamkorlikda qonun hujjatlarini yuritish yuzasidan turli tadbirlar o'tkazilmoqda.

-Ba'zi hollarda bir oilada yashayotgan er-xotinlar rasmiy nikohdan o'tmaslik holatlari keyinchalik bola huquqlariga daxl qiladi.

-Odam savdosi insonning yuksak e'zozga loyiq bo'lgan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzuvchi, shaxsiy daxlsizligiga tahdid soluvchi jamiyatdagi salbiy illatlardan biridir.

-Shundan keyin bolalardan avval yakka-yakka so'zlab berish taklif etiladi.

-Tarbiyachi rasm ustida o'zoq so'zlab berdi.

-Hayot ildizi ekila boshlandi.

-Paxta terila boshlandi.

-Muloqotda viloyatdagi kasb-hunar kollejlarning ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

3-mavzu bo`yicha topshiriqlar

1-topshiriq. *Matbuot sahifalaridagi g`aliz va chalkash, nutqning aniqligi buzilgan namunalardan misollar keltiring.*

2-topshiriq. *“Intervyu”.*

Maqsad – biron bir rahbar, olim, artist, muallim yoki istalgan boshqa soha vakilidan intervyu olish. Intervyu kimlarga namoyish etish uchun olinayotganidan kelib chiqib, suhbat maqsadi va strategiyasini belgilang. Maqsad va strategiyadan kelib chiqib 4-5 ta asosiy savollarni tayyorlang. Mazkur savolnoma asosida sherik bilan suhbat o`tkazing (namuna sifatida jurnal, gazetada chop etilgan intervyulardan foydalanish mumkin).

3-topshiriq. *She`riy parchani ifodali o`qing. l, r tovushlarini jarangdor aytishga harakat qiling.*

Yurtim, senga she`r bitdim bukun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirlar bor o`z yurtin butun –
Olam aro atagan tanho.
Ular she`ri uchdi ko`p yiroq,
Qanotida kumush diyori.
Bir o`lka bor dunyoda biroq
Bitilmagan dostonidir bori:
Faqat ojiz qalamim manim,
O`zbekiston, Vatanim manim...

4-topshiriq. *Berilgan gaplarda nutqning qaysi kommunikativ sifati buzilgan? Ushbu gaplarning to`g`ri variantlarini yozib chiqing.*

- Ro`yxatga olish kitobi joriy etildi.
- Avlodlar merosini o`rganamiz.
- Tarbiyachi kitobni xontaxta tortmasiga qo`ydi.
- Hozir o`zbek tili sabog`idan dars o`tamiz.
- Ismi-sharifingiz nima?
- U o`z hadyasini tuhfa etdi.
- Yangi texnologiya iqtisodiy sarf-xarajatlarni ancha tejaydi.
- O`tgan asrning 1920-yili tavallud topgan.
- Korxonaga yangi zamonaviy texnologiya o`rnatildi.
- Turgenev asarlarining hammasi ham juda o`qimishli.

4-mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. *“Ommabop nutq”.*

O`z sohangiz, kasb-koringizga mos mavzular asosida ommabop og`zaki nutq tayyorlang.

2-topshiriq. *Matnni kengaytiring, bozor to`g`risida 200 ta so`zdan iborat matn yozing.*

Shunday qilib, bozor – bu Tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan joy. U bo`lmasa Tovar va xizmatlarning oldi-sotdisi yo`z bermaydi, takror ishlab chiqarish sodir bo`lmaydi. Bozor Tovar va xizmatlarni taklif etuvchilar taqdirini belgilovchi toshu tarozi, oily hakam bo`lib hisoblanadi.

3-topshiriq. *Berilgan gaplarda nutqning qaysi kommunikativ sifati buzilgan? Ushbu gaplarning to`g`ri variantlarini yozib chiqing.*

Bolajonlar, endi o`rgangan so`zlaringizni bir chizib beringlar-chi? deb vazifa topshiradi.

Hikoya va suhbatdan tashqari, o`zbek tilini yaxshi o`rganish, unga qiziqishni uyg`otish maqsadida til o`rganishga oid o`yinlar, kichik-kichik she`rlar, badantarbiya va ashulalar berib boriladi.

O`n kishiga mo`ljallangan mazkur maxsus joylarning har birida o`ntadan odam o`yinlarni bemalol tomosha qilishi mumkin.

Imzoga qo`l qo`yish mahalida gurs etib yerga quladi.

4-topshiriq. *“Rolli nutq”.*

Bunda biron predmet nomidan nutq tayyorlanadi. Tasavvur qiling, siz soat, qog`oz, o`yinchoq yoki avtomobilsiz. Agar siz qog`oz bo`lsangiz, qanday holatlarga tushishingiz, qanday voqealarni boshingizdan kechirgan bo`lishigiz, bunda qanday tuyg`ularni his etishingiz mumkin. Shu haqda so`zlab bering.

5-mavzu bo'yicha topshiriqlar

1-topshiriq. "Suhbat-bahs".

Juft-juft bo'lining. Rollarni taqsimlang. Rahbar–xodim; ota (ona)–bola; firma rahbari-ishga kirishga da'vogar; tadbirkor-biznes-sherik va h.k.

Dastlab suhbat (bahs) mavzusini belgilab, o'z fikringizni asoslash uchun dalil va asoslarni jamlang va dialogga kirishing.

1. Bahs chog'ida odob doirasidan chiqmang, shunga yarasha ohang tanlang, dalillar keltiring.

2. Bahs yuritishning nomaqbul usullarini qo'llang. Raqib qo'llagan nomaqbul usulni neytrallash yo'llarini qo'llang.

2- topshiriq. *She'rni ifodali o'qing. Nutq sofligini buzuvchi qanday so'zlar ishlatilgan?*

Har so'zida "bu", "anu",
"Haligi", "shu", "qanaqa".

"Bu-bu" deydi-nima bu,
"Shunaqa"si qanaqa?

Tiliga kelib qolgan
So'zdan qayta olmasa.

"Bu" qo'shmasdan savolga
Javob ayta olmasa.

O'zingiz o'ylab ko'ring,
Nima bu, qanaqasi?

Qachon qolar O'tkirning
"Nima", "bu", "anaqasi?"

To'g'ri, aniq gap to'zib,
Javob bergin so'roqqa.

Xizmat qilsin har so'zing
Fikringni to'latmoqqa.

Mazmun nomli mo'ljalga
So'z otilgan o'q bo'lsin

Nishonga tegmay qolgan
Bitta o'q ham yo'q bo'lsin. (E.Vohidov "Nutq")

3- topshiriq. *Parchani ifodali o`qing. S va sh tovushlarining talaffuz normalariga e`tibor bering. Har bir so`zni ma`nosidan qat`i nazar hayajon bilan o`qishga intiling.*

“ Bola kechalari yolg`iz o`zi hovliga chiqishga qo`rqardi. Nazarida tunning ajinalari, o`g`rilari bo`lardi. Ayniqsa, uzun qish kechalari tashqarida jahldor shamollar dahshat solib chopishganida u onasining yonidan nari ketmasdi. Bolaning Barchin opasi hamda Botir akalari esa sandal atrofiga tizilishib, negadir nuqul ajinalaru, boyo`g`lilar, allaqanday ko`zga ko`rinuvchi narsalar haqida biri olib, biri qo`yib, uzoq gapirishardi. Ko`zlaridan o`t chaq nab qaylardandir odam chaqiradigan sehrli suvlar borligini, chaqirilganlar esa albatta o`sha suvga g`arq bo`lishini vahima bilan so`zlashardi. Onasi har zamonda: “Bo`ldi hu-uv, ertaga maktabga... qayoqdagi gaplarni topasanlar-ey” deb qo`yardi.

4- topshiriq. *Matnni kengaytiring. Moliya tizimi haqida 200 ta so`zdan iborat matn yozing. Matnga oid savollar tuzing.*

Moliya tizimi deganda yalpi ijtimoiy mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonida paydo bo`ladigan va davlat tomonidan umummamlakat vazifalarini amalgam oshirish uchun foydalaniladigan pul mablag`larining majmuasi tushuniladi.

6-mavzu bo`yicha topshiriqlar

1-topshiriq. *Berilgan gaplarda nutqning qaysi kommunikativ sifati buzilgan? Ushbu gaplarning to`g`ri variantlarini yozib chiqing.*

Qo`llanmadagi uslubiy yechimlar mashg`ulot rejasi va mashg`ulot matnidan iborat ikki qismdan iboratdir.

Islom dini va falsafasi yangi axloqiy komillikka intiluvchi tarbiyani vujudga keltirishga intildi.

Men ham ko`pchilik kabi qiziqarli futbol o`yinlariga qiziqaman.

Bir-birini quvlab, guldan-gulga qo`nayotgan kapalaklarga mahliyo bo`lib, chiroyli kapalakka ko`zi tushdi.

2- topshiriq. “Og`zaki portret”

Bunda kuzatilayotgan kishining yo`zi, ko`zi, sochlari, qulog`i, umuman, qiyofasini so`z bilan ifodalang. Uning turli (xursandlik, ma`yuslik, darg`azablik va h.k) holatlardagi yuz ifodasini tasvirlab berishga harakat qiling. Ovozi va gapirish usuliga e`tibor qiling, ovozining tembri, ohangiga, gapirish usuliga e`tibor qarating. So`ng ko`zatuvarlar asosida uning xarakterini, temperamentini, ruhiy va aqliy salohiyatini aniqlashga urinib ko`ring.

3- topshiriq. Badiiy o`qish.

Abdulla Qahhor hikoyalari asosida bahs-munozaraga tayyorlaning. “O`g`ri”, “Anor”, “Dahshat” kabi hikoyalarni obrazlarga bo`lib, ifodali o`qishga harakat qiling. Bunda nutqning lingvistik va ekstralingvistik omillariga e`tibor bering.

4- topshiriq. Buyuk g`arb notig`i Sitseronning “**Qalam – eng yaxshi muallim**” degan hikmatli iborasini izohlang. Nega Sitseron jonsiz predmet - qalamni jonli inson - muallimga o`xshatgan? Fikr va mulohazalaringizni yozma tarzda bayon eting.

7-mavzu bo`yicha topshiriqlar

1-topshiriq. *Berilgan gaplarda nutqning qaysi kommunikativ sifati buzilgan? Ushbu gaplarning to`g`ri variantlarini yozib chiqing.*

Mashg`ulot davomida “yaxshi” va “a`lo” baholar olgan bolalarni tarbiyachi o`z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildirdi.

Hayr, bolajonlar! Sog`likda ko`rishguncha, omon bo`lsak, albatta ko`rishamiz.

Kishi hayotini saqlab qolish yetti qavatli imorat qurishdan ham murakkabroq.

- Kechirasiz, o`zingizni tanishtirmadingiz.

- Asli farg`onalikman. Ismim Kamola. Hozirda ikkinchi oilam bilan Toshkentda yashayman.

-O`z tug`ilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...

-Albatta. O`zga yurtda shoh bo`lguncha, o`z yurtida gado bo`l deganlari haq ekan (“Xonadon”, 2006 yil 24 avgust).

2- topshiriq. *Quyidagi iboralarning ma`nosini tushuntiring:*

“tarvo`zi qo`ltig`idan tushdi”, “rangi somon bo`ldi”, “o`zingdan chiqqan baloga qayga boray davoga”, “suvda tushgan mushukday”, “xafsalasi pir bo`ldi”, “tuyaning dumi yerga tekkanda”, “yetti uxlab tushga kirmagan”, “boshida yong`oq chaqmoq”, “yoqasini ushlamoq”, ko`z-quloq bo`lmoq”.

3-topshiriq.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asari asosida nutq tayyorlang. Nutq uchun yorqin vositalar toping. Nutq ko`tarinki ohangga ega bo`lishi kerak.

4-topshiriq.

Quyidagi mavzularni yoritishda qo`l keladigan maqol, matal, hikmatli so`z va ibratli hikoyat-rivoyatlarni toping va ulardan foydalanib nutq tayyorlang.

1. “Mas`uliyat tuyg`usi – o`qituvchi faoliyatining bosh mezoni”.
2. “So`z va ish birligi”.

5-topshiriq. *Quyidagi misollarda ko`chimning qaysi turlaridan foydalanilganligini toping.*

Cho`ltoq hassasini o`qtalib Hasad,
Ilhomning boshiga tushirdi chunon:
Kim qo`yibdi senga parvozni, nomard,
Bizlar yer yo`zida yursak sargardon (A.Oripov, "Shoir va ilhom" she`ri).

Supurgi yetgan joyidan nariga o`tmasdan u yerga yonboshladi (Cho`lpon, "Kecha va kunduz" romani).

Bugun jug`rofiya o`qituvchisi darsga kelmadi. Ajoyib “xushxabar”dan so`ng bir zumda sinf bo`shadi-qoldi. (S.Ahmad)

Sovchisining ko`pligidan ostonasi yeyilib ketgan.

Ko`z yoshim daryo bo`lib, baliqlari yutsin seni.

Oramizda sarson bir juft qora ko`z...

Ko`nglim ham bu kecha oyday yarimta. (A.Oripov)

So`fining tani shu topda Arabiston toklarining saratondagi toshlariday qizib yonardi (Cho`lpon, "Kecha va kunduz" romani).

Uning xumor bilan kuyib yongan miyasi shoshilinch poyezdning o`txonasiday tez va soat mexanizmasiday muntazam ishlardi (Cho`lpon, "Kecha va kunduz" romani).

She`r to`qiyman o`rgimchak kabi muhabbatning tolalaridan (Faxriyor, "Ruhning ko`lankasi" she`ri).

Maydalab o`rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar — nay ko`ksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (I.To`lakov, "Paxtazorni sog`inganda" she`ri).

8-mavzu bo`yicha topshiriqlar

Shubhasizki, bu ikki predmet (ob'ekt) bir-biri bilan chambarchas bog'liq va biri ikkinchisiga taqozo etadi: til nutq tushunarli va shu asosda foydali bo'lishi uchun zarur; nutq o'z navbatida tilning shakllanishi uchun zarur; tarixan nutq fakti hamisha tildan oldindir. Agar tushuncha-nusxa so'zli (fonetik) obraz bilan assotsiatsiyasi oldindan nutq aktida voqe bo'lmagan bo'lsa, bunda assotsiatsiya qanday qilib mumkin bo'la oladi? Boshqa tomondan qaraganda, faqat boshqalarni eshitib, biz o'z ona tilimizni o'rganamiz; sanoqsiz tajribalar natijasidagina til bizning ongimizga saqlanib qoladi. Nihoyat, tilning taraqqiyoti aynan nutq hodisalari bilan bog'liq: bizning ko'nikmalarimiz boshqalarni eshitganda olingan taassurotlarga bog'liq holatda o'zgaradi. Shunday qilib, til va nutq o'rtasida bir-biriga bog'liqlik o'rtaga chiqadi: til bir paytning o'zida nutqning ham quroli, ham mahsulidir. Ammo bularning barchasi til va nutqning mutlaqo farqliq narsalar bo'lishiga monelik qilmaydi." Ko'rinadiki, til tuganmas imkoniyat, nutq esa ayni imkoniyatning real voqelanishidir. "F. de Sossyur til — nutq dixotomiyasini shaxmat o'yini qoidalarini misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi. Haqiqatan ham, shaxmat taxtasidagi harakat katak teng holatda ikki xil rangda ikki guruhga o'ttiz ikkitadan ajratilib, qarama-qarshi qo'yilgan. Har har ikki guruhdagi donalar vazifa va qiymat jihatidan bir-biriga teng, donalarning o'ziga o'ziga joyla-shish tartibi va yurish qoidalarini bir xil. Shaxmat o'yini qoidalarini o'yinchilar uchun majburiy avvaldan ma'lum bo'lib, ular doimo o'yinchilar xotirasida saklanadi. Har ikki o'yinchi bir imkoniyatga ega bo'lib, shaxmat o'yini qoidalariga bir xil bo'ysunsa ham, o'yinchilarning o'zlari imkoniyatlardan foydalanish mahoratiga ko'ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo'la oladi. Qaysi shaxmatchi imkoniyatlarni o'z maqsadi yo'liga izchillik bilan bo'ysundira olsa, u imkoniyatlardan foydalana olmagan raqibini engadi." Usta shaxmatchi mavjud imkoniyatlardan qanchalik mahorat bilan ishga solsa, ziyarak nutq to'zuvchi ham tildagi behisob imkoniyatlaridan o'z maqsadiga eng maqbullarini tanlaydi. Qiyosning mohiyati shuki, shaxmat donalari va bu donalar-ning harakati qoidalarini til, bu donalar va mavjud qoidalardan foydalanish to'zilgan konkret shaxmat kombinatsiyasi nutqdir.

Tilshunoslikda ko'pincha "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari farqlanadi, ammo ba'zan har ikkisi o'rnida birgina yo "til madaniyati", yo "nutq madaniyati" termini qo'llaniladi. Hamonki, til va nutq hodisalarini farqlash zarur ekan, ular chindan ham alohida-alohid hodisalar ekan, albatta, til madaniyati va nutq madaniyatini ham farqlash maqsadga muvofiq. Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsaq til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiylashganlik normalashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatika, semantik stilistik jihatlardan rivojlanganlik boylik darajasini, potentsial ifoda imkoniyatlarini ko'lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o'ta muvofiq ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jamiyatida demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potentsial mavjud bo'lgan xilma-xil ifodalarning shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq to'za o'tkazish mahoratidir. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma'lum, u kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa ehtiyojiga ko'ra yo'zaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki boshqasiz vazifasi uning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lishidir. Shuni ham alohida aytmoq joizdir, tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmunda tanosibi tarang hodisa kamdan-kam topiladi. Tilni madaniyat ko'zgusi deb hisoblagan atoqlik olmon olimi Vilgelm fon Gumboldtning ushbu gaplari til hodisa-sining mohiyatini yan

teranroq anglashga imkon beradi: "Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turli tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko'rishning farqliligi natijasidir." Haqiqatan ham har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umuman, o'ziga tafakkur tamoyili bor. Ana shunga ko'ra "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u" degan tushunchalar millat boqiyiligining betakror ustunlari sifatida yashab keladi. Amerikalik etnolingvistikasining asoschilaridan biri Benjamin Li Uorfning "Agar Nyuton ingliz tilidagi gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qancha boshqacharoq bo'lardi" degan so'zlarida ulkan haqiqat mavjud. Milliy sezgi va milliy ruhning shakllanishida ona tili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ingliz jurnalisti Govard Brabinning "Ona tili va miya. Yapon olimining g'aroyib kashfiyoti" nomli maqolasida bayon qilinishicha, Tokio universitetining tibbiyot professori Tadanobu Tsunoda 1981 yilda YuNESKOning Afinada o'tkazilgan simpoziumida o'zining 15 yillik tajriba-tadqiqotlari haqida axborot bergan. Professor Tsunoda o'zining eksperimentiga yaponiyalik va g'arblik (frantsuz, ingliz, nemis va h.k.) kishilarni jalb qilgan. Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g'arb musiqasi asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli apparatlardan foydalangan holda ularning miyalaridagi markazlarning reaksiyasini qayd etib boradi. Ma'lum bo'ladiki, yapon va g'arb kishilarning bosh miya yarim sharlaridagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mavjud ekan. Yapon kishisi miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g'arb kishi boshqa bir markaz orqali qabul qilgan ekan. Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog'liq yoki bog'liq emasligini aniklash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirokida eksperimentini yana davom ettiradi. Natija shuni ko'rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona tili muhiti bilan aloqador ekan. Ana shularga asoslanib, professor Tsunoda quyidagicha xulosa chiqaradi: "Men insonning o'z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o'zlashtirishi va tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emotsion mexanizmning rivojlanishi bilan o'zviy bog'liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning o'ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'likdir deb o'ylayman."

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga etkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin qilish insonning tabiiy tilini, bu be-nihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kamida o'zlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilni (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashdan boshqa narsa emas.

1887 yilda polshalik shifokor Lyudvig Zamengof tomonidan yaratilgan esperanto tili boshlang'ich sun'iy tillar orasida eng keng tarqalganidir. Bunday sun'iy tillar muayyan amaliy eksperimental maqsadlar uchun biror darajada ahamiyatli bo'lsa-da, u yoki bu xalqning madaniyati va tarixi zaminida bunyod bo'lmaganligi uchun har bir xalqning butun ruhiy dunyo madaniyati va tarixi bilan bevosita bog'langan tabiiy tillarning o'rnini aslo bosa olmaydi. Sun'iy tillarda bir tushuncha faqat bir so'z bilan ifodalanadi, grammatik qoidalar qat'iy, ifodalar ma'noli, variantdorlik yo'q, bir ma'noli modellar hukmron, demakki, ifoda tanlash imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun ham sun'iy tillarda til (nutq) madaniyati muammosiga hech qanday ehtiyoj yo'q. Tabiiy tillarda (ayniqsa, rivojlangan tillarda) esa ana shunday ifoda tanlash imkoniyatlarining cheksiz-chegarasizligi tilning o'ziga xos tamalidagi haqiqatdir. Agar tabiiy til ham sun'iy tillar kabi faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda jo'i, sodda va shunchaki

narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi ho'zurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilar, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi. Demakki, bemiyl boy, sehra sinoatga, ruhu ruhoniyatga, ko'ru komillikka limmo-lim bir xilqatdir. Albat, tilning sanab o'tilgan vazifalari uning bosh vazifasi (aloqa vositasi bo'lishi) bilan bir qator uning asosida voqe bo'ladi.

Atoqli tilshunos A. Rustamiy tilning vazifalari haqida gapirar ekan, shunday xuslarga alohida urg'u beradi: Til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan tajriba-bilimlar ommalashib va ular ko'pchilik tomonidan rivojlantiriladi. Til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning izlanishlarini yangidan boshlab o'tirmaydi, uni davom ettiradi. Til tufayli biz sezgi o'zvlari bi-lan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz... 1

Tilning muhim vazifalaridan yana biri uning go'zallikni ifodalashi, ya'ni estetik vazifasi. Tildagi badiiy imkoniyatlarning cheksizligi, bu imkoniyatlar ham moddiy va ham ma'naviy dunyolarni qamrab olishini ta'kidlab, A. Rustamiy shunday yozadi: "...Tilning o'zidan ham go'zallik

moddasi sifatida, xususan, qalamu so'z ahli va umuman xalq foydalanadi. Chunki til estetik hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddir. Birinchidan, til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirish vositasi bo'lsa, ikkinchidan, tilning o'z go'zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi ming yillik chechanlar tilning mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdek foydalanadilar. shu bilan o'quvchi yoki tinglovchiga rohat bag'ishlaydilar... Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsa, uning kishini hayratga soladigan darajada etukligi bor. Qaysi bir tili olmang, undagi tovushlar yo'zga etaaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'ttiz besh tovush bor... Mana shu qadar ozgina tovushdan o'zbek tili tarixida milliondan ortiq so'z yasalgan va bu so'z yasalishi kerak bo'lgan takdirda cheksiz davom etishi mumkin. Bu cheksiz imkoniyat dunyodagi hamma tillarga xos. Tiling mana shu etukligi uning o'zining go'zalligini va uning foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining mahoratini ta'minlaydi".

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy dahosining mahsuli bo'lmish nafis san'ati durdonalari behisob. Ularning allaqanchasi turkiy tafakkur teranligi va taxayyul bepoyonligining muhtasham obidalari o'laroq jahon badiiyati ganjinasining to'rida qo'r to'rturibdi. Tilimiz inja ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va shunga ko'ra beqiyos darajada betakroridir. Mumtoz va bugungi adabiy asarlarni o'qirkanmiz, xalq og'zaki ijodi namuna bilan tanisharkanmiz yoki turli so'z o'yinlarini, o'tkir va nozik askiyalarni tinglarkanmiz, odam odam nutqida topib aytilgan so'z yoki iboraning guvohi bo'larkanmiz, tilimizning tovush tovulanishlaridan, nafosatidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz. Bu o'rinda yana shu ham aytish joizki, u yoki bu tilni go'zal yoki "xunuk" (go'zal emas) deyish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Alohida olingan til chiroyli ham, xunuk ham bo'lolmasligi tabiiy. Bu munosabat badiiy taniqli rus tilshunosi R.A. Budagovniig quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Aslida tillar, avval ko'p rivojlangan va kam rivojlangan, juda boy va biroz boy, qadim yozuv an'anasiga suyan va bunday an'anaga mutlaqo ega emas bo'lishi mumkin. Bularning barchasi u yoki bu tilning potentsial estetik imkoniyatlarida turlicha aks etadi. Ikkinchidan, tillar, ayniqsa, adabiy til o'zicha chiroyli ham, xunuk ham bo'lmasada, aloqa (kommunikatsiya) jarayonida, xususan, ayniqsa, bu tillardan faqat nimani gapirayotganiga emas, balki qanday gapirayotganiga ham befovdan bo'lmagan odamlar foydalanayotgan bo'lsa, qo'shimcha estetik vazifani olish qobiliyatiga ega

Tabiiyki, o'zbek adabiy tili ana shunday asrlar osha rivoju sayqal topgan, behad qadim yozma an'anasiga sohib, ming yillik yozma yodgorliklarida yashab kelayotgan juda boy tildir. Shuning uchun ham tilimiz go'zal nutq to'zish uchun potentsial imkoniyatlari tunganmas tengsiz xazinadir. Tilning estetik vazifasi, albatta, nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi, go'zalligini ta'minlash. Favqulodda muhim ahamiyatga molikdir. Ammo, aytib o'tilganiday, bu vazifa kommunikativ vazifa bilan birga voqe bo'ladi.

Til estetikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning boshlarida bir qator chet el filologlari, faylasuflari, yozuvchilarida paydo bo'lgan. Til estetikasi muammosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olim sifatida ko'pincha italyan faylasufi va siyosiy arbobi Benedetto Croce (1859-1952) tilga olinadi va uning 1902 yilda e'lon qilingan "Estetika ifodalash haqidagi fan sifatida umumiy tilshunoslik sifatida" nomli kitobidagi asosiy fikrga e'tibor qaratiladi. U nazar jihatdan tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtiradi, ya'ni go'yoki tilning asosiy vazifasi kishilarning muloqotini ta'minlash emas, balki estetik omil asosidagi o'zlikni ifodalashdan iborat. B.Krochening g'oyalarini nemis filologi Karl Fossler (1872-1949) davom ettiradi. Uningcha — alohida individuumlarning ijodi, shuning uchun odam har bir so'z va har bir gapga betakror mazmun yuklaydi. Dantening "Ilohiy komediyasi"dagi qahramon muhabbat (atoge) so'zini necha marta ketma-ket takrorlarkan, uningcha, bu so'zni kitobxon har safar yangi ma'noli ya'ni so'z sifatida qabul qiladi. Fosslerning qanoaticha, "so'z va gapning estetik bo'yog'i betakroridir, ana shu estetik bo'yoq tilda etakchi vazifani bajaradi". Albatta, ana shu estetik bo'yoq, demak tilning estetik vazifasi reallashar ekan, nutq yoki matn to'zishdan ko'zlangan maqsadga osor bilan erishish imkoniyati ortadi. Zotan, o'quvchi yoki tinglovchi yozuvchi yoki so'zlovchining gapiga ishonishi, bu gap esa ishontirishi, ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim.

Dunyo filologiya ilmida tilning estetik vazifasiga qanday maqom, mavqe berilishidan, uning birlamchimi, ikkilamchimi ekanligidan qat'i nazar, bu vazifa bor va u tilning eng zarur jihatlaridan bir sifatida yashaydi. Ta-biiyki, buni inkor etib bo'lmaydi.

Ko'pincha tilning estetik vazifasi faqat badiiy adabiyot tiligagina nisbat bergan holda talqin etiladi. Estetika faqat badiiy asar tiligagina xos, undan tashqarida til estetikasi haqida gapirish mumkin emas deb qarash unchalik to'g'ri emas. Ayni masalalarni chuqur tadqiq etgan R.A.Budagovning fikricha, "estetiklik" tushunchasi "chiroylilik", "go'zallik", "nafos" tushuichalariga qaraganda juda ancha keng va rang-barang, shunday ekan, tilga va nutqga nisbatan "estetiklik"ni so'zlovchi yoki yozuvchining faqat nimani gapirayotgani va nima haqda yozayotganigagina emas, balki qanday gapirayotgani va qanday yozayotganiga ham o'rta munosabat sifatida tushunmoq maqsadga muvofikdir. Taniqli tilshunos yana shuni ham ta'kidlaydiki, bu munosabatning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Rivojlangan adabiy til o'ziga go'yoki birinchi darajali potentsial estetik vazifalarni mujassam etsa, badiiy adabiyot tili ikkinchi oliy darajadagi estetik vazifalarni namoyon etadi. Shuning uchun adabiy tilda estetika yo'q deyish nuqtai nazar mutlaqo asossizdir. Ta'kidlash mumkinki, "estetik vazifasidan ayrilgan adabiyot o'zining ulkan ifoda imkoniyatlaridan teng yarmiga ayriladi. U qashshoq, tussiz va g'arib bo'lib qoladi".¹ Boshqacha qilib aytganda, nutqning tom ma'nodagi sifati, ta'sir etish, "yuqish yoki yuqtirish" salohiyati xuddi shu estetik vazifa bilan chambarchas bog'likdir. Shuning uchun har qaysi uslubdagi nutq bo'lishidan qat'i nazar, albatta, unda tilning estetik vazifasi ishtirok etadi. XX asrning ulkan nazariyatchi fizigi, Nobel mukofoti sohibi Lui de Broyl haqli ravish bilan ta'kidlaganidek "matematik formular uslub" bilan egallangan bilimlarni mustahkamlash mumkin, lekin adabiy tilning barcha vositalari yordamisiz bu bilimlarni rivojlantirib bo'lmaydi. Bu qanchalik g'ay-ritabiiy ko'rinmasin, "odatdagi adabiy til qat'iy formulalar tiliga nisbatan

o'zining bir qarashdagi noaniqligi bilan aniqroqdir". Badiiy adabiyot uslubini ham, ilmiy y boshqa uslublarni ham til estetikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fikrni qanday ifodalashga e'tib bor joyda, albatta, til estetikasi o'rtaga chiqadi, lekin, aytayliq badiiy adabiyotda u bor bo'yi b namoyon bo'lsa, boshqa bir uslubda ikkinchi planda bo'lishi mumkin.

Aytish lozimki, nutq madaniyatini kommunikativ vazifa bilan bir qatorda estetik vazifa tasavvur etib bo'lmaydi. Ko'rinadiki, madaniy nutq to'zish maqsadi o'rtaga qo'yilar ek hamisha til va nutq estetikasi e'tiborda bo'lishi shart. Til (nutq) estetikasini nutq madaniyatig aslo ajratib bo'lmaydi.

Nutqning madaniyligini, demakki, ta'sir quvvatini ta'min etadigan to'g'riliq anikdiq mantiqiy ifodalilik boyliq sofliq jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud (ular haq keyinroq batafsil to'xtalinadi). Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'z mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Tilshunoslikda "nutq madaniyati" termini, asos ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy va-ziyatga muvo tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilis ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatlarni mujassamlashtir qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va belgilash bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Nutqning kommunikativ sifatlari nafaqat aloqani ta'minlash, balki tinglovchi yoki o'quvch nutqiy ta'sirni kuchaytirishga xizmat kiladi. Shuning uchun ham kommunikativ va estetik ta maqsadida to'zilgan nutq(matn)ni "Nutq madaniyati" kursining predmeti deyish mumkin.

Nutqning to'g'riliqi, ya'ni uning adabiy til me'yorlari (talaffo'z, so'z yasalishi, leksi q morfolog sintaktiq uslubiy me'yorlar)ga qat'iy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Am har qanday to'g'ri nutq madaniy bo'lavermaydi, u mazkur boshqa kommunikativ sifat-larga h ega bo'lgandagina chin ma'nodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. Bu o'rinda yirik tilshunosi S.I.Ojegovning quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Yuksak nutq madaniyati — bu fikrlarini til vositalari orqali tug'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay olishdir. To'g'ri nutq hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib to'zilgan nutqqa aytiladi. Til me'yorlari — bu ijtime nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o'qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio va sh.k.)da um tomonidan qabul qilingan talaffo'z, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo yuksak n madaniyati faqatgina til me'yorlariga amal qilish-dangina iborat emas. U ayni paytda o'z fik ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (ya'ni eng ta'sirchan) va jo'yali (ya ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan o'rniga tushgan) vositala ham topa olish mahoratini ham o'z ichiga oladi." Nutqning to'g'riliqi uning markaziy si bo'lsa-da, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir o'zi bilan ta'minlash aslo mumkin em Shubhasizki, har qanday to'g'ri nutq ham aniq yoki jo'yali, sof yoki boy bo'lmaydi, umum etarli ta'sirchanlik quvvatiga sohib bo'la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniy muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining i bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar. Masalan, L.I.Skvortsov umumiy "n madaniyati" tushunchasini adabiy tilni egallash va undan foydalanishning ikki bosqich ifodalovchi "nutqning to'g'riliqi" va "nutq madaniyati" tarzida ikki qismga ajratish lozimlig ta'kidlarkan, ularga shunday izoh beradi: "Birinchi, quyi bosqich nutqning to'g'riliqi To'g'rilik haqida biz adabiy nutq va uning me'yorlarini egallash jarayonida gapiran Variantlarni nutqning to'g'riliqi sathidagi baholash: to'g'ri — noto'g'ri, ruscha ifoda — rus ifoda emas va sh.k... Nutqning to'g'riliqi mohiyatan maktab ta'liminiyu predmetidir. O maktab dasturi umumiy tarzda to'g'ri nutq (ko'proq grammatika sohasida) malaka

shakllantirish ko'zda tutadi. Adabiy tilni egallashning ikkinchi, yuqori bosqichi haqiqiy ma'nodagi nutq madaniyatidir. Nutq madaniyati haqida adabiy tilga sohiblik sharoitida, to'g'rilik (ya'ni adabiy me'yorlarni bilish) sharoitida gapirish mumkin. Variantlarni nutq madaniyati sathida baholash boshqacha: yaxshiroq - yomonroq, aniqroq, jo'yaliroq..." Tabiiyki, nutq madaniyatining birinchi bosqichisiz ikkinchi bosqichi ham mavjud bo'la olmaydi, to'g'rilik sifatiga bo'lmagan nutq, ya'ni noto'g'ri nutqda boshqa biron kommunikativ sifat bo'li-shi mantiqiy tashqaridir.

Nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga to'la mosligi sifatida talqin etilar ekan, me'yorlarning ikki xilini farqdash o'rinlidir. Tilshunoslikda adabiy til me'orlarining kuchli va kuchsiz tiplari ajratib ko'rsatiladi.

Nutq madaniyatining birinchi bosqichida, ya'ni to'g'ri nutq to'zish malakasini shakllantirish asosiy diqqat e'tibor adabiy tilning kuchsiz me'yorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chunki nutq amaliyotida kuchli me'yorlar deyarli bo'zilmaydi, kuchsiz me'yorlar esa nutq to'zuvchining ikkilanishiga va demaq nutq to'g'riligining bo'zilishiga ko'proq yo'l ochadi. Masalan, ega kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli sintaktik me'yor bo'lib, u bolalikdanoq kishining ongidan mustahkam o'rin olgan. Shuning uchun bu me'yorni qo'llashda biron kishi adashib, M. N. kelding shaklida jumla to'zmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llanishi bilan bog'liq me'yorlar esa kuchsiz me'yorlarga misol bo'la oladi. Shuning uchun bu me'yorlar chuqur o'rgatilmasa, odam adashib, -ning o'rnida —ni qo'shimchasini ishlatib, meni du.tim tarzida noto'g'ri birikma to'zishi mumkin.

Adabiy til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutq madaniyati masalalari o'zbeq rus va umumiy dunyo tilshunosligida ham amaliy, ham nazariy jihatdan ko'p vaqtlardan beri faol o'rganilgan kelinadi. O'zbek tilshunosligida S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, M.Sodiqova, Yo.Tojiev, B.O'rinboev, A.Mamatqulov, M.Asomiddinova, T.Qudratov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Boboeva, B.Umurqulov, A.Ahmedov, Q.Samadov, S.Inomxo'jaev, L.Xo'jaeva va boshqa ko'plab olimlar nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular yaratgan asarlarda o'zbek nutqi madaniyatining nazariy masalalari bilan bir qatorda bevosita amaliyotga daxldor, mavjud kamchiliklarni nuqsonlarni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Aytib o'tilganidek, o'qituvchining birlamchi va asosiy quroli nutqdir. Ammo hech kimga sir emaski, ko'pgina o'qituvchilarning, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning nutqida madaniylik jihatidan ancha-muncha nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Har qanday ta'limning asosiy va etakchi shakli darsdir, shuning uchun ham pedagogika fani uning samaradorligini oshirishning yo'llarini tinimsiz izlaydi, xilma-xil metodlar, usullar, vositalar ishlab chiqadi. Kunimizda ham ta'limga yangidan-yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy texnik vositalar muntazam va jadal joriy etilmokda. Ammo dars deyiladigan murakkab jarayonning mukammalligi hamda natijadorligini ta'minlash o'qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlari ko'zgusi bo'lmish uning so'zlashuvining favqulodda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining mahorati faqat o'qitishning xilma-xil metodlari bilan o'rinli va to'g'ri qo'llay olishidagina iborat emas, balki o'quvchi bilan muloqotidagi asosiy quroli — tildan ustalik bilan foydalana bilishi bilan ham belgilanadi. Ta'sirchan nutqi bo'lgan o'quvchi diqqatini butun dars davomida tutib tura olmasa, o'qituvchining pedagogik mahorati haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Darsning mazmuni va samaradorligi o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, umuman, madaniy bo'lishi bilan bevosita aloqadordir. Agar o'quvchi o'qituvchi nutqida noizchilliq tussizliq qashshoqliq mantiqsizliq noaniqliq uslubiy g'alizliq grammatik xato yong'irlik kabi nuq-sonlardan loqaqal birortasini sezsa, uning diqqati bo'linadi, bayon

qilinayotgan materialga bo'lgan qiziqishi susayadi. Qolaversa, material bunday no'noq nutq bilan bayon qilinganda, tabiiyki, o'quvchi uni qabul qilishda zo'rlanadi, darsdan ko'zlangan samaralar erishish mushqo'lashadi. Nutq texnikasi bilan bog'liq kamchiliklar (ayrim tovushlarni talaffuz qilolmaslik yoki yanglish talaffoz qilish, ovozning ortiqcha balandligi yoki pastligi, ovoz tembridagi sifatsizlik "shang'illagan" yoki "hirqiragan" bo'lishi, jumlada so'zlararo pao'za bo'lmislik yoki olmaslik nutq jarayonida to'g'ri nafas ola bilmaslik va sh.k.) ham dars samaradorligiga oldingi ko'rsatilgan nuqsonlardan kam salbiy ta'sir qilmaydi. O'qituvchi nutq madaniyatini nafaqat o'z puxta egallagan bo'lmog'i, balki o'quvchilarini ham unga odatlantirmog'i kerak.

"O'qituvchi nutqi madaniyati" kursining asosiy vazifalari talabalarni nutq madaniyatining o'z tushunchalari bilan tanishtirish, bo'lajak o'qituvchilarda til vositalari va ifoda imkoniyatlarini kommunikativ va estetik maqsad hamda nutq vaziyatiga o'ta muvofiq tarzda foydalana olish malakalarini, nutqning barcha kommunikativ sifatlari mohiyati bilan oshno etgan holda buning sifatlarga ega nutq to'zish mahoratini shakllantirish, og'zaki madaniy nutqning muhim o'z bo'lmish nutq texnikasini yaxshilash bilan bog'liq ko'nikmalarni yo'zaga keltirishdan iborat. Nozik til sezgisi, tilimizning benihoya boy an'analari va ifoda imkoniyatlaridan xabardorlik tamoman to'q va ta'sirchan nutqi bilan o'quvchi qulog'ini emas, balki qalbu shuo'rini zabt etish uning akdiy va ma'naviy dunyosini ken-gaytirishga bel bog'lagan o'qituvchi bugun o'qituvchisidir.

Adabiyotlar:

1, 2, 3, 19, 20, 33

Tayanch so'z va iboralar:

1. O'qituvchi
2. Nutq
3. Madaniyat
4. Iqtisodiyot
5. Tilshunoslik
6. Iqtisodiy bilim
7. Iqtisodiy taffakur
8. Iqtisodiy fanlar

Takrorlash uchun savollar:

1. Fanning vazifasi nimalardan iborat?
2. Nutq madaniyati deganda nimani tushunasiz?
3. O'qituvchining nutqi qanday bo'lish kerak?
4. Nutq madaniyati qaysi fanlar bilan bog'liq?

2-mavzu: Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari

REJA:

- 1. Madaniy nutq**
- 2. Nutqning asosiy kommunikativ sifatlari**
- 3. Nutqning to'g'riligi**

Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'riliq aniqliq mantiqiylik ifodalilik boyliq soflilik jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlarning mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (o'quvchi)ga etkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta'sirchanligini yo`zaga keltiradi.

Nutqning to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to'g'rilik mavjud bo'lgandagina yo`zaga kela oladi. Zotan, to'g'ri bo'lmagan nutqning aniqligi yoki mantiqiylik, ifodalilik yo'nalishi boyligi haqida gapirish mumkin emas. Aytish joizki, nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq to'zish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la moslik asosida yo`zaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan to'zilgan nutq to'g'ri nu bo'la olmaydi.

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bizning 42 ming yillik umumxalq tilimiz bor, adabiy tilimiz ana shu umumxalq tilimiz bag'richa rivoj topgan. Tabiiyki, umumxalq tili — tabiiy va tarixiy taraqqiyot jarayonlari ichidagi, ammo "andavlanmagan", "randalanmagan" til. U o'z go'zalligini qanday bo'lsa, shundayligicha asrlar osha asragan, ataylab pardoatlanmagan, me'yor degan qat'iy qoidalar zanjiridan ozod, muayyan hududga mansub goh behad noziq gohida mundayroq o'ziga xosliklarni, ya'ni shu til doirasida barcha sheva-larni ham qamragan tildir. Adabiy til esa ana shu xalq tilining, ta'bir joiz bo'lsa tarbiyali, ko'rkli va komil yagona "farzandi"dir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalq tili zaminida

tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida me'yorlashtirilgan, sayqallangan, o'zgarib berilgan shaklidir. O'zbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va ozikdanish manba ham ayni shu xalq tilidir. Bugungi o'zbek adabiy tilimizning boyligi va favqulodda ifodalanish imkonlariga egaligi aslida xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izoxlanadi.

Alabiy me'yor til unsurlaridan til sistemasi qonuniyatlariga uyg'un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalaridir. Adabiy me'yorning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatdagi nutqiy amaliyot va, ayniqsa, atokdi yozuvchilar — so'z ustalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xuddi shu amaliyotda barqarorlashgan so'z (yoki boshqa lisoniy birlik)ni qo'llash doimiy qoida shaklini oladi. Qizig'i shundaki, adabiy til me'yori nutqiy amaliyotdan olinadi va yana shu amaliyotda boshqarishga xizmat qiladi. Til me'yorlari milliy til birligi, butunligining bosh omillarida hisoblanadi. Ayni shu me'yorlar ko'p shevali o'zbek milliy tili egalarining nutqiy muloqotini birlashtiradi. Adabiy me'yorlar anchayin barqaror hodisadir, aks holda nutqiy aloqa qiyinlashishi tabiiy. Aytayliq bugun bu shakl me'yor, ertaga boshqa shakl me'yor bo'lsa, kishilarning birlarini anglashlari mushqo'lashadi. Masalan, muayyan so'z mavjud bir narsaga nisbat berilgan yasalgan va bu so'z adabiy me'yorga kirgan, ammo vaqtlar o'tishi bilan bu narsa o'rnini boshqa narsa egallaydi.

Me'yorlarni tamoman qotib qolgan narsa deb tushunish to'g'ri emas. Adabiy til me'yorlari ayni paytda dinamik hodisa hamdir. Til o'zining ijtimoiy tabiatiga muvofiq jamiyat rivoji bilan o'zgarib, bab-baravar tako-millashib borar ekan, tilning me'yorlari ham o'zgarib, yana mukammallashib boradi. Masalan, o'tgan asrning 30-yillarida buyruq maylining ikkinchi shakli ko'plik shakli sifatida —(i)ngiz shaklini qo'llash adabiy til me'yori edi lekin asr oxiriga kelib uning o'rnida —(i)ng shakli me'yorga aylandi.

O'zbek adabiy tili me'yorlarining xalq shevalariga ko'ra asoslarini ham to'g'ri tasavvur etmoq lozim. "O'zbek tilining lahjalari orasida, odatda, qorluq-chigil lahjasi hamda uning qarashli bo'lgan ayrim sheva va dialektlar o'zbek adabiy tilining tayanch sheva va dialektlari deb hisoblanadi. Bunda ularning talaffoz norma (me'yor)larini belgilashdagi roli, ko'pgina terminlarning ularda ilgaridan shakllanganligi, bu sheva vakillarining ko'p jihatdan milliy madaniyat va leksik an'analarimizni boshqarishda o'zlariga xos xizmatlari borligi asos qilingan... Ba'zi olimlar o'zbek adabiy tilining normalarini belgilashda Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Andijon, Farg'ona shevalarini esa morfologik jihatdan tayanch sheva deb hisoblaydilar. Toshkent shevasi poytaxt shahar shevasi sifatida leksik tomondan ham o'zining ko'pgina elementlarini adabiy tilga kiritgan va kiritmoqda. Lekin aslida A.K.Borovkov qay qilib o'tganidek o'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilining hamma dialekt va shevalari adabiy til taraqqiyotiga ma'lum bir hissa qo'shgan, ikkinchi tomondan, ularning har birida juda ko'p o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tiliga eng ko'p tarqalgan grammatik formalardan birini - hozirgi zamon fe'lining — yap affiksi bilan yasaluvchi formasini bergan. Bundan tashqari, Andijon va Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tilining asos talaffoz bazasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu shevalarning adabiy tilimizga o'zlarining fonetik xususiyatlari bilan ham maksimal darajada yaqinlashuvi shu bilan izoxlanadi. Bu shevalar o'zbek adabiy tiliga o'zlarining leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa til vositalari bilan ham hissa qo'shgan. Shunisi xarakterliki, bir qarashda o'zbek adabiy tilidan birmunchi o'zoqroq turgandek ko'ringan qipchoq shevalari ham o'zbek adabiy tiliga juda ko'p leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa grammatik vositalari bilan hissa qo'shgan.

Masalan, o'zbek adabiy tilidagi qaratqich kelishigining to'liq formasi qipchoq shevalarida qabul qilingan. Adabiy tilimizdagi hozirgi zamon fe'lining -yotir affiksi vositasida yasaluvc formasi ham qipchoq va o'g'o'z dialektlariga xos formadir va h.k...

Demaq o'zbek adabiy tilining rivojlanishida barcha dialekt va shevalar manba bo'lib xizmat qilgan. Lekin bundan qorluq-chigil lahjasiga oid dialekt va shevalar etakchi manba roli o'ynagan."

O'zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1)leksik (so'z qo'llash) me'yorlar;

2)talaffo'z (orfoepik) me'yorlari;

3)so'z yasalishi me'yorlari;

4)morfologsh me'yorlar;

5)sintaktik me'yorlar;

6)uslubiy me'yorlar.

Tabiiyki, adabiy tilning yozma shaklida imlo (orfografik) tinish belgilari (puntuatsion) me'yorlari ham mavjud bo'ladi. Bu me'yorlar mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlariga shuningdeq tarixiy an'analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tarafidan tasdikdanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug'atlarida o'z aksini topadi.Madaniy nutq malakasini puxta egallamoq, muayyan nutqning to'g'rilik sifatini xohlab baholay bilmoq uchun adabiy me'yorlarning mazkur tiplari, ularning asosiy qoidalari va bu qoidalarning bo'zilishi natijasida yo'zaga kelishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarni etarfi darajada tasavvur qilmoq maqsadga muvofikdir. Ayniqsa, adabiy til me'yorlarining kuchsi tiplari, agar etarli darajada egallanmagan bo'lsa, nutqda bo'zilishga moyil bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqilligi arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida ham o'zbek tilidagi evropacha o'zlashmalarni tildan chiqarishga qaratilgan xilma-xil fikrlash tavsiyalari o'rtaga tashlandi. Bu tavsiyalarning aksariyati ilmiy-ijtimoiy asosga ega emasdi, chunki bu fikrlarning mualliflari tilning mohiyati va qonuniyatlaridan bexabar edilar. Masalan, b yozuvchi hatto tovar so'zi o'zbek tiliga yot, uni iste'moldan chiqarish kerak degan da'vo bilan chiqdi. Holbuki, tovar so'zi sof turkiy bo'lib, u rus tiliga turkiy tillardan o'tgan. Aslida tug'+ — tug'ar (tug'adigan — tuvar — to'var — tovar shaklida paydo bo'lgan. Mol so'zining ma'no taraqqiyoti qanday bo'lsa, tovar so'ziniki ham aynan shunday. Faqat bu so'zlarning biri sharq turkiy tillarga, ikkinchisi esa g'arbiy turkiy tillarga xosdir. Demaq tovar so'zi o'zbek tilining ming yillik asl o'z so'zi sifatida yashashga haqli.

Ayni shu davrda aeroport so'zini tayyoragoh, gazeta so'zini ro'znoma, jurnalni majalla fakultetki kulliyot, filalogayani suxanshunosliq rayonni nohiya tarzida almashti-rishga harakat qilindi, matbuotda shunday qo'llana boshladi. Ammo baribir, bu so'zlar o'zbek tilining leks me'yoriga aylana olmadi. Bir xorijiy tildan kirgan so'zni boshqa xorijiy til — arab yoki fors til so'zi bilan almashtirish, tabiiyki, til leksikasi taraqqiyoti uchun hech narsa bermaydi, aksincha xalqni o'zi odatlangan so'zidan ajratadi, tushunishini qiyinlashtiradi.

Ayniqsa, o'qituvchi nutqida hatto maktab bilan bog'liq tushunchalar ifodasi uchun adabiy tilning lug'at boyligidan o'rin olib ulgurmagan so'zlarning qo'llanishi mutlaqo nojoizdir. Masalan, "Kichkintoylar nutqini o'stirish" nomli bir kitobda shunday jumla bor: Tarbiyachi xattaxta oldiga ikki nafar bolani chaqiradi.* Albatta, bu so'z ruschadan olingan doska so'zining muqobili sifatida yasalgan, lekin leksik me'yor maqomini olmagan. Aslida bunday yangi so'z yasashga ehtiyoj yo'q, chunki tilimiz tarixida ayni ma'noda qo'llangan taxta so'zi mavjud. Xonada o'ntacha est chang bosgan parta, kiraverishdagi devorga kattakon krra taxta qoqilgan

edi (Parda Tursun, "O'qituvchi" romani). Tilning leksik me'yorlarini yaxshi anglash, ulay avaylash va unga amal qilish to'g'ri nutq to'zishning muhim omillaridandir.

Mamlakatimizdagi jadal iqtisodiy islohotlar tufayli marketing, menejment, menejer, broker, lizing, birja kabi allaqancha xorijiy so'z o'zbek adabiy tilining lug'at xazinasidan joy olgan bo'lgurdi. Albatta, bu so'zlar yangi, ilg'or iqtisodiy g'oyalar bilan birga kirib kelmokda. O'zbek adabiy tilining talaffo'z (orfoepik) me'yorlari deganda, nutqda ayrim tovushlar, ularning qo'shilmasi, so'zlar, jumla(gap)larning ohangi (intonatsiyasi) va shu kabilarni to'g'ri talaffo'z qilish qoidalari nazarda tutiladi.

Ba'zan yoshlar yoki biron-bir xorijiy tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zlar boshqa til talaffo'z taomiliga moslab aytish kabi nuqsonlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, yanvar so'zini yinvar, Yaponiya so'zini Yipo-yaiya, dekan so'zini dekan, fakultet so'zini fakultet tarzida begona aktsent bilan talaffo'z qilish o'zbekcha talaffo'z me'yoriga ziddiyat. Tovush va so'z talaffo'zi bilan bog'liq bunday xatolar ancha-muncha bor.

Nutqning to'g'ri anglanishida mantiqiy urg'u, pauza, ohang (intonatsiya) ham alohida ahamiyatga ega. Aytib o'tilganidek ular bilan bog'liq qonuniyatlar ham o'zbek adabiy talaffo'z me'yorlarini belgilaydi.

O'zbek tilining o'ziga xos **so'z yasalishi me'yorlari** mavjud. Xar qanday yasaladigan so'z ham shu me'yorlar doirasida bulmog'i shart. Bu me'yorlarga amal kilinmasdan yasalgan so'zlar tilning lurat tarkibidan o'rin ololmaydi. Masalan, -gich (-rich, qich, -kich) qo'shimchasi faqat yasovchi qo'shimchalardan bo'lib, tilimizdagi mavjud so'z yasalish me'yorlariga ko'ra fe'lga qo'shiladi va narsa-kuro'l, ya'ni fe'ldan anglashilgan xarakatni bajaruvchi kuro'l otini yasaydigan so'z gich, tekislagich, chizg'ich, kirg'ich, qisqich, ko'rsatkich kabi. Bu qo'shimcha faqat turkumidagi so'zga mutlak o'ziga qo'shiladi. Lekin ba'zilar bu koidani bo'zib, tomirgich so'zini yasaydilar ("O'zbekistan adabiyoti va san'ati", 1990 yil 16 noyabr). Pul sog'rafni tomirgich deb aytish, o'zbek tilida bunday so'z yasash tilimiz tabiatiga tamoman ziddir. Chunki tomir so'zi turkumiga oid bo'lib, mazkur qo'shimchaning ma'nosi bilan uyg'unlasha olmaydi, demakki yangi so'z yo'zaga kelmaydi, Shuning uchun xam bu "so'z" tilimiz lutatiga kirmadi.

O'zbek adabiy tilining grammatikasi, ya'ni morfologiya na sintaksisi tilshunoslikda nazarda tutilgan jixatdan anchayin batafsil tadqiq etilgan, tilning morfologik va sintaktik kurilishiga xos koidalar konuniyatlar umumlashirilgan, deyarli barcha xolatlar koidalashtirilgan. Ularning tilshunosligimizdagi ko'plab ilmiy tadkikotlar, normativ grammatikalar, o'zbek tili bo'yicha umumta'lim va oliy maktablar uchun yaratilgan. Darsliklar, o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Ana asosda o'zbek tilida so'z shakllari, qo'shimchalarning ko'llanishi, so'zlarning qo'shilishi, so'z birikmalari va gap to'zilishi bilan bog'liq qoidalarning jami **grammatik me'yorlar** sifatida e'tirof etilgan.

Tabiiyki, grammatik me'yorlar morfologik va sintaktik - me'yoyrlardan tarkib topadigan. So'zlarning morfologik shakli ularning nutqda ko'llanishini tartibga soluvchi koidalardir. **morfologik me'yorlar**. so'zlarning birikish yullari, so'z biri-kmasi va gap to'zilishi bilan bog'liq koidalar esa **sintaktik mo'yorlar** deb yuritiladi.

Uslubiy me'yorlar nutq madaniyatining chukqisi xisoblanadi, bu me'yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maksadlaridandir.

Til kanchalik rivojlangan bo'lsa, uning uslubiy me'yorlari xam shunchalik barkrorlashgan va ranginlashgan, boyigan bo'ladi. O'zbek tili dunyodagi eng kadimiy va tarakqiy etgan tillardan biri sifatida o'zining tarang uslubiy me'yorlariga ega.

O'zbek tilida Quyidagi nutq uslublari farqlanadi: 1)so`zlashuv uslubi, 2)rasmiy uslub, 3)ilmiy uslub, 4) publi- tsistik uslub, 5) badiiy uslub. Bu uslublarning har biriga xoslangan grammatik shakllar, so`z, so`z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining asosidir. Anikroq aytiladigan bo'lsa, **uslub me'yorlar** muayyan soxadagi aloqani ta'minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash koidalari.

Uslubiy me'yorlarni puxta egallash, ularga ziyraklik bilan muntazam amal qilish malakalariga ega bo'lmoq uchun ko'p o'qish, o'rganish, qisqasi ko'p ter to'kishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, uqituvchi va asosiy quroli so`z bo'lgan boshqa kasb egalari bu me'yorlar bo'yicha malakalarini oshirish borasida muttasil shug'ullanishlari lozim.

Adabiy til me'yorlari bo'zilishining ikki to'rini farqlash lozim. Birinchisi shuki, so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yorlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yul kuyadi va to'zgan nutq noto'g'ri deb qaraladi. Ikkinchi holatda esa so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yorlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan, estetik maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu me'yorlarini bo'zadi va uning nutqi notug'ri deb hisoblanmaydi. Ayni paytda bunda holatlar bo'zilish deb emas, balki adabiy me'yordan chekinish tarzida baholanadi. Bu o'rinda tabiiyki, badiiy nutq nazarda tutilmokda.

Bir uslubga oid so`z yoki sintaktik to'zilmalar boshqa uslubga ko'chirilganda, til birliklarining eng nozik uslubiy va estetik imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Bu birliklar yumaloqlik, kinoya-kesatiq, xullas, komik ruhni ifodalovchi asosiy vositalardan biriga aylanadi. Komik ruhning kuchlilik darajasi esa ko'chiriladigan uslublarning bir-biridan qanchalik o'zokligi keskin farkanishi bilan bog'lidir. Boshqacha kilib aytganda, boshqa uslubga ko'chirilgan birliklarning bu uslubga "yot"ligi qanchalik kuchli sezilib, farkanib tursa, komik effekt shunchalik yuqori va sezilarli bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy asar tilida ko'proq rasmiy ilmiy-tantanavor uslublarga xos birliklarning kuchirilishi ko'zatiladi.

Rasmiy-publitsistik uslubda bu uslubning o'ziga xoslangan, uni xarakterlovchi so`z va sintaktik to'zilmalar juda ko'p. Ular hatto doimiy birikmalarga, iboralarga aylanib qolgan. Ularni eshitishimiz (yoki o'qishimiz) bilan ixtiyorsiz ravishda rasmiy-publitsistik uslub xayolimizga keladi. Aytish mumkinki, bunday birikmalar rasmiy-publitsistik uslubning o'ziga xos tamg'alari sifatida odatiylashib qolgan. Masalan, yutuqlarga erishmoq, ta'kidlab utmoq, keng muhokama qilmoq, aloxida e'tiborni qaratmoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq, misl ko'rilmagan darajada mustaxramlamoq, tarixiy voqealarga guvoh bulmoq, qayd qilmoq, faktlarga murojaat qilmoq va boshqa bir kator shu kabi so`z, so`z birikmalarini esga olish mumkin.

Badiiy so`z ustalari so'zlarni boshqa uslubga kuchirib kullar ekan, turli xil estetik imkoniyatlarni yo`zaga chiqaradilar. Badiiy nutqda adabiy tilning grammatik uslubiy yo' boshqa me'yorlaridan badiiy-estetik maqsad bilan chekinilishi adabiy til me'yorlarining nain bo'zilishi, balki badiiy nutqning mutlaqo o'ziga xos me'yorlarining voqe bo'lishi tarzida baholanadi. Nutqning tug'riligi sifati badiiy uslubda ana shunday o'ziga xos bir tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy nutqda ko'zatiladigan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari va bunin oqibatida yo`zaga keladigan estetik ta'sirning qimmatini idrok etmoq uchun, albatta, adabiy til me'yorlarini puxta bilmoq lozim.

Adabiyotlar:

1, 2, 3, 19, 20, 33

Tayanch so`z va iboralar:

1. O`qituvchi
2. Nutq
3. Madaniyat
4. Me`yor
5. Talaffo`z (orfoepik) me`yorlari;
6. So`z yasalishi me`yorlari;
7. Morfologsh me`yorlar;
8. Sintaktik me`yorlar;
9. Uslubiy me`yorlar.
10. Nutqning to`g`riligi

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning kommunikativ tasnifi nimalardan iborat?
2. Nutqning to`g`riligi deganda nimani tushunasiz?
3. Nutqning to`g`riligini bo`zuvchi vositalar qanday bo`lish kerak?
4. Nutqning to`g`riligi bo`zilgan matnlar bilan ishlash.

3- mavzu : Nutqning aniqligi

REJA:

1.Nutq aniqligi

2.Narsa va tushuncha aniqligi

3.Nutq aniqligining ahamiyati

Kishilar o'rtasidagi mulokotni talab darajasida ta'minlay oladigan nutq to'g'ri bo'lishi bilan bir qatorda aniklik sifatiga ham ega bo'lishi shart. Agar nutq aniq bo'lmasa, so'zlovchi etkazdirmoqchi bo'lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to'lasicha va aynan anglanishi mahol. U holda fikr chala yoki yanglish tushunilishi mumkinki, bu anik bo'lmagan nutqning kishilar o'rtasidagi tabiiy va normal muloqot uchun yaroqsizligini ko'rsatadi.

Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o'zining "Ritorika" kitobida nutqning asosiy fazilati uning anikligida ekanligini aytib, "agar nutq aniq bulmasa, u o'z maqsadiga erisha olmaydi" degan ta'kidlaydi. Shu narsa ham haqiqatki, nutqning maqsadi, ya'ni aytilmoqchi bo'lgan fikrning o'z aniq va ravshan bo'lmasa, uni ifodalash uchun to'ziladigan nutq hech qachon aniq bulolmaydi. Nutqiy ifoda aniq bo'lishi uchun, avvalo, nutq to'zuvchining o'zi aytmqchi bo'lgan fikrni tniklashtirib olishi kerak. Ko'pincha tadqiqotchilar ulug' rus adibi L.N.Tolstoyning "So'zda noanikdiq shubhasiz, fikr noanikligining alomatidir" degan gapini iqtibos qiladilar. XVI asrda yashagan frantsoz faylasufi Mishel Montening quyidagi gapida ham katta ma'no bor: "Men Sukrotning xulosalariga tayangan holda uylaymanki, ongida biror narsa haqida tirik va aniq tasavvur shakllangan odam bu tasavvurlarni har qanday tilda, tarabar shevasida (tushunib bo'lmaydigan) bo'lsa-da, ifodalay oladi." Albatta, narsa-hodisalar haqida ongda aniq tasavvurlarning shakllanishi uchun tafakkur kilish lozim bo'ladi. Narsa-hodisalarni tug'ri va aniq; nomlay olmasliq tabiiyki, ularni yaxshi bilmaslik oqibatidir. Tafakkur qila olmaslik yo'q, tafakkur tanballigi aniq nutq to'zishga imkon bermaydi. Zotan, til va tafakko'ning dialekt birligi hakida ko'p⁸⁹ gapirilgan, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yuq, bizning barcha bilimlarimiz til va tafayusurga ko'ra hosil bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi.

Real voqeliq tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning nutqda tug'ri va yakqol ifodalanishi aniq nutqning asosiy mohiyatidir. Shuning uchun ham aniklik kommunikativ sifati nutqning voqelik o'rtasidagi mutanosiblik zaminida belgilanadi. Bunda, asosan, nutqdagi asosiy birlashtirish sanalmish so'zning tug'ri qo'llanishi nazarda tutiladi. Demaq nutqning anikligi so'zning tilda ma'nosiga tamomila muvofiq tarzda qo'llanishi, so'zning voqelikdagi o'zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat'iy mosligi asosida yo'zaga keladigan kommunikativ sifattir, Aniq nutqning malakasining shakllanishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tildagi so'z ma'nolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga e'tibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

Nutqni aniq to'za olish uchun, aytilganiday, eng avvalo, so'zning leksik ma'nosini to'g'ri tasavvur qilish lozim. Quyidagi jumлага e'tibor beraylik: Avlodlar merosini o'rganamiz ("Ma'rifat", 1998 yil 3 iyun). Bu jumlada ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun avlod so'zining leksik ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Avlod so'zi asli arabcha bo'lib (uning birlashtirish shakli vala ya'ni "bola" demakdir), o'zbek tilida "bir ota-bobodan tarqalgan nasl", "bir davrda tug'ilgan usgan kishilar" kabi ma'nolarga ega, Hamonki, gap meros haqida ketar ekan, ajdod so'zini

qo'llanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha bo'lib, uning ma'nosi "ilgari utgan nasl-na sa ota-bobolar" demakdir. Shunga ko'ra mazkur jumla ajdodlar merosini urganamiz shakli to'zilishi kerak edi. Ko'rinadiki, avlod so'zi tildagi leksik ma'nosiga muvofiq tarz qo'llanmaganligi uchun nutqning aniqligiga. putur etgan.

O'zbek tilida aniq nutq yaratishga kumaklashuvchi vositalar juda ko'p. Nutq predmetin ifodalanmoqchi bo'lgan narsa-hodisani butun ikir-chikirlarigacha, turfa nozikliklarigacha ajratib ifodalash imkonini beruvchi sinonimlar qatori mavjudki, ular orasidan nutq predme ifodasi uchun eng uygunini tanlash orqali ham nutqning aniqligi ta'minlanadi.

Sinonimlar narsa-hodisa, harakat-holat, belgilarning eng kichiq hatto sezilar-sezilmas noz qirralarini, ularga bo'lgan sub'ektiv munosabat va yana qanchadan-qancha o'ziga xosliklar farldab ko'rsata olar ekan, nutq to'zishda juda katta tanlash imkoniyati mavjudligi tabii Shubhasizki, tilning sinonimlarga boyligi so'z tanlashga benihoya ehtiyotkorlik bila munosabatda bulishni talab etadi. Xususan, tilimizning ulkan xazinasini bo'lmish sinonim boyligini chukur va mukammal egallamasdan turib, nutqning aniqligi, ravonligi, ifodaliligig erishish mumkin emas. Kishidagi lug'at zahirasining kambag'alligi fikr ifodasini kashshokligiga, so'z qo'lashdagi ko'pol noqisliklarga, so'zlarning ma'nolaridagi tovlanishlar ilgay olmaslikka olib keladi.

Tilimizdagi dars, mashg'ulot, saboq so'zlarida ma'nodoshlik bor, ammo ularning qo'llanish farkli. Shunga qaramasdan, ularning biri o'rnida ikkinchisini yoki aralash ishlatish natijasid nutq aniqligining bo'zilishi hollari ko'zga tashlanadi. Masalan, "Kichkintoylar nutqini o'stirish nomli qo'llanmada bu so'zlarning uchalasi ham aralash ishlatilgan: 19-mashg'ulot. Mavz "Saboq"... Hozir qanday saboq? — deb suraydi tarbiyachi. — Hozir o'zbek tili sabog'i,- deb b ovozdand javob beradilar bolalar... Hozir o'zbek tili darsi. Dars sinfda davom etyapti (61-62 betlar). Bu nutqni aslo aniq deb bo'lmaydi. Saboq so'zi eskilik bo'yog'iga ega bo'lib, u tarix mavzudagi matnda qo'llanishi mumkin, bu so'zning hozirgi tilda ikkinchi, kuchma ma'no ("ibrat, namuna") faol ishlatiladi: turmush saboqlari, tarix saboklapu kabi. Mashg'ulot so'zini ma'nosi umumiy, umuman mashg'ulliq masalan, amaliy mashg'ulot, sport mashg'uloti, tugara mashg'uloti deyish mumkin, lekin tugarak darsi, sport darsi deb bo'lmaydi. Mazkur matnda nu predmetini aniq ifodalaydigan so'z fakat dars so'zidir, maktab amaliyotida ham aynan shu so keng tarqalgan.

Keyingi paytlarda ba'zan familiya so'zining muqobili yoki sinonimi sifatida tarif so'zi mutlaqo notug'ri va ma'nosiga zid qo'lash uchrab qolmokda. Mazkur qo'llanmada o'qiyim Tarbiyachi: Sening isming nima? Bola: Mening ismim Nosir. Tarbiyachi: Sening sharifin nima? Bola: Mening sharifim Usmonov (11'1-bet). Eski kitobiy uslubda Ismi sharifingiz nima shaklidagi ibora bo'lib, uning mazmuni "Sharafli, muborak ismingiz nima?" demakdir, b iborani "Ismingiz va familiyangiz nima?" tarzida behad dumbul tushunish oqibatida familiyat sinonim "ixtiro qilingan". Bu "ixtiro" nutqning aniqligi bilan bir qatorda tilning va mantiqin mohiyatini ham ishdan chiqargan.

O'zbek tilida shkaf va javon so'zlari aynan bir narsani bildiradi, bunday sinonimlar tilshunoslikda dubletlar deb ham atashadi. Kamida, Fapb bilan bog'liq mavzudagi nu bo'lganda, shkaf so'zini qo'lash ma'kul bo'lar, har holda, bu so'z rus tilidan kirgan. Lekin ul ifodalagan predmet bevosita bir narsa, shuning uchun ularning ikkalasini birdaniga, boshq boshqa predmetlar nomi sifatida qo'llash nutqni mavhumlashtiradi, tinglovchi yoki o'quvchi b ikki so'zga tegishli ikkita predmetni topolmaydi. Quyidagi nutqdagi fikrni tinglovchi an tasavvur qila olmaydi: Tarbiyachi shkaf va javon suratlarini ko'rsatib, bir necha bor "Bu javop

"U shkaf" deydi (S.Jo'raev, H.Qodirov). To'g'ri, qaysidir bir shevada bu so'zlar ifodalagani buyumlarda farq bordir, ammo adabiy tilda unday emas.

O'zbek tilida sovg'a, hadya, tortiq, tuhfa so'zlari sinonimlardir. Gazetalardan birida man bunday yozilgan: Mirmuhsin ushbu asari bilan adabiyotimizga... munosib kuvonchli tuhfa hady qildi ("O'zbekiston madaniyati", 1977 yil 14 oktyabr). Boshqa bir gazetada esa Quyidagicha yoziladi; ...Fermer xujaligi raxbari... o'z hadyasini tuhfa etmoqda ("Xalq so'zi", 2006 yil 4 iyul). So'zlarning leksik ma'nosi to'g'ri anglanmaganligi, ularning sinonimligi nazarda qochirilganligi bois mazkur jumalarda aniklik sifati yuqolgan. Ajratib ko'rsatilgan tuhfa hady qildi, hadyasini tuhfa etmokda birikmalari tautologikdir, ya'ni ayni bir mazmun ikki mar ta'kidlangan, bu normal nutqda aniklikka xalaqit beradi. Mana bu jumalarda ham ana sh sababga ko'ra nutqning aniqligiga putur etgan: Uning (raqamli texnologiyaning) afzall shundaki, iqtisodiy sarf-xarajatlarni ancha tejaydi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 17 iyun) (sar xarajat, albatta, iqtisodiy bo'ladi). Musaxon aka... o'tgan asrning 1913 yili... Qozon universite meditsina fakultetiga tahsil olgani boradi ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul) (o'tgan asr bo'lganda keyin 1913 yili emas, balki 13 yili bo'lishi kerak).

Aniq nutq to'zishda so'zlarning ko'p ma'noliligi, ya'ni polisemiya hodisasiga alohida e'tib berilishi lozim. Tilda birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan so'zlar juda katta mikdorni tashkil etad bu ham aslida tilning o'ziga xosligi va boyligini ko'rsatadi. Ammo ayni shu holat ham nu to'zuvchidan ziyraklikni talab etadi. Ingliz adibi Jona- tan Svift "Gulliverning sayohatlar romanida utkir satira tili bilan xayoliy Lagado akademiyasining hayotdan ajralib qolgan olimla ustidan kular ekan, ularning so'z vositasida emas, balki narsalar vositasida o'zaro muloq kilishlarini tasvirlaydi. Guyoki so'zlar narsalarning nomi bo'lganligi uchun yanglish anglanis ham mumkin, shuning uchun narsalarning o'zini ko'rsatish orqali fikr almashish ma'qulrokd Asarda olimlar suhbat uchun bir erga boradigan bo'lsa, fikrini bildirishga kerak bo'ladiga narsalarni ham qopda olib borgan, ya'ni har bir olimning lug'at zahirasi shu qopning hajmig bog'liq, bo'lgan . Bu kulgining asosi - so'zning ko'p ma'noliligidan gul va dumbul tasavv bilan qo'rqish. Hajv ustasi Svift tilning mu'jizaviy tabiatidan bexabarlik ustidan qo'lganda bo'ladi.

O'zbek tilida kasal so'zi polisemantik bo'lib, uning 7 ta ma'nosi qayd etilgan, ya'ni "organizm normal faoliyatining bo'zilganlik belgisi (sifat)", 2)"organizmining normal faoliya bo'zilgan kishi", 3) "organizm normal faoliyatining bo'zilganlik holati, kasallik" 4)"kutul bo'lmaydigan odat", 5)"kamchiliq illat" va h.k. Parchada bu so'z ikkinchi va uchinchi ma'nolar bilan ishlatilgan, lekin ikkinchi, ya'ni kasallik ma'nosida qo'llangandagi kontekst ayni ma'no emas, balki uchinchi, ya'ni bemor ma'nosini reallashtirish uchun qulaydir. Shuning uchu nutqdagi fikrning birdaniga aniq anglanishi bir qadar qiyin, bu ma'no ifodasi uchun to'g'rida to'g'ri kasallik so'zini ishlatib quya qolgan ma'qul edi. Ehtimol, so'z uyini chiqarishga harak qilingandir, ammo bu maqsadga erishilmaganday. Undan ko'ra kasallik so'zi qo'llanganda, ha nutq aniq bulardi, ham muayyan estetik effekt yo`zaga kelardi.

Shakldosh so'zlar, ya'ni omonimlarni ham farklay bilish so'zlarni to'g'ri qo'lash va dema nutqning aniqligini ta'minlashga yordam beradi. Omonimlarni qorishtirish natijasida yo`zag keladigan nutqiy noanikliklar ko'proq o'quvchilar nutqida ko'zatiladi, bu, albatta, ularda nutq kunikmalarning etarli darajada muntazamlashmaganligi bilan izoxdanadi. Bu borada nuqsonlarni, tabiiy, maktab ona tili ta'limi tarijiiy ravishda bartaraf etib boradi. Ayni paytda b masalada yirik tilshunos Sh.Rahmatullaev tomonidan to'zilgan "O'zbek tili omonimlarinin

izoxdi lug'ati" (Toshkent: O'kituvchi, 1984) ham yaxshi amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

O'zbek tilida talaffo'zi jihatidan o'xshash (bir xil emas), ammo boshqa-boshqa ma'noga ega bo'lgan bir qancha so'zlar bor, ular fonetik jihatdan bir-ikki tovushga ko'ragina farqlanadi. Bunday so'zlar tilshunoslikda paronimlar deb yuritiladi. Masalan: asl — asil, sado — saz, utsishli — utsimish- li, tansiq — tsishchis, yonilgi — yoqilsh, nufu'z — nufus, oro — aro (ora) qayda — qaydam, bola — balo, xayol — xiyol, afzal — abzal, ma'kul — maqol, tip — tif, sho — shoh, taxlit — tak/iug, taxrir — max, l.il, nogiron - nigoron, murojaat — munojot, ma'naviy — ma'naviy kabi. Bunday so'zlarni nutqqa olib kirishda juda ham xushyor bulish, so'zning ma'nosiga aloxida e'tibor berish zarur. Ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'lash bayo' qilinayotgan fikrning bo'zilishiga, juda bo'lmaganda, yanglish anglanishiga olib keladi. Ana nutq yo'zaga kelmaydi, fikrning aniqligi va ravshanligi tamoman yukoladi.

Badiiy nutqda qo'llangan paronimlarning ma'nosi bir- biridan qanchalik yiroq, bir-biriga qanchalik qarama-qarshi bo'lsa, ekspressivlik shunchalik aniq va kuchli bo'ladi. Chunki ohangdosh so'zlarning ma'nosidagi farqlilik karama- karshilik solishtirishni ko'tilmaganlik darajasiga olib chiqadi, ular o'rtasidagi kontrastlikni behad kuchaytiradi. Masalan, qabr — qab paronimik juftligida so'zlarning ma'nosida konkret qarama-qarshilik mavjud. Ular ifodalagan tushunchalarni bir-biri bilan yonma-yon kuyish ham bir qadar notabiiy. Bu so'zlarni she'ron yonma-yon quyish esa kuchli ekspressivlikni yo'zaga keltiradi, chunki so'zlar o'zaro ohangdosh, ma'no jihatidan esa qarama-qarshi ekanligi aniq ko'rinib turadi:

Nabilar, rasullar, dohiylar unda,

Qabrlar, tsasrlar turgandir qator

(A.Oripov, "Ona sayyora" she'ri).

Mazkur holatni mana bu misolda ham ko'rish mumkin: Bolasi yuklap bolaga qiziqadi. Lek bolaning balo bo'lgan i ham bor... (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Aniq nutq to'zish uchun qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning ma'nolarini etarli darajada bilish bilan bir qatorda ularning ishlatilish o'rinlarini ham aniq tasavvur etish zarur.

Tilimizdagi so'zlarning barchasi ham qo'llanish kulami jihatidan bir xil emas. So'zlarning aksariyati nutqda keng, faol qullansa, ayrimlari juda kam, nofaol qullanadi. Hozirgi til nuqt nazaridan ba'zi so'zlarda eskilik buyoBI mavjud bo'lgan ligi uchun ular "eskirgan so'zlar" nom bilan yuritiladi. Ana shunday eskirgan so'zlar nofaol qo'llanuvchi so'zlar sirasiga kiradi.

So'zlarning eskirishi, ya'ni bugungi adabiy til nuqtai nazaridan eskilik buyog'ini olishi tur sabablar bilan voqe bo'lishi mumkin. So'zlar, asosan, o'zi anglatgan tushunchalarning butunla yuqolib ketishi sababli yoki boshqa so'zlarning sikuvi, "tazyiqi" bilan faol qo'llanishdan chiqi eskirib qoladi. Birinchi holatda tushunchaning o'zi yuqolib ketgani uchun uni ifoda etgan so kishilarning faol lug'atida keraksiz bo'lib koladi. Ikkinchi holatda esa muayyan tushunchaning ifodasi bo'lgan so'zning o'rnini shu tushuncha ifodasi uchun yana ham qulayroq bo'lgan bopshcha so'z olishi natijasida oldingi so'z faol lug'atdan o'z-o'zidan chiqib ketadi. Tilshunoslikda birinchi sabab bilan eskirgan so'zlar istorizmlar, ikkinchi sababga ko'ra eskirgan so'zlar esa arxaizmlar deb yuritiladi.

Istorizm va arxaizmlar muayyan talab va maqsad bilan nutqda qo'llanadi. Istorizmlar o'zo utmish voqeligi haqida gap borganda, usha davr tushunchalarini nomlash maqsadida nutq olib kiriladi, chunki ular o'sha tushunchalarning yagona nomidir, hozirgi tilda uning mukobi yoki sinonimi yuq. Shuning uchun istorizmlar badiiy bo'lmagan har qanday nutq ko'rinishi ham, badiiy nutqda ham mazkur maqsad bilan qo'llanaveradi. Ular tarixiy davrni real tasvirlas

zaruriyati bilan ishlatiladi. Masalan: Har bir mingboshiga o'ntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan bo'lishibdi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Haram doirasi bukun shovqin-suronsiz edi. Podshoxring bir-biriga yaqin, lekin ayrim ayrim saroylarda yashagan xotinlari shoh xonadoniga mansub bir shahzodaning tuyiga ketishgan edi. Aksar qizlar — kanizaklar sultonning sevikli xotini Xadichabegimni ko'zatib borgani uchun "Bori safid'da, agar oqsochlar hisobga olinmasa, yigirma choqli ayol qolgan edi (Oybek, "Navoiy" romani).

Arxaizmlarning esa hozirgi tilda, albatta, sinonimi mavjud bo'ladi. Ana shuning uchun hozirgi arxaizm ishtirok etgan sinonimlar katoridan estetik va kommunikativ maksadan kelib chiqqan holda yo arxaik so'z, yoki hozirgi tilga oid so'z nutqqa tanlab olinadi. Tabiiyki, arxaik so'z muayyan estetik vazifa uchun xizmat qiladi. Bu, albatta, badiiy nutqda alohida qimmatga ega. Nobadiiy nutqda arxaizmlarni ishlatishda ma'lum bir me'yorni saqlash lozim, ularning keragidan ortiq ko'p bo'lishi nobadiiy nutqni chuchmallashtiradi yoki tushunilishi qiyinlashtiradi.

Badiiy nutqda arxaizmlar, avvalo, davr ruhini, tarixiy sharoitni ko'rsatish uchun ishlatiladi. Bu holat tarixiy mavzulardagi asarlar tilida ko'p ko'zatiladi. Bunday o'rinlarda arxaizmlar har xuddi istorizmlar bajargan vazifani bajaradi. Quyidagi misollarda totiq (jazo), ilik (qo'l), taqy (do'ppi) arxaizmlariga e'tibor qiling: Otabek ularning totiqlarini xo'p boplab berdi (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" romani). Iliq o'z o'rnida aziz. Ko'z o'z o'rnida mu'tabar. Agar ko'z bilan ilik bir-biri bilan nizo qilsa, bundan har ikkisi jabr ko'rar (P.Kodirov, "Yuldo'zli tunlar" romani).

Qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning yana bir guruhi kasb-hunarga oid so'zlardir. O'lkamizda qadim zamonlardan beri duradgorlik yogochsozlik kulolchilik naqqoshlik zargarlik zardo'zlik temirchilik kashtachilik to'qimachilik poyabzaldo'zlik kabi xilma-xil kasb-xunar tarmoklari taraqqiy topib kelmokda. Albatta, bu sohalarga oid tushunchalarning aniq atama bo'lgan ko'plab so'z va birikmalar mavjudki, ular tilshunoslikda kasb-xunar leksikasi nomi bilan umumlashtiriladi. Bu leksika, tabiiyki, mazkur sohalardagi jarayonlarni tasvirlaganda faqat qo'llanadi. Ta'kidlash joizki, mazkur kasb-hunar sohalari u yoki bu darajada xalqning kundalik hayoti bilan bog'liq. Aytayliq arra, tesha, bolta, randa, parma kabi bir qancha so'zlar duradgorlikka oid bulsa-da, o'lar kundalik hayotda ishlatiladi, demakki, bu so'zlar nutq muloqotda anchayin faol qullanishi tabiiy. Ammo kasb-xunar sohalari yurtimizning turli hududlarida mavjudligi hisobga olinsa, ularga oid so'zlarda sezilarli shevaviy farqlar bo'lishi ham tasavvur etish mumkin. Masalan, Farg'ona, Toshkent, Samarkand, Buxoro shevalarida, g'ulabur arra, dastarra, iskana, parma, bolg'a, andova, qirg'ich kabi so'zlar bilan ifodalangan duradgorlik qo'ruvchilik predmetlari Xorazm shevasida yorg'i, bichqi, qachov, burov, cho'kic yulmola, siyxoh kabi so'zlar orqali ifodalanadi.

Qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning yana bir katta guruhi terminologik leksikadir. Terminlar muayyan bir ilmiy yoki texnik tushunchaning yagona nomi sifatida nutqning aniqligini ta'minlashda behad muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'zlardir. Aniklik talabi nusxa uslublarning barchasiga kuyilsa-da, bu talab ularning hammasida ham bir xil darajada bo'lmaydi. Ayni talab rasmiy, publitsistik va ilmiy uslublarda alohida salmoq kasb etadi. Ayniqsa, ilmiy uslubda aniklik sifati birlamchi va bosh talab sifatida qaraladi. Ilmiy nutqning aniq va ravshan bo'lishi har Qanday fan rivoji uchun xalq qiluvchi ahamiyatga molik bo'lgan zaruriyatdir. Ilmiy nutq aniqligining asosiy ustunlari- dan biri esa, shubhasiz, terminlardir. Har qanday ta'limning bosh maqsadi muayyan fan asoslarini o'quvchi ongiga joylashtirish ekanligi ta'lim jarayonida, xususan, uqituvchining nutqiy faoliyatida terminlarning o'rnini benihoy

kattadir. Fanni chuqur bilmasdan to'rib, uning terminlarini etarli darajada bilish mumkin emas. O'z fanini mukammal biladigan o'qituvchi bu fanga oid terminlarning ma'no-mohiyatini tushunib biladi, demak o'z nutqida ularni o'rinli qo'llashda yanglishmaydi, u yoki bu termini noto'g'ri ishlatib, o'quvchisini ham adashtirmaydi. Aytish mumkinki, termini yanglish qo'llashning bosh sababi o'qituvchi yoki mutaxassisning fanni yaxshi bilmasligidan boshqa narsa emas.

Adabiyotlar:

1, 2, 3, 13, 16, 21, 23

Tayanch so'z va iboralar:

1. arxaizmlar
2. ilmiy uslub
3. termin
4. sinonim
5. Istorizm
6. Polisemiya
7. leksik ma'no

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning aniqligi deganda nimani tushunasiz?
2. Nutqning aniqligini bo'zuvchi vositalar qanday bo'lish kerak?
3. Nutqning aniqligi bo'zilgan matnlar bilan ishlash.

4-mavzu: Nutqning mantiqiyligi

Reja:

- 1.Narsa va tushuncha mantiqiyligi**
- 2.Nutq mantiqiyligiga zid holatlarda**
- 3.Matn to'zilishi va nutq mantiqiyligi**

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlardan biridir. Mantiqiylikdan maxrum bo'lgan biron-bir nutq kishilar o'rtasidagi tayinli aloqani ta'minlay olmaydi. Nutqning mantiqiyligini tug'rilik va aniklik sifatlaridan ajralgan holda ham tasavvur etib bo'lmaydi, chunki tug'ri va aniq bo'lmagan nutq hech qachon mantiqiy bo'lishi mumkin emas. Zotan, tug'ri va aniq bo'lmagan nutqdan mantiqiylikni izlab topib bo'lmaydi. Adabiy til me'yorlariga zid tarzda to'zilgan va tegishli birliklar noo'rin tanlangan nutqda mantiq begona bo'lishi tabiiy.

nutq to'zuvchi nutqning mantiqiyligiga erishishi uchun til birliklarining sintagmatik (qo'shilish) imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim. Lekin buning o'zigina etarli emas. So'zlovchi (yozuvchi), eng avvalo, bayon etmoqchi bo'lgan fikrini, bildirmoqchi bo'lgan xabarini va u bilan bog'liq tafeilotlarni, ayni paytda mantiq konuniyatlarini etarli darajada tasavvur etmas ekan, u mantiqda nutq to'za olmaydi. Bu o'rinda nutq to'zuvchining tafakkur qobiliyati juda-juda muhimdir. Ko'rinadiki, nutqning mantiqiy bo'lishida ham lisoniy, ham g'ayrilisoniy omil ishtirok etadi.

Mantiqiylik nutqning maqsad nishoniga bexato etishini, bu nishonni ortiqcha o'rinishlarsiz zabt etishini ta'min etadigan sifatlardandir. Mantiqiy nutq fikr tarkibini to'g'ri va aniq aks ettirishi bilan ta'sirchanlik kasb etadi, ayni paytda u tinglovchi idrokini zuriqtirmaydi. Har qanday mantiqiy fikr qanchalik murakkab bo'lmasin, nutq to'zuvchining mahoratli ko'magi bilan o'ziga loyiq va yarashikli, demakki, mantiqiy libosini kiya bilsa, tinglovchi shuuri uni osonlik bilan o'z bag'riga oladi.

Maktab ona tili ta'limida o'quvchilarda bog'li nutq malakalarini shakllantirishga, ijodiy va mustaqil matn to'zish kobilyatini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bu malaka va qobiliyatlarning tarkib topishi va rivojlanishini mantiqiy nutq tushunchasiz tasavvur ham etib bo'lmaydi. Mantiqiy nutq to'zish bog'li nutq to'zish, ijodiy matn yaratishning birlamchi asosidir. Buni, qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar har bir o'qituvchi hamisha yodda tutmog'i lozim.

Mantiqiy nutq to'zish uchun so'zlovchi fikr predmetini atroflicha bilish, mantiqiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo'lish kabi g'ayrilisoniy talablar bilan bir qatorda til birliklarining leksik-semantik mohiyati, ularning sintagmatik xususiyatlari kabi lisoniy bilimlarni ham nazardan qochirmasligi kerak. Aytayliq so'zlarning jumla tarkibida mantiqiy-mazmuniy zidaiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg'un qo'llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini etarli darajada bilish lozim.

Bir-biriga mantikan tamoman zid, qarama-qarshi bo'lgan, shuning uchun o'zaro alokalanirishi mumkin bulmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni jumlada munosabatga kiritish natijasida mantiqiylik bo'zilishi, hatto kulgili holatlar yo'zaga chiqishi ham ba'zan ko'zatiladi. Masalan, "qiyalik" va "chuqurlik", "chuqurlik" va "balandlik" kabi tushunchalar bir-biriga zid yoki, kamida, biri ikkinchisiga nisbatlanmaydigan tushunchalardir. Shuning uchun ham qiyalikning chuqurligi, chuqurlikning balandligi, chuqurlikning o'zunligi kabi birikmalarda mantiq sog'lom emasligi anik. Hech bo'lmaganda, chuqurlik degani "satxdan pastlik", balandlik esa "satxdan yukorilik" ekanligi tasavvur etilsa, bu ikki so'zni ko'shish mantiq muvozanatini qanchalik bo'zishi va kulgiga sabab bo'lishini anglash qiyin emas. Bunday mazmu- niy nosog'lom birikmalar qo'llangan ushbu parchada nutqning mantiqiyliqi haqida gapirib bo'lmaydi: O'zbekiston geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi bergan axborotga ko'ra, meteoritning qulashi shu qadar kuchli bo'lgan-ki, uning natijasida elliptik shakldagi qiyalik paydo bo'lgan. Qiyalikning chuqurligi taxminan 40 metrni, o'zunligi 10 kilometrni, eni 7 kilometrni tashkil etadi. Yo'zaning shimoli-g'arbida balandligi 60 metr va o'zunligi 1 kilometr bo'lgan chuqurlik paydo bo'lgan ("Darakchi", 2006 yil 24 avgust).

Ba'zan uyushiq bo'laklarni qo'lashdagi mantiqiy-mazmuniy xatoliklar tufayli ham nutqning mantiqiyliqi putur etishi ko'zatiladi. Bir xil harakat-holat, belgiga mantiqan ega bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa-hodisalarni ifodalovchi so'zlar uyushiq bo'laklar tarzida qo'llanadi va narsa-hodisalarning biriga nisbatlanishi mumkin bo'lgan harakat-holat, belgi

ularning barchasiga tegishli bo'lib qoladi. Buning natijasida jumlada mantiq bo'ziladi. Masalan, ushbu jumлага diktat qilaylik: Buldozer, "Zil" avtomashinamiz miltiqning o'qiday uchadi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 20 iyun). Jumlada buldozer va "Zil" avtomashinamiz so'zlari bilan ifodalangan egalar uyushik holatda qo'llangan. Ular bildirgan narsalarning har ikkalasiga xam kesim vazifasidagi uchadi so'zi ifodalagan harakat nisbatlangan. Holbuki, buldozer bu harakat (buning ustiga, miltiqning o'qidayni) bajarishga mantiqan qodir emas, u "uchish" u yokda tursin, hatto tez yura olmaydi. Ayni shu o'rinda mantiq muvozanati bo'zilgan.

Nutq mantiqiy bo'lishi uchun fikrning ifodalanishiga zaruriy bo'lgan so'zlarning barchasi jumlada ishtirok etishi lozim. Ixchamliq qisqaliq lundalikka keragidan ortiq intilib, ba'zi so'zlarning tushirib qoldirilishi nutqdagi mantiqiylik sifatining izdan chiqishiga olib keladi. Mana bir misol: Tarbiyachi: Bolajonlar, endi urgangan so'zlaringizni bir chizib beringlar-chi? deb vazifa topshiradi. Bolalar qalam va daftarlarini olib, chiza boshlaydilar (S.Jo'raev, X.Qodirov)- Oddiy mantiqqa ko'ra, so'z chizilmaydi, balki yoziladi, rasm esa chiziladi. Mazkur jumlada ham rasm chizish haqidagi fikr aytilmoqchi. Aslida bu fikr ifodasi uchun Urgangan so'zlaringiz ifodalagan narsalarning rasmini chizib bering tarzida jumla kurulishi kerak edi. Ehtimolki, nutq to'zuvchi ixchamlik maqsadi bilan bir necha so'zni tushirib qoldirib, o'z nazdida shaklan ixchamlikka erishsa erishgandir, lekin mantikda jiddiy putur etgan. Mantiqning mujmalligi, nodurustligi hisobiga yo'zaga keladigan ixchamlik yoki lundalik nutqiy aloqa uchun aslo foydali emas, balki tamoman zararlidir.

Muayyan bir so'zning tushirib qoldirilishi ham nutqdagi mantiq muvozanatining yaxshigina bo'zilishiga olib kelishi mumkin. Gapda so'zlar tartibining tug'ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg'un bo'lishi mantiqiy nutq to'zishda jiddiy ahamiyatga molikdir. So'z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikki yoklama anglanishiga sabab bo'ladi. Masalan: Loqaydlik tufayli ko'rsak ham indamaymiz ("Xurriyat", 2006 yil 24 may). Bu jumladagi so'z tartibidagi saktalik sabab fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya'ni "loqaydlik tufayli ko'rish" (bu, albatta, mantiqqa zid) va "loqaydlik tufayli indamaslik". Aslida ifodalanmoqchi bo'lgan fikr ularning ikkinchisi. Jumladagi so'z tartibi Ko'rsak ham loqaydlik tufayli indamaymiz tarzida to'zilsa, mantiq o'zining tug'ri ifodasini topadi.

Nutqda mantikdy bog'likni tug'ri ifodalash uchun tildagi funktsional-sintaktik bog'lovchi vositalar bilan bir qatorda jumlar va abzatslar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarni aniq tasavvur etish lozim, aks holda nutqning mantiqiylikni ta'minlab bo'lmaydi. Ta'kidlash lozimki, mantiqiylik sifati nutqning barcha ko'rinishlari uchun xosdir, ammo bu sifat, ayniqsa, ilmiy uslubda favqulodda ayricha ahamiyat kasb etadi. Mantiqiylik ilmiy nutqning mohiyati bilan bog'liq sifatdir. Zotan, ilmiy tafakkur va ilmiy bayon mantiq qonuniyatlariga muntazam tobelikdagi faoliyat sifatida yashab keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka quyiladigan talablar tamoman o'ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur maxruli ekanligi bilan aloqadorligini har kim biladi.

Umuman, nutqning mantiqiyliqi fikr rivojining izchilligi, tushunchalar va fikrlar o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiyliqi, nutq predmetining aniqligi, fikr libosining fikrga majburiyatsiz loyiqliqi asosida yo'zaga keladi. Mantiqiylikdan maxrum bo'lgan matn nutqiy muloqot uchun yarashiqsiz va mutlaqo yaroqsizdir.

Adabiyotlar:

1, 4, 6, 17, 19, 27, 30

Tayanch so`z va iboralar:

1. Mantiqiylik
2. Badiiy nutq
3. Ixchamlik
4. Qisqalik
5. Lo`ndalik
6. Muloqot
7. Til birliklari
8. Narsa va tushuncha

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning mantiqiyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday vositalar nutqning mantiqiyligini bo`zadi?
3. Nutqning mantiqiyligi bo`zilgan matnlar bilan ishlash.

5- mavzu: Nutqning sofligi

Reja:

1.Adabiy til me'yorlari

2.Nutqni sofligiga putur yetkazuvchi unsurlar

3.Nutqni sofligi va badiiy asarlar

Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asilligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o'z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me'yorlardan kelib chiqiladi. Soflik sifati nutqning ana shunday baholash me'yorlaridan hisoblanadi. Aytish lozimki, nutqning bu kommunikativ sifati nutq bilan adabiy til va nutq bilan jamiyat munosabatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra nutqning sofligini nutqning adabiy til me'yorlariga va jamiyatdagi ma'naviy-axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta'riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur etkazuvchi unsurlarning asosiylari sifatida Quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: 1) shevaga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, ypg'y va talaffo'z; 2) o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar); 3) jargon va argo- lar; 4) dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar); 5) "ishlamaydigan" yoki parazit so'zlar; 6) idoraviy so'z va iboralar (kantselyarizmlar) va sh.k. Nutq to'zuvchi o'z nutqining sofligi haqida qayg'o'rar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo'llashdan tiyilishi lozim.

Ma'lumki, shevaga xos so'zlar adabiy tilning leksik me'yorlaridan tashqarida, shuning uchun ham uning nutqda ishlatilishi soflik sifatining bo'zilishiga olib keladi. Bu esa hatto nutqning tug'ri tushunilishiga ham xalaqit beradi. Masalan, Dasturxonga sumalak halisa, holvaytar va turli shifobaxsh ko'katlardan tayyorlangan somsalar tortiladi (S.Jo'raev, H.Qodirov) gapida Buxoro shevasiga xos bo'lgan halisa so'zining qo'llanishi nutqning sofligini bo'zgan, tabiiyki, bu so'zni boshqa sheva vakillari tushunmasligi ham mumkin. O'zbek adabiy tilida esa bu so'zning muqobili halimdir. Ayni paytda ta'kidlamoq joizki, badiiy adabiyot tili mutlaqo o'ziga xos nutq uslubi sifatida shevaga xos so'z va boshqa birliklarning muayyan maqsad bilan qo'llanishiga imkoniyat yaratadi. Sheva so'zlari va grammatik shakllari, ya'ni dialektizmlar badiiy nutqda aniq estetik vazifani ko'zda tutgan holda qo'llanadi. Ta'kidlash kerakki, dialek tizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va aynan qanday turlarining tanlanishi bilan ham bog'likdir. Badiiy asar tilida xam dialektizmlarning me'yoridan ortik darajada bo'lishi asarning estetik qimmatini va ta'sir kuchini pasaytiradi, asar tilining sofligiga, ravonligiga putur etkazadi.

Dialektizmlarni badiiy asar tiliga olib kirish o'ziga xos badiiy-poetik usuldir. Bu usul, albatta, dialektizmlar bilan adabiy til me'yorlarining munosabatiga asoslanadi, Ana shu munosabat asosida adabiy tilga oid so'zlar (va shakllar) bilan qarshilantirilgan dialektizmlar alohida estetik qimmat kasb etadi. Xususan, ular mahalliy koloritni kabarik tasvirlash, asar qahramonlarining nutqiy tavsifini berish uchun o'ziga xos imkoniyat yaratadi. Ayni paytda ular nutqiy ekspressiya, ifodalilik uchun ham xizmat qiladi.

So'z leksik dialektizm sifatida badiiy nutqda ishtirok etar ekan, adabiy tilda bu so'zning sinonimi mavjud bo'lishi mumkin. Bunda dialektizm adabiy tildagi so'zlar bilan semantik va stilistik jihatdan qarshilantirilishi natijasida mahalliy koloritning muhim qirralarini o'zida aks ettiradi. Masalan: Men buvimdan beruxsat mehmon chaqirmayman (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ma, bacham, choy- ni o'zing qaytar (O.Muxtor, "Yillar shamoli" romani).

Birovi "aba" deb mani chaqirmish (H.Sa'dulla, "Onaizor" she'ri). Muhammad Rahimxon qattiq kasalmish, ulli-ulli tabiblar ham kasalining davosini topolmayotganmish (J.Sharipov, "Xorazm" romani). Bu jumalardagi buvi (ona) Andijon-Farg'ona shevasiga, bacham (bolam) Buxoro shevasiga, aba (ona) Namangan shevasiga va ulli (katta, ulug') Xorazm shevasiga xos so'zlar bo'lib, ular kitobxon dikqatini o'ziga jalb etadi va tegishli hududlarga oidlikni alohida ta'kidlaydi.

Ba'zan adabiy tilda dialektal so'z ifodalagan tushunchani bildiradigan bir so'zdan iborat atama mavjud bo'lmaydi. Bu tushunchani ifodalash uchun bir necha so'zdan iborat tavsifdan foydalanishga tug'ri keladi. Bunday holatlarda yozuvchi mazkur dialektizmning o'zini ishlatib kuya qoladi. Ana shu tariqa ham nominativ, ham uslubiy maqsadga erishiladi. Tabiiyki, bunda muayyan mahalliy kolorit yorqin namoyon bo'ladi va, demaq dialektizm o'zining estetik vazifasini ham bajaradi. Masalan, Farg'ona shevasida qurigan jo'xoripoyaning bir bo'g'imini bo'riq deyishadi: ...Tor ko'prikning ustida bo'riq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi bo'lganimda, ikkala oyog'im kutarilib ketdi, shekilli, yiqildim (AQahhor, "Utmishdan ertaklar" qissasi).

Dialektizmlarning ekspressivligi ma'lum darajada ularning qo'llanish o'rni, ya'ni asarning qaysi qismida, personaj nutqidami, muallif nutqidami, manzara tasviridami va h.q. qo'llanishi bilan ham bog'liq. Masalan, badiiy asarning nomida qullangan dialektizm alohida va yorqin ekspressivlikka ega bo'ladi. Ularning ma'nosi bir so'z doirasidan chiqib, o'zida ramziy bir umumlashmani paydo qiladi. Ulkan so'z ustasi A.Qahhor qissalaridan birini "Sinchalak" deb atagan. Ma'lumki, sinchalak Farg'ona shevasiga xos so'z bo'lib, uning adabiy tildagi muqobili chittak so'zidir. Andijon shevasida uning jinqarcha tarzidagi muqobili ham bor (Jinqarchaday hamma vaqt va har qayda ko'rinib qoladigan bu "asl mingboshi"ga salom bermoqdan bellaringiz toladi. Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ammo bu uch so'z semantik-uslubiy jihatdan bir-biri bilan aynan teng emas, ular muayyan ma'no nozikliklari va shunga ko'ra ekspressivligi bilan farqlidir, Sinchalak so'zining ma'no strukturasi bu so'z ifodalagan kushning noziklik nimjonlik belgisi asosiy o'rinda turadi (Bu so'zning kelib chiqishi shevadagi sinchaloq (adabiy tilda jimjiloq) so'zi bilan aloqador. Andijon shevasida: Birdaniga tilla o'zukni o'z ko'zi oldiga olib bordi, u yoq-bu yog'ini aylantirib xo'p qaragandan keyin sekingina ko'l o'zatib, uni Umrinisobibining sinchalag'iga kigizib kuydi. Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Chittak so'zida bu kushning bir joyda turmasliq kunimsizlik belgisi, jinqarcha so'zida kichiklik va keraksiz serharakatlik belgisi bo'rtib ko'rinib turadiki, bu holat ayni so'zlar metaforik qo'llanadigan bulsa, ma'lum ma'noda salbiylik buyog'ining yo'zaga chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham tilni behad nozik tushungan yozuvchi asarning bosh qaxramoniga, o'zi alohida muhabbat bilan tasvirlagan tinchimas va g'ayratli ayolga nisbatan metaforik ifoda sifatida adabiy tilga xos chittak so'zini emas, balki shevaga xos bo'lgan sinchalak so'zini ko'llagan (Qissaning tarjimoni atoqli rus yozuvchisi K.Simonov ham buni juda yaxshi anglagan. Shuning uchun asarning nomini ruschaga adabiy tilga oid sinitsa so'zi bilan emas, balki ptichka-nevelichka birikmasi bilan mohirona tarjima qilgan). Ana shu tarzda sinchalak dialektizmi konkret estetik qimmat kasb etgan.

Badiiy asarda kaxramonlarning nutqiy tavsifini, tasvirlanayotgan xududga xos mahalliy koloritni yaratish va ekspressivlikni yo'zaga keltirish kabi maqsadlar bilan, asosan, muayyan sheva uchun eng xarakterli bo'lgan dialektizmlarnigina qo'llash etarli hisoblanadi. Albatta, dialektizmlarni badiiy nutqda qo'lashning turli yullari, usullari bor. Ayrim hollarda

dialektizm qo'llanadi-da, agar u keng kitobxonlar ommasiga etarli darajada tushunarli bulmasa, sahifa ostida bu so'zga izoh beriladi. Masalan: Zumrad: "Ayollar noziq ular ...yo'z kilo paxta joylangan qopni ko'tarib, o'smasak bo'lib qolish uchun yaratilmagan!" — deb aytdi (O.Muxtor, "Yillar shamoli" romani). Sahifa ostida o'smasak dialektizmiga izoh berilgan: "Nogiron" demoqchi. Buxoro shevasi.

Ba'zi hollarda esa matn ichida dialektizm adabiy tilda mavjud bo'lgan sinonimi bilan yonma-yon holatda keltiriladi. Masalan: Mexryunxonaning devorlaridan biriga shoti — narvon kuyilgan (I.Sulton, "Istehkom" pesasi). Shu sulfayu yutal mani axir xarob qildi (N.Aminov, "Elvizak" qissasi). Ko'rinib turganiday, birinchi misoldagi shoti dialektizmi adabiy tildagi narvon so'zi bilan yonma-yon keltirilgan va bu dialektizm mahalliy kolorit (Farg'ona) ifodasi uchun xizmat qilgan. Ikkinchi misolda esa sulfa so'zi dialektaldir (u tojik tilidan utgan bo'lib, ma'nosi "yutal" demakdir). Uning adabiy tildagi yutal mukobili ham keltirilgan, ham mahalliy kolorit, ham personaj tavsifi ta'kid olgan.

Ma'lumki, ayrim shevalarda kelishiklarni almashtirib qo'lash ko'zatiladi, ya'ni bir kelishik qo'shimchasi o'rnida boshqasi ishlatiladi. Bunday qo'lashlar, ya'ni grammatik dialektizmlar badiiy nutqda qahramon nushchini xarakterlovchi yordam vositalardan biridir (bunda ular bilan bir qatorda dialektal so'zlar ham ishtirok etishi mumkin). Avvalo, grammatik dialektizmlar adabiy tilning grammatik me'yorlaridan tashqarida bo'lganligi uchun kitobxon diqqatini o'ziga tez jalb qiladi, o'quvchiga g'ayritabiiy tuyuladi. Grammatik dialektizmlar ayni shu g'ayritabiiyligi bilan estetik assotsiatsiyalarni paydo qiladi, nutqning xududiy mansubligini osonlik bilan ta'kidlaydi. Masalan: Sizning Toshkentingizga Toshxon, Toshbibi degan ayollar bormi? Bale, bizning Buxor tiliga Sangcha degani Toshkent tilit Toshcha degani. Onalari "Boshing toshdan bo'lsin, do'xtarim", deb shunaqa ism kuyadilar. Oyti degani asli Oytuta degani. Bu Oyxola degan ma'no beradi, o'rislarning "tyota" degan so'zi ham shundan olingan bo'lishi kerak. Sizlar erkaklarni "mulla aka" deysizlar, biz "akamullo" deymiz, "opamullo" deymiz. Do'xtir opaning ismi dokumentga boshqacha. Ya'ni Istat Fo'zaylovna. Tushundingizmi? (S.Ahmad, "Azroil o'tgan yullarda" hikoyasi).

Har bir shevaning o'ziga xos fonetik qonuniyatlari mavjud. Shunga ko'ra u yoki bu sheva vakili adabiy tildagi so'zlarni ham ko'pincha nutqa e'tiborsizlik tufayli ana shu qonuniyatlarga mos tarzda talaffo'z qiladi. Talaffo'zdagi ana shunday shevaga xos farqli holatlarning adabiy asar tiliga kiritilishi muallifning personajni individuallashtirish, turmush tarzi, mahalliy muhit va turli sharoitlarni badiiy ishonchli va etnografik aniq, real tasvirlash kabi maqsadlari bilan o'zviy bog'langan bo'ladi. So'zlar talaffo'zidagi bunday kichik farqliliklar badiiy asarda juda katta ekspressiv vazifani bajaradi. Bunday fonetik dialektizmlar, asosan, Personaj nutqida qo'llanadi. Albatta, ular dialektizmlarning boshqa turlariga qaraganda badiiy nutqda erkinroq ishlatiladi, chunki talaffo'zdagi u qadar katta bo'lmagan bunday farqlar keng kitobxonlar ommasining (ular qaysi sheva vakillari bo'lishidan qati nazar) bu so'zlarni erkin tushuna olishiga aslo xalaqit bermaydi. O'quvchi bu dialektizmlarning ekspressivligini, estetik qimmatini aniq seza oladi. Misollar: Shunaqa ekanmi? Voy tuvva-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy tuvva-ey!.. — deb uning eng qitit keladigan joylariga chang solishardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ilgari noyib turaning mamilasini, sizga nimalar deganini gapirib bering (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Bumam, birga ishlashar ekanmiz (Sh.Xolmirzaev, "So'nggi bekat" romani). Onam qal'adan galdimi? — deb so'radi (J.Sharipov, "Xorazm" romani).

Dialektizmlar, ko'rib o'tilganiday, badiiy nutqda kattagina estetik vazifani bajaradi, ammo bunda muayyan me'yorni saqlash, imkon qadar qo'shimcha izoh talab qilmaydigan, o'quvchi umumiy kontekstdan ma'nosini tushunib olaveradigan dialektizmlarni ishlatish maqsadga muvofiq.

O'rinsiz qo'llangan chet birlik ya'ni adabiy til me'yorlariga kirmagan so'zlar, birikma va iboralarning nutqqa kirib qolishi, shuningdeq boshqa til sintaktik qoliplari asosida jumla to'zish nutqning sofligini bo'zishi tabiiy.

Atoqli adib Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asarida nutqning ("uslubning") umumiy zaruriy sifatleri ("hollari") tarzida to'g'rilik ("to'zuklik"), aniqlik ("ochiqlik"), soflik kabilarni taxdid etar ekan, xususan, soflikka shunday ta'rif beradi: "Uslubda soflik so'z to'zushda, gap to'zushda yotchilik ko'rsatmasliq asarda yot so'zlar yo eski onglashilmas so'zlarni kirgizmasliq yot tillarning nahviy qo'idalariga qarab gap to'zmaslikdir.

O'qug'uchilarning qaysilarikim, tirishmaylar o'z bilimlarini orttira olmaslar deganimizda gapning to'zulishi o'ruschaning gap to'zulishiga ergashgan, uning ta'siri bilan bo'lgandir. Buning tug'risi: Tirishmayturgan o'quchilar o'z bilimlarini orttira olmaydilar shaklida bo'ladi."¹

Tilshunoslikda varvarizmlar deb yuritiladigan boshqa til birliklarini o'zbek tiliga o'zlashgan, adabiy tilning leksik me'yorlari sirasidan o'rin olgan chet so'zlardan farqlash lozim. Har qanday chet so'z emas, balki fakat varvarizmlar nutqning sofligini bo'zadigan unsurlar sifatida karala- di. Rus, ingliz, arab, fors va boshqa tillardagi so'z va birikmalarni o'zbekcha nutqda ishlatish, avvalo, nutqning sofligini tamoman yuqotadi, qolaversa, bunday qilish o'zbek tiligagina emas, balki ayni paytda mazkur xorijiy tillarga ham xurmatsizlikni ko'rsatadi. Ba'zi kishilar nutqlarida varvarizmlarni ko'llarkan, bu bilan o'zlarining boshqa til- larni ham bilishlarini, madaniy saviyasining yukoriligini ko'rsatgandek bo'ladilar. Aslida esa bu madaniy-ma'rifiy saviyaning pastligi, tafakko'ning torligi, ma'naviyatning qashshokligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nopisandlikning ildiz otganligini namoyon etuvchi holatdir. Masalan, zvonok chalindi (ko'ng'iroq chalindi), pererivga chiqdik (tanaffusga chiqdik), zvonit qildi (kung'iroq qildi), voobshche (umuman), koroche (qisqasi), tak (xo'sh) kabi bir qancha so'z va birikmalarning o'zbekcha nutqda bo'lishi nutq to'zuvchi til sezgisining tubanligi va ma'naviy dunyosining yuqligini ko'rsatishdan boshqa bir ishga yaramaydi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tmoq lozimki, ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarda misol, dalil sifatida boshqa tillardagi manbalardan fikrning aniqligi, ishonchliligini ta'minash maksadini ko'zda tutib aynan olingan, iqtibos qilingan xorijiy tildagi so'z, birikma va jumlar varvarizm deb baholanmaydi. Bu bayon qilinayotgan ilmiy fikrning asosligini, manbaga yondashuvning xolisligini kursatishga xizmat qiladigan maqbul usul sifatida dunyoning aksar mamlakatlarida, tillarida an'ana tusini olgan. Masalan, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" (Toshkent: O'qituvchi, 1992)¹³⁷ asarida fikrining dalili sifatida hadisi shariflarga murojaat etar ekan, oldin asl arabcha matini keltiradi, sung uning o'zbekchasini beradi: Rasuli akram nabiiyi muxtaram sallolloxu alahi vasallam afandimiz: "Xubbul-vatani minal imoni — Vatanni suymak imondandur", - demishlar... Rasuli akram nabiiyi muxtaram sallolloxu alayhi vasallam afandimiz: "Annajotu fissiddiqi — Najot rostlikdadur", — demishlar (28, 29-betlar).

Yoki, aytayliq adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda boshqa tildagi manbalar o'rganilganda, misol usha tilda, masalan, fors tilida keltiriladi va uning tarjimasi beriladi. Bu, albatta, ilmning maqsadi va tadqiqot tabiatining taqozosidirki, bunday holatlarda ham nutqning soflik sifati aslo zarar ko'rmaydi. Mana Alisher Navoiyning forsiy asarlari tadqiqidan parcha: ...Yozning boshlanishi ajoyib so`z uyini va jonlantirish san'ati bilan tasvirlangan:

**Fikand otashi ayyomi sayf dar olam,
Chu barshchi oh zi anfosi oshishi shaydo**

Yozning olovini olamga tushirdi. Bu xuddi shaydo oshshch nafasidan chaqilgan chaqmoqday edi).

Bu baytda "sayf" ikki ma'noli: 1)yoz va 2)qilich. Shu bois qilich va olov, qilich, olov va chakryuq shchyoslab olinib, chiroyli tasvir hosil qilingan. Ya'ni yozning otashi qilich dami — chakryushchay tushdi. Bu issiklik shiddati oshiq ohining shiddatini eslatadi.

Tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda ham bunday holat ko'zatiladi: Ot oborot (substantivnuy oborot) deb rus tilida ikki hodisa ko'rsatiladi: a) ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi, b) ajratilgan izoxlovchi. Ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi yakka so`z shakl bilan ham, birikma bilan ifodalanishi mumkin: Etu kashu, bez myasa i morkovi, kak mojno nazivat plovom?! O'zbek tilida sifatlovchining bunday turi yuq.

Varvarizmlar badiiy nutqda yozuvchining mahorati bilan o'ziga xos estetik vazifani bajaradigan vositaga aylanadi. Badiiy asardagi personajlarning milliy mansubligi, harakteri, ichki dunyosi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi bir qator jihatlarni ta'kidlab ifodalashda varvarizmlar alohida o'rin tutadi. Albatta, varvarizmlar, asosan, ayni shu personajlarning nutqida qo'llanadi.

Ko'pincha varvarizm qahramonning u yoki bu millatga mansubligini ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Miryokub biroz dovdiranib xonimning yoniga o'tdi.

Mumkinmi, xonim?

Xonim ko'zi bilan yonidan joy ko'rsatdi:

Pojalyusta... (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Ma'lumki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda obed, tolko,

rovno, prostoy, pryamo, tak kabi bir qator ruscha so`zlar keksayu yoshning jonli so`zlashuv tiliga kirib ketgan edi. Tabiiyki, bu so`zlar o'zbekcha talaffo'z bilan aytilgan. Ular varvarizmlar sifatida badiiy asar tilida usha davr ruhini biroz yumoristik fon bilan aks ettirishga yordam beradi. Quyidagi misollarda buni ko'rish mumkin: Sangcha chiqib ketar ekan, "Bilib kuyinglar, bolakaylarim, televizorni rovna soat o'nda o'chirib ketaman", dedi... Men unaqa mashxur odam emasman, po'ristoy polvonman, xolos... Tandirdan yangi o'zilgan, ushlagan kulni kuydiradigan moyli patirni shirchoyga turrab egan odam prama jannatga to'tadi (S.Ahmad, "Azroil o'tgan yullarda" hikoyasi).

Ba'zan badiiy nutqdagi varvarizmlar qaxramonning ham milliy mansubligini, ham ichki dunyosini, xarakterini bir chimdim achchiq kulgi bilan ochishga xizmat qiladi. Quyidagi misolda tatarcha va ruscha varvarizmlar ana shunday estetik vazifani bajargan: Bugungi yig'inga qatnashayotgan tuman partiya komitetining ideologiya ishlari bo'yicha sekretari Fatxullin o'tirgan joyida gapga kushildi:

O'xu, tolkoviy malay shul. Bundan otlichniy kommunist chiqqa. Ul partiya uchun atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasa yib ko'rsatdi. Buni o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay eyishi mumkin. Bravo, bravo!.. **139**Partiya safiga fidoyi patriot kelib kushilayotganidan gorjus! (S.Ahmad, "Bukdlamun bilan uchrashuv" hikoyasi).

O'tkir so'z ustasi Sayd Ahmad "Qorako'z majnun" nomli hikoyasida dinu imonidan, tilidan tongan, onaga muhabbatdan mosuvo bo'lgan, o'zga yurtni vatan tutgan, itdan-da tuban ug'il — Burixonning o'zi anglamagan fojiasini tasvirlar ekan, uni bor-yug'i ikki marta bir jumladan ruscha gapirtiradi. Ana shu ikki varvarizm bu xudo bexabar ug'ilning butun ichki qiyofasini namoyon etishga xizmat qilgan, salmolqi estetik qimmat bilan yukungan: Ug'li uning barridan chiqishga o'rinar, ammo kampirning qoq suyaq chayir kullari uni bushatmasdi.

Nu zachem, zachem plachet, mama, vot i priexal, xvatit, xvatit, — derdi ug'li...

...Qassob shunday deb kuyning burziga pichoq tortdi.

Nu zachem, zachem? — dedi Bo'rixon. — **Ved barana jalko, vse ravno ya stolko myaso ne em! U nas baranina ne edyat...**

Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb uylardi kampir... Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bulmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan. Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Yana shuni ham aytish kerakki, varvarizmlar badiiy nutqda engil yumoristik ruh ifodasi uchun ham qo'llanadi, bunda, aytayliq ruscha so'z o'zbekcha talaffo'z bilan bo'zib aytiladi: tolko — tolko, spletnya — ispletniy, stolovaya — istalovoy, zaveduyushchiy - zavidit kabi: Kampir mazasi yuq ayol. Tolka kelinini qiynagani qiynagan... O'zzukun yulakka utirib olib, o'tgan-ketganni **ispletniy** qiladi (S.Ahmad, "Hasrat" hajviyasi). Vey, vey, shchmoshcha yigitning guli tushadi. Ish bilgan odam har erda ham nonini topib ketaveradi. Stalovoyga zavidit bo'ldim. Ha, ushatdayam tortib turdik (S.Ahmad, "Nomi yuq tuy" hajviyasi).

Nutqning sofligiga soya solishi mumkin bo'lgan yana bir so'zlar guruhi jargon va argolaridir. Bunday so'z va iboralar, ya'ni muayyan kichik ijtimoiy qatlam (savdogarlar, ug'rilar, qimorbozlar kabi) va kasbiy doyra vakillari orasidagina tushunarli bo'lgan sun'iy yoki shartli tarzda yaratilgan birliklar o'zbek tilida u qadar ko'p emas. Masalan, ba'zi ana shunday ijtimoiy guruhlar orasida yakan, loy ("pul" ma'nosida) kabi so'zlar qo'llanadi. Yoki ba'zan bolalar uyin uchun guyo boshqalar tushunmaydigan "til" yaratadilar, bunda so'zning har buginidan oldin yoki keyin zi, ra, ba, sa kabi tovushlarni kushib aytadilar. Masalan, **Zi-ku-zi-tub-zi-xo-zi-na-zi-dan zi-ki-zi-tob zi-ol-zi-dim** kabi. Ammo aytish kerakki, o'zbek tilida bunday jargon va argolar ko'p emas. Albatta, tasvir zaruriyati, estetik maqsad bilan bog'liq holda bunday so'z va iboralar badiiy nutqda o'rni bilan qo'llanaverishi mumkin.

Umumtilda dag'al, haqorat so'z va iboralar ham mavjud. Ammo tilshunoslikda vulgarizmlar nomi bilan yuritiladigan bunday so'z va iboralar jamiyatda barqarorlashgan ma'naviy-axloqiy qoidalarga zid bo'lgan i uchun ularni nutqda kiritish nutqning sofligini tamoman izdan chiqarishi bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining hamiyatiga ham daxl qiladi. Nutqda vulgar so'zlarni ishlatish nutq to'zuvchining tarbiyalanganlik darajasining tubanligini ko'rsatadi, zotan, tarbiyalanganlikning mohiyati shaxsning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy va ma'naviy-axloqiy tartibotlarga so'zsiz va muntazam hurmat bi-

lan qarashi va demakki, qat'iy amal qilishidan iboratdir. Ming yillik milliy an'analarimizda ham, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya davlat siyosatining ustuvor yunalixlaridan biriga aylangan bugungi kunimizda ham sukinib gapiriga insonga behurmatliq nopisandliq hatto bezorilik sifatida baholanadi.

Aytish lozimki, faqat badiiy nutq ba'zan bunday so'zlarga o'z tarkibidan joy ajratadi. So'z san'atkorlari badiiy asarlarda, albatta, muayyan me'yorga amal qilgan holda qahramon xarakteri, ichki dunyosi, hissiy holati kabi jihatlar-ni kabariq, aniq, ochik ifodalash maqsadida vulgar so'z iboralardan ham foydalanadilar. Masalan, Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romanida Razzoq sufining kir va tang ma'naviy dunyosi, ma'rifatining muntazamsizligini xolis va ochiq tasvirlash niyati bilan uning nutqiga vulgarizmlarni kiritadi: Sufi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo'zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Kurvonbibiga o'zatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg'itdi va o'zining oddiy ovozi bilan:

Qanjiqlar! — deb baqirdi.

Yosh narsalar uynashsa nima bo'libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? — dedi Kurvonbibi.

Gapirma, eshak!

Cho'lpon vulgarizmlarni u qadar ko'p kullamaydi, kullaganda ham, asosan, xotin taloq qiztaloq, sintaloq, zangar, bachchag'ar, dayus, hez kabi nisbatan "engilroq" dag'al so'zlarga murojaat qiladi. Agar tasvirlanayotgan holat anchayin "og'ip" haqorat so'z yoki iborani talab etsa, yozuvchi ularni aynan emas, balki umumiy perifriza yuli bilan ifodalaydi va shchu tarzda nutqda ochiq vulgarizmlar me'yoriga qat'iy amal qiladi. Mazkur romandan bir-ikki misol: Mingboshi erkin-erkin kuldi:

Tavba de, betavfiq! Astag'furullo ge!

Miryokub astarfurullo o'rniga **uyat bir so'z aytdi...**

Mingboshi **nihoyat darajada odobsiz bir so'z bilan baqirib javob qildi.** Ikkala yosh xotin sekin-sekin orqalariga tisarilib o'z uylariga kirib ketdilar. Xadichaxon turgan joyida qotib qoldi...

Ba'zan so'z ustalari qaxramonning benihoya tarang hissiy-emotsional holati, alam va qahru g'azabini ifodalash uchun ham haqorat so'zlardan foydalanadilar. Masalan: Tergovchi Qo'chqor Jalol meni qamoqqa olgan kuniyoq oltinlaringni, boyliklaringni qaerga yashirgansan, deb kechasiyu kundo'zi uxlatmay so'roq qildi. Menda bunaqa narsalar yuq desam, ishonmaydi. Uradi, tepadi, ko'llarimni qayiradi... Qo'chqor Jalol **haromi, g'arning bolasi** bitta gapni biladi. Oltin, oltin qani?... (S.Ahmad "Azroil utgan yullarda" hikoyasi). Ana shunday beadoq gazab-nafratni ifodalash uchun

ayrim hollarda juda og'ir haqorat shaklidagi beodob iboraning qisqartirilib, ixchamlashtirilib qo'llanishi ham ko'zatiladi: Bu uydagi qimmatbaho buyumlar mo'zeylarda shchm topilmasdi... Men qamalгимda bolalarim bir chekkadan sotib usha onangni... Qo'chqorga oborib berishipty, na gilam qopti, na chinni asbob (S.Ahmad, usha hikoya).

Dag'al, haqorat so'zlarni o'rnida kayillatib qo'lashning betakror namunasini ulmas "Alpomish" dostonida ham kurish mumkin. Alpomishning singlisi Qaldirg'och "ahmoq qalmoq" elida tuqson alpning orasida talash bo'lib, ular zurumidan azoblar ichra urtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan upkalab, "Nomardsan!" desa kamlik kiladiganday,

Aka, aytgan so`zim og`ir olmagin,

Nar-moda ishini bunda qilmagin, — deydi. **Nar-moda** ("erkak-urg`ochi") vulgar so`zi Alpomishning alp qalbini qattiq silkitadi. Alpomish tuganmas hayrat va hasrat bilan:

Nar-moda deb meni silkib solasan,

Juda ham akangni nomard bilasan, — deydi. Shunda Qaldirg`och o`sha gaplarini yana ham qattiqroq, qamchinliroq qilib aytadi:

Har kim o`z elida bekmi, to`rami,

Nar-modalar sendan kamroq bo`lami,

Mardning yori toy-talashda qolami?! shu nar-moda so`zi o`zining qiyossiz ta`nador qudrati bilan Alpomishning yuragidagi hamiyat degan bikir tuyg`uni tiriltirib, uni Boychibarga mindiradi...

Tabiiyki, nutqqa olib kiriladigan har bir so`z va ibora, albatta, "ishlashi", muayyan ma`noni ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Nutq tarkibiga olib kirilgan so`z yoki ibora nutqning mazmuniy kurilishi uchun bir "rishtcha" bo`lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuq demakki, nutqning sofligiga xalaqit beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so`zlar deb ataladigan bunday birliklar ko`proq og`zaki nutqda ko`zatiladi. Aytilmoqchi bo`lgan fikrni etarli darajada aniq tasavvur qilmaslik fikrlar o`rtasidagi tizimli munosabat idrokining etishmasligi, fikrning kuyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yo`zaga keladigan o`zilishni, qanday bo`lmasin, "yopish", tegishli uyg`yn ifodani uylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta`minlash ehtiyoji bilan bog`liq holatda e- e-e, xm-m-m, he-e-e kabi tovush "oqim"lari, xo`-o`-o`sh, haligi, anaqa, masalan, demaq shu, innaykeyin, ya`ni, aytayliq bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang kabi lug`atlarda aniq ma`nosi mavjud so`z va iboralar ayni ma`nosidan begona qilingan tarzda qo`llanadi. Bunday qo`lashlar bora-bora nutq to`zuvchida o`ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir haligi, kimdir demaq yana boshqa birov bildingizmi so`zini og`zaki nutqida parazit so`z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so`zlar u yoki bu notiqning so`zlashuv uslubining o`ziga xos ko`rsatkichi bo`lib qoladi (hatto bu "ko`rsatkich" shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, "shu-shu" domla, "xo`sh-xo`sh" usta kabi). Bu, albatta, nutqning sofligini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan informatsiyani qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg`itadi, nutqning o`z maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham, ayniqsa, o`qituvchi va asosiy quroli so`z bo`lgan boshqa mutaxassislar parazit so`zlarning o`z nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim. Maktab o`quv- chilarida ham parazit so`zlarning nutqiy odatga aylanmasligi uchun o`qituvchi bu yunalishda doimiy ish olib borishi maqsadga muvofiq.

So`z san`atkorlari qahramon xarakteri, ma`naviy-ma`rifiy saviyasini ko`rsatishda badiiy asarda parazit so`z va iboralardan ham foydalanadilar.

Rasmiy ish qog`ozlari, umuman, idoraviy yozishmalar uslubida doimiy qo`llanadigan, turg`unlashgan, qoliplashgan so`z, so`z birikmasi va iboralar ham mavjudki, ularni ishlatishda aqlga kuch kelmaydi, ular ayni uslubda matn to`zishda nutqiy odatga aylangan. Tilshunoslikda idoraviy so`z va iboralar yoki kantselyarizmlar deb yuritiladigan bunday birliklar hujjatlar tili uchun zaruriy unsurlardir, chunki ularning qoliplashganligi ham nutq to`zishni, ham bu nutqni jadal tushunishni sezilarli darajada qulaylantiradi. Ammo

kantselyarizmlar soʻzlashuv, publitsistik va badiiy nutqda kiritilar ekan, nutqning sofliqi anchagina zarar koʻradi.

Muayyan nutqiy qoʻllanishda turgʻunlashgan soʻz va iboralarga ortiqcha ruju qoʻyish nutq toʻzuvchining oʻz nutqiga eʼtiborsizligi, kerakli ifodani tanlashga erinchoqligi, taʼbir joiz boʻlsa, undagi tafakkur tanballigi, ruhiy lisoniy loqaydliq "tayyorga ayyor" moyasiga moyillik tarzida baholanishi mumkin. Bunday nutqda nafadat sofliq balki tirik til sezgisi ham kulogʻini ushlab ketadi, unda nutq toʻzuvchining oʻz tili, koʻzi, qulogʻi, disqasi, tayinli qiyofasi ham boʻlmaydi. Bunday notiq jungina Er haydaldi jumlasini Erni sifatli haydash ishlari muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi shaklida toʻzadi (Yana ...tupni tepiishi ustalik bilan amalga oshirdi, ...binoni taʼmirlash amalga oshirildi kabi koʻplab ifodalarni eslash mumkin). Uningcha, rasmiy qolip "kuyuishchoni" shuni taqozo etadi. Chin soʻz zargari Abdulla Kahhor "Quyushqon" asarida bu holat hakida shunday yozadi: "Hozirgi vaqtda tilimizning boyligini, uning qochiridlarini oʻrganishga eringan, soʻz sanʼatiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch soʻzni yillar davomida aylantirib kun koʻrib yurgan bir turkum qalam aqlining "faoliyati", chala mulla baʼzi olimlarning "ilmiy xulosa"lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish mumkin ham emas, faqat yozib oʻqib berish mumkin... Bu tilning hech qaerga yozilmagan, lekin amalda joriy boʻlgan temir qonuniga koʻra "yaxshi ovqat edim!" deb yozib boʻlmaydi, albatta, "sifatli ovkatlandim" deb yozish shart. "Papiros chekadigan kishi gu- gurti olib yurishi kerak" deb yozish tugʻri emas, "Papiros chekish odatiga ega boʻlgan kishi oʻzini tegishli gugurt bilan taʼminlab yurishi kerak" deb yozilsa tugʻri boʻladi. Bu tilda latifa aytib boʻlmaydi, yozib boʻlmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xald iboralariga oʻrin yuq. Bu til har qanaqa jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa oʻynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorii gʻurbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani oʻlik chiqqan hovliga aylantiradi. ...Bir talay jurnalistlar, redaktorlar, notiqalar, lektorlar, agitatorlar singari bu odam ham mazkur tilni rasmiy, qaerdadir tasdiqlangan til deb bilar, bu tilda soʻzlanadigan oʻlik nutq jon kirgizgani qolinadigan har bir harakatni "Kuyushkrndan tashqari chiqish" deb hisoblar ekan. Lektorii, agitatorii gʻurbatning uyasiga, nutqni ogʻir yukka aylantiradigai bu "quyushqon"ni qancha tezroq uloqtirib tashlasaq shuncha yaxshiroq!"

Tabiiyki, turgunlashgan nutqiy qoliplardan qoʻtulish uchun, avvalo, tafakkurdagi qoliplardan voz kechish, mustaqil va ijodiy tafakkur malakalarini oshirib borish zarur. Bunga, ayniqsa, maktabda alohida ahamiyat berilishi kerak. Rasmiy uslubdan boshqa uslublarda qoʻllangan tayyor nutqiy krliplar oʻquvchining ijodiy tafakkur koʻnikmalarining tarkib topishi, barqarorlashishiga xalaqit beradi. Sof nutqning goʻzal namunalari boʻlmish har jihatdan pishiq-puxta badiiy asarlarni muntazam mutolaa qilib borish, bunda badiiy nutqda oʻz tajassumini topgan sofliq sifatiga doimiy diqqat qilish oʻz samarasini berishi tayin.

Adabiyotlar:

1, 3, 6, 12, 14, 26, 31

Tayanch so`z va iboralar:

1. Nutqning sofligi
2. so`z va iboralar
3. kanselarizmlar.
4. jargon
5. argolar,
6. parazit so`zlar,
7. vulgarizmlar,
8. varvarizmlar

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning sofligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday omillar nutqning sofligini bo`zadi?
3. Nutqning sofligi va tozaligi bo`zilgan matnlar bilan ishlash.

6-mavzu: Nutqning boyligi

Reja:

- 1.Co'z boyligini ta'minlovchi manbalar**
- 2.Nutq boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar**
- 3.Badiiy nutq va nutqning boyligi**

Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, "yukumli" tarzda etkazivda imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lmish boyligiga ham bog'liq. Boy nutq tinglovchining joniga tegmaydi, balki u bunday nutqni jon qulog'i bilan tinglaydi,

Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq kiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik to'zilmalar, iboralar va sh.k) dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boyluk darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksin- cha, muayyan til unso'rining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi. Ulug' Alisher Navoiy aytganideq "Bir deganni ikki demak xush emas, So'z chu takror o'ldi, dilkash emas". Shuning uchun nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boyluk tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan ulchanishiga urg'u beriladi. Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy (eramizdan oldingi I asr) "So'zlarning ko'shilishi haqida" nomli asarida nutqning rang-barangligi (boyligi) sifatining zaruriyati to'g'risida shunday yozadi: "Umuman barcha yokimli narsalarday hatto har qanday go'zallik ham tinimsiz takrorlansa, jonga tegadi; xilma-xil, rang-barang o'zgarishlarda esa bu go'zallik mangu yangi bo'lib qolaveradi,"

Boy nutq to'zish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli "libos"lar tanlash va kiydirish lozim. Buning uchun esa nutq to'zuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, notiq etarli darajadagi so'zlar, ularning ma'nolari, so'z birikmasi va gap modella ri, jumlaning intonatsiya va melodika turlari zahiralariiga sohib bo'lmog'i talab etiladi. Bu zahira qancha boy bo'lsa,notiq o'z nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul

birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi.

Leksiq semantiq grammatik intonatsion jihatdan rang-baranglik nutqning boyligini yo`zaga keltiradi.

Tayinki, faol lug'ati qashshoq bo'lgan leksik bisoti uch-to'rt ming so`zdan oshmaydigan kishining boy nutq to'zishi maxl. Boy, shirali nutq to'za bilmoq uchun, eng avvalo, ana shu bisot zangin va rangin bulmog'i shart. Atokli so`z san'atkorlarida, masalan, ulug' Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq rus shoiri Pushkinda 21 mingdan ortiq so`z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so`z boyligiga ega bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o'z nutqini boy, ta'sirchan, o'tkir bo'lishini istaydigan har bir kishi tasarrufidagi lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

Bor-yug'i 9 ta jumladan iborat ushbu badiiy nutq parchasida birgina kapalak so`zi 7 marta takrorlanganki, bu ham ayni nutqning leksik jihatdan boyligiga putur etkazganligini sezish qiyin emas: **...Kapolaklarni aytmay sizmi?** Bir-birini ko'vlab guldan gulga qo'nayotgan kapalaklarga mahliyo bo'lmay ilojing yuq. Bularning hammasi o'tkirni butunlay sexrlab kuydi. O'tkir o'rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalakka** ko'zi tushib qoldi. Buncha chiroyli o'chmasa. O'tkir **kapalakni** o'shlamoqchi bo'ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib o'shladim deganda, kapalak ko'z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo'lardi.

O'tkir **kapalakning** orqasidan qo'vlab charchadi, ko'p ovora bo'ldi. Axiyri kapalakni ko'zdan yuqotib kuydi (A.Sodiqov, "Tog'da" hikoyasi).

Mana bu jumlagaga e'tibor beraylik: Qo'llanmadagi uslubiy echimlar mashg'ulot rejasi va mashrulot matnidani iborat ikki qismdan iboratdir (S.Jo'raev, H.Qodirov). Bu jumlaning qashshokligi, nafaqat qashshokligi, balki uslubiy g'alizligi ochiq ko'rinib turibdi. Ayni bir iborat so`zi ikki marta takrorlanganki, bu nutqning boyluk sifatini tamoman ishdan chiqargan. Ayni holat, shubhasiz, nutq to'zuvchidagi so`z boyligining chegaralanganligi, o'z nutqiga e'tiborsizligi mahsulidir. Aslida mazkur iborat so`zining biri o'rnida, masalan, tarkib toptan yoki tashkil topgan ifodalari qo'llanganda, nutqning bu qadar qashshokligi yo`zaga kelmas edi.

O'zbek tili har jihatdan, xususan, lug'at xazinasini nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan tildir. Shuning uchun ham bu qadim tilda "oldidan o'tganda bugungi Ovrupo adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadigan" (Fitrat) adabiyot yaratilgan. Bu adabiyot, albatta, tilimiz so`z ganjinasining xira tortmas ko'z gusidir. Tilimizda muayyan bir tushunchani ifodalashning bir emas, balki bir qancha, xilma-xil imkoniyatlari mavjudki, ularni ishga solish, nutqning boyligini ta'minlashga xizmat qildirish uchun muntazam e'tibor va sa'y-harakat lozim bo'ladi. Ana shu e'tibor susaydimi, nutqning boyligi tushunchasining mohiyatiga putur etaveradi.

Tilimizdagi ana shunday xilma-xil imkoniyatlarning biri sinonimiya yoki ma'nodoshlik hodisasining benihoya kulamdorligidir. Ma'lumki, sinonimiya faqat so`zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik shakllar doirasida ham keng tarqalgan.

Matnda so`z takroridan qochishning eng sinalgan va maqbul yullaridan biri ayni shu so`z ma'nodoshligidan farosat va mahorat bilan foydalanishdir. Boburning bu boradagi betakror san'atkorligi haqida iste'dodli olim M.Olimov shunday yozadi: "Boburnoma" matnini ko'zatib, biz shunga amin bo'lamizki, hozirgi kunda qalam axdiga tanish bo'lgan

taxriri tamoyillari Boburga aslo begona bo'lmagan. U ham sahifalar ustida faqat ilhom bilan qalam uynatgan emas, balki ter to'kib mehnat qilgan, boqiy so'z dunyoga kelishining azobli to'lg'oklarini boshidan kechirgan.

Quyidagi parchani ko'zdan kechiraylik: Kypg'on eli yuqoridin bulag'a **dud** qildilar. Alar to'shukni berkitgan bila tutun yuqori ko'rg'on elig'ao'q yonib, ko'rg'on eli o'lum ichi bo'lub, qochib chiqtilar. Xush, nega Bobur dastlab dud so'zini, keyingi jumlada esa xuddi shu ma'nodagi shutun kalimasini qo'llagan? Tabiiyki, bu bekorga emas. Biz hozir uslubshunoslikda urganadigan va taxriri amaliyotida rioya qiladigan tak-rordan qochish tamoyili Bobur uchun ham qat'iy qoida hisoblangan.

Bobur Farg'ona viloyati haqida yozadi: Etti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimol jonibida. Boshqa o'rinlarda ham ushbu tushunchaga murojaat etishga to'g'ri kelganda, taraf va jonib so'zlari bir-biri bilan o'rin almashib keladi. Matn mazmuni izn bergan o'rinlarda esa bu so'zlarning boshqa sinonimlari qo'llanadi.

Quyidagi narchada barg va yaproq so'zlari o'zaro almashinib kelgan va matnga rang-baranglik baxsh etgan (ta'kid bizniki. — N.M.): Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo'ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog'i va qaro yig'och yafrot otqa sozvorroq emish. Yoki: Qalin kishisi uqqa, qilichqa borib, g'alaba kishisi ilikka tushti, suvda ham ko'p kishisi o'ldi."

Sinonimlar (lisoniy va nutqiy) ning bu tuganmas imkoniyatlaridan so'z ustalari hamisha unumli foydalanadilar. Misollar: Ikkala o'rtoqing sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan kuvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi... Xudo xadeb shunaqa insofsizlarga berar ekan-da! Biz bechoralarga ham bir narsa o'zatsa-chi!.. (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Kanal ko'prigidan oshib, cho'l tomonga jilovni burdim. Ot negadir tixirlik qilib, yurmay turib oldi. Jonivor bir-ikki qamchidan keyin ham oldinga jilish o'rniga orqasiga tisarilib, taysallardi (S.Admad, "Cho'l burguti" hikoyasi).

Ta'kidlash joizki, faqat takrorlangan bir so'z yoki bir so'z shakligina emas, balki so'z yasalishi va grammatik shakl yasalishida asos bo'lgan so'zning takrori ham nutqning boylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mana bu jumalarni ko'zdan kechiraylik: Xulosa qilib aytganda, islom dini va falsafasi yangi axloqiy komillikka intiluvchi tarbiyani vujudga keltirishga intildi. Bu intilish hamon o'z kuchida qolmoqda (M.Qodirov). Parchada intilmoq fe'li uch o'rinda asos sifatida takrorlangan. Birinchi jumladagi intiluvchi va intildi so'zlaridagi asos (intil) ning takrori nutqning boylik sifatini bo'zgai. Matn sintaktikasi qoidalariga ko'ra ikkinchi jumla tarkibidagi intilish so'z shaklining qo'llanishi o'rinli, ayni so'z shakli (harakat nomi) bu olmoshi bilan birgalikda mazkur ikki jumlaning o'zaro bog'lanishi uchun xizmat qilgan, ya'ni ...intildi. Bu intilish... Ammo birinchi jumlada takror qo'llangan intil- asosi mavjudligiga ko'ra bu uchinchi qo'llanish nutq to'zuvchining so'z zahirasida ifodalar tanqisligini yanada ta'-kidlaganday bo'ladi,

Ba'zan ana shunday takrorlangan leksik asoslar muayyan bir nutqiy parchadagi har bir jumlada ishtirok etadiki, bunday nutqning boyligi haqida gapirish qiyin. Qiziq— asosi turt marta takrorlangan ushbu misolda bunga ishonch hosil qilish mumkin: Ko'pchilik singari men ham sport turlaridan futbolga qiziqaman. Jahon va Evropa chempionatlari, mamlakatimizda hamda jahonning kuchli (?) birinchiliklarini qiziqish bilan ko'zatib boraman. Ayniqsa, futbol statistikasi bilan 25 yillardan buyon qiziqib kelaman. Qiziqarli futbol uyinlarini televizor orqali tomosha qilish bilan birga futbolga oid materiallar ham

beradigan "Erudit" gazetasini muntazam ravishda o'qib boraman ("Xurriyat", 2006 yil 18 oktyabr).

Muayyan bir grammatik shaklning keragidan ortiq takrori ham nutqning boyligini ta'minlashga xizmat qilmaydi. Bir jumla yoki undan katta nutq parchasida, masalan, bir kelishik shaklining takror-takror, qalashib kelishi nutqni g'ariblashtiradi, ayni paytda ifodalanmoqchi bo'lgan fikr o'zanini birdan idrok etilishini ham qiyinlashtiradi. Mana bu jumlaning ko'raylik: "Amsterdam — Pekin" avtorallisi yunalishiga O'zbekistonning ko'shilishi boy madaniy merosimiz va 15 yil oldin o'zining mustaqil taraqqiyot yulini tanlagan xalqimizning bugungi hayotiga jaxon jamoatchiligining katta qiziqishining yana bir tasdig'i bo'ldi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 1 avgust). Bir jumlaning o'zida 5 ta qaratqich kelishigi shakli qo'llangan. Bu jumlaning boy deb ham, anglanishi qulay deb ham, ravon deb ham bo'lmaydi. Holbuki, tilimizning grammatik imkoniyatlari ichiga chuqurroq kirilsa, mazkur takrordan qochishning ming bitta yulini topish mumkin. Xech bo'lmaganda, o'zining mustaqil taraqqiyot yuli so'z birikmasida belgisiz qaratqich kelishigi (o'z taraqqiyot yuli tarzida)ni qo'lash, xalqimizning bugungi hayoti so'z birikmasida bugungi so'zini ishlatmasdan belgisiz qaratqich kelishigi (xalqimiz hayoti tarzida) dan foydalanish, jahon jamoatchiligining katta qiziqishi birikmasidagi mazmunni jahon jamoatchiligidagi katta qiziqish shaklidagi boshqa sintaktik to'zilma orqali berish bilan 3 ta qaratqich kelishigi shaklidan qutulish mumkin edi. Morfologik va sintaktik sinonimiyaning mavjud imkoniyatlari etarlicha ishga solinsa, bu kabi holatlarda nutqning boyligini bimalol ta'minlash mumkin.

Muayyan bir mazmuniy munosabatni xilma-xil sintaktik shakllarda ifodalash mumkin, ya'ni tilda buning uchun boy sinonimik zahira mavjud. Masalan, sabab munosabatini o'zaro bu munosabat sodda gaplarda sabab holi orqali namoyon bo'ladi. Sabab holi odatda ravishdosh, ravish, turli kelishiklardagi yoki ko'makchilar bilan kelgan ot, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, takdidiy so'zlar bilan ifodalanadi, aytish mumkinki, sabab munosabatini ifodalaydigan sintaktik shakllar ana shunday xilma-xil va ko'p. Bu shakllarning faqat bittasinigina nutqda takror-takror ishlatish nutqning tussizligiga olib keladi. Bir badiiy matndan terib olingan ushbu jumalarda buni ko'rish mumkin: Unga yotoqxonada hozircha bush o'rin yuqligini aytishdi. Shu boisdan u Bozori gul mahallasidagi bir hovli boloxonasini ijaraga oldi... Elmurodni qishlog'ida ko'ngli ochiq, fe'li kengligidan talay qizlar yoki yektirishardi... Shodlanganidan yigitning yuragi uynoklab ketdi... Elmurod shu kuni uyalganidan derazani shart yopdi Dedi ota servant qiziga yoqqanligidan quvonib... ...Xursand bo'lganidan ko'ngli yayrab ketdi Prorabning so'zini erda qoldirganidan ko'ngli bir oz xijil edi... Tuyga bir qishloqi yigitni ergashtirib borayotganingizdan iymanmaysizmi?.. Ancha-muncha aroq ichganidan yonoqlapu lovullardi Ichimlik kayfiyatidan ancha dadillangan Irodasini hirs dovuliga tizginsiz tutqizganidan qiz dudoqlaridan... bo'sa olardi... Opasi ko'ngli siqqanidan unta ayrim yumushlarni buyurar... Zamira singlisining hurmati, mehri ortib borayotganidan g'oyat mamnun edi (S.Ravshan, "Manzillar" qissasi). Bunday holatda nutqning sintaktik rang-barangligi tamomap yuqolganligini ta'kidlamoq joiz.

Nutqning boyligini yo'zaga keltirishda tilning sintaktik vositalari favkulodda ahamiyatga molikdir. Ta'bir joiz bo'lsa, sintaksis ma'nolarning xilma-xil va rang-barang qatimlarini yaxlit bir butunlik holiga keltirib to'qiydigan mexanizm vazifasini utaydi. Shunisi yanada hayratlanarliki, bu yaxlit butunlikni ham faqat bir shakl yoki tus- dagina

emas, balki nutq to'zuvchi "usta"ning maqsadiga muvofiq va mahoratiga bog'liq holatda turfa shamoyil yoki ranglarga kiritishi mumkin. Ana shu shamoyil va ranglar yaxlit butunlik bo'lmish nutq boyligining poydor belgilari sifatida namoyon bo'ladi.

Tilimizdagi sodda va ko'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qolip (model) lari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo'lgan millionlab jumlar boy nutq to'zish uchun cheksiz-chegarasiz imkoniyatdir. Bulardan xabardor kishining nutqi qurilishi nuqtai nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumalardan tarkib topmaydi, ya'ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo'lmaydi. Bunday odamning nushchi, albatta, sintaktik kurilishi jihatidan rang-barang, demakki, boy bo'ladi.

Iste'dodli adiblar o'z asarlarining tili ustida ishlarkan, ayni shu sintaktik rang-baranglikka alohida e'tibor beradilar. Katta mahorat bilan yaratilgan badiiy asarlar sintaktik boy nutqning o'ziga xos namunalidir.

Abdulla Qahhor asarlarining sintaksisi bu jihatdan ham ulkan ibrat maktabidir, Ularda muayyan bir sintaktik struktura ketma-ket kelavermaydi, aksar hollarda gap strukturasi ko'p tarmokdi, ya'ni xalqning ayni jonli so'zlashuviga xos bo'lgan kurilish, tom ma'nodagi tirik nutq. Tirik nutq esa qashshok bo'lmaydi. Yozuvchining xalqchilligi u qo'llagan sintaktik birliklarda ham yaqqol ko'rinadi. Misol: U avval nemisni qarg'adi, keyin yigitdan koyidi:

— Axir, seni bola-chaqangdan ayirgan-ku shu qurib ketgurlar edi, uni otaman degan kishining nega qo'lini tutasan! Xat o'qiyotibdi emish-a! Bola-chaqasi bilan qo'shmozor bo'lmaydimi!.. O'ziga o'zi qilibdi-da ("Asror bobo" hikoyasi).

Bunday xalqona, rang-barang jumlar A.Kahhor asarlarida faqat qahramonlar nutqidagina emas, balki muallif nutqida ham muntazam ko'zatiladi. Yozuvchining deyarli har bir jumlasida jonli nutqqa xos sintaktik ohang baralla eshitilib turadi, muayyan bir gap qolipi ketma-ket qo'llanavermaydi, aksincha, xilma-xil gap qoliplari doimiy al- mashinib keladi. Masalan "Qizlar" hikoyasi mana bunday boshlanadi: Qani biron xolis odam bo'lsa, aytsin: butun O'zbekistonni qidirganda Nurmatjonga o'hshagan yigitdan yana bironta topilarmikin? Bo'lgan taqdirda ham u yoshligida oynaga qarab, Nurmatjonday "men qanaqa xotin olar ekanman" degan emasdir.

Ba'zi odamlar — hazilmi, chinmi — har xil gaplar tarqatishadi: yozda uning ketidan pashsha ergashib yurar emish. Yolg'on! Nima qiladi ergashib? Labining ikki burchi hamisha oqarib turadi deyishadi. Bu ham... kusus emas, balki fazilat — ma'sumlik nishonasi... Ko'rinib turganiday, parchadagi hech bir jumla sintaktik qurilish nuqtai nazaridan biri ikkinchisini takrorlamaydi. Sodda gaplarning ham, ko'shma gaplarning ham farqli va o'ziga xos koliplaridan foydalanilgan, ularga asosan to'zilgan jumlar o'rtasidagi aloqa ham juda mustahkam va tabiiy. Parchada intonatsion rang-baranglik ham o'quvchi diqqatini jalb etadi, xilma-xil tinish belgilari bunga ishora qilib turibdi. Ayni paytda qo'llagan sintaktik birliklar qurilishidagi o'ziga xoslik bilan bog'liq holatda ham intonatsion rang-baranglik ta'minlangan. Aytish kerakki, mustaqil jumalarning o'zaro bog'lanishi, bu bog'lanishni ta'minlovchi leksik-semantik va sintaktik-funksional vositalarning qo'llanishida ham A.Qahhor ijodi ibratlidir. Zotan, nutqning sintaktik boyligi ana shu bog'lovchi vositalarning rang-barangligi bilan ham o'lchanadi. Matnda takror-takror ayni bir bog'lovchi vositaning qo'llanishi nutqning qashshoklashuviga olib keladi.

Bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi, qashshoklashtiruvchi leksiqlik semantiqlik morfologiy sintaktik va intonatsion takrorlarni ifodalilik tasviriylik va ekspressivlikpi oshirish maqsadi bilan atayin qo'llanadigan

takrorlardap farqlash lozim. Ko'proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmunni alohida ta'kidlash, o'quvchi diqqatini tortish, ohangdorlikka erishish, missiy holatga urg'u berish kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Bu usul o'ziga xos nutq figuralari bo'lib, ular nutqning boylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, balki ijodkorning mahorati bilan ifodalilikni yo'zaga keltiruvchi vositalarga aylanadi. Masalan, Quyidagi she'riy parchalarda buni ko'rish mumkin:

Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,
Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.
Yurt bu kun oxuday xo'p ishvakordir,
Sir kabi seravjdir, Pomirday poydor
(A.Oripov, "Hamid Olimjon xotirasiga" she'ri).

Sen borsan — men uchun bu hayot go'zal,
Sen borsan — men uchun dilbar koinot.
Sensiz qolar edim zulmatda tugal,
Sensiz qolar edim butkul bemurod
(A.Oripov, "Sen borsan..." she'ri).

Ey dust!
Uchmoq uchun **qanot kerak qanot kerak**
Qanot kerak lekin uni **qoqmoq kerak**.
Qoqmoq kerak osmonlarni **quchmoq uchun**,
Quchmoq uchun sabot keraq sabot kerak
(A.Suyun she'ri).

Istaysizmi - yukmi, gardun aylana,
Istaysizmi —**yukmi**, qaytib kelaman.
Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay,
Istaysizmi — **yuqmi**, sizni sevaman
(I.Mirzo, "Istaysizmi - yuqmi" she'ri).

Tabiiyki, nutqning boylik sifati tilning faqat muayyan bir sathiga oid rang-baranglik bilan baholanmaydi. Nutq leksiqlik semantik morfologik sintaktik va intonatsion jihatlardan rang-barangliklarning jamul jami tarzida shakllanganda, chinakam ma'noda boy bo'la oladi. Shuning uchun nutq to'zuvchi bu jihatlarning har birini tugal tasavvur etmog'i maqsadga muvofiq.

Uslublar nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, nutqning boyligini ta'minlash uchun eng qulay makon badiiy uslub ekanligi shubhasiz. To'g'ri, publitsistik uslub ham nutq boyligining namoyon bo'lishi uchun yaxshigina imkoniyat beradi. So'zlashuv uslubiga oid nutqda leksiqlik semantik va, ayniksa, intonatsion rang-baranglik notiqning mahoratiga kura muntazam yo'zaga chiqishi mumkin. Ilmiy va rasmiy nutqda esa boylikka qaraganda mantiqiylik va qoliplashganlik ustuvorlik qiladi.

Aytish mumkinki, badiiy nutq o'z tabiati, mohiyati va maqsadiga uyg'un holatda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Qashshoq nutq hech qachon estetik ta'sir quvvatiga sohib bo'la olmaydi, estetik kuvvatsiz esa badiiy nutq o'zining bosh vazifasini bajarishi mushkul. Shuning uchun ham haqiqiy so'z san'atkorlari asar tilining boyligi ustida muttasil mehnat qilganlar, tinimsiz izlanganlar, tilning turli satxlaridagi rang-baranglikning betakror imkoniyatlarini kashf etganlar. Chinakam boy, rangin nutqning nodir namunalarini yaratganlar. Badiiy adabiyotimiz tili jamiyatimiz a'zolarining boy nutq to'zish sinoatlarini urganishlari uchun bitmas-tuganmas manba, o'ziga xos maktabdir. Bu benazir maktabning a'lochi o'quvchilari bo'lish o'zini madaniyatli, ma'rifatli, ma'naviyatli kurmoqni istagan har bir kishining burchidir.

Adabiyotlar:

1, 8, 11, 15, 18, 26, 31

Tayanch so'z va iboralar:

1. Nutqning boyligi
2. Estetik ta'sir
3. Uslublar
4. Takrorlar
5. Ma'nodoshlik
6. Intonatsiya
7. Badiiy nutq

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning boyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday omillar nutqning boyligini bo'zadi?
3. Nutqning boyligi va tozaligi bo'zilgan matnlar bilan ishlash.

7 - mavzu : Nutqning jo'yaliligi va ifodaliligi

Reja:

1. Nutqning jo'yaliligi va nutqiy muloqot

2. Nutqning og'zaki yozma shakllari

3. Nutqning ifodaliligi va uslublar

Agar nutq o'zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsayu har jihatdan juyali, ya'ni o'z o'rnida bo'lmasa, u maqsad manziliga borib etmaydi. Juyalilik yuq joyda nutqning boyliq aniqliq ifodalilik kabi muhim sifatlarining mohiyati yuqoladi.

Sharqning buyuk pandnomachisi Kaykovusning shunday ug'iti bor: "...Tilingni yaxshi xunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni urgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlattil so'z agar yaxshi bo'lsa ammo noo'rin ishlatilsa. garchand u har nechuk yaxshi so'z bulsa ham yomon nobop eshitilur (ta'kid bizniki. - N.M.). Shuning uchun bexuda so'zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki undan xunar isi kelmasa, bunday so'zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: "So'z bir nash'adur, undan humor paydo bulur".

Xalqimiz donoligining bebaho yombilari, o'ktam o'zbek so'zining ko'rki bo'lmish maqol va matallarda ham ayni fikr bot-bot ta'kiddangan. Ularning ayrimlariga quloq tutaylik: "So'zga tushmagan so'zni aytma, Sozga tushmagan — g'azalni"; "Juyali so'z juyasin topar, Juyasiz so'z iyasin (egasin) topar"; "Juyaga tuya ham chukadi"; "O'rinli so'zga tuya cho'kadi, O'rinsiz so'zga hamma so'kadi". Notiq nutq to'zar ekan, "tuyaning cho'kishi va hech kimning uni so'kmasligi" uchun nutqining juyasini, o'rnini aniq tasavvur qilishi shart. Masalan, kimningdir og'ir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun to'ziladigan nutqda ortiqcha chiroylilik jimjimadorliq kutarinkilik tantanavorlik bo'lmasligi lozim, aks xrla nutq juyali hisoblanmaydi.

Nutqning juyaliligi, aytish kerakki, nutqiy muloqotda jiddiy ahamiyatga ega. Bu sifat ("umestnost rechi") rus tilshunosi B.N.Golovin tomonidan juda yaxshi belgilangan.

Bu tavsifni ham hisobga olgan holda nutqning ayni sifatini shunday ta'riflash mumkin: juyalilik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday alokalanirish va bir-biri bilan bog'lashki, buning natijasida nutq konkret mulokotning maqsadi va sharoitlariga tamomila javob beradigan tarzda tarkib topadi. Ayni ta'rifdan kelib chiqqsa, juyali nutq ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchi yoki o'quvchilar tarkibining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa xususiyatlari, yozma yoki og'zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik va shu kabi vazifalariga tula mos kelishi asosida yo'zaga keladi.

Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy nutqning juyaliligi haqida gapirar ekan, muayyan bir mazmun uchun tanlangan ayrim so'zlar va ularning ko'shilishi o'rinli, boshqalari esa o'rinsiz bo'lishini ta'kidlaydi va borliqning o'zi bunga misol ekanligini aytib, shunday yozadi: "...Axir, biz jahlimiz chiqqanda va xursand bo'lgan imizda, noliganimizda va qurqqanimizda, boshimizga baxtsizligu musibat tushganida va qaygusiz, sokin xayollarga chumganimizda aynan bir xil so'z va so'z kutilishlaridan foydalanmaymiz-ku." Albatta, har qanday tilda fikrni ayni holatlarga uyg'un, ya'ni juyali ifodalash uchun etarli lisoniy vositalar mavjud.

Nutq uslublari haqida gap ketganda, ularning har biri uchun xoslangan til vositalari borligi hamisha ta'kidlanadi. Masalan, bir uslubga xoslangan soʻz, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga oʻtkazilishi nojoiz, oʻrinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarni uslubiy juyalilikning boʻzilishi tarzida baholash mumkin.

Bu oʻrinda aytish kerakki, juyalilik sifatini oʻrganishda nutqning yozma va ogʻzaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida juyalilik oʻziga xos tarzda namoyon boʻladi. Maʼlumki, yozma va ogʻzaki nutqning voqe boʻlish sharoitlari bir xil emas, shunga koʻra bu ikki nutq shaklining oʻziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning juyaliligiga putur etishi mumkin.

Yozma nutqda koʻp qoʻllanadigan, demakki, uyga xoslangan yuqorida koʻrsatib oʻtilganideq yuqorida aytib oʻtilganideq yukorida kurganimizdek; quyida kurib oʻtamiz, Quyidagi guruhlariga boʻlinadi, mazmuni Quyidagicha shaklidagi bir qancha sintaktik qurilmalar mavjud. Albatga, ular faqat yozma nutqda juyali, lekin bu iboralar ogʻzaki nutq tarkibiga kirarkan, nutqning juyaliligi tamoman boʻziladi. Oddiy mantiq bilan qaralsa, yozma nutq qogʻoz (yoki boshqa material) ga bitilgan boʻladi, sath, makon nuqtai nazaridan moddiylik kasb etadi. Sath, makondagina "yuqori" va "kuyi" tushunchalari maʼnoga ega. Ammo ogʻzaki nutqning moddiyiligi makonga emas, balki zamonga, vaqta koʻradir, yaʼni ogʻzaki nutq talaffoz paytidagina mavjud. Shunday ekan, zamonga nisbatan "yuqori" va "kuyi" tushunchalari maʼnoga ega emas. Zamon "oldin, avval, ilgari" va "keyin, sung" kabi tushunchalarni oʻz ichiga oladi. Koʻrinadiki, yozma nutqdagi, masalan, Yukorida taʼkidlanganideq mustaqillikni istamaydigan xalq yuq tarzidagi juyalilik sifatini mujassamlashtirgan jumla ogʻzaki nutqda Avval (ilgari, oldin) taʼkidlanganideq mustaqillikni istamaydigan xalq yuq shaklida berilsa, nutqning juyaliligi joyida boʻladi.

Baʼzan kishilarning ogʻzaki nutqida Yuqorida soʻzga chiq- qinlarnang hamma yaxshi tilaklariga biz ham qoʻshilib, yubilyarni chin dildan tabriklaymiz qabilidagi jumlar uchraydi-ki, yuqorida soʻz shakli tufayli nutqning nafaqat juyaliligi, balki mantiqiyiligi, toʻgʻriligi, aniqligi kabi sifatlari ham izdan chiqadi. Bu nutq juyali va boshqa sifatlarga ham ega boʻlishi uchun, masalan, Oldin (oldinroq, bizdan oldin, bizgacha) soʻzga chiqanlarning hamma yaxshi tilaklariga biz ham qoʻshilib, yubilyarni chin dildan tabriklaymiz shaklida boʻlishi lozim edi.

Nutq toʻzishda ifodalanmoqchi boʻlgan axborotning mavzusi, uning mantikiy va hissiy-ruhiy mazmuni anik; tasavvur qilinmogʻi va ana shularga uygʻun holatda til vositalari tanlanmogʻi kerak. Mavzuga, mantiqiy va hissiy mazmunga muvofiq boʻlmagan har qanday til birligi, sintaktik struktura, intonatsiya, hatto metafora, metonimiya, epitet, oʻxshatish kabi badiiy tasvir vositalari, maqol, matal, turli iktiboslarning nutqda begonaligi, bejoligi juda tez bilinadi va bunday nutqni juyali deb boʻlmaydi.

Aytayliq yaqin kishisini yuqotgan odamning hissiy-ruhiy holati maʼlum. Shunday odamdan kungil surash, unga taʼziya bildirish uchun toʻziladigan nutqda "oʻlmoq" maʼnosini ifodalash uchun aynan oʻlmoq soʻzini tanlash oʻrinli emas, bu soʻz soʻzlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning juyaliligini taʼminlash madsadida mazkur soʻzning vafot etmoq, boʻlmay qolmoq, oʻtib qolmoq, olamdan oʻtmoq, olamdan koʻz yummoq, u dunyoga ketmoq boqiy dunyoga rixlat qilmoq kabi "yumshokroq" (evfemistik) muqobillari qoʻllanadi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqda olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantig'i va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning juyaliligi haqida gapirish qiyin. Atoqli rus adibi M.Yu.Lermontov o'zining mashhur "Zamonamiz qahramoni" romanining dastlabki variantida oshiq ofitser Grushnitskiyning mundiridagi epo-letlar (maxsus pogon) ni ikkita kotletga o'xshatadi. Romanning keyingi tahririda esa bu o'xshatishdan voz kechadi va oshiq Grushnitskiyning epoletlarini Amo'ning qanotchalariga o'xshatadi. Ta'kidlash joizki, birinchi o'xshatish juda ham anik va konkret, chindan ham, epoletlar shaklan kotletga aynan uxshaydi, ammo oshiq qahramonning hissiy-ruhiy holati bilan mutlaqo bog'lanmaydi; ikkinchi o'xshatish esa oshiqning ruhiy holati bilan assotsiativ aloqadorlikka ega, ya'ni Amur — yunon afsonalarida sevgi xudosi demakdir. Shuning uchun ham ayni shu keyingi o'xshatish bejo yoki beta'sir emas, balki behad juyali va ta'sirlidir.

Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romanida, masalan, Razzoq so'fining eng mudhish, fojiaiy ruhiy holatini tasvirlar ekan, o'rinli, qahramon ruhiyatiga monand o'xshatishlarni qo'llaydi. Mana bir misol: Piyoladagi choyni yarim qoldirib, ko'chaga chiqqan vaqtida so'fi o'z-o'zini taniyolmay qoldi. Oyoqlari xuddi tobut ko'tarib borayotgan musulmonning oyog'iday bir-biriga tegmasidi.

Nutqdagi har qanday kiyoslash ham o'z o'rnida bo'lishi lozim. Noo'rin qo'llangan kiyoslash nutqning juyaliligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan mana bu jumladagi qiyoslashni juyali deb bo'lmaydi: Kishi hayotini saqlab qolish etti qavatli imorat kurishdan ham murakkabroq, deyishadi ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul). Avvalo, xech kim bunday demaydi, xalq orasida bunday matalnamo ibora yuq, demaq deyishadi so'z shakli joiz emas, Bunday kiyoslashning juyali emasligi shundaki, kishi hayotini saqlab qolish, albatta, murakkab va sharaflil ish, ammo uning murakkabligini aynan etti qavatli imorat qurish bilan solinttirishning biron-bir mantiqiy asosi ham, me'yorga daxldor ma'nosi ham yuq. Nega olti yoki sakkiz, un, yigirma qavatli imorat kurish qiyos etaloni sifatida olinmagan? Ko'rinadiki, mazkur jumlada nutqning juyalilik sifati oqsoq.

Mana bu parchaga e'tibor beraylik:

- Kechirasiz, o'zingizni tanishtirmadingiz.

- Asli farg'onalikman. Ismim Kamola. Hozirda ikkinchi oilam bilan Toshkentda yashayman.

O'z tug'ilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...

Albatta. O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l deganlari haq ekan ("Xonadon", 2006 yil 24 avgust).

Bu nutqiy parchadagi O'zga yurtda shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l maqoli o'z o'rnida qo'llanmagan, chunki bu kabi vaziyatlarga maqolning mazmuni muvofiq kelmaydi. Tabiiyki, Farg'ona va Toshkent boshqa-boshqa yurtlardagi shaharlar emas. Nutqiy olib kiriladigan maqol-mataldir, turli hikmatli so'zlardir yoki asarlardan olingan iqtiboslardir, albatta, nutq vaziyati, ruhiyati va mantig'i bilan uyg'un bulsagina, juyali nutq sifatini ola biladi.

O'z nutqining juyali bo'lishini istagan kishi nutq to'zar ekan, bu nutqni tinglovchi yoki o'quvchining yoshi, ijtimoiy makomi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi jidatlarni ham nazardan qochirmasligi zarur. Ayniqsa, o'qituvchi bu borada juda xushyor bo'lishi, o'z o'quvchilari uchun ibrat ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Uning har bir jumlasida ana shu jihatlarni tulasicha o'zida mujassamlashtirgan namuna darajasida to'zilishi kerak.

Kichkintoylar nutqini o'stirishga bag'ishlangan qo'llanmada (S.Jo'raev, H.Qodirov) juyalilik sifatidan mahrum bo'lgan ancha-muncha jummalarni ko'rish mumkin. Masalan, bog'cha bolalari uchun Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsaq albatta, ko'rishamiz! kabi iboralarni o'rganish tavsiya etilgan. Holbuki, bu jumlar bog'cha yoshidagi bola nutqi uchun mutlaqo xos emas, bola tilida ular juyali nutq sifatiga sohib bula olmaydi. Ular bola nutqida hatto chuchmal, kulgili eshivilishini isbotlash kerak emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki yana bir jumlaning ko'raylik: Mashg'ulot davomida "yaxshi" va "a'lo" baholar olgan bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi. Bu jumlada minnatdorchilik bildirmoq iborasi nojuy qo'llangan, shuning uchun nutqni juyali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'lashga monelik qiladi, bunday o'rinda juyalilik sifati rag'batlantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Umuman, nutqning juyalilik sifatini ta'minlash uchun nutq to'zuvchi nutqiy vaziyatni, o'zi ifodalomokdi bo'lgan mazmunni, tinglovchining turli xususiyatlarini, muloqotning ijtimoiy-madaniy, axlokiy-estetik jihatlarini etarli darajada tasavvur etmog'i lozim.

Nutqning bu sifati ba'zan ta'sirchanlik tarzida ham talqin etiladi. Ammo ta'sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo'lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda esa nutqning muayyan bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to'g'ri yoki aniq bo'lmagan, boy yoki mantiqiy bo'lmagan, sof yoki juyali bo'lmagan nutqning ta'sirchanligi hakida gapirib bo'lmaydi. Lekin ayni paytda nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda ifodalilik sifatining alohida, hatto hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlamog' joiz.

Nutq tinglovchi yoki o'quvchining kuruq kulog'ini emas, balki qalb kurg'onini, aql qal'asini zabt etmog'i uchun, eng avvalo, uning tarkibi va kurilishi diqqatni tortadigan, qizg'in qiziqish uyg'otadigan bo'lishi lozim. Bu esa ayni ifodalilik sifatining mohiyatini tayin etadigan xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ifodalilik nutqning tarkibiy to'zilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga kura tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatidir.

Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog'ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e'tibor qilinsa, ilmiy uslubda o'rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo'ladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar muammolari yoritilar ekan, nutqning ifodaliligi ayricha ahamiyat kasb etadi. Til nazariyasi va poetika masalalari bo'yicha fundamental tadqiqotlar yaratgan mashhur rus, keyinchalik amerika filologi R.O.Yakobson (1896-1982) poetika va uslubshunoslikdan o'zok tilshunos ham, lingvistika muammolariga loqayd qaraydigan adabiyotshunos ham o'zini zamonaviy olim deyishga haqli emas deb hisoblagan. "O'zi esa ayni shu aqidaga qat'iy amal qilgan, shuning uchun ham asarlarini juda ham qiziqarli, diqqatni ushlab turadigan, ifodalilikka boy tarzda yozgan, uta ifodali nutq bilan baxslashgan va fikriga ko'shilmaganlarni ham ishontirib, o'z tomoniga og'dirgan. Uning ijodini urgangan olimlar "uning nazariy va metodologik kontseptsiyasidagi ichki ziddiyatlar qisman shuning uchun hamisha ham tadqiqotchilar e'tiborini tortmagan bo'lishi mumkin"ligini ta'kidlaydilar.

Tabiiyki, tashviqot xarakteridagi ma'ro'za yoki dars jarayonidagi bayon nutqida ham ifodalilik alohida zaruriyatga aylanadi. O'qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o'z nutqining ifodaliligiga e'tibor bermasa, ifodalilikni ta'minlaydigan vositalardan

foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo'ladi va natijada bunday nutq o'quvchi diqqatini torta olmaydi. Mavzu aslida qanchalik qiziqarli bo'lmasin, mazkur ifodalilik sifatidan maxrum nutq sabab o'quvchida tayinli qiziqish uyg'onmaydi, dars tinglovchi uchun zerikarli bir yumushga aylanadi. O'z-o'zidan o'quvchi bunday darsning tezroq tugashini kutadi, undan qutulish umidi bilan vaqt o'tkazadi.

Ifodaliliq ayniqsa, chinakam badiiy nutqning benihoya zaruriy sifatlaridandir. Zotan, ta'kidlab o'tilganideq aynan badiiy nutqda tilning estetik vazifasi birinchi planga chiqadi, butun kulami bilan namoyon bo'ladi. Bu vazifaning amalga oshishida esa aynan nutqning ifodalilik sifati favkulodda muhim o'rin tutadi.

Tilda ifodalilikni yo`zaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ham ko'p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha satxlarida mavjud. Tilning tovush kurilishi, so`z xazinasini, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq to'zuvchi bu manbalarning mohiyati, tabiati va ularni unumli ishga solish usullaridan etarli xabardor bo'lsa, nutq-ning ifodalilik sifatini ta'minlashga qiynalmaydi.

Aloxida estetik maqsad bilan qo'llangan bir tovush, bug'in, ypg'y kabi fonetik birliklar nutqda ifodalilikka xizmat qiladigan vositalarga aylanadi. Masalan, Kurqayman! jumlasini va uning Kur-may-man! tarzida butinlab aytilgan variantga o'rtasida ifodalilik jihatidan ancha-muncha farq bor, albatta, butinlangan jumla sezilarli darajada ifodalilik, demakki, ta'sirli. Yoki adabiyotshunoslikda alliteratsiya, assonans deb yuritiladigan unli va undoshlar takrori natijasida nutqda yo`zaga keladigan ifodalilikni eslaylik. Hassos so`z ustasi E.Vohidovning ushbu turtligidagi q undoshining takroridan tug'ilgan ifodalilik dilbar bir ohangdorlik ham diqqatga, ham hayratga molik:

Qaro qoshing, quyuq qoshing, qiyiq kayrilma qoshing, qiz,
Qilib qatling'a qasd, qilich qayrar qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb kushin qiynab, qanot qoqmoqqa quymaysen,
Qarab quyg'il qiyokim, qalbni qizdirsin kuyoshing, qiz.

Tilning so`z xazinasini nutqiy ifodalilikning o'ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug'at boyligi haqida gap ketar ekan, lug'aviy birlik hisoblanmish frazeologik iboralar ustida ham tuxtalmoq joiz, chunki so`z bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtai nazaridan katta imkoniyatga ega ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Frazeologik iboralarning ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka ega bo'lmagan ko'rinishlari tilda aytarli yuq darajada. Shuning uchun ham o'zbek tili frazeologiyasi ilmiga tamal toshini quygan Sh.Rahmatullaev iboralarni "nutqimiz kurki" deb ta'riflaydi. Iboralar ma'no hajmi, qamrovi jihatidan ham so`zga nisbatan ustunlikka ega. Bu munosabat bilan A.Hojiev shunday yozadi: "Frazeologizmlar so`zlar kabi yaxlit bir ma'no (belgi, harakat kabilarni) ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli frazeologizmlar so`zlarga sinonim bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no bilan leksik ma'no bir-biriga teng bo'lmaydi. Qiyoslang: o'taketgan — uchchiga chiqqan, beqiyos(juda) — er bilan osmoncha, albatta — turgan gap, hech qachon — ikki dunyoda (ham), yashirin (xufiya) — eng ichida. Keltirilgan frazeologizmlar o'z sinonimlari bo'lmish so`zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega.

Umuman, frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo'ladi. Ko'pina frazeologizmlar ma'nosida so'zning ma'nosida yuq komponent bo'ladi. Masalan: yoqasini ushlamoq, boshida yonyaoq chaqmoq, er-kukka ishonmaslik oddiygina hayron bulish, azoblash, ardoqlash emas, balki ortiq darajada hayron bulish, nihoyat darajada azoblash, uta darajada ardoqlashdir. Demaq bu frazeologizmlar ma'nosida "uta (ortiq) darajada" komponenti bor".1

Nutqning ifodaliligini ta'minlashda frazeologik iboralar yana shuning uchun ham betakror vositadirki, ular "hayotdagi voqea-hodisalarni ko'zatishtirish, jamiyatdagi maqbul-nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalidir". So'z san'atining ustalari tildagi bu vositadan unumli foydalanadilar. Masalan, kutmagan so'zi etti uxlab bir tushiga kirmagan iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan so'zdan ustun. Ayni ma'noda iborani qo'lash nutqning ifodaliligini ta'minlashi tabiiy: Mingboshi hayron bo'lib qoldi. Bu etti uxlab bir tushiga kirmagan fikr edi. Ko'zini keng-keng ochib, mexmonga qaradi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Hech qachon so'zi va tuyaning dumi erga tekkanda iborasi urtasidagi ekspressiv farq yanada sezilarlidir: Otaboy tuyaning dumi erga tekkanda osh qilib beradi, — deb pungilladi Ko'ziboy ensasi qotib (S.Ahmad, "Tuyboshi" hikoyasi). Ko'pincha yozuvchi iboraning tarkibini o'zgartirishi, yangilashi, boshqacharoq qilib to'zishi va shu tarzda ifodalilikni yanada kuchaytirishi mumkin. Birgina misol, Cho'lpon o'z romanida ko'z-quloq bo'lib turmoq iborasini ko'z-quloq qilib bermoq tarzida o'zgartirib kullagan, bu nutqqa alohida obrazlilik baxsh etgan: Maslahat natijasida qaynona bilan kelin uyda qoladigan bo'lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko'z-quloq qilib berilgan edi.

Ma'lumki, frazeologik iboralar ma'nosi ular tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nolari umumlashmasidan iborat bo'lmaydi, balki frazeologik ma'no mazkur so'zlardan biri yoki bir nechasini muayyan bir obraz asosida kuchma ma'noda qo'lash orqali yo'zaga keladi. Ijodkorlar ibora tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nolarini "tiriltirish" va ularni frazeologik ma'no bilan qarshilantirish yuli orqali kulgi chiqarish, o'ziga xos obrazlilikni yaratishga ham harakat qiladilar. O'tkir o'zbekcha kulgining hadisini olgan S.Ahmadning "Chuchvara" hajviyasidan olingan ushbu parchada buni ko'rish mumkin: Majlisda unga:

— Sen bola, chuchvarani xom sanab yuribsan. Shoshma hali, jujani ko'zda sanaymiz. Bu qanaqasi, sirkang suv kutarmaydigan bo'lib qopti, — deyishdi...

Endi menga navbat! Mening sha'nimga juda ko'p nojuya gaplarni aytdinglar. Hammasiga javob tayyor: chunonchi, sirkasi suv kutarmaydi, dedinglar. Nimaga shama qilyapganlaringni bilaman. O'zumchilik zvenosida ishlaganimda sirka solganman. U suv kutaradimi, yumi, o'zim bilaman. Ikkinchi masalaga o'taylik: jujani ko'zda sanaymiz, dedinglar. Bundan ikki yil oldin parranda fermasini uchma-uch qilib top-shirganman. Jujasi ham, ho'rozi ham tuppato'g'ri chiqqan. Endi uchinchi masala: chuchvarani xom sanaydi, deysizlar. Mana shu gap menga og'ip botdi. Qani aytinglar-chi, mening chuchvara sanayotganimni kim ko'ripti? Kimning uyiga kirib, chuchvarasiga kul tekkizibman? Voobshe, men chuchvara emayman...

So'zning ifodalilikni ta'minlashdagi imkoniyatlari ham benihoya katta. Taqlidiy (va tasviriy) so'zlarni olib ko'raylik. Ma'lumki, tovushga yoki obrazga takdid asosida yo'zaga kelgan so'zlar tildagi eng sodda va kadimiy so'zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo'lishi borasidagi taldinlarda takdidiy so'zlar masalasiga ham alohida o'rin beriladi. Hatto til tabiatdagi xilma-xil tovushlarga taqlid qilish natijasida paydo bo'lgan degan qarash ham

mavjud. Aytish joizki, muayyan predmetga xos bo'lgan tovushli harakat, asosan, taqlidiy o'zakli fe'l bilan ifodalanadi. Bunday so'zlar tegishli predmetni juda aniq, tiniq tasavvur qilish imkonini beradi, usha predmetning tovushi yoki obrazi qo'lokdar ostida aks sado berib turadi. Ana shu ma'noda taklidiy so'zlarning nutqdagi ifodalilik badiiylik kuvvati beqiyosdir. Mana Alpomishning Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan elib borayotgani tasvirlangan badiiy nutq:

Dubulg'a boshda **dungullab**,
Kark kubba qalqon **qarqillab**,
Tilla poyanak urilgan
O'zangilarga **sharqillab**,
Bedov otlari **dirkillab**,
Olg'ir kushdayin **charqillab**,
Kulda nayzasi **suqillab**,
Yurmoqchi o'zoq yuliga,
Qaramay ungu so'liga,
Etsam deb yorning eliga,
Siltab yuradi Boychibor...
Yul yurar davlatli shunqor.

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'lash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tunganmas manbadir. Kuchma ma'noning deyarli barcha asosiy holatlarda emotsional-ekspressiv buyoqdorlikka ega bo'lishi ma'lum. Mana bu jumlagaga e'tibor beraylik: Men har gal Matyokubnkiga borganimda uning xonasiga kirishdan avval un-un beshta kitobni xarid qilish uchun ajratib kuygan bo'lardim. Lekin ularni silab-siypab, varaklab ko'rib, yana qaytarib berardim — karmon qurg'ur uncha

semiz emas edi (O.Sharafiddinov, "Snayperlikdan — aka- demiklikka" maqolasi). Ikkinchi jumlaning karmon kurg'ur uncha semiz emas edi qismi aloxida ifodalilikka ega. Bu ifodalilik esa semiz so'zining ko'chma ma'noda qo'llanishi hisobiga yo'zaga kelgan (albatta, bunda og'zaki nutqda xos kurg'ur so'zining ham ishtirokini ta'kidlash mumkin). Ayni qismdagi fikr bunday qo'llanishsiz, ya'ni Karmonimda pul ko'p emas edi shaklida ifodalanganda edi, nutqning ifodalilik sifati buy ko'rsatmagan bo'lardi.

Nutqda so'zlarni kuchma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular kuchimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Kuchimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashliq umumiylik aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik ifodalilik aniklikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga kuchiriladi. Shuning uchun ham ko'chimlar o'ziga xos tasviriy vositalar sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

Nutqning ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladigan ana shunday tasviriy vositalardan biri epitet bo'lib, uni sifatlash ham deyishadi. Buning sababi shuki, epitet narsa yoki tushunchaning belgi-xususiyati, sifatini aniq, ravshan va obrazli ifodalaydi, ayni paytda bu ifoda ekspressiv-emotsionallikka ega bo'ladi. Epitet tildagi mavjud im- koniyatga ko'ra faqat nutqda voqelanadi. Masalan, temir qoshiq birikmasidagi temir so'zi o'z ma'nosida, bu so'z, aytayliq "Temir xotin"

(Sh.Boshbekovning asari nomi) birikmasida esa ko'chma ma'noda, ya'ni epitetdir. Mazkur epitet nutqning emotsionalligi, ekspressivligini, demakki, ifodaliligini oshirishi aniq. Bardoshli xotin, chidamli xotin, toqatli xotin kabi holatlarda temir xotin birikmasidagi ma'no umuman ifodalanar, ammo tushunchaning qamrovliligi, ifodaliliq obrazlilik tamoman yuqoladi. Aytish mumkinki, epitetlar asosida ham qiyos yotadi, ya'ni ularni qisqargan o'xshatishlar deyish mumkin. Boshqacha aytganda, yuqoridagi misolga qaytsaq temir bilan xotin chidamlilik belgisiga ko'ra qiyoslangan, ya'ni temirday chidamli (bardoshli, toqatli) xotin tarzidagi o'xshatish konstruktsiyasini tasavvur qilayliq qiyos uchun asos bo'lgan "chidamlilik" belgisi avvalo temirga xos, temir so'zi ayni belgining etaloni sifatida to'g'ridan-to'g'ri xotin so'ziga sifatlovchi tarzida qo'llangan. Kuchli ekspressivlikka ega va mazkur belgilarni qabariq hamda boshqa ikir-chikirlari bilan ifodalaydigan ko'chma ma'no voqelangan. Nutqda epitetning yo'zaga kelishi mexanizmi, asosan, shu zaylda bo'ladi. Badiiy nutqda epitetlar o'ziga xos badiiyat vositasi sifatida faol qo'llanadi. Bir necha misol: Holbuki, u o'zini bil- masdan va hech narsa uylayolmasdan telba qadamlar bilan bitta-bitta bosib ilgari yurardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Lablarimda, peshonamda sezaman mo'z nafasini (Zulfiya). Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun bir pari faslning og'ushida mast (A.Oripov, "O'zbekistonda ko'z" she'ri). Ko'rg'oshii xayollar ezadi bag'rim, janda umidlarga solaman yamoq (Faxriyor, "Ayolni eslamoq..." she'ri).

Ko'chimlarning eng keng tarqalgan turlaridan yana biri metaforadir. Bunda narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi uxshashlik asosida nom ko'chadi. Masalan, qozonning kulog'i birikmasidagi kuloq so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u odamning kulog'iga o'xshashligi asosida yo'zaga kelgan. Lekin ayni so'zning bu ma'nosi tilda doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashgan, mazkur tushunchaning nomiga aylanib, tilning lug'at boyligidan joy olib bo'lgan. Shunga ko'ra bunday metafora nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qimmatga ega emas. Metafora qanchalik yangi, ohorli, tutilmagan bo'lsa, shunchalik ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orkali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misollarda buni kurish mumkin: Zotan, ularning o'zlarini unutar darajada bir-birlari bilan bu xilda uynashuvlari usha g'am-g'ashlar purjinasining bo'shalishi, siqintilar oqimining tug'anni bo'zib oldinga tomon yul solishi emasmi?! (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). "Telbaning ishini unglaydi xudo", yillarning og'zida saqich bu naql (I.To'lakov, "Maqol" she'ri). Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor, Terlab ketganini kursang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor (I.Mirzo, "Izimdanda sudralib" she'ri).

Ta'kidlanganiday, metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida yo'zaga keladi, lekin qiyoslanuvchilardan faqat birining, ya'ni o'xshatish etalonning nomigina lisoniy ifodalanadi, metaforik ko'chma ma'no ayni shu so'zda vokrlanadi. Shunga ko'ra metaforani yashirin yoki qisqargan o'xshatish ham deb nomlashadi. Ayni paytda nutqda to'liq (ya'ni qiyoslanuvchilarning har ikkisi ham, o'xshatish asosi va o'xshatish ko'rsatkichi ham lisoniy ifodalangan) o'xshatishlar ham borki, ular ham nutq ifodaliligini ta'minlashga ko'maklashadigan tasviriy vositalar sirasiga kiradi.

Badiiy nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qaralganda, o'xshatishlarning musichadek beozor (odam), ayiqday ko'pol (yigit), toshday qattiq (narsa), mo'zday sovuq (suv), qorday oppoq (rang) kabi qo'llanishi an'anaga kirib qolgan, hammaga ma'lum bo'lgan turlaridan ko'ra nutq to'zuvchining, ijodkorning o'zi tomonidan yaratilgan, ya'ni xususiy-muallif o'xshatishlari ahamiyatlirokdir. Tug'ri, mazkur an'anaviy o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligi uchun ma'lum darajada xizmat qiladi. Masalan, musichadek beozor odam birikmasi beozor odam birikmasiga nisbatan, ayiqday ko'pol yigit birikmasi ko'pol yigit birikmasiga nisbatan, toshday qattiq narsa birikmasi qattiq narsa birikmasiga nisbatan ifodalibroq, ekspressivroq ekanligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun odatdagi nutqning ifodaliligini ta'minlash uchun ulardan ham foydalanish lozim. Ammo nutqning, ayniksa, badiiy nutqning ifodaliligini kuchaytirish uchun xususiy-muallif o'xshatishlari alohida ahamiyatga molikdir. Ijodkorning bevosita o'zi yaratgan, uning o'tkir ko'zi, ko'lamlil tasavvuri va bepoyon taxayyuli, ziyrak ko'zlatishlari mahsuli sifatida yo'zaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqqoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi, nutqda kuchli poetik mazmun kasb etadi. Mana bu parchaga e'tibor beraylik:

Men ipak qurti kabi
Xayolimga o'raldim,

Tuyg'ularning girdobi
Orasida yuqoldim

(Oybeq "Shoir bilan suhbat" she'ri).

Parchada murakkab hissiy holatning go'zal va real tasviri berilgan, bu hissiy holatning asosiy va ajoyib mazmuni birinchi ikki misradagi ko'tilmagan, favkuloda o'ziga xos o'xshatishda nozik ifodasini topgan. Ipak qurti kabi tarzidagi o'xshatish etaloni nixoyatda original, ayni holat ifodasi uchun juda mos. Ma'lumki, ipak qurti ipak chiqarib o'zini o'zi o'raydi va pilla hosil bo'ladi, o'zi esa oppoq pilla ichida pinhon bo'ladi. Shoir esa o'z xayoliga o'raladi, u pilladay oppoq xayollar ichra pinhon bo'ladi. Teran va tarang tasvir, haqiqiy oybekona o'xshatish. Aytish mumkinki, mazkur o'xshatish hissiy holatning benihoya emotsional rasmini chizish imkonini bergan. Yana misollar: So'fining tani shu topda Arabiston toklarining saratondagi toshlariday qizib yonardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Uning xumor bilan kuyib yongan miyasi shoshilish poezdning o'txonasiday tez va soat mexanizmasiday muntazam ishlardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). She'r tuqiyman urgimchak kabi muhabbatning tolalaridan (Faxriyor, "Ruhning kulankasi" she'ri). Maydalab o'rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar — nay kuksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (I.To'lakov, "Paxtazorni sog'inganda" she'ri). Kunglim ham bu kecha oyday yarimta (A.Oripov, "Bahor" she'ri).

So'z ustalari ba'zan o'xshatish asosini umumlashtirgan holda o'xshatish yaratadilar, bunda o'xshatishning mazmun hajmi yanada kengayadi. Bunday o'xshatishlarda qiyoslanuechilar muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki barcha belgilariga ko'ra, ya'ni umuman o'xshatiladi. Masalan, hassos adib Oybek "Hamza" nomli dostonida Shohimardon qishlog'ining o'tmishdagi manzarasini tasvirlar ekan, shunday o'xshatish yaratadi:

Pastda qishloq, toshlarga qapishibdi zich —
Faqir uylar **qaldig'och inlari kabi**.

Shoir faqir uylarni qaldig'och inlariga o'xshatadi. Albatta, qaldig'och inlarining o'xshatish etaloni sifatida tanlanishi Oybekning tiyrak nigohi maxrulidir. Agar faqir uylar to'lig'icha tavsiflanadigan bo'lsa, hatto bir-ikki sahifa ham kamlik qilardi va shunda ham bu o'xshatish etaloni ifodalaganiday yorqin va ta'sirli tavsif yo'zaga kelmagan bo'lardi. Faqir uylar qaldig'och inlariga bir emas, balki bir necha, ya'ni guvaladan kurilganliq kichiklik ko'rimsizlik osilganlik kabi belgilar asosida yaxlit holatda o'xshatilgan, mazkur ifoda aniqlik bilan bir qatorda ekspressiv buyokda ham ega. Mana yana bir oybekona o'xshatish:

Mana suvga tushar polvon qiz,
Tulqinlarni hech pisand qilmay...
Sochlar suvda qora ilonday

("Qizlar" she'ri).

Ko'chimlarning yana bir turi bo'lmish metonimiya tasviri vosita sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishi metonimiyaning

mohiyatidir. Masalan, Dasturxonga qarang! jumlasidagi dasturxon soʻzi metonimik qoʻllan- gan, yaʼni dasturxondagi noz-neʼmatlar nazarda tutilgan. Badiiy nutqdan olingan Quyidagi misollardagi metonimiya tufayli yoʻzaga kelgan ifodalilikka eʼtibor qiliq: Uning aytishicha, mingboshi etib borguncha qishlokning qariyb yarmi qirilib bitadi (Choʻlpon, "Kecha va kundoʻz" romani). Koʻltiqda Pasternak yo Pushkin, Hislarda uchadi dilgirlik (Oybeq "Boʻsh kunim..." sheʼri). Bu erga termulib parishon dunyo Toʻgʻrilab oladi kulda soatin (A.Oripov, "Kenglik nuktasi" sheʼri).

Narsa yoki tushunchalar oʻrtasidagi butun-boʻlak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga koʻchirish tarzida talqin etiladigan sinekdoxa ham ifodalilik uchun xizmat qiladi. Masalan, Bu kishi tirnoqa zor jumlasidagi tirnoq soʻz sinekdoxa yuli bilan "farzand" kuchma maʼnosida qoʻllangan, yaʼni nutqda "boʻlak" (tirnoq) nomi bilan "butun" (farzand) nomlangan. Ammo bu tasviriy vosita oʻzbek nutqida u qadar keng tarqalgan emas, Ayrim misollar: **Shop muylov** oʻrnidan turib ketdi: - Nafisamisan.? Voy-voy, - deb yuborganini oʻzi bilmay qoldi (S.Ahmad, "Bahor qizlari" hikoyasi). Doʻstlar eshigi ham taq-taq yopilgay, Fyccali qalb u yon gar kuysa qadam (A.Oripov, "Baxtiyor..." sheʼri). Shunday oʻtib borar umrimiz bekor... Oramizda sarson bir juft qora koʻz (A.Oripov, "Yondimu va lekin..." sheʼri).

Mubolagʻa va kichraytirish ham badiiy tasvir vositalaridan boʻlib, ular ham kuchma maʼnoga asoslanadi. Mubolagʻada narsa, belgi-xususiyat oshirib, burttirib ifodalansa, kichraytirishda ular haddan ortiq darajada kichraytirib tasvirlanadi. Har ikki tasviriy vosita ham ifodalilikka xizmat qiladi, tinglovchi yoki oʻquvchi diqqatini darhol jalb etadi. Xalq ogʻzaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, soʻz ustalari nutqida bu tasviriy vositalar anchayin keng qoʻllanadi. Quyidagi parchalardagi mubolagʻaga eʼtibor qiling: Oh urarman, oh urarman, Oxlarim tutsin seni. Koʻz yoshim dars boʻlib, Baliklari yutsin seni (Xalq kushigʻi). Sovchining koʻpligidan ostonasi eyilib ketgan deydilar (Choʻlpon, "Kecha va kundoʻz" romani). Ilojin topsa agar, ketmoning dastasin ham Erga qadab, termulib, koʻkartiruvchi bu xalq. Jazm etsa koʻkka buyar jahon xaritasin ham, Bugun choʻlga chiqibdi, niyati topsin barhaq (A.Oripov, "Qarshi kushigʻi" sheʼri). Ushbu parchalarda esa kichraytirish qoʻllangan: Tariqday zaminning ustida beun Yashab utdi shundoq buyuk bir yurak (A.Oripov, "Nomaʼlum odam" sheʼri). Shu zamon koʻzingiz oldida birdan Kichik chumolicha qolgusi Farhod... Yoʻz yilda qaytibdi bunday falokat, Yoʻz yil-ku tarixga — qoshning orasi (A.Oripov, "Avlodlarga maktub" sheʼri).

Nutqning ifodaliligi, taʼsirchanligini oshirishda kinoya ("ironiya" ham deb ham yuritiladi, turli koʻrinishlarga ega) ham alohida oʻrin tutadi. Bunda soʻz yoki ibora oʻz maʼnosiga tamomila qarama-qarshi boʻlgan kuchma maʼnoda ishlatiladi. Kinoya soʻzlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushuichaga kesatikdi, pichingli, istehzoli, umuman, salbiy munosabatini ifodalash vositalaridan boʻlganligi uchun xam soʻz yoki iboraning toʻgʻri maʼnosiga zid, yaʼni inkor, salbiy buyokdi maʼno vokelanadi. Bunday kinoyaviy maʼnoning vokelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiyaning ham alohida rol uynashini taʼkidlamogʻ lozim. Masalan, Bugun jugʻrofiya oʻqituvchisi darsga kelmadi. Xottok qilaman deb soʻridan yiqilib, oyogʻini sindripti. Ajoyib "xushxabar"- dan keyin bir zumda sinf boʻshadi-qoldi (S.Ahmad, "Bir oʻpichning bahosi" hajviyasi) parchasida xushxabar soʻzi "shumxabar" tarzidagi kinoyaviy maʼnoda qoʻllangan. Kinoyada soʻz yoki iboraning tildagi maʼnosi bilan nutqda

reallashgan kuchma ma'nosi o'rtasidagi zidlik kuchli ta'kid oladi va shunga ko'ra birdaniga diqqatni jalb etadi. Quyidagi misollarda ham buni kurish mumkin: Yozuv mashinasi bo'lmagan tergovchi maxramasining mirzasi bechora protokolni juda zur diqqat va hafsala bilan ko'chirgan. Ori rost, erli halqning nomlarini yozishda u ham chalasavod bolalarning ishini qiladi, ya'ni "Akbarali" degan so'zni bir joyda "Umarali", yana bir joyda "Amir ug'li", yana bir joyda "Qambarvali" deb yuboradi (Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romani). Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va erini haydab olgani bitta emas, ikkita xukiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart ko'zda ma'lum bo'ladi (A.Qahhor, "Ug'ri" hikoyasi). — Ikromjon akamni qamokda olib ketishdi. Hamma narsani xatlab ketishdi.

Hojar derazadan bosh suqdi:

— Kelinning oyog'i "kutlug'" keldi-da! Ha, qadami "yoqdi" (S.Ahmad, "Poyqadam" hajviyasi).

Ko'chimlarning yana bir turi jonlantirish bo'lib, unda insonga xos xususiyatlar jonsiz yoki mavhum narsalarga nisbatlanadi, ya'ni jonsiz narsalar insonlar kabi harakat qiladi, uylaydi, gapiradi. Bu tasviriy vosita ham nutqning ifodaliligini oshirishga xizmat kiladi. Jonlantirish ko'prok xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyotda ko'za-tiladi. Misollar:

Chultoq xassasini o'qtalib Hasad

Ilxomning boshiga tushirdi chunon:

— Kim quyibdi senga parvozni, nomard, Bizlar er yo'zida yursak sargardon (A.Oripov, "Shoir va ilhom" she'ri). Supurgi etgan joyidan nariga o'tmasdan erga yonboshladi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Nutqning ifodalilik sifatini yo'zaga keltiradigan ko'chimlar, tasviriy vositalar juda ham xilma-xil, rang-barangdir. Tabiiy, ular faqat yukorida kurib o'tilganlar bilangina chegaralanmaydi. Aytish lozimki, nutqning ifodaliligini ta'minlash xaqida uylanar ekan, albatta, mazkur tasviriy vositalarning me'yorini ham unutmash kerak. Muayyan bir matnda bu tasviriy vositalarning barchasini kalashtirib tashlash, o'rinli-o'rinsiz ularga murojaat qilaverish nutqning ifodaliligiga, ta'sirchanligiga salbiy ta'sir etishi tayin. Keragidan ortiq qo'llangan tasviriy vositalar nutqning chuchmallashuviga olib keladi.

Tilning fakat leksik sathigina emas, balki sintaktik sathi ham nutq ifodaliligini ta'minlashda benihoya keng imkoniyatlarga ega. Sintaktik kurilmalarning rang-barangligi, sinonimikasi ifodalilikni kuchaytirishga qanchalik xizmat qilsa, muayyan bir sintaktik birlikning atayin qilinadigan takrori ham bu jixatdan shunchalik diqqatga sazovor, ifodalilikni yo'zaga keltirishda sintaktik figuralar, gapdagi so'z tartibi, intonatsion vositalarning rolini xam esdan chiqarmash lozim. Ifodali nutq to'zish malakasini shakllantirishda tildagi barcha vositalar — leksik-semantiq leksik-sintaktiq sintaktiq intonatsion vositalarning imkoniyatlarini to'g'ri va to'la tasavvur etish muhimdir.

Adabiyotlar:

1,3, 6, 18, 19, 28, 30

Tayanch so`z va iboralar:

1. Nutqning ifodaliligi
2. Tasviriy vositalar
3. Kinoya
4. Ko`chim
5. Jonlantirish
6. Mubolag`a va kichraytirish
7. Metonimiya
8. Metafora

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutqning ifodaliligi deganda nimani tushunasiz?
2. Qanday omillar nutqning ifodaliligi ta`minlaydi?
3. Nutqning ta`sirchanligini ta`minlashda ifodalilikning o`rni.
4. Badiiy adabiyotda, matbuotda jo`yalilik va ifodalilikning aks etishi.
5. Matbuotda nutqiy ifodalilikning aks etishi.

8-mavzu: O`qituvchining nutq texnikasi

Reja:

1.Nutq texnikasida ovozning o`rni

2.Nutq jarayonida nafas olish va nafas chiqarish

3.Tovushlarni aniq talaffo`z qilish

Tuliq, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o`qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim o`zvi, ta`bir joiz bo`lsa, tamallaridandir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini tug`ri vokelantirish kunikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir, Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to`g`ri na- fas olish, tovush va tovush kushilmalarini aniq talaffo`z qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy kuroli nutq bo`lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

XIII asr Sharqining ulkan adibi Shayx Sa`diy Sheroziyning mashxur "Guliston" asarida shunday bir hikoyat bor: "Sanjariyya masjidida bir kishi rag`bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulq- lik. Xoxdamas erdiki, aning kunglini mukaddar aylasa, aydi: "Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga un tillo berurmen, tokim bulak mahallaga ketarsen". Bu so`zga ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin sungra amirning ho`zuriga qaytib keldi va aydi: "Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, un tillo bilan meni bu mahalladin junatding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bulak mahallaga ketsam qabul etayurmen". Amir kuldi va aydi: "Aslo olmagaysen, zero ki ellik tilloga ham rozi bulurlar". Yoqimsiz ovoz kishilarni o`ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan barcha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo`la- di.

Mashxur rus olimi M.V.Lomonosov o`zining "Notiqlik bo`yicha qisqacha qo`llanma"sida notiq bulish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa rudy va jismoniy turlarga bulinishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yokimli ovoz, o`zun nafas va bakuvvat kukraq shuningdeq sog`lom tana va kelishgan komatni nazarda tutadi.'

Bugungi kunda siyosatchilarning imiji ("qiyofasi")ni yaratishda bir qancha tashki omillar qatorida ularning ovoz tembri ham muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi. Umuman, siyosatchimi, o'qituvchimi, aktyormi, jurnalistmi, kim bo'lishidan kat'i nazar, uning og'zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlari mavjud bulsa-yu ovozdagi u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta'sir kuchini kamida yarmiga yuqotadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yo'z kishigami, boringki, ming kishigami, buning fardi yuq, o'zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovoznig, ovoz sifatining o'zni favqulodaga mudimdir.

"Tabiiy jismoniy qobiliyat" sifatidagi, aytayliq xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yokimli bulolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini kiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan "libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish kulokdan utolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad — muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda etkazish uchun kulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Tabiatan ana shunday "kuloqni qiynaydigan" ovozga ega bo'lgan odam o'z ishining samarasidan chinakam ho'zur tuyushi, Shayx Sa'diynig "Guliston"idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy kuroli nutq bo'lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani ma'qul.

Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lgan kasblar orasida o'qituvchilik birinchi o'rinda turadi, buning ustiga, o'qituvchilar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg'ul bo'lganlar sonidan sezilarli darajada ortikdir.

O'qituvchining ovozi, talaffo'zi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o'quvchilar, ayniksa, kichik sinflardagi o'quvchilar uchun o'ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nukson o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nukson o'qituvchi nutqida muntazam ko'zatsilsa, o'quvchi o'qituvchidan nohaq bulsada, ranjigan hollarida mazkur nukson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro ana shunday o'qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuksonli ovoz, talaffo'z yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'zi unigida qusursiz va qadrli ustoz imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri, tugma xirqirokdiq chiyildokdik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman kutulishning iloji yuq. Ammo nutq texnikasini etarli darajada bilmaslik oqibatida yo'zaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlardan xabardorliq ovozni yulga quyish (ruschada "postanovka golosa"), aniq talaffo'z qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bulish mumkin.

Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffo'zi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chukur urgangan olim S.Inomxo'jaev ta'kidlaganideq keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir erto'la qazib, shu erto'lada ovoznig rivojlantirish, diktsiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashklar qiladi. Talaffo'zidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytoymasliq ba'zi

tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maksadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi.

Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir elkasini xadeb ko'taraverish odatidan ko'tulish uchun ertulasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib kuyib, elkasini xanjarning ayni uchiga tug'rilab turib, mashklarini davom ettiradi. Ana shunday mashakqatli va muntazam mashklar tufayli Demosfen notiqlikning chung cho'qqisini zabt etgan.

"O'qituvchi nutqida ko'zatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bulish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yulga kuyilishi kerakki, nafas olish zuriqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, o'zun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning etmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bulinib ketishi, mantiqiy mazmunni bo'zadigan noo'rin pao'zaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rta qilib chiqadi. Masalan, Qadimiy va boy tilimizning sofligini saklash har birimizning burchimizdir jumlasini aytilarkan, masalan, har so'zidan keyin nafas tutab qolsa, ilojisiz, nafas olish uchun tuxtalish majburiyati paydo bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bulinishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas jumlaning oxiriga borib etmay qolsa, jumladagi sunggi so'z "yamlanib" talaffo'z qilinadi, so'zlovchi xudud bo'tilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada kiynoq tug'diradi.

Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qurqqa-nida yoki og'ip musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy xolatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay koladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri takrimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yotmay qoladi. Tabiiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. O'qituvchi bunday xolatlarni ham hisobga olishi maksadga muvofiq. U dars jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi keraq aks xolda bu xolatlar uning nutqiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (buyokdorligi), cho'zikliki kabi sifatlardan tarkib tottadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bulmish nutq me-lodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, "nutqda ovoznig (tonning) baland- past tarzda tulqinlanishi melodikani yo'zaga keltiradi, me-lodika esa gapning ifoda maksadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar

(urg'u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv- stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi". O'qituvchi o'z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni tug'ri va o'rinli namoyon eta bilishi lozim.

Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yul bilan g'uyoki sinfdagi shovqinni "bosib" quyganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'kituvchining ovoz apparati keraksiz zo'rikadi, o'zi tez charchaydi, Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'kdtuvchi- ning o'zi kiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'quvchining diqqatini ushlab turmaydi.

Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars utmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'zikdigidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon kilinayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi o'quvchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan maxrum nutq shaklidan kutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi.

O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuksonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maksadga ko'ra mu'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq aks holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida tilgashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshkacha qilib aytganda, o'quvchining idrok sur'ati o'qituvchining nutqi tezligidan orqada qoladi, unga "etib yurolmaydi". Zotan, o'qituvchi nutqidagi me'yoridan ortiq jadal temp dars berish metodikasi koidalari uchun ham begonadir. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni dars paytidagi ruxiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chikqan holda nutq tempini tanlasa, uni o'rni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogiq ham psixologik jixatdan to'g'ri bo'ladi.

Nutq texnikasida diktsiya masalasi ham alohida o'rin tutadi. Xar bir tovush, so'zning to'g'ri va aniq talaffo'z qilinishi, nutq oqimida so'z shakllari va gaplarning "chaynalmasligi", ayniksa, o'kituvchi nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zai o'qituvchilar nutqida ham diktsiya noaniqligi bilan bog'liq nuksonlar ko'zatiladi. Masalan, ba'zan "z" tovushini jaraigsiz "s" tovushiga moyil tarzda talaffo'z qilish uchraydi: siz — sis, eshitdipgiz — eshit-dingis kabi. Bu va bu singari nuksonlar nutq tovushlarining hosil bulish o'rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigai nutq a'zolari)ning etarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo'ladi. Noto'g'ri yoki noaniq talaffo'z qilinadigan tovushning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq a'zolarining faolligini oshirish yuli bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni to'zatishtirish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar,

maqol va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chikarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko'rinishidir.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bulsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lgan da, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashklardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchiiing, har bir nutq to'zuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

1, 2, 7, 14, 15, 24, 32

Tayanch so`z va iboralar:

1. Nutq texnikasi
2. Og'zaki nutq
3. Diksiya
4. Nutq tempi
5. Fonetik bilimlar
6. Ovoz apparatlari

Takrorlash uchun savollar:

1. Nutq texnikasida ovozning o'rni qanday?
2. Nutq jarayonida nafas olish va nafas chiqarishga qanday e'tibor berish kerak?
3. Tovushlarni aniq talaffo`z qilish uchun nimalarga ahamiyat berish lozim?
4. O'qituvchining nutq texnikasi qanday bo'lishi kerak?

Adabiyotlar:

Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: "Sharq", 1997. 64 b.

Milliy istikdol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: "O'zbekiston", 2000. 80 b.

Ona tili — davlat tili. Toshkent: "Adolat", 2004. 80 b.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: "O`qituvchi", 1992. 160 b.

Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. Toshkent: "Navro`z", 1997. 95 b.

Begmatov E. "O`zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doyr // "O`zbek tili va adabiyoti", 2006, N4, 3 — 9- betlar.

Jamolxonov H.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent: "Talqin", 2005. 272 b.

Jumaxuja N.A. Istiklol va ona tilimiz. Toshkent: "Sharq", 1998. 160 b.

Yuldoshev M. Cho`lpon so`zining sirlari. Toshkent: "Ma`-naviyat", 2002. 80 b.

Kaykovus. Qobusnoma. Tuldirilgan 2-nashri, Toshkent: "Istiklol", 1994. 173 b.

Maxmudov N. Ma`rifat manzillari. Toshkent: "Ma`-naviyat", 1999. 64 b.

Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. Toshkent: F.Fulomov nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.

Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. Toshkent: "Ma`-naviyat", 2003. 112 b.

Ta`lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari (O`zbek tili 5-doimiy anjumani tezislari). Toshkent: "Sharq", 1999. 256 b.

Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent: "Ma`-naviyat", 2006. 336.

Ko`ng`upov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: "Uqituvchi", 1992. 160 b.

Rasulov, R., Xusanov, N. Nutq madaniyati va notiqlik san`ati. Toshkent, Moliya-iqtisod, 2007, 132b.

Mundarija

Kirish

1-Mavzu: "O`qituvchi nutqi madaniyati" kursining mundarijasi, maqsadi va vazifalari. Nutq madaniyati va boshqa fanlar.

2-Mavzu: Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari.. Nutqning to`g`riligi.

3-Mavzu: Nutqning aniqligi

4-Mavzu: Nutqning mantiqiyliigi

5-Mavzu: Nutqning sofligi

6-Mavzu: Nutqning boyligi

7-Mavzu: Nutqning juyaliligi va ifodaliligi

8-Mavzu: O`qituvchining nutq texnikasi

Adabiyotlar

“O' QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

O'QUV MATERIALLARI

Toshkent-2013

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

«O`QITUVCHI NUTQ MADANIYATI» FANIDAN

MA`RUZA MATNI

Ma`ruza matnlari «O`zbek va rus tillari» kafedrasining

2013-yil 7-maydagi 16-sonli bayonnomasi bilan

tasdiqlangan

TOSHKENT-2013

«O`qituvchi nutqi madaniyati» ma`ruza matni -T.: TMI, 2013. - 109 bet.

Annotatsiya: Iqtisodiyot va ta`lim o`zviy bog`langan. Iqtisodchi-pedagog og`zaki va yozma nutqning barcha jihatlarini puxta egallab olmog`i lozim. Ma`ro`zalarda iqtisodchi-pedagog nutqining xususiyatlari, o`ziga xos jihatlari va iqtisodiy til xusiyatlari haqida ma`lumotlar o`rin olgan.

Ma`ruza matni “O`zbek va rus tillari” kafedra majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2013- y 7-may, 16-son majlis bayoni).

“O`zbek va rus tillari”

kafedrasi mudiri:

N. Husanov

Ma`ruza matni Toshkent moliya instituti qoshidagi Oliy o`quv yurtlararo ilmiy-uslubiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. “__”
_____ 2013 y. «__» -son majlis bayoni.

Kengash raisi:

O`.Azizov

Mualliflar: filologiya fanlari doktori, professor E. Begmatov
filologiya fanlari doktori, professor N. Husanov

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent Z. Miraxmedova
filologiya fanlari nomzodi, dotsent O`.Lafasov

1-Ma`ruza: "O`qituvchi nutqi madaniyati" fanining mundarijasi, maqsadi va vazifalari

REJA:

1.Fanning maqsadi va vazifalari

2.Fanning boshqa fanlar bilan bog`liqligi

3.Fanning ahamiyati

Dunyoda turli-tuman kasblar, biri-biridan turfa hunarlar bor. Ularning har birida o`ziga xos ish qurollaridan foydalaniladi. Masalan, dehqonning asosiy quroli ketmon, duradgorniki - tesha (arra, randa va sh.k.), jarrohniki - tig`, tikuvchiniki — igna va h.k.o. Dehqon ketmoni bilan taqir erda betakror bog` barpo qiladi, go`zallik yaratadi yoki tajriba-mahorati etarli bo`lmasa, erning umriga zomin bo`ladi. Ketmon o`tkir bo`lmasa, dehqonning o`zi ketmon urish hadisini olmagan bo`lsa, oltin tuproqning ham, xomtama dehqonning ham holiga maymunlar yig`lashi aniq. Faoliyatining asosiy quroli til bo`lgan kasblar ham borki, ularning boshida o`qituvchilik turadi. Qaysi fan mutaxassisi bo`lishidan qat`i nazar, o`qituvchi tildan mohirona foydalanish hadisini olmagan, demakki, chinakam madaniy nutq malakasini egallamagan bo`lsa, darsdagi nutqi o`tmas, nochor va rangsiz bo`lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo`lmasin, qirq besh daqiqalik fursat uning o`zi uchun ham, o`quvchi sho`rlik uchun ham benihoya og`ir azob. Ona tilida puxta, lo`nda va shirador nutq to`za olish malakasi va maho-rati matematika o`qituvchisi uchun ham, ona tili o`qituvchi-si uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O`qituvchi go`zal, o`zni ham, so`zni ham qiynamaydigan, ravon va ohorli ifo-dalarga boy nutqi bilan o`quvchilarni maxdiyo etib, materialni bayon qilmog`i lozim. Boshqacha qilib aytganda, o`qituvchining raso madaniy nutqi o`quvchida havas va hayrat uyg`otishi, unga namuna bo`lishi, ayni paytda bu nutq mavzuning o`quvchi tomonidan oson o`zlashtirilishi uchun eng qulay vosita vazifasini bajarishi kerak.

Nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o`quv fanlari bilvosita yoki bevosita shug`ullanishi zarur. Matematika bo`ladimi, fizika yoki tarix bo`ladimi, o`qituvchi o`z nutqiy mahorati bilan ibrat ko`rsatishi, hatto tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo`l bilan o`quvchidagi so`z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq.

Ta`lim amaliyotida ko`rgazmalilik azaldan eng muhim omil sifatida qo`llanib kelinadi, shuning uchun o`qituvchi juda ko`p vaqtini turli ko`rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Ammo unutmaslik kerakki, nutqiy madatsiyatni o`rgatish, chiroyli so`z zavqini o`stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko`rgazmali qurol o`qituvchining o`zidir. Nutq madaniyati haqida gap ketar ekan, avvalo, til va nutq tushunchalarining mohiyatini farklab olish lozim.

Til va nutq bir-biri bilan chambarchas bog`liq, ammo ayni paytda bir-biridan farkdanishi kerak bo`lgan hodisalardir. Tilsiz nutqning, nutqsiz tilning mavjud bo`lishi mumkin emas. O`zbek adabiy tilining asoschisi ulug` Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida so`zning sharafli sifatleri haqida so`zlash asnosida til va nutq munosabati xususida quyidagi nazariy fikrni bayon qiladi: "Til muncha sharaf bila

nutqning olami (quroli) dur va ham nutqdurki, agar nopisand zohir bo'lsa, tilning ofatidir."1 Demakki, til nutq uchun qurol, bu quroldan foydalanib nutq to'ziladi, nopisandliq e'tiborsizlik qilinsa, nutq maqbul bo'lmaydi va bu tilning ofati bo'ladi. Til va nutqning bir-biri bilan bog'liqligi, biri ikkinchisiga hamisha ta'sir etishini til qonuniyatlarini teran bilgan bobomiz Navoiy aniq sezgan.

Evropa tilshunosligida til va nutqni farqlash zaruriyatini asoslash, til va nutq tushunchalarining mohiyatini belgilash, bu ikki hodisaga xos xususiyatlarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, avvalo, mashhur shveytsar tilshunosi Ferdinand de Sossyur nomi bilan bog'likdir. Uningcha, "til tushunchasi nutqiy faoliyat tushunchasi bilan teng emas; til- nutqiy faoliyatning muayyan bir, albatta, eng muhim qismi", til so'zlovchining faoliyati emas, u tayyor mahsulot, ijtimoiy hodisa, nutq esa individual faoliyat, so'zlovchining o'z fikrini ifodalash maqsadida til belgilaridan foydalangan holda reallashtirgan kombinatsiyasi mahsulidir. Til shu qadar mutlaqo o'ziga xos narsaki, so'zlash qobiliyatini yo'qotgan odam ham tilni saqlaydi, ya'ni u eshitadigan til belgilarini bemalol tushunaveradi. Uning ongida til yaxlitligicha turaveradi, shu tilda o'ylayveradi, faqat nutqni reallashtirish uchun nutq organlarining tegishli harakati yo'qolgan bo'ladi, xolos. F.Sossyurning quyidagi fikrlari ham alohida diqqatga sazovor: "...Nutqiy faoliyatni o'rganish ikki qismga bo'linadi; ulardan birining, asosiysining o'rganish predmeti tildir, ya'ni mohiyatan ij-timoiy va individga bog'liq bo'lmagan narsadir; bu sof psixik fan; boshqasining, ikkinchi darajalisining o'rganish predmeti nutqiy faoliyatning individual tomonlari, ya'ni nutq (fonatsiya — tovush chiqarish bilan birga); bu fan psixofizikdir.

Shubhasizki, bu ikki predmet (ob'ekt) bir-biri bilan chambarchas bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etadi: til nutq tushunarli va shu asosda foydali bo'lishi uchun zarur; nutq o'z navbatida tilning shakllanishi uchun zarur; tarixan nutq fakti hamisha tildan oldindir. Agar tushuncha-ning so'zli (fonetik) obraz bilan assotsiatsiyasi oldindan nutq aktida voqe bo'lmagan bo'lsa, bunday assotsiatsiya qanday qilib mumkin bo'la oladi? Boshqa tomondan qaraganda, faqat boshqalarni eshitib, biz o'z ona tilimizni o'rganamiz; sanoqsiz tajribalar natijasidagina til bizning ongimizda saqlanib qoladi. Nihoyat, tilning taraqqiyoti aynan nutq hodisalari bilan bog'liq: bizning til ko'nikmalarimiz boshqalarni eshitganda olingan taassurotlarga bog'liq holatda o'zgaradi. Shunday qilib, til va nutq o'rtasida bir-biriga bog'liqlik o'rtaga chiqadi: til bir paytning o'zida nutqning ham quroli, ham mahsulidir. Ammo bularning barchasi til va nutqning mutlaqo farqli narsalar bo'lishiga monelik qilmaydi." Ko'rinadiki, til tuganmas imkoniyat, nutq esa ayni shu imkoniyatning real voqelanishidir. "F. de Sossyur til — nutq dixotomiyasini shaxmat o'yini qoidalari misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi. Haqiqatan ham, shaxmat taxtasidagi 64 katak teng holatda ikki xil rangda ikki guruhga o'ttiz ikkitadan ajratilib, qarama-qarshi qo'yiladi, har ikki guruhdagi donalar vazifa va qiymat jihatidan bir-biriga teng, donalarning o'ziga xos joyla-shish tartibi va yurish qoidalari bir xil. Shaxmat o'yini qoidalari o'yinchilar uchun majburiy, avvaldan ma'lum bo'lib, ular doimo o'yinchilar xotirasida saklanadi. Har ikki o'yin-chi bir xil imkoniyatga ega bo'lib, shaxmat o'yini qoidalariga bir xil bo'ysunsa ham, o'yinchilarning o'zlari imkoniyatlardan foydalanish mahoratiga ko'ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo'ladi. Qaysi shaxmatchi imkoniyatlarni o'z maqsadi yo'liga izchillik bilan bo'ysundira olsa, u shu

imkoni-yatlardan foydalana olmagan raqibini engadi." Usta shaxmatchi mavjud imkoniyatlarni qanchalik mahorat bilan ishga solsa, ziyrak nutq to'zuvchi ham tildagi behisob ifoda imkoniyatlaridan o'z maqsadiga eng maqbullarini tanlaydi. Qiyosning mohiyati shuki, shaxmat donalari va bu donalar-ning harakati qoidalari til, bu donalar va mavjud qoidalardan foydalanib to'zilgan konkret shaxmat kombinatsiyasi nutqdir. Tilshunoslikda ko'pincha "til madaniyati" va "nutq madaniyati" tushunchalari farqlanadi, ammo ba'zan har ikkisi o'rnida birgina yo "til madaniyati", yo "nutq madaniyati" termini qo'llanadi, Hamonki, til va nutq hodisalarini farqlash zarur ekan, ular chindan ham alohida-alohida hodisalar ekan, albatta, til madaniyati va nutq madaniyatini ham farqlash maqsadga muvofiq. Til va nutq tushunchalarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsaq til madaniyati tilning "madaniylashganlik", adabiylashganlik normalashganlik darajasini, lug'at tarkibi, grammatik semantik stilistik jihatlaridan rivojlanganlik boyluk darajasini, potentsial ifoda imkoniyatlarining ko'lamdorligini ifoda etadi. Nutq madaniyati esa tildan bemalol, maqsadga o'ta muvofiq va ta'sirchan bir tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir. Boshqacha aytganda, nutq madaniyati tilda potentsial mavjud bo'lgan xilma-xil ifoda shakllaridan fikr uchun eng uyg'unlarini tanlay bilish va shu asosda raso nutq to'za olish mahoratidir. Tilning ijtimoiy hodisa ekanligi eng qadimgi davrlardan beri ma'lum, u kishilar o'rtasidagi o'zaro aloqa ehtiyojiga ko'ra yo'zaga kelgan. Tabiiyki, tilning eng birinchi, balki bosh vazifasi uning kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lishidir. Shuni ham alohida aytmoq joizki, tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlam, servazifa, shakl va mazmun tanosibi tarang hodisa kamdan-kam topiladi. Tilni madaniyat ko'zgusi deb hisoblagan atokdi olmon olimi Vilgelm fon Gumboldtning ushbu gaplari til hodisa-sining mohiyatini yanada teranroq anglashga imkon beradi: "Tillarning xilma-xilligi aslo muayyan bir narsani turlicha tovushlar bilan ifodalash emas, balki bu narsani ko'rishning farqliligi natijasidir." Haqiqatan ham, har bir millatning o'ziga xos ko'rish tarzi bor, o'ziga xos idrok intizomi bor, umuman, o'ziga xos tafakkur tamoyili bor. Ana shunga ko'ra "milliy ong", "milliy tafakkur", "milliy tuyg'u" degan tushunchalar millat boqiyiligining betakror ustunlari sifatida yashab keladi. Amerika etnolingvistikasining asoschilaridan biri Benjamin Li Uorfning "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lardi" degan so'zlarida ulkan haqiqat mavjud. Milliy sezgi va milliy ruhning shakllanishida ona tili hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ingliz jurnalisti Govard Brabinning "Ona tili va miya. Yapon olimining g'aroyib kashfiyoti" nomli maqolasida bayon qilinishicha, Tokio uni-versitetining tibbiyot professori Tadanobu Tsunoda 1981 yilda YuNESKOning Afinada o'tgan simpoziumida o'zining 15 yillik tajriba-tadqiqotlari haqida axborot bergan. Professor Tsunoda o'z eksperimentiga yaponiyalik va g'arblik (frantsoz, ingliz, nemis va h.k.) kishilarni jalb qiladi. Olim ularga inson ovozi, hayvonlar, hasharotlar tovushi, turli fizik tovushlar, yapon va g'arb musiqa asboblari tovushlarini eshittiradi va tegishli apparatlardan foydalangan holda ularning miyalaridagi markazlarning reaksiyasini qayd etib boradi. Ma'lum bo'ladiki, yapon va g'arblik kishilarning bosh miya yarim sharlaridagi markazlar vazifalarining taqsimlanishida farq mavjud ekan. Yapon kishisi miyasidagi muayyan bir markaz bilan qabul qiladigan tovushni g'arb kishisi boshqa

bir markaz orqali qabul qilar ekan. Tadqiqotchi bu farq etnogenetika bilan bog'liq yoki bog'liq emasligini aniklash maqsadida 20 ta yapon emigrantining bolalari ishtirokida eksperimentini yana davom ettiradi. Natija shuni ko'rsatadiki, bu farq genetik emas, balki ona tili muhiti bilan aloqador ekan. Ana shularga asoslanib, professor Tsunoda quyidagicha xulosa chiqaradi: "Men insonning o'z atrofidagi tovushlarni qabul qilishi, sezishi, o'zlashtirishi va tushunishini ona tili differentsiatsiya qiladi deb hisoblayman. Ona tili miyadagi emotsional mexanizmning rivojlanishi bilan o'zviy bog'liq. Bolalikdan egallangan ona tili har bir etnik guruhning o'ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'likdir deb o'ylayman."

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga etkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu be-nihoya murakkab va muhtasham hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo'lgan sun'iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli "til"ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas.

1887 yilda polshalik shifokor Lyudvig Zamengof tomonidan yaratilgan esperanto tili boshqa sun'iy tillar orasida eng keng tarqalganidir. Bunday sun'iy tillar muayyan amaliy va eksperimental maqsadlar uchun biror darajada ahamiyatli bo'lsa-da, u yoki bu xalqning madaniyati va tarixi zaminida bunyod bo'lmaganligi uchun har bir xalqning butun ruhiy dunyosi, madaniyati va tarixi bilan bevosita bog'langan tabiiy tillarning o'rnini aslo bosa olmaydi. Sun'iy tillarda bir tushuncha faqat bir so'z bilan ifodalanadi, grammatik qoidalar qat'iy, ifodalar bir ma'noli, variantdorlik yo'q, bir ma'noli modellar hukmron, demakki, ifoda tanlash imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun ham sun'iy tillarda til (nutq) madaniyati muammosiga hech bir ehtiyoj yo'q. Tabiiy tillarda (ayniqsa, rivojlangan tillarda) esa ana shunday ifoda tanlash imkoniyatlarining cheksiz-chegarasizligi tilning o'ziga xos tamalidagi haqiqatdir. Agar tabiiy til ham sun'iy tillar kabi faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda jo'i, soddd va shunchaki bir narsaga aylangan bo'lardi. Holbuki, odamlar til vositasida tuyg'u va kechinmalari, quvonch va qayg'ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi ho'zurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko'zda tutmaydi. Demakki, til bemisl boy, sehru sinoatga, ruhu ruhoniyatga, ko'rku komillikka limmo-lim bir xilqatdir. Albatta, tilning sanab o'tilgan vazifalari uning bosh vazifasi (aloqa vositasi bo'lishi) bilan bir qatorda, uning asosida voqe bo'ladi.

Atoqli tilshunos A. Rustamiy tilning vazifalari haqida gapirar ekan, shunday xususlarga alohida urg'u beradi: Til tufayli jamiyat a'zolarining har birida hosil bo'lgan tajriba-bilimlar ommalashadi va ular ko'pchilik tomonidan rivojlantiriladi. Til tufayli bilim avloddan avlodga og'zaki yoki yozma tarzda qoldiriladi, natijada yangi avlod o'tgan avlodning izlanishlarini yangidan boshlab o'tirmaydi, uni davom ettiradi. Til tufayli biz sezgi o'zvlari bi-lan bilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'rganamiz...1

Tilning muhim vazifalaridan yana biri uning go'zallikni ifodalashi, ya'ni estetik vazifasidir. Tildagi badiiy imkoniyatlarning cheksizligi, bu imkoniyatlar ham moddiy

va ham ma'naviy olamlarni qamrab olishini ta'kidlab, A. Rustamiy shunday yozadi:

"...Tilning o'zidan ham go'zallik

moddasi sifatida, xususan, qalamu so'z ahli va umuman xalq foydalanadi. Chunki til etuk hodisalardan bo'lib, unda go'zallik uchun zarur bo'lgan hamma sifatlar mavjuddir. Birinchidan, til tabiat va insondagi mavjud go'zallikni aks ettirish vositasi bo'lsa, ikkinchidan, tilning o'zi go'zallikni vujudga keltiradi. Shoir va yozuvchilar hamda oddiy xalq orasidagi minglab chechanlar tilning mazkur har ikki jihatining biridan yoki har ikkisidan birdek foydalanadilar va shu bilan o'quvchi yoki tinglovchiga rohat bag'ishlaydilar... Biz tilga go'zallik javhari sifatida nazar soladigan bo'lsaq uning kishini hayratga soladigan darajada etukligi bor. Qaysi bir tilni olmag, undagi tovushlar yo'zga etaaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida o'ttiz bitta tovush bor... Mana shu qadar ozgina tovushdan o'zbek tili tarixida milliondan ortiq so'z yasalgan va bu so'z yasalishi kerak bo'lgan takdirda cheksiz davom etishi mumkin. Bu cheksiz imkoniyat dunyodagi hamma tillarga xos. Tiling mana shu etukligi uning o'zining go'zalligini va undai foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining mahoratini ta'minlaydi".

Ming yillik madaniyatimiz tarixida xalqimiz badiiy dahosining mahsuli bo'lmish nafis so'z san'ati durdonalari behisob. Ularning allaqanchasi turkiy tafakkur teranligi va taxayyul bepoyonligining muhtasham obidalari o'laroq jahon badiiyati ganjinasining to'rida qo'r to'kib turibdi. Tilimiz inja ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va shunga ko'ra beqiyos darajada betakrordir. Mumtoz va bugungi adabiy asarlarni o'qirkanmiz, xalq og'zaki ijodi namu-nalari bilan tanisharkanmiz yoki turli so'z o'yinlarini, o'tkir va nozik askiyalarni tinglarkanmiz, oddiy odam nutqida topib aytilgan so'z yoki iboraning guvohi bo'larkanmiz, tilimizning turfa tovlanishlaridan, nafosatidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz. Bu o'rinda yana shuni ham aytilish joizki, u yoki bu tilni go'zal yoki "xunuk" (go'zal emas) deyish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Alohida olingan til chiroyli ham, xunuk ham bo'lolmasligi tabiiy. Bu munosabat bilan taniqli rus tilshunosi R.A. Budagovniig quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Aslida tillar, avvalo, ko'p ri-vojlangan va kam rivojlangan, juda boy va biroz boy, qadim yozuv an'anasiga suyangan va bunday an'anaga mutlaqo ega emas bo'lishi mumkin. Bularning barchasi u yoki bu tilning potentsial estetik imkoniyatlarida turlicha aks etadi. Ikkinchidan, tillar, ayniqsa, adabiy tillar o'zicha chiroyli ham, xunuk ham bo'lmasada, aloqa (kommunikatsiya) jarayonida, xususan, agar bu tillardan faqat nimani gapirayotganiga emas, balki qanday gapirayotganiga ham befarq bo'lmagan odamlar foydalanayotgan bo'lsa, qo'shimcha estetik vazifani olish qobiliyatiga ega."1 Tabiiyki, o'zbek adabiy tili ana shunday asrlar osha rivoju sayqal topgan, behad qadim yozuv an'anasiga sohib, ming yillik yozma yodgorliklarida yashab kelayotgan juda boy tildir. Shuning uchun ham tilimiz go'zal nutq to'zish uchun potentsial imkoniyatlari tunganmas tengsiz xazinadir.

Tilning estetik vazifasi, albatta, nutqning ta'sirchanligi, ifodaliligi, go'zalligini ta'minlashda favqulodda muhim ahamiyatga molikdir. Ammo, aytib o'tilganiday, bu vazifa kommunikativ vazifa bilan birga voqe bo'ladi.

Til estetikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish o'tgan asrning boshlarida bir qator chet el filologlari, faylasuflari, yozuvchilarida paydo bo'lgan. Til estetikasi muammosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olim sifatida ko'pincha italyan faylasufi va siyosiy

arbobi Benedetto Croce (1886-1952) tilga olinadi va uning 1902 yilda e'lon qilingan "Esteti-ka ifodalash haqidagi fan sifatida va umumiy tilshunoslik sifatida" nomli kitobidagi² asosiy fikrga e'tibor qaratiladi. U nazariy jihatdan tilshunoslikni estetika bilan aynan tenglashtiradi, ya'ni go'yoki tilning asosiy vazifasi kishilarning muloqotini ta'minlash emas, balki estetik omil asosidagi o'zlikni ifodalashdan iborat. B.Krochening g'oyalarini nemis filologi Karl Fossler (1872-1949) davom ettiradi. Uningcha, til — alohida individuumlarning ijodi, shuning uchun odam har bir so'z va har bir gapga betakror mazmun yuklaydi. Dantening "Ilohiy komediyasi"dagi qahramon muhabbat (atoge) so'zini bir necha marta ketma-ket takrorlarkan, uningcha, bu so'zni kitobxon har safar yangi ma'noli yangi so'z sifatida qabul qiladi. Fosslerning qanoaticha, "so'z va gapning estetik bo'yog'i betakroridir va ana shu estetik bo'yoq tilda etakchi vazifani bajaradi". Albatta, ana shu estetik bo'yoq, demakki, tilning estetik vazifasi reallashar ekan, nutq yoki matn to'zishdan ko'zlangan maqsadga osonlik bilan erishish imkoniyati ortadi. Zotan, o'quvchi yoki tinglovchi yozuvchi yoki so'zlovchining gapiga ishonishi, bu gap esa ishontirishi, ta'sir kuchiga ega bo'lishi lozim.

Dunyo filologiya ilmida tilning estetik vazifasiga qanday maqom, mavqe berilishidan, uning birlamchimi, ikkilamchimi ekanligidan qat'i nazar, bu vazifa bor va u tilning eng zaruriy jihatlaridan bir sifatida yashaydi. Ta-biiyki, buni inkor etib bo'lmaydi.

Ko'pincha tilning estetik vazifasi faqat badiiy adabiyot tiligagina nisbat bergan holda talqin etiladi. Estetika faqat badiiy asar tiligagina xos, undan tashqarida til estetikasi haqida gapirish mumkin emas deb qarash unchalik to'g'ri emas. Ayni masalalarni chuqur tadqiq etgan R.A.Budagovning fikricha, "estetiklik" tushunchasi "chiroylilik", "go'zallik", "nafosat" tushuichalariga qaraganda juda ancha keng va rang-barang, shunday ekan, tilga va nutqqa nisbatan "estetiklik"ni so'zlovchi yoki yozuvchining faqat nimani gapirayotgani va nima haqida yozayotganigagina emas, balki qanday gapirayotgani va qanday yozayotganiga ham ongli munosabat sifatida tushunmoq maqsadga muvofikdir. Taniqli tilshunos yana shuni ham ta'kidlaydiki, bu munosabatning darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Rivojlangan adabiy til o'zida go'yoki birinchi darajali potentsial estetik vazifalarni mujassam etsa, badiiy adabiyot tili ikkinchi, oliy darajadagi estetik vazifalarni namoyon etadi. Shuning uchun adabiy tilda estetika yo'q degan nuqtai nazar mutlaqo asossizdir. Ta'kidlash mumkinki, "estetik vazifasidan ayrilgan adabiy til o'zining ulkan ifoda imkoniyatlaridan teng yarmiga ayriladi. U qashshoq, tussiz va g'arib bo'lib qoladi".¹ Boshqacha qilib aytganda, nutqning tom ma'nodagi sifati, ta'sir etish, "yuqish yoki yuqtirish" salohiyati xuddi shu estetik vazifa bilan chambarchas bog'likdir. Shuning uchun ham qaysi uslubdagi nutq bo'lishidan qat'i nazar, albatta, unda tilning estetik vazifasi ishtirok etadi. XX asrning ulkan nazariyatchi fizigi, Nobel mukofoti sohibi Lui de Broyl haqli ravishda ta'kidlaganidek "matematik formu-lalar uslubi" bilan egallangan bilimlarni mustahkamlash mumkin, lekin adabiy tilning barcha vositalari yordamisiz bu bilimlarni rivojlantirib bo'lmaydi. Bu qanchalik g'ay-ritabiiy ko'rinmasin, "odatdagi adabiy til qat'iy formulalar tiliga nisbatan o'zining bir qarashdagi noaniqligi bilan aniqroqdir". Badiiy adabiyot uslubini ham, ilmiy yoki boshqa uslublarni ham til estetikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fikrni qanday ifodalashga e'tibor bor joyda,

albatta, til estetikasi o'rtaga chiqadi, lekin, aytayliq badiiy adabiyotda u bor bo'yi bilan namoyon bo'lsa, boshqa bir uslubda ikkinchi planda bo'lishi mumkin.

Aytish lozimki, nutq madaniyatini kommunikativ vazifa bilan bir qatorda estetik vazifasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ko'rinadiki, madaniy nutq to'zish maqsadi o'rtaga qo'yilar ekan, hamisha til va nutq estetikasi e'tiborda bo'lishi shart. Til (nutq) estetikasini nutq madaniyatidan aslo ajratib bo'lmaydi.

Nutqning madaniyligini, demakki, ta'sir quvvatini ta'min etadigan to'g'riliq anikdiq mantiqiylik ifodalilik boyliq sofliq jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud (ular haqida keyinroq batafsil to'xtalinadi). Ana shu kommunikativ sifatning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Tilshunoslikda "nutq madaniyati" termini, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bemalol, maqsadga va nutqiy va-ziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda kommunikativ sifatni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va belgilash bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Nutqning kommunikativ sifatlari nafaqat aloqani ta'minlash, balki tinglovchi yoki o'quvchiga nutqiy ta'sirni kuchaytirishga xizmat kiladi. Shuning uchun ham kommunikativ va estetik ta'sir maqsadida to'zilgan nutq(matn)ni "Nutq madaniyati" kursining predmeti deyish mumkin.

Nutqning to'g'riligi, ya'ni uning adabiy til me'yorlari (talaffo'z, so'z yasalishi, leksiq morfologiq sintaktiq uslubiy me'yorlar)ga qat'iy mosligi madaniy nutqning asosiy, markaziy sifatidir. Ammo har qanday to'g'ri nutq madaniy bo'lavermaydi, u mazkur boshqa kommunikativ sifat-larga ham ega bo'lgandagina chin ma'nodagi madaniy nutq maqomini olishi mumkin. Bu o'rinda yirik rus tilshunosi S.I.Ojegovning quyidagi fikri diqqatga sazovor: "Yuksak nutq madaniyati — bu o'z fikrlarini til vositalari orqali tug'ri, aniq va ta'sirchan qilib ifodalay olishdir. To'g'ri nutq deb hozirgi adabiy til me'yorlariga rioya qilib to'zilgan nutqqa aytiladi. Til me'yorlari — bu ijtimoiy-nutqiy amaliyot (badiiy adabiyot, o'qimishli kishilar nutqi, sahna nutqi, radio va sh.k.)da umum tomonidan qabul qilingan talaffo'z, grammatika va so'z qo'llash qoidalaridir. Ammo yuksak nutq madaniyati faqatgina til me'yorlariga amal qilish-dangina iborat emas. U ayni paytda o'z fikrini ifodalashning nafaqat aniq vositasini, balki eng ommabop (ya'ni eng ta'sirchan) va jo'yali (ya'ni ayni vaziyat uchun eng muvofiq va, demakki, uslub nuqtai nazaridan o'rniga tushgan) vositalarini ham topa olish mahoratini ham o'z ichiga oladi." Nutqning to'g'riligi uning markaziy sifati bo'lsa-da, nutqiy madaniyatni mazkur sifatning bir o'zi bilan ta'minlash aslo mumkin emas. Shubhasizki, har qanday to'g'ri nutq ham aniq yoki jo'yali, sof yoki boy bo'lmaydi, umuman, etarli ta'sirchanlik quvvatiga sohib bo'la olmaydi. Shuning uchun ham nutq madaniyati muammolarini tadqiq etish bilan shug'ullangan bir qator tilshunoslar nutq madaniyatining ikki bosqichini farqlash maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydilar. Masalan, L.I.Skvortsov umumiy "nutq madaniyati" tushunchasini adabiy tilni egallash va undan foydalanishning ikki bosqichini ifodalovchi "nutqning to'g'riligi" va "nutq madaniyati" tarzida ikki qismga ajratish lozimligini ta'kidlarkan, ularga shunday izoh beradi: "Birinchi, quyi bosqich nutqning to'g'riligidir. To'g'rilik

haqida biz adabiy nutq va uning me'yorlarini egallash jarayonida gapiramiz. Variantlarni nutqning to'g'riligi sathidagi baholash: to'g'ri — noto'g'ri, ruscha ifoda — ruscha ifoda emas va sh.k... Nutqning to'g'riligi mohiyatan maktab ta'liminiyu predmetidir. O'rta maktab dasturi umumiy tarzda to'g'ri nutq (ko'proq grammatika sohasida) malakasini shakllantirish ko'zda tutadi. Adabiy tilni egallashning ikkinchi, yuqori bosqichi haqiqiy ma'nodagi nutq madaniyatidir. Nutq madaniyati haqida adabiy tilga sohiblik sharoitida, to'g'rilik (ya'ni adabiy me'yorlarni bilish) sharoitida gapirish mumkin. Variantlarni nutq madaniyati sathidagi baholash boshqacha: yaxshiroq - yomonroq, aniqroq, jo'yaliroq..." Tabiiyki, nutq madaniyatining birinchi bosqichisiz ikkinchi bosqichi ham mavjud bo'la olmaydi, to'g'rilik sifatiga ega bo'lmagan nutq, ya'ni noto'g'ri nutqda boshqa biron kommunikativ sifat bo'li-shi mantikdan tashqaridir.

Nutqning to'g'riligi uning adabiy til me'yorlariga to'la mosligi sifatida talqin etilar ekan, bu me'yorlarning ikki xilini farkdash o'rinlidir. Tilshunoslikda adabiy til me'rlarining kuchli va kuchsiz tiplari ajratib ko'rsatiladi.

Nutq madaniyatining birinchi bosqichida, ya'ni to'g'ri nutq to'zish malakasini shakllantirishda asosiy diqqat e'tibor adabiy tilning kuchsiz me'yorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chunki nutq amaliyotida kuchli me'yorlar deyarli bo'zilmaydi, kuchsiz me'yorlar esa nutq to'zuvchining ikkilanishiga va demaq nutq to'g'riligining bo'zilishiga ko'proq yo'l ochadi. Masalan, ega va kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli sintaktik me'yor bo'lib, u bolalikdanoq kishi ongidan mustahkam o'rin olgan. Shuning uchun bu me'yorni qo'llashda biron kishi adashib, Men kelding shaklida jumla to'zmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llanishi bilan bog'liq me'yorlar esa kuchsiz me'yorlarga misol bo'la oladi. Shuning uchun bu me'yorlar chuqur o'rgatilmasa, odam adashib, -ning o'rnida —ni qo'shimchasini ishlatib, meni du.tim tarzida noto'g'ri birikma to'zishi mumkin.

Adabiy til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutq madaniyati masalalari o'zbeq rus va umuman, dunyo tilshunosligida ham amaliy, ham nazariy jihatdan ko'p vaqtlardan beri faol o'rganib kelinadi. O'zbek tilshunosligida S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, M.Sodiqova, Yo.Tojiev, B.O'rinboev, A.Mamatov, M.Asomiddinova, T.Qudratov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Boboeva, B.Umurqulov, A.Ahmedov, Q.Samadov, S.Inomxo'jaev, L.Xo'jaeva va boshqa ko'plab olimlar nutq madaniyati masalalarin tadqiq etishga o'z hissalarini qo'shganlar. Ular yaratgan asarlarda o'zbek nutqi madaniyatining nazariy masalalari bilan bir qatorda bevosita amaliyotga daxldor, mavjud kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga doir taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan. Aytib o'tilganiday, o'qituvchining birlamchi va asosiy quroli nutqdir. Ammo hech kimga sir emaski, ko'pgina o'qituvchilarning, ayniqsa, yosh o'qituvchilarning nutqida madaniylik jihatidan ancha-muncha nuqsonlar ko'zga tashlanadi. Har qanday ta'limning asosiy va etakchi shakli darsdir, shuning uchun ham pedagogika fani uning samaradorligini oshirishning yo'llarini tinimsiz izlaydi, xilma-xil metodlar, usullar, vositalar ishlab chiqadi. Kunimizda ham ta'limga yangidan-yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy texnik vositalar muntazam va jadal joriy etilmokda. Ammo dars deyiladigan murakkab jarayonning mukammalligi hamda natijadorligini ta'minlashda o'qituvchining pedagogik mahorati va shaxsiy fazilatlari ko'zgusi

bo'lmish uning so'zi favqulodda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining mahorati faqat o'qitishning xilma-xil metodlarini o'rinli va to'g'ri qo'llay olishidagina iborat emas, balki o'quvchi bilan muloqotidagi asosiy quroli — tildan ustalik bilan foydalana bilishi bilan ham belgilanadi. Ta'sirchan nutqi bilan o'quvchi diqqatini butun dars davomida tutib tura olmasa, o'qituvchining pedagogik mahorati haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Darsning mazmuni va samaradorligi o'qituvchi nutqining ta'sirchanligi, umuman, madaniy bo'lishi bilan bevosita aloqadordir. Agar o'quvchi o'qituvchi nutqida noizchilliq tussizliq qashshoqliq mantiqsizliq noaniqliq uslubiy g'alizliq grammatik yanglishlik kabi nuq-sonlardan loaqal birortasini sezsa, uning diqqati bo'linadi, bayon qilinayotgan materialga bo'lgan qiziqishi susayadi. Qolaversa, material bunday no'noq nutq bilan bayon qilinganda, tabiiyki, o'quvchi uni qabul qilishda zo'rlanadi, darsdan ko'zlangan samaraga erishish mushqo'lashadi. Nutq texnikasi bilan bog'liq kamchiliklar (ayrim tovushlarni talaffo'z qilolmaslik yoki yanglish talaffo'z qilish, ovozning ortiqcha balandligi yoki pastligi, ovoz tembridagi sifatsizliq "shang'illagan" yoki "hirqiragan" bo'lishi, jumlada so'zlararo pao'za bera olmasliq nutq jarayonida to'g'ri nafas ola bilmaslik va sh.k.) ham dars samaradorligiga oldingi ko'rsatilgan nuqsonlardan kam salbiy ta'sir qilmaydi. O'qituvchi nutq madaniyatini nafaqat o'zi puxta egallagan bo'lmog'i, balki o'quvchilarini ham unga odatlantirmog'i kerak.

"O'qituvchi nutqi madaniyati" kursining asosiy vazifalari talabalarni nutq madaniyatining o'zak tushunchalari bilan tanishtirish, bo'lajak o'qituvchilarda til vositalari va ifoda imkoniyatlaridan kommunikativ va estetik maqsad hamda nutq vaziyatiga o'ta muvofiq tarzda foydalana olish malakalarini, nutqning barcha kommunikativ sifatlari mohiyati bilan oshno etgan holda bunday sifatlarga ega nutq to'zish mahoratini shakllantirish, og'zaki madaniy nutqning muhim o'zvi bo'lmish nutq texnikasini yaxshilash bilan bog'liq ko'nikmalarni yo'zaga keltirishdan iborat. Nozik til sezgisi, tilimizning benihoya boy an'analari va ifoda imkoniyatlaridan xabardorligi, tamoman to'q va ta'sirchan nutqi bilan o'quvchi qulog'ini emas, balki qalbu shuo'rini zabt etib, uning akdiy va ma'naviy dunyosini ken-gaytirishga bel bog'lagan o'qituvchi bugunning o'qituvchisidir.

II-MA'RUZA : Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari.

REJA:

- 1. Madaniy nutq**
- 2. Nutqning asosiy kommunikativ sifatlari**
- 3. Nutqning to'g'riligi**

Nutqning madaniyligini ta'min etadigan to'g'rilik aniqlik mantiqiylik ifodalilik boylilik soflik jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlari mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Har qanday nutqning asosiy maqsadi muayyan axborotni tinglovchi (o'quvchi)ga etkazish, shu yo'l bilan unga ta'sir qilishdan iborat bo'lib, mazkur sifatlarning jami nutqning ta'sirchanligini yo'zaga keltiradi.

Nutqning to'g'riligi nutq madaniyati haqidagi ta'limotning markaziy masalasidir. Madaniy nutqning boshqa barcha kommunikativ sifatlari ayni shu to'g'rilik mavjud bo'lgandagina yo'zaga kela oladi. Zotan, to'g'ri bo'lmagan nutqning aniqligi yoki mantiqiylik, ifodalilik yoki boyligi haqida gapirish mumkin emas. Aytish joizki, nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poyde-vori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq to'zish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yo'zaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan to'zilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi.

O'zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Bizning 42 ming yillik umumxalq tilimiz bor, adabiy tilimiz ana shu umumxalq tilimiz bag'rida rivoj topgan. Tabiiyki, umumxalq tili — tabiiy va tarixiy taraqqiyot jarayonlari ichidagi, ammo "andavalanmagan", "randalanmagan" til. U o'z go'zalligini qanday bo'lsa, shundayligicha asrlar osha asragan, ataylab pardoatlanmagan, me'yor degan qat'iy qoidalar zanjiridan ozod, muayyan hududga mansub goh behad noziq gohida mundayroq o'ziga xosliklarni, ya'ni shu til doirasidagi barcha sheva-larni ham qamragan tildir. Adabiy til esa ana shu xalq tilining, ta'bir joiz bo'lsa, tarbiyali, ko'rkli va komil yagona "farzandi"dir. O'zbek adabiy tili o'zbek xalq tili zaminida tarkib topgan, u xalq tilining tegishli qonuniyatlar asosida me'yorlashtirilgan, sayqallangan, oro berilgan shaklidir. O'zbek adabiy tilining shakllanish asosi ham, boyish va ozikdanish manbasi ham ayni shu xalq tilidir. Bugungi o'zbek adabiy tilimizning boyligi va favqulodda ifoda imkonlariga egaligi aslida xalq tilimizning rasoligi va ravonligi bilan izoxlanadi.

Adabiy tilning tirik tirgagi adabiy me'yorlardir, chunki ularsiz adabiy til tushunchasi mohiyatini yo'qotadi. Bu me'yorlar kishilar nutqiy axloqining boshqaruvchisi, sozlovchisi sifatida xizmat qiladi. Ayni me'yorlar bu tildan foydalanuvchilarning barchasi uchun majburiy bo'lganligidan so'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot almashuv jarayonida til belgilarining to'g'ri, adekvat, bir xil

anglanishini ta'minlaydi (albatta, bunda boshqa vositalar ham ishtirok etadi). Shunday ekan, adabiy til me'yorlari masa-lasi nutq madaniyati haqidagi ta'limotda alohida ahamiyatga molikdir.

Alabiy me'yor til unsurlaridan til sistemasi qonuniyatlariga uyg'un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalaridir. Adabiy me'yorning shakllanishi va rivojlanishida jamiyatdagi nutqiy amaliyot va, ayniqsa, atokdi yozuvchilar — so'z ustalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xuddi shu amaliyotda barqarorlashgan so'z (yoki boshqa lisoniy birlik)ni qo'llash doimiy qoida shaklini oladi. Qizig'i shundaki, adabiy til me'yori nutqiy amaliyotdan olinadi va yana shu amaliyotni boshqarishga xizmat qiladi. Til me'yorlari milliy til birligi, butunligining bosh omillaridan hisoblanadi. Ayni shu me'yorlar ko'p shevali o'zbek milliy tili egalarining nutqiy muloqotini birlashtiradi. Adabiy me'yorlar anchayin barqaror hodisadir, aks holda nutqiy aloqa qiyinlashishi tabiiy. Aytayliq bugun bu shakl me'yor, ertaga boshqa shakl me'yor bo'lsa, kishilarning bir-birlarini anglashlari mushqo'lashadi. Masalan, muayyan so'z mavjud bir narsaga nisbat berib yasalgan va bu so'z adabiy me'yorga kirgan, ammo vaqtlar o'tishi bilan bu narsa o'rnini boshqa narsa egallaydi. Buni o'tlanmoq so'zi misolida ko'rshp mumkin. Iste'dodli yozuvchi Orif Farmonov "Tadqiqotlar va kashfiyotlar" hajviyasida ayni holatni juda chiroyli tavsiflab kulgi chiqargan: "...Taraqqiyot shunchalik tezlashib ketdiki, sal bo'shshsang, yo modadan orqada qolasan, yo avtobus-dan. Hatto so'z tug'ilish sur'ati ham bu taraqqiyot oldida juda imillayapti. Masalan, qadimda Yo'lga otlandi degan gap bor edi. Hozir otlar o'rnini texnika egallab oldi. Lekin Yo'lga otlandi gapi hamon tilimizda. Yo'lga otlangsh odam esa yalpayib mashinada o'tirgan bo'ladi. Demaq Yo'lga mashinalandi degan gap tug'ilishi kerak edi-da."! O'tlanmoi, tilimizda barqaror leksik me'yor sifatida yashamoqda, uning dastlabki ma'nosi, ya'ni "otga minmoq" bugun xiralashgan. Ayni paytda ta'kidlash joizki, adabiy me'yornlarni mutlaqo o'zgarmas, davrlar o'tishi bilan hech bir o'zgarishga uchramaydi deb bo'lmaydi. Me'yornlarni tamoman qotib qolgan narsa deb tushunish to'g'ri emas. Adabiy til me'yorlari ayni paytda dinamik hodisa hamdir. Til o'zining ijtimoiy tabiatiga muvofiq jamiyat rivoji bilan bab-baravar takomillashib borar ekan, tilning me'yorlari ham o'zgarib, yana« da mukammallashib boradi. Masalan, o'tgan asrning 30-yillarida buyruq maylining ikkinchi shaxs ko'plik shakli sifatida —(i)ngiz shaklini qo'llash adabiy til me'yori edi lekin asr oxiriga kelib, uning o'rnida —(i)ng shakli me'yorga aylandi. Kiyoslang: Quyidagi maqolni o'qingiz. Uni gaplarga ajratingiz. So'ngra ko'chirib yozib, gaplarning oxiriga nuqta ko'yingiz (A.Yo'ldoshev. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent, 1934, 5-bet). Makrllarni ko'chiring. Kelasi zamon fe'llarini topib, tagiga chizing. To'rtinchi maqolning mazmunini tushuntirib bering (A.G'ulomov va boshq. O'zbek tili darsligi. 5-6-sinflar uchun. Toshkent: O'qituvchi, 1982, 158-bet). Yoki adabiy til me'yori hisoblangan keladir, ishlaydir fe'l shakllari o'rnini bugun keladi, ishlaydi shakllari egallagan.

O'zbek adabiy tili me'yornlarining xalq shevalariga ko'ra asoslarini ham to'g'ri tasavvur etmoq lozim. "O'zbek tilining lahjalari orasida, odatda, qorluq-chigil lahjasi hamda unga qarashli bo'lgan ayrim sheva va dialektlar o'zbek adabiy tilining tayanch sheva va dialektlari deb hisoblanadi. Bunda ularning talaffo'z norma (me'yor)larini

belgilashdagi roli, ko'pgina terminlarning ularda ilgaridan shakllanganligi, bu sheva vakillarining ko'p jihatdan milliy madaniyat va leksik an'analarimizni boshqarishda o'zlariga xos xizmatlari borligi asosga olingan... Ba'zi olimlar o'zbek adabiy tilining normalarini belgilashda Toshkent shevasini fonetik jihatdan, Andijon, Farg'ona shevalarini esa morfologik jihatdan tayanch sheva deb hisoblaydilar. Toshkent shevasi poytaxt shahar shevasi sifatida leksik tomondan ham o'zining ko'pgina elementlarini adabiy tilga kiritgan va kiritmoqda. Lekin aslida A.K. Borovkov qayd qilib o'tganidek o'zbek tilining birorta shevasini ham adabiy tilga hamma jihatdan asos bo'lgan deb aytib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilining hamma dialekt va shevalari adabiy til taraqqiyotiga ma'lum bir hissa qo'shgan, ikkinchi tomondan, ularning har birida juda ko'p o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan, Andijon, Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tiliga eng ko'p tarqalgan grammatik formalardan birini - hozirgi zamon fe'lining — yap affiksi bilan yasaluvchi formasini bergan. Bundan tashqari, Andijon va Farg'ona shevalari o'zbek adabiy tilining asosiy talaffo'z bazasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu shevalarning adabiy tilimizga o'zlarining fonetik xususiyatlari bilan ham maksimal darajada yaqinlashuvi shu bilan izoxlanadi. Bu shevalar o'zbek adabiy tiliga o'zlarining leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa til vositalari bilan ham hissa qo'shgan. Shuni xarakterliki, bir qarashda o'zbek adabiy tilidan birmuncha o'zoqroq turgandek ko'ringan qipchoq shevalari ham o'zbek adabiy tiliga juda ko'p leksik boyligi, stilistik imkoniyatlari hamda boshqa grammatik vositalari bilan hissa qo'shgan. Masalan, o'zbek adabiy tilidagi qaratqich kelishigining to'liq formasi qipchoq shevalaridan qabul qilingan. Adabiy tilimizdagi hozirgi zamon fe'lining -yotir affiksi vositasida yasaluvchi formasi ham qipchoq va o'g'o'z dialektlariga xos formadir va h.k...

Demaq o'zbek adabiy tilining rivojlanishida barcha dialekt va shevalar manba bo'lib xizmat qilgan. Lekin bundan qorluq-chigil lahjasiga oid dialekt va shevalar etakchi manba rolini o'ynagan."

Alohida ta'kidlash kerakki, adabiy talaffo'z me'yori tarbiyasi qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi, chunki shevaga xos talaffo'z ko'nikmasi juda mustahkam bo'ladi. Aytayliq bola yorug' dunyoga kelgan soniyadan boshlaboq uning qulog'i odatda u yoki bu shevadagi nutq ta'siri ostida qoladi. Istaymizmi-yo'qmi, tili ham shu shevada chiqadi. Taassufki, oilad to bolaning tili qotguncha uni adabiy talaffo'z tomon tortishga o'rinib ham ko'rilmaydi. Keyinchalik uni adabiy talaffo'zga o'rgatish uchun ko'p kuch sarflanadi, ammo natija hamisha ham ko'ngildagidek bo'lavermaydi. Hatto til va ada-biyot o'qituvchisi bo'lib etishgan, aytayliq xorazmlikning "o" tovushini ("a" yoki unga yaqin tarzda talaffo'z qiladi, buxorolikning "o'" tovushini (asosan, til oldi "o'" tarzida talaffo'z qiladi) sof adabiycha talaffo'z qilishi mushkulotga aylanadi. Ana shu tufayli "Bolaning tili rosa chiqib olaversin, uning nutqiy madaniyati haqida qayg'urish qoch-mas, maktab hammasini o'rgatadi" qabilida mulohaza qilish aqlning ishi emas. O'z farzandining ro'shno dili, burro tili va raso so'zi bilan ilonni inidan chiqaradigan bo'lib kamolga etishini astoydil istaydigan har bir kishi buni unutmazligi kerak. Adabiy til me'yorlarini tartibga solish, mustahkamlash, o'zgarish va taraqqiyot tamoyillarini belgilash maqsadida davlat, ilmiy-adabiy jamoatchilik umuman, jamiyat til me'yorlariga oqilona ta'sir etib boradi. Zero, adabiy me'yorning mohiyati tildagi u yoki bu qo'llanishning shu til ja-moasi

tomonidan maqbul ko'rilishi, nufuzli adiblar asarlarida keng yoyilishi, jamiyat hayotining ayni davrida nutqiy urfga kirishidan iborat. Jamiyatdagi muayyan katta-kichik o'zgarishlar tilda aks etar ekan, adabiy me'yorlarda ham o'zgarishlar yo'zaga keladi. Bu holatlarda maqbul variant adabiy me'yor yo'zasidan tegishli davlat idoralari, jamoatchilik komissiyalari, tilshunoslar, yozuvchilar va boshqa kishilar tomonidan tavsiyalar ishlab chiqiladi. Masalan, o'tgan asrning 90-yillarida bir muddat iste'molga kirgan ilmgoh, bilimgoh, tahsilgoh kabi so'zlar ana shunday tavsiyalar asosida adabiy me'yordan chiqarilib, uning o'rniga institut so'zi me'yorlashtirildi.

Adabiy til me'yorlarining mustahkamlanishida, jamiyat a'zolarining unga doimiy amal qilishlarini targ'ib etishda maktab, litsey-kollejlar, oliy maktab, badiiy adabiyot, televidenie, radio, gazeta va jurnallarning alohida o'rnini bor. Adabiy til me'yorlarini anglash va anglatishda ularga sistem yondashuv favqulodda muhim ahamiyatga ega. Tilshunos L.I.Skvortsov shunday yozadi: "Adabiy me'yorlarni tavsiflashga sistem yondashuv, bizningcha, sintagmatika va paradigmatica tushunchalarini kiritish orqali yo'zaga chiqadi... Me'yorlar paradigmaticasi so'z (so'z birikmasi, konstruktsiya)ni mavjud ma'nosi yoki ma'no noziligiga, uslubiy, situativ va sh.k. vazifaga muvofiq tanlash, sinonimik yoki yaqin ma'noli, shuningdeq zamon, ijtimoiy-kasbiy yoki boshqa jixatdan bog'langan (arxaiq hududiy, jargon va boshqa vositalar) variantni to'g'ri qo'llashni o'z ichiga oladi. Adabiy me'yorlar sintagmatikasi keng ma'nodagi "birikuvchanlik" im-koniyatlari(moslashuv, predlogli yoki predlogsiz boshqaruv, grammatik variantni tanlash va sh.k.)ni belgilaydi."1 Ko'ri-nadiki, me'yorlar sintagmatikasi deganda ko'proq grammatsh me'yorlar sistemasi nazarda tutiladi. O'zbek adabiy tilida, asosan, quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1)leksik (so'z qo'llash) me'yorlar;

- 2)talaffo'z (orfoepik) me'yorlari;
- 3)so'z yasalishi me'yorlari;
- 4)morfologsh me'yorlar;
- 5)sintaktik me'yorlar;
- 6)uslubiy me'yorlar.

Tabiiyki, adabiy tilning yozma shaklida imlo (orfografik) tinish belgilari (puntuatsion) me'yorlari ham mavjud bo'ladi. Bu me'yorlar mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdeq tarixiy an'analarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tarafidan tasdikdanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lug'atlarida o'z aksini topadi. Madaniy nutq malakasini puxta egallamoq, muayyan nutqning to'g'rilik sifatini xolis baholay bilmoq uchun adabiy me'yorlarning mazkur tiplari, ularning asosiy qoidalari va bu qoidalarning bo'zilishi natijasida yo'zaga kelishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarni etarli darajada tasavvur qilmoq maqsadga muvofikdir. Ayniqsa, adabiy til me'yorlarining kuchsiz tiplari, agar etarli darajada egallanmagan bo'lsa, nutqda bo'zilishga moyil bo'ladi.

O'zbek tili dunyodagi qadimiy va rivojlangan tillardan biri sifatida benihoya boy leksik xazinaga ega. Bu xazinadagi so'zlarning ba'zilari eng qadimgi davrlardan beri yashab kelayotgan bo'lsa, ba'zilari nisbatan keyinroq paydo bo'lgan yana ayrimlarining ma'no miqdori ortgan, boshqalarida esa bu miqdor kamaygan. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotida yo'z bergan tarixiy o'zgarishlar tilning, eng avvalo, lug'at boyligida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham leksik me'yorlar

boshqa me'yorlarga qaraganda anchayin harakatchan bo'ladi. Buning ustiga, leksik me'yorlarni belgilash ham sezilarli darajada murakkab va qiyin jarayon, chunki, masalan, fonetik yoki morfologik birliklar sanoqli bo'lgani holda, leksik sistemani tashkil etadigan birliklar — soʻzlar juda koʻp, bir necha oʻn minglar, yoʻz minglar bilan oʻlchanadi. Shunga koʻra ham leksik sistemani osonlikcha unifikatsiya qilish mumkin emas. Buning ustiga tilda yangi-yangi soʻzlar paydo boʻladi, ayrim soʻzlar isteʼmoldan chiqib ketadi, turli tillardan soʻzlar kirib keladi. Soʻzning maqbulligi, uning u yoki bu maʼnoda qoʻllanishi toʻgʻriligining baholanishida koʻproq til egalarining dunyoqarashi, mafkoʻrasi, madaniy-maʼrifiy saviyasi, adabiy anʼanalardan boxabarligi asosiy rol oʻynaydi. Shuning uchun baʼzan muayyan soʻzning adabiy tilda qoʻllanishining maqbulligi yoki nomaqbulligi ustida oʻzoq va jiddiy bahslashiladi. Ana shu bahs-munozaralar, ilmiy-ijtimoiy izlanishlar natijasida tegishli toʻxtamga kelinadi. Aytish lozimki, leksik meʼyor lugʻatlarda, xususan, izohli lugʻatlarda oʻz aksini topadi, zotan, izohli lugʻatlarga birinchi navbatda adabiy til leksikasi kiradi. Toʻgʻri, adabiy meʼyordan tashqaridagi soʻzlarning maʼlum qismi ham izohli lugʻatdan oʻrin oladi, ammo ular "esk."(eskirgan), "s.t."(soʻzlashuvtili), "dial."(dialektal), "folk." (folklor), "tar."(tarixiy) kabi izohlar bilan beriladi. "Oʻzbek tilining izoxli lugʻati" (2 tomli. Moskva, 1981)da "Mazkur lugʻat hozirgi oʻzbek adabiy tilining normativ lugʻatidir. Shunga koʻra lugʻatga, xususan, hozirgi zamon oʻzbek tilida keng isteʼmolda boʻlgan soʻz va frazeologik iboralar kiritilgan" deb taʼkidlangan. Aytish joizki, bugun mazkur lugʻatdagi anchagina soʻzlar hozirgi adabiy tilimiz meʼyorlaridan chikdi, bir qancha soʻzlar meʼyorga kirdi. Shuning uchun yangi 5 jildli "Oʻzbek tilining izohli lugʻati" tayyorlandi va nashr etildi (Toshkent: "Oʻzbekiston milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-2008). Tilning leksik meʼyorlarini belgilashda oʻz va boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzlarga munosabat masalasi oʻrtaga chiqadi. Dunyo mamlakatlarining koʻpchiligida vaqti-vaqti bilan bu borada tilga puristik yondashuv koʻzga tashlanadi. Aslida purizm (lotincha —purus"toza, sof") tilning tozaligini sakdashga oʻrinish maʼnosida ijobiy hodisa. Ammo tildagi har qanday oʻzlashmalarga keskin qarshi, oʻta konservativ bir harakat oʻlaroq, salbiy harakat deb baholanadi. Tilga nooʻrin kirishi mumkin boʻlgan chet soʻzdan saklanish keraq ammo har qanday oʻzlashmaga qarshi turish, uni almashtirishga kirishish maqbul ish emas. Tilshunos L.I.Skvortsov purizm odatda favqulodda ijtimoiy voqealar va ular bilan bogʻliq tilda voqe boʻladigan sezilarli siljishlar davrida boʻy koʻrsatishini aytadi. Chindan ham, oʻtgan asrning 20-yillarida oʻzbek tiliga Evropa tillaridan kirgan juda koʻplab soʻzlarni arab-fors soʻzlari yoki yangi yasalmalar bilan almashtirishga zoʻr berilgan. Masalan: partiya — firqa, mateg matika — riyoziyot, astronomiya — falakiyot, vodorod — muvalidulalmaʼ — suvtugʻdirgʻich, kislorod — muvalidulhamoʻzal achchil, uglerod — homzi korbun — koʻmirchil va h.k. Lekin bu harakatlar mohiyatan sunʼiy boʻlganligi, oʻzbek tili tabiatiga muvofiq boʻlmaganligi uchun natija bermadi, mazkd almashtirilgan soʻzlar leksik meʼyor sifatida tilda muqimvlasha olmadi.

Oʻzbekistonning mustaqilligi arafasida va mustaqillikning dastlabki yillarida ham oʻzbek tilidagi evropacha oʻzlashmalarni tildan chiqarishga qaratilgan xilma-xil fikrlash tavsiyalar oʻrtaga tashlandi. Bu tavsiyalarning aksariyati ilmiy-ijtimoiy asosga ega emasdi, chunki bu fikrlarning mualliflari tilning mohiyati va qonuniyatlaridan

bexabar edilar. Masalan, bir yozuvchi hatto tovar so`zi o`zbek tiliga yot, uni iste`moldan chiqarish kerak degan da`vo bilan chiqdi. Holbuki, tovar so`zi sof turkiy bo`lib, u rus tiliga turkiy tillardan o`tgan. Aslida tug`+ar — tug`ar (tug`adigan — tuvar — to`var — tovar shaklida paydo bo`lgan. Mol so`zining ma`no taraqqiyoti qanday bo`lsa, tovar so`ziniki ham aynan shunday. Faqat bu so`zlarning biri sharqiy turkiy tillarga, ikkinchisi esa g`arbiy turkiy tillarga xosdir. Demaq tovar so`zi o`zbek tilining ming yillik asl o`z so`zi sifatida yashashga haqli.

Ayni shu davrda aeroport so`zini tayyoragoh, gazeta so`zini ro`znoma, jurnalni majalla, fakultetki kulliyot, filalogayani suxanshunosliq rayonni nohiya tarzida almashti-rishga harakat qilindi, matbuotda shunday qo`llana boshladi. Ammo baribir, bu so`zlar o`zbek tilining leksik me`yoriga aylana olmadi. Bir xorijiy tildan kirgan so`zni boshqa xorijiy til — arab yoki fors tili so`zi bilan almashtirish, tabiiyki, til leksikasi taraqqiyoti uchun hech narsa bermaydi, aksincha, xalqni o`zi odatlangan so`zidan ajratadi, tushunishini qiyinlashtiradi. Evropa tillaridan kirgan so`zlarni arab-fors so`zlari bilan almashtirishga zo`r berilgan o`sha o`tgan asrning boshlarida buyuk o`zbek tilshunosi va adibi Abdurauf Fitrat o`zining "Tilimiz" nomli maqolasida o`zbek ziyolilarining fors va arab so`zlarini ishlatishga o`chligidan nolib, shunday yozgan edi: "Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha (o`zbekcha)!.. Ming yildan beri ezila kelmishdir. Lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir, yashar. Negakim boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o`zini arab, fors tillaridan qutqara olurmi, yo`qmi? So`zni bu erga etirgach, barmog`imni yaraning o`zagiga bosmish bo`ldim."

Er yo`zida mutlaqo sof birorta til yo`q, albatta, biridan boshqasiga so`z o`tadi. Biz istaymizmi, yo`qmi, baribir, bu tabiiy jarayon. Muhimi — bunda me`yor va o`zbek tili qonuniyatlariga, ijtimoiy-nutqiy odatlarga uyg`unlikni inobatga olish. Ana shu asosda tilimiz lug`at xazinasidan o`rin olgan juda ko`p arab, fors, rus va boshqa tillarning so`zlari borki, ularning begona tilga oidligini mutaxassis bo`lmagan odam sezmaydi ham. "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilingandan keyin avtor, gonorar, grupp, ministr, oblast, programma, plan, redaktor, sekretar, tekst, tema kabi rus tilidan yoki u orqali boshqa tillardan kirgan bir qancha so`zlar o`rniga tavsiya etilgan muallif, qalam haqi, guruh, vazir, viloyat, dastur, reja, muharrir, kotib, matn, mavzu kabi arabcha, forscha so`zlar bugun o`zbek tilining leksik me`yoriga aylanib bo`ldi.

Shuni ham aytish kerakki, boshqa tildan so`z olinganda, bu so`z talaffo`z jihatidan oluvchi tilning tovush qonuniyatlariga muayyan bir darajada moslashtirilmog`i maqsadga muvofiq. Arab, fors, yapon, turk va ko`plab boshqa tillarda bu tamoyil an`anaga aylangan. Ana shunday yo`l to`tilganda, o`zga tilning so`zi bu tilga tamoman o`z bo`lishi va bu til rostmana boyishi mumkin. Aytayliq iqlim so`zini bugun hech qaysi o`zbek boshqa so`z bilan almashtirish kerak demaydi. Tilimizdagi benihoya ko`p arabcha so`zlar qatorida bu so`z ham o`zlashib ketgan. Ammo bu so`z aslida arablarning ham bevosita o`z "mol"i emas. Uni arablar yunon tilidan olganlar. Yunonlarda klimatos so`zi bor, u "quyosh no`rining erga! tushishidagi qiyalik darajasi" degan ma`noni ifodalaydi, Bu so`zni arablar talaffo`zini ham arabchallashtirgan holda (iklim) o`zlashtirganlar. Yoki yapon tilida sisutemu (sistema), akusento (aktsent), purusu (puls; yapon tilida tovushi yo`q), ideorogi (ideologiya) kabi bir qancha talaffo`zi! ham moslashtirilgan o`zlashmalar mavjud. O`zbek tilida

ilgari rus tilidan o'zlashtirilgan va aynan talaffo'z qilinadigan komitet (frantso'zcha sotye so'zidan olingan) so'zi bor edi. Mustaqillikdan keyin ayni shu frantso'zcha so'zni o'zbekcha talaffo'zga moslashtirib, ko'mita shaklida olindi va u adabiy leksik me'yorga aylandi.

Tilimizning lug'at xazinasini boytish va tozaligini ta'minlash, leksik me'yorlarining muntazamligiga erishishda, eng ma'qul yo'l o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlariga tayanishdir. O'zbek tilining o'z qonuniyatlari asosida yangig so'zlar yasash, u yoki bu sababga ko'ra iste'moldan chiqqan qadimgi va eski turkiy so'zlarni tiklash, tilimizning teran tomirlari bo'lmish shevalardan so'z olish maqsadga muvofiq. Masalan, raport so'zining o'zbekcha muqobili sifatida bildirgi so'zi yasaldi va adabiy tildan joy oldi. Yoki rayon so'zi avval nohiya so'zi bilan almashtirildi, ammo leksik me'yor maqomini olmadi. Keyinroq eski o'zbek tilidagi tuman so'zi iste'molga kiritildi, u faol lug'atimizda o'z o'rnini topdi.

Adabiy tilda hozircha mavjud bo'lmagan, turli sohalarga oid so'zlarni izlab topishda shevalar tengsiz manbadir. O'zbekistonning bir hududida dehqonchilik boshqasida chorvachilik yana boshqasida baliqchilik rivojlangan, demakki, bu sohalarga oid xilma-xil so'zlar o'sha erlarda bor. Taomshunos olim Karim Mahmudov xotiralaridan birida shunday voqeani hikoya qilgan edi: Olim bir taomning tayyorlanish tartibini yozib, zukko so'z sinchisi Abdulla Qahhorga ko'rsatadi. Undagi ikra so'zini ko'rgan yozuvchi: "Buning o'zbekchasi yo'qmi?" deb so'raydi. Olim: "Baliqning urug'i" desa bo'ladi", deydi. So'zning ichu tashini naqd ko'ra biladigan adib: "Nima, sizga baliq o'simlikmi?" deydi achchiqlanib. "Bo'lmasa, "baliqning tuxumi" bo'lsin", deb javob beradi olim izlangan bo'lib. Yozuvchi: "Baliq tovuq emas", deydi va xalqda uni ifodalaydigan alohida so'z bo'lishi kerakligini aytadi... Olim safarlaridan birida Xorazmda Qahhor qasd etgan so'zni eshitadi, u erda uvulduruq deyilarkan. Shu tarzda bu so'z adabiy tildan joy oladi,

Leksik me'yorlarga huda-behuda aralashaverish, har bir chet so'zga g'ashlik bilan qarayverish, o'rinli-o'rinsiz chet so'zni almashtirish payidan bo'laverish til leksik me'yorlarining barqarorligini bo'zadi. Bu, albatta, nutqiy muloqot jarayoni uchun ham, nutq madaniyati uchun foydali emas. Ingliz dinshunosi va tarixchisi Jeyms Jorj Frezer bir kitobida shunday bir antiqa odatni tasvirlaydi. 'Avstraliyadagi hindu qabilalaridan biridagi urfga ko'ra, biror kishi vafot etsa, uning ismini tilga olish taqiqlanar ekan. Ma'lumki, har qanday kishi ismi ayni zamonda turdosh ot hamdir, ya'ni u muayyan ma'noga ega bo'lib, hayotdagi biron-bir narsa yoki tushunchani ifoda etadi. Masalan, Po'lat, Temir, Lola, Arslon kabi kishi ismlari turdosh ot sifatida tegishli narsalarning nomlaridir. Aytayliq Po'lat ismli kishi dunyodan ko'z yumdi, shu kundan boshlab, bu so'z taqiqqa uchraydi, ya'ni tildan chiqib ketadi. Uning o'rniga shu ma'no ifodasi uchun yangi so'z tilga olib kiriladi. Demaq mazkur qabila tilining lug'at boyligi tinimsiz o'zgarib turadi. Tabiiyki, bir-ikki yilda mazkur qabilada 100 — 200 odam vafot etsa, o'z-o'zidan shuncha so'z tamoman yangilanadi, "Bu g'aroyib odat tilning barqarorligigagina putur etkazib qolmasdan, jamiyat hayotining o'zluksizligini ham izdan chiqaradi va o'tmish voqealari solnomasini ham xira va ishonchsiz bir narsaga aylantiradi", — deb ta'kidlanadi mazkur kitobda. Tilning so'z boyligiga nihoyatda ehtiyotkorliq hushyorliq ziyraklik bilan munosabatda bo'lish lozim.

Bugun adabiy tilning leksik me'yorlaridan tashqaridagi mundial (futbol musobaqasi), oliygoh (institut), ilmgoh (universitet), o'yingoh (stadion) kabi so'zlarni qo'llash nutqning to'g'riligiga putur etkazadi. Germaniyada davom etayotgan 18-jahon chempionati ishqibozlarni o'ziga jalb etishi bilan o'tgan mundial (?) lardan farq qiladi ("Xalq so'zi", 2006, 8 iyul). Yaxshi aktrisa hisoblanmasam-da, o'zini sevganlardan biri sifatida ushbu oliygoh (?) ni bitirdim ("Bekajon", 2006 yil 24 avgust). U Harvard universitetiga kirish uchun tayyor edi. 1972 yili ana shu ilmgohning iqtisodiyot fakultetiga o'qishga kirdi ("Darakchi", 2006 yil 24 I avgust). Muborak tumani markazidagi Baxrom Vafoev nomli o'yingoh (?) da uyushtirilgan ko'rash to'rniri ana shunday shior ostida o'tdi ("O'zbekiston ovozi", 2006, 15 aprel).

Ayniqsa, o'qituvchi nutqida hatto maktab bilan bog'liq tushunchalar ifodasi uchun adabiy tilning lug'at boyligidan o'rin olib ulgurmagan so'zlarning qo'llanishi mutlaqo nojoizdir. Masalan, "Kichkintoylar nutqini o'stirish" nomli bir kitobda shunday jumla bor: Tarbiyachi xattaxta oldiga ikki nafar bolani chaqiradi.* Albatta, bu so'z ruschadan olingan doska so'zining muqobili sifatida yasalgan, lekin leksik me'yor maqomini olmagan. Aslida bunday yangi so'z yasashga ehtiyoj yo'q, chunki tilimiz tarixida ayni ma'noda qo'llangan taxta so'zi mavjud: Xonada o'ntacha est chang bosgan parta, kiraverishdagi devorga kattakon krra taxta qoqilgan edi (Parda Tursun, "O'qituvchi" romani). Tilning leksik me'yorlarini yaxshi anglash, uni avaylash va unga amal qilish to'g'ri nutq to'zishning muhim omillaridandir.

Shu narsani tan olish lozimki, har qanday istakdan qat'inazar, peshqadam davlatning tilidan boshqa tillarga u yoki bu zaruriyat bois so'z kirib kelaveradi. Fan va texnologiyadagi katta-kichik kashfiyotlar, yutukdar, eng kami, shu kashfiyotchining ismi shaklida yoki yana boshqa biror shaklda o'zga tillarga kirish uchun osonlikcha yo'l topaveradi. Tarixda ham shunday bo'lgan, bu tabiiy jarayon. Ayni fikrni isbotlab o'tirishning hojati yo'q. Birgina dunyo tillarining deyarli barchasidagi algoritm so'zining Al-Xorazmiy ekanligini eslashning o'zi kifoya. Bugun ham shunday: Mercedes, Soni, Samsung kabi yo'zlab muayyan bir tilning so'zlari butun dunyo

tillariga kirib bo'lgan. Mamlakatimizdagi jadal iqtisodiy islohotlar tufayli marketing, menejment, menejer, broker, lizing, birja kabi allaqancha xorijiy so'z o'zbek adabiy tilining lug'at xazinasidan joy olib ulgurdi. Albatta, bu so'zlar yangi, ilg'or iqtisodiy g'oyalar bilan birga kirib kelmokda. O'zbek adabiy tilining talaffo'z (orfoepik) me'yorlari deganda, nutqda ayrim tovushlar, ularning qo'shilmasi, so'zlar, jumla(gap)larning ohangi (intonatsiyasi) va shu kabilarni to'g'ri talaffo'z qilish qoidalari nazarda tutiladi. Atoqli o'zbek tilshunosi S.Ibrohimov bundan 40 yil ilgari shunday ta'kidlagan edi: "Adabiy talaffo'z nutq tovushlarini, so'z va morfemalarni hamda iboralarni tegishli qoidalarga muvofiq talaffo'z etish, so'z va gaplarda urg'u, intonatsiya va pao'zaga to'g'ri rioya qilish bilan yo'zaga keladi. Garchi turlicha shevada, ayniqsa, bir necha lahja va juda ko'p shevaga bo'lingan o'zbek tilida so'zlovchi jamiyat a'zolarining talaffo'zlarini tamoman bir xilga keltirib bo'lmasa-da, adabiy tilning o'zoq tarixiy jarayonida va birlashgan adabiy tilning keyingi taraqqiyotida belgili umumiy talaffo'z normalari vujudga kelgan, qaror topgan. Nutq madaniyati ularga og'ishmay amal qilishni talab etadi. Bu normalar nutq tovushlari talaffo'zi, urg'u, intonatsiya, pao'zaga oiddir."

O'zbek adabiy tilining talaffo'z me'yorlari "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining "Orfoepiya" bo'limida anchayin ixcham bir tarzda bayon qilingan. Bu me'yorlar o'zbek. tilshunoslari tomonidan yaratilgan ikkita orfoepik lug'atda baholi qudrat aks ettirilgan. Ammo bu lug'atlarning nashr etilganiga yigirma-o'ttiz yil bo'ldi, buning ustiga har ikkala lug'atda ham takomillashtirilishi lozim bo'lgan, o'rinlar ancha-muncha bor.

Adabiy talaffo'z me'yorlari so'zning tovush jihatidan hamma tomonidan bir xil va to'g'ri aks ettirilishini, nutq. oqimidagi ohangning aniq tayin etilishini tartibga soladi. Bu so'zning va, umuman, nutqning to'g'ri to'zilishi va anglanishi uchun benihoya muhimdir. Bu o'rinda bir narsani aytib o'tmoq joiz. Nutq madaniyati haqida gap borar ekan, so'z urg'usi erkin bo'lgan tillarda, masalan, rus tilida urg'u me'yorlari masalasiga juda katta e'tabor beriladi.³ Rus tilida urg'u qoidalari behad ko'p bo'lib, ularda xilma-xil xususiy va istisno holatlar ustundir, bu qoidalar umumiy xarakterga ega emas.⁴ Boshqacha qilib aytganda, urg'u bilan bog'liq me'yorlar turlicha va katta mikdorni tashkil etadi. O'zbek tilidagi urg'u esa turg'un bo'lib, sanoqli istisno holatlar hisobga olinmasa, u, asosan, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi, qo'shimcha qo'shilgani sayin, so'nggi bo'g'inga ko'chib boraveradi: kutubxona — kutubxonamiz — kutubxonamizda — kutubxonamizdagi — kutubxonamizdagilar — kutubxonamizdagilardan kabi. O'zbek tilida urg'uning qo'llanishidagi bu qoida kuchli me'yor bo'lib, hech qaysi o'zbek unga amal qilishda yanglishmaydi, demaq uni alohida o'rganish uchun ehtiyoj yo'q. So'zning oxirgi qismida bo'lsa ham, -ta(o'nta), -cha(kahramonlarcha), -ma(borma), -gina(sengina), -dek(guldek), -mi(bildimi), -da(bildi-da), -man(ishlaganman) kabi qo'shimcha va yuklamalarning urg'u olmasligi yoki yangi' — yangi, hozi'r — ho'zir kabi urg'uning ko'chishi istisno holatlar, ular ko'p emas. Buning ustiga, ayni me'yorlar o'zbek xalq shevalaridagidan deyarli farq qilmaydi. Bu hol o'zbek adabiy tilidagi urg'u me'yorlarini osonlik bilan o'zlashtirishiga imkon beradi. Shuning uchun urg'u me'yorlarini o'zbek adabiy talaffo'zi me'yorlarining ichida qarash maqsadga muvofikdir. Adabiy talaffo'z me'yorlarini belgilashda so'zlardagi tovush va tovush qo'shilmalarini to'g'ri aytish alohida o'rin tutadi. Bunda mavjud tovushlarning o'ziga xos qonuniyatlari, shakllangan an'ana va shevalardagi umumiy holatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Masalan, kitob, xtssob, maktab, yo'zlab, obod, savod, marvarid kabi so'zlarning oxiridagi jarangli undoshlarning nutqda kitob, hisob, maktab, yo'zlab, obot, savot, marvarit tarzida jarangsiz aytilishi o'zbek tilining deyarli barcha shevalarida uchraydi, shunga ko'ra bu holat adabiy talaffo'z me'yori hisoblanadi. Shevalarda keng tarqalgani, tilimizning tovush tabiati va an'anaga kirgani tufayli baland, poezd, Samarqand, xursand, do'st, artist, g'isht, go'sht, Toshkent kabi so'zlarda so'z oxiridagi undoshlarning aytilmasligi (yoki jaranglining jarangsizlashishi) ham talaffo'z me'yori sifatida qaraladi. Shuningdeq so'z shakllarining quyidagicha aytilishi ham me'yorga aylanib bo'lgan: ushta (uchta), bessom (besh som), ushti (uchdi), ketti (ketdi), issiz (izsiz), tussiz (to'zsiz) kabi. Darsliklarda ta'kidlanganideq "og'zaki nutqda bo'lsa, kelsa, bo'lgan, kelgan singari so'zlar talaffo'zida 1 tovushini ko'pincha tushirib qoldirish ham adabiy orfoepiya normasiga aylanib qolgan. Opti, bo'pti, kopti, borarkan, kelarkan, ovor, qo'yvor kabi so'zlarning og'zaki nutqdagi talaffo'zi ham shu hodisaga kiradi."¹ Aytish mumkinki, bu holatlarning o'zbek adabiy talaffo'zi me'yorlariga aylanib

ulgurganiga ancha bo'lgan. Ulkan adib Abdulla Qahhor "San'atkor".' nomli hikoyasi (1936 yil) da bo'lsa fe'lining adabiy talaffo'zdagi bo'sa shakli bilan bo'sa (o'pich) oti o'rtasidagi shakldoshlikdan foydalanib, mazkur fe'lining faqat bo'lsa shaklini adabiy talaffo'z deb tushunadigan, hatto bo'sa (o'pich) ni ham bo'lsa tarzida aytadigan "madaniyatli" artistning benihoya kulgili qiyofasini chizgan: ...San'atkor tajash edi: tanaffus vaqtida zalga chiqqan edi, bir traktorist uni savodsizlikda aybladi... San'atkor uyiga ketgani iz voshga o'tirganida yana tutaqib ketdi: "Hech bo'lmasa, aytadigan ashulangni o'rgan, so'zlarini to'g'ri ayt" emish!.. — Xizmatchisi savod maktabida o'qiyotgan bir kishini traktorist savodsiz desa, alam qilmaydimi? — dedi san'atkor o'zicha bo'g'ilib, - "labingdan bo'lsa olsam, e shakarlab" deganim u kishiga yoqmapti, "bo'lsa" emas, "bo'sa" emish! O'zi bilmaydi-yu, menga o'rgatganiga kuyaman! Senga o'xshagan savodsizlar "bo'sch, bo'masa" deydi. Artist kulto'rniy odam — gapni adabiy qilib aytadi - "bo'lsa, bo'lmasa" deydi. Umuman, o'zbek tilining talaffo'z me'yorlari shakllangan, va darsliklar, tegishli lug'atlar, turli qo'llanmalarda berilgan. O'qituvchi nutqi adabiy talaffo'z me'yorlariga amal qilishda o'quvchiga namuna bo'lishi lozim. Adabiy talaffo'z me'yorlarining bo'zilishi, eng avvalo, shevaning ta'siri natijasida yo'zaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi o'z va o'quvchilarni nutqini shevaga xos talaffo'z ta'siridan asrashni doimo yodida tutishi kerak. Bolalikdan shakllangan shevaga oid artikulyatsion baza va shevaing fonetik qonuniyatlaridan batamom qutulish oson kechmaydi. Buning oqibatida, aytayliq buxorolik u tovushini faqat til oldi tarzida, xorazmlik o tovushini, asosan, a tarzida yoki unga yaqin tarzda talaffo'z qilishi, toshkentlik oshni so'z shaklini oshshi, qorni so'z shaklini krrri, yo'zni so'z shaklini yo'zzi tarzida aytishi kabi ko'plab xatolar kelib chiqaveradi.

Yozma matndagi so'zlarni harflarga ko'ra aynan o'qish ham adabiy talaffo'z me'yorlarining bo'zilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, o'qidingiz so'z shaklini yozilganiday 9 ta emas, 8 ta tovush tarzida talaffo'z qilish me'yor, ya'ni n+g ikki tovush emas, balki ng tarzidagi bir tovush. Shunga qaramay, aksariyat o'qituvchilar ham Uy vazifasini bajardin-gizmi? O'rtog'in-gizga yordam berdin-gizmi? O'rnin-gizdan to'ring! tarzida adabiy talaffo'z me'yorlarini bo'zadilar. Yoki ba'zilar tonna, nota, toq talon, tort, futbol, boks kabi o'zlashma so'zlardagi o harfini adabiy talaffo'zga muvofiq o' emas, balki o tovushi tarzida noto'g'ri talaffo'z qiladilar.

Ba'zan yoshlar yoki biron-bir xorijiy tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffo'z taomiliga moslab aytish kabi nuqsonlar ham ko'zga tashlanadi. Masalan, yanvar so'zini yinvar, Yaponiya so'zini Yipo-yaiya, dekan so'zini dekan, fakultet so'zini fikultet tarzida begona aktsent bilan talaffo'z qilish o'zbekcha talaffo'z me'yoriga ziddir. Tovush va so'z talaffo'zi bilan bog'liq bunday xatolar ancha-muncha bor.

Nutqning to'g'ri anglanishida mantiqiy urg'u, pao'za, ohang (intonatsiya) ham alohida ahamiyatga ega. Aytib o'tilganideq ular bilan bog'liq qonuniyatlar ham o'zbek adabiy talaffo'zi me'yorlarini belgilaydi.

Boshqa tillarda bo'lganideq o'zbek tilida ham gap tarkibida alohida ta'kidlanadigan, mantiqan muhim deb qaralgan bo'lak gapda farqli, kuchliroq talaffo'z qilinadi. Gapning aktual bo'laklanishi nazariyasi nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, mantiqiy urg'u gapdagi yangi informatsiyani - remani ajratib

ko'rsatadi. Bu, albatta, gapda aytilmoqchi bo'lgan fikrni butun iker-chikiri bilan anglashga imkon beradi. Masalan, Men bugun kutubxonaga boraman ("boshqa odam emas" ma'nosida), Men bugun kutubxonaga boraman ("er-taga emas" ma'nosida), Men bugun kutubxonaga boraman ("te-atrga yoki stadionga emas" ma'nosida) kabi holatlarda ajratib ko'rsatilgan so'zlar mantiqiy urg'ulidir. Atokli o'zbek tilshunosi A.G'ulomovning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Intonatsiya so'zlashda ohangning o'zgarishi — tonning baland-past bo'lib o'zgarishi — nutq melodikasining o'zgarishidir. Bunga ritmika — urg'u va pao'zalar haqidagi ta'limot ham kiradi. Intonatsiya tushunchasi o'z ichiga nutqning tempini ham oladi. Nutqni fonetik jihatdan shakllantiradigan, bir butun qiladigan intonatsion vositalar — melodika, urg'u va pao'zalar, asosan, sintaktik funktsiyani bajaradi, ya'ni sintaktik holatlarini ifodalaydi: gapdagi tugallikni bildirish, gapning ichidagi logik-grammatik bo'linishlarni, qismlarning o'zaro munosabatini ko'rsatish va b."

Zukko tilshunos ayni paytda intonatsiyaning logik-grammatik va emotsional vazifalari haqida ham to'xtaladi va hax bir gap tipi (daraq so'roq, buyruq, undov kabi) o'ziga xos intonatsion modelga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Turkiy va boshqa tillarda ham intonatsiyaning birlam — logik-grammatik va ikkilamchi — emotsional-ekspressiv vazifalari mavjudligi e'tirof etilgan.

Masalan, bahor so'zi gap intonatsiyasi bilan aytilmasa, u so'zligicha turaveradi. Ammo tegishli intonatsion modelga (muvofiq aytilsa, darak (Bahor.), so'roq (Bahor?) va undov (Bahor!) gaplarga aylanishi mumkin. Intonatsiyaning o'zgarishi bilan gapning mantiqiy mazmuni ham tamoman o'zgarishi, kommunikativ maqsad boshqa yo'nalishga o'tishi ham qonuniyatlardan biridir. Aytayliq o'qituvchi o'quvchiga murojaat qilarkan, Jim o'tirasizmi? gapini bir intonatsiya bilan, ya'ni Ji-im o'tirasizmi? tarzida aytsa, "Jim o'tir , javob bering" mazmuni anglashiladi, yana boshqa intonatsiya bilan, ya'ni Jim utirasizmi?! tarzida aytganda esa, "Jim utiring, bulmasa, jazolayman" mazmuni ifodalanadi. Ha/Yuq javobini talab kiladigan mazkur suroq gapning O'qituvchi nutqidagi ikkala intonatsion shakliga xam o'quvchi Yuq javobini berolmaydi (chunki mazmun boshkacha, O'qituvchining kommunikativ maksadi surash emas, balki buyurish). Bu gaplardagi intonatsiyalar fakat logik-grammatik emas, balki emotsional-ekspressiv vazifalarni xam bajargan. Kontsertga olib borsam, jim utirasanmi? gapidagi Jim utirasanmi? jumlasining intonatsiyasi sof suroq intonatsiyasi bo'lgan i uchun, masalan, bola Xa javobini bera oladi. Ayni shu Jim utirasanmi? gapi xech bir emotsiyasiz, neytral suroqintonatsisi bilan xam aytilishi mumkin, shuningdeq kommunikatsiya extiyojiga ko'ra erkalash, suyush yoki aksincha, ogoxlantirish, duq kilish kabi emotsionallik ifolovchi intonatsiya bilan xam aytilishi mumkin.

Intonatsiya, xususan, pao'za gapdagi sintaktik va mazmunmiy strukturani xam sezilarli darajada o'zgartirib yuborishi mumkin. Aytayliq Chiroyli raqsga tushgan qiz xammaga yokadi gapida pao'za aniq bulmasa, gapning mazmuni tug'ri anglashilmaydi, ya'ni chiroyli raksga tushgan kiz deganda, raqsning chiroyliligi, chiroyli raqsga tushgan kiz tarzida birinchi ikki so'z pao'za bilan ajratilib talaffo'z kilinganda esa, kizning chiroyliligi mazmuni ifodalanadiki, bu ikki mazmun urtasidagi farq kattaginadir. Nutq jarayonida intonatsion vositalarning xilma-xil imkoniyatlarini namoyon etadigan koidalar ancha-muncha bor. Kirish so'z va gaplar, undalmalar,

ajratilgan bulaklar, uyushiq bulaklar ishtirokidagi gaplar, kushma gaplar va boshqa sintaktik birliklar intonatsiyasi bilan bog'liq me'yorlarga xam aloxida diqqat kilmok kerak. Aytish lozimki, bu koidalarning aksariyat kismi kuchli talaffo'z me'yorlari sirasiga kiradi.

Intonatsiya, oxangning mazkur ikki vazifasidan kelib chiqaladigan bulsa, uning, birinchidan, nutqning tug'riligini, ikkinchidan esa, ta'sirchanligini ta'minlaydigan zaruriy omillardan biri ekanligini yakqol tasavvur etish kiyin emas. Umuman, intonatsiyasiz, muayyan oxangsiz nutqning o'zi yuk ta'bir joiz bulsa, oxang tirik nutqning jonidir. Fakat bu "jon"ning kat'iy konuniyatlari, asrlar davomida muntazamlashgan me'yorlarini chukur idrok etib, nutqda yashatish yaxlit nutq intizomining ajralmas kismidir.

O'zbek tilining o'ziga xos so'z yasalishi me'yorlari mavjud. Xar qanday yasaladigan so'z shu me'yorlar doirasida bulmog'i shart. Bu me'yorlarga amal kilinmasdan yasalgan so'z tilining lurat tarkibidan o`rin ololmaydi. Masalan, -gich (-rich, qich, -kich) qo'shimchasi faol yasovchi qo'shimchalardan bo'lib, tilimizdagi mavjud so'z yasalish me'yorlariga ko'ra fe'lga kushiladi va narsa-kuro, ya'ni fe'ldan anglashilgan xarakatni bajaruvchi kuro otini yasaydi: so'zgich, tekislagich, chizg'ich, kirg'ich, qisqich, ko'rsatkich kabi. Bu qo'shimcha ot turkumidagi so'zga mutlako kushila olmaydi. Lekin ba'zilar bu koidani bo'zib, tomirgich so'zini yasaydilar ("O'zbekistan adabiyoti va san'ati", 1990 yil 16 noyabr). Pul sografni tomirgich deb aytish, o'zbek tilida bunday so'z yasash tilimiz tabiatiga tamoman ziddir. Chunki tomir so'zi ot turkumiga oid bo'lib, mazkur qo'shimchaning ma'nosi bilan uyg'unlasha olmaydi, demakki, yangi so'z yo'zaga kelmaydi, Shuning uchun xam bu "so'z" tilimiz lutatiga kirmadi.

Xuddi shuningdeq bir muddat matbuot institut so'zi o`rnida oliygoxri qullab ko`rdi. Bu so`zning yasalishi xam o'zbek tilining so'z yasalishi me'yorlariga zid edi. Mustakil so'z sifatida tilimizda goh yuq. Buning ustiga, fors-tojik tilida xam goh unsuri fakat ot turkumidagi so'zga kushiladi, ya'ni donishgoh (donish — bilim), oromgoh xobgoh kabi, Oliy so'zi esa sifat, demaq oliygox so'zi o'zbek tili yasalish konuniyatlariga xam, tojik tili konuniyatlariga xam begonadir.

O'zbek tilining o'z tabiati, an'analari, umuman, so'z yasalishi me'yorlariga uyg'un bulmaganligi uchun "gazeta" ma'nosida yasalgan kunnoma, "jurnal" ma'nosida yasalgai oynoma, oybitiq "arxiv" ma'nosida yasalgan xujjatasrovxona kabi bir kancha sun'iy yasalmalar lug'atimizdan joy ololmadi. Tilning so'z yasalishi me'yorlari juda xam mustaxdam bo'lib, uni sub'ektiv xolatda bo'zish mahol. Bu o'rinda xech qanday zurlik ish bermaydi.

Nutqning grammatik jixatdan tug'riligi nutq madaniyatida ayricha o`rin tutadi. Tug'rilik degan kommunikativ sifat uchun grammatik tug'rilik asoslarining asosidir. Grammatik tug'rilik esa nutqda grammatik me'yorlarga kat'iy amal kilish orkali namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiy tilining grammatikasi, ya'ni morfologiya na sintaksisi tilshunoslikda nazariy jixatdan anchayin batafsil tadqiq etilgan, tilning morfologik va sintaktik kurulishiga xos konuniyatlar umumlashtirilgan, deyarli barcha xolatlar koidalashtirilgan. Ular tilshunosligimizdagi ko'plab ilmiy tadkikotlar, normativ grammatikalar, o'zbek tili bo'yicha umumta'lim va oliy maktablar uchun

yaratilgan. Darsliklar, o'quv qo'llanmalarida o'z aksini topgan. Ana asosda o'zbek tilida so'z shakllari, qo'shimchalarning ko'llanishi, so'zlarning kushilishi, so'z birikmalari va gap to'zilishi bilan bog'liq qoidalarning jami **grammatik me'yorlar** sifitida e'tirof etilgan.

Tabiiyki, grammatik me'yorlar morfologik va sintaktik - me'yoyrlardan tarkib topadi. So'zlarning morfologik shakli ularning nutqda ko'llanishini tartibga soluvchi koidalar **morfologik me'yorlar**. so'zlarning birikish yullari, so'z biri-kmasi va gap to'zilishi bilan bog'liq koidalar esa **sintaktik mo'yorlar** deb yuritiladi.

Taassufki, adabiy morfologik me'yorlarning nutqda bo'zilishi tez-tez uchrab turadi. Bu me'yorlarning bo'zilishidagi eng keng tarkalgan xolatlardan biri qaratkich va tushum kelishiklarini qorishtirishdir. Aslida bu kelishiklarni ko'llash bilan bog'liq koida kuchli me'yor bo'lishi kerak edi chunki tilimiz tabiatiga ko'ra karatkich kelishigi keng ma'noda ot turkumidagi so'zlarni bir-biri bilan bog'lashga (daraxtning bargi, O'zbekistonning poytaxti kabi), tushum kelishigi esa keng ma'noda ot bilan fe'lni bog'lashga (kitobni uqimoq Vatanni sevmoq kabi xizmat kiladi. Ammo bu me'yor shevalar va og'zaki nutq ta'sirida kuchsizlangan. Aytish mumkinki, xozirgi kunda o'zbek tilining etakchi shevalarida karatkich kelishigi tushum kelishigi bilan aynan bir xil shaklda qo'llanadi (daraxtni bargi, kitobni o'qimoq, kabi). Tanikli tilshunos A.Xojiev utgan asr boshlaridagi bosma manbalar tilini urganar ekan, -ning o'rnida —ni qo'shimchasini qo'lash ancha keng tarkalganini aytadi. Xatto o'tgan asrning 50-yillarida shevalarga suyangan xolda —ni qo'shimchasi bilan ifodalanadigan karatkich- tushum kelishigini me'yorlashtirish taklifi xam urtaga tashlangan. Zaxmatkash tilshunos A.Ma'rufov "Bu ikki shaklni birlashtirish sintaksisga ortikcha yuk bo'ladi, fikrni tug'ri anglashga xalakit beradi, stil ravonligini bo'zadi" degan xakli fikrni bildirgan.² A.Hojievniig ko'rsatishicha, usha asr boshlarida og'zaki nutq odatidan qochish adabiy tilga olib keladi kabilida fikr kiluvchi ba'zilar xatto tushum kelishigi o'rnida qaratqich kelishigi shaklini qo'lashga xam o'ringanlar va buni ziyolilik belgisi tarzida takdim etmokchi bo'lgan lar. Usha davr vokeligini chukur urgangan maxoratli adib Asqad Muxtor "Opa-singillar" romanida salbiy obrazlardan biri Naimiyning ana shunday chiranchog'ligini uning Quyidagi nutqi (-ni uriiga o'rinsiz ravishda —ning qo'shimchasini ishlatadi) bilai ko'rsatadi: Myshmunap validaiy muxtaramalar! ...Tobakay oila dersiz, tobakay bola-chaka dersiz! Yoppasiga paranjining tashlab, artelga ishga borishning talab qilaman... Bola-chakangizping bokib olishga iqtidori etadi, nodon erlaringizning jilovlab kuyishga kuchi etadi!.. Unday yaramas oilaning tashlab ketmog'ingiz lozim... Bolalaringizning etimxonalarga oladi. Bu kabi munozara-muloxazalar o'zbek tili tabiatiga zid bo'lgan i uchun, tabiiy, u davrlarda kolib ketdi. Ammo xar xolda, sheva va og'zaki nutqdagi qaratkich o'rnida tushum kelishigi shaklini qo'lash odati mazkur morfologik me'yorni kuchsiz xolatga tushirgan. Shuning uchun bu me'yorni so'zlovchi ongida barkarorlashtirish bo'yicha doimiy mashq lozim. Qaratkich va tushum kelishiklari nutqda belgili (qo'shimcha bilan) va belgisiz (ko'shimchasiz) ko'llana oladi, ammo bunda xam tegishli me'yorlar mavjud. Zotan, bu kelishiklar belgili qo'llanganda, konkretliq ta'kidlash ma'nolari (kitobning sahifasi, kitobni o'qimoq gap anik konkret kitob haqida), belgisiz qo'llanganda esa umumiylik ma'nolari (kitob sahifasi, kitob

o'qimoq; gap umuman kitob haqida) reallashadi. Masalan, karatkich kelishigidagi so`z bilan karalmish o`rtasida boshka so`z bulsa, karatqich kelishigining, albatta, belgili ko'llanishi me'yorlashgan. Shuning uchun kitob sahifasi, maktab o'quvchisi deyish mumkin, ammo ular orasiga, aytayliq sarg'aygan, a'lochi so'zlari kiritilsa, kitob sarraygan saxifasi, maktab a'lochi o'quvchisi deyish me'yorning bo'zilishiga olib keladi. Birikma grammatik to'g'ri bo'lishi uchun, albatta, kitobning sarg'aygan saxifasi, maktabning a'lochi o'quvchisi deyish shart. Shunga karamasdan, ayrim kishilar nutqida ba'zan bu me'yorning bo'zilishi ko'zatiladi.

Ko'pincha shunga yaqin yana bir xatolik ko'zga tashlanadi. Mana bu jumlaning ko'raylik: Unda (mulokotda) viloyatdagi kasb-xunar kollejlarning ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha direktor o'rinbosarlari ishtirok etishdi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 29 iyun). Umuman, direktor o'rinbosari yoki direktorning o'rinbosari deyish mumkin. Ammo kollejning direktor o'rinbosari deyish tug'ri emas, chunki o'rinbosari so'z shaklidagi -i egalik ko'shimchasi direktorta karashlilikni ifodalaydi, bu ko'shimcha kollejning so'zi bilan aloqalanmaydi. Shuning uchun kollej direktori o'rinbosari yoki kollej direktorining o'rinbosari deyilsa, grammatik va mantiq jixatidan to'g'ri bo'ladi. Agar o'rinbosari so'zidan oldin yana boshqa sifatlovchi kuyiladigan bulsa, yukoridagi me'yorga muvofik karatkich kelishigi belgili qo'llanadi, ya'ni kollej direktorining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosari, kollej direktorining moliya masalalari bo'yicha o'rinbosari kabi. Keltirilgan gap grammatik to'g'ri bo'lishi uchun Quyidagicha taxrir etilishi lozim: Unda (muloqotda) viloyatdagi kasb-xunar kollejlari direktorlarining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rinbosarlari ishtirok etishdi. Xar bir kelishikning qo'llanishi bilan bog'liq aniq adabiy me'yorlar bor, xar bir kelishik aloxida-aloxida ma'no va vazifa uchun xizmat kiladi, lekin bu me'yorga zid ularoq nutqda bir kelishikning o'rnida boshqasini qo'lash xolatlar uchraydi. Masalan, Samarkand, Buxoro, Shaxrisabz kabi shevalar vakillari nutqida o'rin-payt kelishigi o'rnida jo'nalish kelishigini ishlatish adabiy nutqning tug'riligiga jiddiy xalakit beradi. Toshkentga o'qimoq, dalaga ishlamoq, poezdga kelmoq kabi xolatlar me'yorning bo'zilishidir. Senga bitta gapim bor, xali poezdga aytaman deyilsa, boshka sheva vakillari tomonidan Senga bitta gapim bor, xali poezdda aytaman tarzida emas, balki "Senga aytadigan gapimni senga emas, poezdga aytaman" tarzida kulgili bir mazmunda anglanishi mumkin.

Tushum va chikish kelishiklarining ma'nosi bilan bog'liq ushbu ikki xolatni kiyoslang: o'zumni emoq — o'zumdan emok. Tushum kelishigi qo'llanganda, "o'zumiing xammasini emoq" chikish kelishigi ko'llanganda esa "o'zumning bir kismini emoq" ma'nosi ifodalanadi. Buni bilmasliq shubxasizki, grammatik va mazmunij jixatdan mana bunday xato jumla to'zishga olib keladi: Tilni yoray deydiya, tilni, - deb mulla o'zumdan paqqos tushirdi (S.Ravshanov). Bu o'rinda chikish kelishigini emas, tushum kelishigini ko'llash shart edi, chunki paqqos tushirmoq "bitga xam koldirmay, oxirigacha emoq" degani va shuning uchun xam u tushum kelishigidagi so'zni talab kiladi. Fe'l nisbatlarining ko'llanishida xam ko'pincha morfologik me'yorlarning bo'zilishini ko'rish mumkin. Bu, ay- niksa, fe'lning analitik shakllari (etakchi fe'l + kumak- chi fe'l)da ko'zga tashlanadi. Yirik filolog A.Rustamov bunday xolatlariga Quyidagicha aniklik kiritadi: "Bu —n ko'shimchasini ishlatishdagi ayb uni keraksiz o'rinlarda xam iste'mol kilishdan iborat. Boshlamok

kelmok kabi fe'llar ko'makchi bo'lib kelganda majxul xarakatni bildirish uchun majxullik ko'shimchasi asosiy fe'lga ko'shilib, ko'makchi fe'lga, jumladan, boshlamoq yoki kelmoq fe'lga kushilmaydi. Binobarin, men eshitgan va boshqalar ham yana eshinishi yoki o'qib qolishi mumkin bo'lgan Quyidagi gaplardagi —n qo'shimchasi til nuqtai nazaridan ortikchadir.1. Hayot ildizi jila boshlandi. 2.Cho'llar o'zlashtira boshlandi.3. Qovok ypyg'u qadimdan qo'llanib kelingan. 4.Paxta terila boshlandi. Tug'risi Hayot ildizi ekila boshlandi emas, ekila boshladi bo'ladi.Cho'llar o'zlashtira boshlandi emas, o'zlashtirila boshladi deyiladi.Qovoq urug'i qadimdan qo'llanib kelingan emas, qo'llanib kelgan deyilishi kerak.Paxta terila boshlandi emas, terila boshladi deyish lozim."

So`z turkumlarining barchasidagi grammatik kategoriyalarning adabiy tilda qo'llanishini tartibga soladigan juda ko'plab morfologik me'yorlar mavjud.

So`zlarning birikishi, so`z birikmasi va gap to'zishda morfologik shakllangan so`zlar, tabiiyki, material vazifasini bajaradi. Shuning uchun xam sintaktik me'yorlar ana shu morfologik me'yorlarga xam suyanadi.

Sintaktik me'yorlarning xam nutqda bo'zilishi xolatlari ko'zatiladi. Aytib o'tilganideq ega bilan kesimning shaxs-sonda moslashishi, asosan, kuchli me'yor, ammo bunda xam ba'zi xususiy o'rinlar borki, ular nutq to'zuvchining ikkilanishiga sabab bo'ladi. Masalan, ega va kesimning 3- shaxs ko'plik sonda moslashishini olib ko'raylik. Ega kesim bilan 3-shaxsda ko'plikda xamisha moslashishi shart emas, ya'ni ega shaxsni bildiradigan so`z bo'lganda, kesim ko'plikda xam,birlikda xam kelaverishi mumkin: O'quvchilar maktabga keldilar. O'quvchilar maktabga keldi kabi. Lekin ega vazifasida jonivorlar yoki jonsiz narsalarni bildiruvchi so`z kelganda, kesim, asosan, birlikda qo'llanadi: Itlar vovulladilar emas, Itlar vovulladi; Gullar ochildilar emas, gullar ochildi kabi (badiiy nutqdagi aloxida qo'lashlar bundan mustasno, ular haqida keyinroq aytiladi). Shunga karamasdan, ega jonsiz predmet yoki tushunchani bildiradigan so`z bo'lgan da xam, aytayliq Barcha ta'lim muassasalari qishga yaxshi tayyorgarlik ko'rdilar kabilidagi (ruschadagi to'liq moslashuvga taqlidan) sintaktik notug'ri to'zilgan jummalarni kurish mumkin.Mantikiy ko'plik bilan grammatik ko'plikning farkiga bormaslik xam sintaktik me'yorlarning bo'zilishiga olib keladi.'Masalan,Isroil armiyasi ushbu xududda xarbiy texnikalarni ko'paytirganlar ("Xalq so'zi", 2006 yil 30 iyun) gapida ega birlik sonda (Isroil armiyasi), kesim ko'plikda (ko'paytirganlar).Buning sababi nutq to'zuvchi armiyani ko'plikda deb tasavvur qilgan.Asilda bu so`z mantikan ko'plikni bildiradi, ya'ni jamlovchi ot, lekin grammatik birlik sonda. Shuning uchun bunday rap grammatik jixatdan noto'g'ridir, tug'risi Isroil armiyasi ... ko'paytirgan bo'lishi lozim.

Tilimizning grammatik me'yoriga ko'ra aniklovchi predmetning aniq mikdorini bildirsa, predmetni bildirgan so`z fakat birlik sonda ko'llanadi: unta kitob, yigirma nafar o'quvchi, besh dona gul kabi; bunday holatlarda aniklanmishlarga —lar ko'plik qo'shimchasi ko'plik grammatik xatodir. Lekin matbuotda, radio-televideniya, ogzaki nutqda ana shunday notug'ri qo'lashlar ko'p uchramokda. Masalan: Xozir viloyatimizdagi 80 ta kasb-xunar kollejlarda 55 mingdan ziyod o'quvchi ta'lim olyapti ("O'zbekistan ovozi", 2006 yil 29 iyun).

Mikdor ifodalovchi so`zlarni ko'llashda keng tarkalgan yana bir nukson shuki, taxminiy mikdorni umumlashtiruvchi "...dan ortiq", "...ga yaqin" shaklidagi

konstruktsiyalar tarkibidagi sonlar ko'pincha notug'ri tanlanadi. Undan, yigirmadan..., yo`zdan..., mingdan ortiq yoki o'nga, yigirmaga..., yo`zga..., mingga yaqin kabi xolatlarda grammatika xam, mantiq xam sog'lom, chunki yaxlitlash, umumlashtirish aniq ko'rinib turibdi. Lekin un uchdan ortiq o'n to'qqizga yaqin, ettidan ortiq uttiz oltiga yaqin kabi ifodalar mantiq u yokda tursin, xatto grammatikaning xam kulgisini kistatishi tabiiy. Axir, "...dan ortiq", "...ga yaqin" bo'lgandan keyin, ortadigan yoki yaqinlashadigan etalon - me'yor muayyan yaxlit bir mikdor bo'lishi shart-ku! Etti, to'kqiz, o'n uch, un to'kqiz va x.k.gacha sanagan odam davomini xam sanab kuya kolmaydimi? Bu kabi nuksonlar nutq to'zuvchining akliy tanballigi bilan bog'liqqa o'xshaydi.

Sintaktik me'yorlarning bo'zilishi tildagi gap modellari — struktur sxemalarini yaxshi tasavvur kilmaslik sababli xam voqe bo'ladi. A.Rulomov shunday yozadi: "Gapning umumlashgan namunasi, maketi uning struktura sxemasini tashkil etadi. Bu sxema gapning formal-grammatik tomoni bo'lib, u gap xosil kilish uchun zarur bo'lgan minimum komponentlardan tashkil topadi: ega + kesim: Bola yugurdi; ega + kesim+ borlama: Karim o'kam bo'ladi. Gap sintaktik tugallangan konstruktsiya bo'lib, bunday sintaktik konstruktsiyalar til birliklarining birikish konunlari asosida shakllanadi."

Aytish lozimki, gapning bunday namunaviy modellari xar bir tilning o'ziga xos va mikdori xam chegaralangan, 40 — 50 taning nari-berisida bo'ladi. Nutq to'zuvchi tildagi bu modellardan o'z kommunikativ maksadiga uyg'unini tanlaydi va uni turli variantlarda kengaytiradi, tildagi model asosida kerakli jumlani to'zadi. Til degan sirli dunyoning sinoatlaridan biri xam shunda. Frantso`z professori Murtazo Mahmudyan shunday bir faktni keltiradi. Ko'pgina tilshunoslar nutqdagi jumlar (20 dan ortiq bulmagan so`zdan tarkib topgan) mikdori 1030 dan 1086 gacha bo'lgan son bilan o'lchanadi deb xisoblaydilar. Bir asr 3 x 109 soniyadan iborat. Bir odam bir asr yashaydi va u xar soniyada bittadan jumlani o'rganadi deb taxmin kilinsa, u butun umri davomida mazkur mikdordagi jumlalar juda xam oz kismini o'zlashtira oladi degan xulosa chikadi.M.Maxmudyan tilni o'zlashtirish va undan foydalanish jarayonlari moxiyatan benixoya tejamkor tamoyilda voqe bo'lishini, bu tejamkorlik til strukturasing bo'laklanishi bilan ta'minlanishini ta'kidlaydi. Boshqacha kilib aytganda, nutqiy jumlar yaxlit o'rganilmaydi va o'zlashtirilmaydi, til bo'laklanadi, bu bo'laklar o'zaro munosabatga kiritiladi. Tilda ana shunday bo'laklar va ularning grammatik munosabati xosilasi sifatidagi gap modellari mavjud. Til o'rganuvchi ana shu bo'laklar va sanokli gap modellarini o'zlashtiradi, ularga suyangan xolda sanoksiz individual jumlar to'zadi. Tildagi gap modellarining rang-barangligi nutqning to'g'riligi va ta'sirchanligini ta'minlashda nutq to'zuvchi uchun bitmas-tuganmas imkoniyatdir.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilining xam mutlako o'ziga xos gap modellari bor. Ularda o'zbek adabiy tilining sintaktiq umuman, grammatik me'yorlari namoyon bo'ladi.Masalan, rus tilida Mne desyat let tarzida jumla kurish uchun asos bo'ladigan gap modeli mavjud, shuning uchun mazkur jumla grammatik to'g'ri. Ammo o'zbek tilida aynan bunday gap modeli yuq shuning uchun mazkur ruscha jumla Menga un yosh deb tarjima kilinsa, u aslo o'zbekcha bo'lmaydi. Ayni fikr ifodasi uchun o'zbek tilida boshqa modellar borki, unga muvofiq Mening yoshim unda yoki Men un yoshga

kirdim tarzidagi jumla to'ziladi. Rus tili yoki boshka til gap modellariga ko'ra to'zilgan Menga o'n yosh kabi jumlar nutqning tug'riligi sifatini mutlako yukka chikaradi.

Ma'lumki, so'z birikmasi, gap kabi sintaktik birliklar so'zlarning ko'shilishi natijasida xosil bo'ladi. So'zlarning bir-biri bilan ko'shib, so'z birikmasi va gaplarni yo'zaga keltirishi uchun muayyan shartlar bajarilishi zarur. So'zlarning o'zaro birikishida kat'iy koidalar, konuniyatlar bor, albatta. To'g'ri kelgan xar qanday ikki so'z bir-biri bilan bog'lanavermaydi. O'zaro birikadigan so'zlar, avvalo, grammatik va semantik jixatdan mos bo'lishi kerak.

Tilshunoslikda valentlik nomi bilan yuritiladigan bu zaruriyat, ayniksa, sintaksisda, sintaktik me'yorlarning shakllanishida favkulodda axamiyatga molikdir. Masalan, bajarmok va reja so'zlarini olib ko'raylik. Bu so'zlar rejani bajarmoq yoki reja bajarilmoq tarzida bog'lanib, so'z birikmasini xosil kilishi mumkin. Chunki, birinchidan ularda umumiy ma'no o'zvi — umumiy sema bor, ya'ni reja so'zining ma'nosi "biror ishni amalga oshirish uchun avvaldan belgilangan mo'ljal", bajarmoq so'zining ma'nosi "biror ishni amalga oshirmoq" bo'lib, "amalga oshirish" umumiy ma'no o'zvi ularni birikishi uchun imkon beradi. Ikkinchidan, grammatik jixatdan fe'l talabiga muvofiq reja so'zi tushum yoki bosh kelishikda kelgan. Demaq grammatik - semantik sharoit mavjud, birikma grammatik tug'ri to'zilgan. Ammo mana bu gapga e'tibor beraylik: ...Respublika axolisining qonga bo'lgan ehmiyoji 32 foizga bajarilyapti, xolos ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 15 iyun). Bu gap grammatik tug'ri emas. Chunki extiyoj so'zining ma'nosida "amalga oshirish" degan ma'no o'zvi yuq uning ma'nosi "biror narsaga bo'lgan talab, muxtojlik"dir. Mazmunan bog'lana olmagan so'zlarning grammatik bog'lanishi haqida gapirib bo'lmaydi. Bu so'z, masalan, kondirmoq so'zi bilan bog'lanishi mumkin. Mazkur jumlaning grammatik tug'ri shakli mana bunday bo'ladi: ...Respublika axolisining konga bo'lgan extiyoji 32 foizga qondirilyapti, xolos.

Ba'zan Quyidagicha grammatik xato jumla to'zish xam uchraydi: Qisqasi, ushbu anjuman haqida gazetamizning keyingi sonlarida batafsil tanishishingiz mumkin ("Ma'rifat", 1998 yil 28 mart). Jumladagi anjuman haqida tanishishingiz mumkin kushilmasi so'z birikmasi bula olmagan, ya'ni so'zlar o'zaro grammatik birika olmagan. Buning sababi to-belanish munosabati ifodasi uchun ko'makchining noto'g'ri tanlanganligidadir. Tanishmoq fe'lining kuchli sintaktik valentligiga ko'ra bunday xolatlarda haqida ko'makchisi emas, balki bilan ko'makchisi qo'llanishi shart. Mazkur gap Qisqasi, ushbu anjuman tafsilotlari bilan gazetamizning keyingi sonlarida batafsil tanishishingiz mumkin tarzida

taxrir kilinsa, grammatik to'g'ri bo'ladi. Yoki Tarbiyachi rasm ustida so'zlab beradi (S.Jo'raev, X.Qodirov) gapidagi ustida ko'makchisi xam grammatik xato qo'llangan, bu o'rinda haqida ko'makchisi joiz. Sintaktik valentliklarni etarli darajada bilmaslik okibatida ko'makchilarning gapdagi o'rni bilan beg'liq ana shunday grammatik xatolar yo'zaga chikadi.

Bunday xatolar kelishiklar bilan bog'liq xolda xam uchraydi. Masalan: Shundan keyin bolalardan avval yakka-yakka holda so'zlab berish taklif etiladi (S.Jo'raev, X.Kodirov). Bu jumladagi bolalardan taklif etiladi ko'shilmasi grammatik xato, chunki bu xol taklif etilmoq fe'lining sintaktik valentligiga zid. Bu sintaktik birikma

mazkur fe'lining valentligiga muvofiq bolalarga taklif etiladi shaklida bulsa, o'zbek adabiy tilining sintaktik me'yoriga mos xisoblanadi.

Uslubiy me'yorlar nutq madaniyatining chukqisi xisoblanadi, bu me'yorlarni mukammal bilish va ulardan erkin foydalana olish madaniy nutq tarbiyasining pirovard maksadlaridandir.

Til kanchalik rivojlangan bo'lsa, uning uslubiy me'yorlari xam shunchalik barkrorlashgan, ranginlashgan, boyigan bo'ladi. O'zbek tili dunyodagi eng kadimiy va tarakqiy etgan tillardan biri sifatida o'zining tarang uslubiy me'yorlariga ega.

Kishilarning ijtimoiy faoliyatini nutqsiz mutlako tasavvur kilib bo'lmaydi. Bu faoliyatning turli soxalarida turli sharoitlarda, turli maksadlar bilan nutq o'ziga xos tarzda ishtirok etadi. Masalan, tajribali O'qituvchining darsdagi nutqi va tanaffus paytida ikki-uch ukuvchi bilan suxbatidagi nutqi farkli bo'lishi tabiiy. Darsda ilmiy-ta'limiy maksad asosiy bulsa, shunchaki suxbatda bu maksad asosiy bo'lmaydi. Yoki rasmiy yozishmalarda ko'llanadigan nutq bilan ilmiy bayonda ishlatiladigan nutq xam aynan bir xil bo'lmaydi. Ijtimoiy faoliyatning ana shunday turli soxalarida qo'llanadigan xilma-xil nutq ko'rinishlari nutq uslublari deb yuritiladi.

O'zbek tilida Quyidagi nutq uslublari farqlanadi: 1)so'zlashuv uslubi, 2)rasmiy uslub, 3)ilmiy uslub, 4) publi- tsistik uslub, 5) badiiy uslub. Bu uslublarning xar biriga xoslangan grammatik shakllar, so'z, so'z birikmasi, gap va intonatsion vositalar mavjud. Ana shu xoslanish o'zbek adabiy tili uslubiy me'yorlarining asosidir. Anikroq aytiladigan bo'lsa, **uslubiy me'yorlar** muayyan soxadagi aloqani ta'minlaydigan nutqning mazmuni, maqsadi va vazifasi uchun mos keladigan til birliklarini tanlash koidalaridir.

Har bir uslubning o'ziga xos til xususiyatlarini, demak-ki, uslubiy me'yorlarini bilmasdan turib to'zilgan har qanday nutq tom ma'nodagi madaniy nutq bo'la olmaydi. Rasmiy ish kog'ozlaridagi nutqning uslubiy o'ziga xosliklarini olib ko'raylik. Bu uslubda boshqa uslublardagidan farkli ravishda, masalan, ot yoki otlashgan so'zlar ko'p ko'llanadi, xatto fe'l bilan ifodalanuvchi xarakat va holatlar uchun ham otga yakin so'z shakllari, ya'ni xarakat nomi shakllari tanlanadi: ...tayyorgarlikning borishi xaqida, ...qarorning bajarilishi to'g'risida, ...yordam berish maqsa- dida, qabul qilishingizni so'rayman kabi. Fe'llarning qullanishida xam o'ziga xosliklar bor. Xususan, majxul nisbatdagi 3-shaxs buyruq-istak maylidagi yoki o'tgan zamondagi fe'l shakllari faol ishlatiladi: topshirilsin, tasdiqlansin, bajarilsin, bushatilsin, tayinlansin; eshitildi, qaror qilindi, ko'rib chiqildi, ko'rsatib o'tildi, ogoxlantirildi kabi. Bu uslubdagi muhim jihatlardan yana biri shuki, ularda qoliplashgan, turg'unlashgan so'z birikmalari keng qo'llanadi. Muhandislik psixologiyasi fani ma'lumotlariga ko'ra, qoliplashgan, doimiy yagona shaklga ega bo'lgan so'z tizimlari, iboralar boshqa so'z birikmalariga nisbatan 8-10 marta tez idrok etilar ekan. Buning ustiga, koliplashgan so'z birikmalari xujjatlarni tayyorlash va ulardan foydalanish jarayonlarini ham anchagina tezlashtirish imkonini beradi. Shuning uchun ham boshka uslublarda salbiy hodisa sifatida baholanuvchi qoliplashgan sintaktik to'zilmalar, "shtamp"lar bu uslubning zaruriy unsuri deb qaraladi, Masalan, buyruq matnida Quyidagicha qoliplashgan to'zilmalar qo'llanadi: ...so'm maosh bilan ...lavozimiga tayinlansin; ...o'z xohishiga ko'ra ...lavozimidan ozod qilinsin; ...boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ...lavozimidan ozod qilinsin. Yoki xizmat

yozishmalarida: Sizga ...ni ma'lum qilamiz; Sizga ...ni bildiramiz; Sizga ...ni eslatamiz va tegishli qaror qabul qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz; ...munosabati bilan...; ...qaroriga muvofiq ravishda; ...ga maktab ma'muri- yati qarshi emas; ...ga maktab ma'muriyati kafolat beradi kabi;

Albatta, tilda biron-bir uslubga xoslanmagan, uslub jihatidan neytral birliklar, ya'ni barcha uslublarda ko'llanadigan birliklar katta miqdorni tashkil etadi. Tabiiyki, ana shunday birliklar uslublarni yagona bir adabiy tilga birlashtiradi. Bir uslubga xoslangan til birligining boshqa uslubda qo'llanishi, tabiiyki, uslubiy me'yorning bo'zilishi hisoblanadi. Masalan, tashrif buyurmoq so'zidagi tashrifning lug'aviy ma'nosi "sharaflash" bo'lib, yaxlit so'z sifatida, asosan, rasmiy-publitsistik uslubga xoslangan, unda kutarinkilik tantanavorlik ta'kidi bor. Ana shuning uchun ham Quyidagi jumlada uslubiy me'yor bo'zilgan: Fojia yo'z bergan joyga (samolyot halokatga uchragan) mamlakat prezidenti Ilhom Aliev tashrif buyurdi ("O'zbekistan ovozi", 2005 yil 27 dekabr). Bu uslub xabar mazmunidagi neytral uslub bo'lganligi uchun ham tashrif buyurmoq so'zi uchun tamomila yotdir.

Uslubiy me'yornlarni puxta egallash, ularga ziyraklik bilan muntazam amal qilish malakalariga ega bo'lmoq uchun ko'p o'qish, o'rganish, qisqasi ko'p ter to'kishga to'g'ri keladi. Ayniqsa, uqituvchi va asosiy quroli so'z bo'lgan boshqa kasb egalari bu me'yornlar bo'yicha malakalarini oshirish borasida muttasil shug'ullanishlari lozim.

Shuni ham aytmoq joizki, adabiy til me'yornlarining taraqqiy etib borishida til birliklarining variantlilik alohida ahamiyatga molik. Grammatikada ham, leksikada ham muayyan bir ma'no ifodasi uchun mo'ljallangan birdan ortiq birlik borligi ma'lum. Masalan: -day//-dek//-dak kabi variantli uxshatish qo'shimchalari. Lug'at boyligimizda ham bunday variantlilik ancha-muncha bor: andaza — andoza, arava — aroba, baravar — barobar, kaptar — kabutar, shoyi — shohi kabi. Bu variantlar juftliklaridagi birinchi so'zlar neytral, ikkinchilari esa yuqori-kitobiy uslubga deyarli xoslanib bo'lgan. Buning hisobiga o'zbek tilining adabiy me'yornlari boyigan. Ana shunday variantli so'zlardan foydalanganda, ulardagi uslubiy-farklovchilik xususiyatini, albatta, hisobga olish zarur. Nutqda adabiy til me'yornlarining bo'zilishi, asosan, ikki sababga ko'ra sodir bo'ladi. Avvalo, so'zlovchi mansub bo'lgan xududadgi sheva, shuningdeq usha xududda muomalada bo'lgan bopshcha sistemadagi tilning kuchli ta'siri adabiy me'yornlarning u yoki bu darajada bo'zilishiga olib kelishi mumkinki, bu omilni **ob'ektiv sabab** deb karash maqsadga muvofiq. Masalan, buxorolik so'zlovchi o'z shevasi va tojik tilining ta'sirida talaffo'z me'yornlarini g'ayriixtiyoriy bo'zishi yoki tojikcha so'z va grammatik shakllarni nutqda olib kirishi mumkin. Adabiy til me'yornlari bo'zilishining **sub'ektiv sababi** esa bevosita nutq to'zuvchining o'zi bilan aloqadordir, ya'ni tilni etarli darajada bilmaslik til qoidalarini yaxshi egallamaganlik nutq to'zishga e'tibor- sizliq nutqiy kunikmalarning zaiflashganligi kabilar. To'g'ri nutq to'zish malakalarini shakllantirish bo'yicha ish olib borilar ekan, eng avvalo, ana shu sub'ektiv sabablarni bartaraf etishga asosiy e'tibor qaratilmog'i kerak.

Adabiy til me'yornlari bo'zilishining ikki to'rini farqlash lozim. Birinchisi shuki, so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yornlarini bilmaganligi uchun bunday nuqsonga yul kuyadi va u to'zgan nutq noto'g'ri deb qaraladi. Ikkinchi holatda esa so'zlovchi yoki yozuvchi adabiy til me'yornlarini mukammal biladi, lekin turli, masalan, estetik

maqsad bilan muayyan qonuniyatlar asosida bu me'yorlarini bo'zadi va uning nutqi notug'ri deb hisoblanmaydi. Ayni paytda bunday holatlar bo'zilish deb emas, balki adabiy me'yordan chekinish tarzida baholanadi. Bu o'rinda, tabiiyki, badiiy nutq nazarda tutilmokka.

Adabiy til me'yorlariga amal kilish badiiy nutqda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. XX asr frantsoz adabiyotining yirik vakillaridan biri Pol Valeri badiiy prozani piyoda yurishga (kadimgi yunonlar "piyoda so'z" deydilar), poeziyani esa raqsga o'xshatgan, tadqiqotchi N.I.Balashov bu uxshatishni esga olib, estetik ma'noda badiiy prozada ham so'zlar poeziyadagi kabi qimmatga egaligini ta'kidlaydi. Aytish mumkinki, hahihatam ham, badiiy nutqda so'zlar kutilmagan va kurilmagan, odatiy va g'ayriodatiy xarakterlar, turfa oxanglar va ovozlar bilan raqsga tushadi. So'zlar, qo'shimchalar, hatto gaplar me'yorlar degan kat'iy qoidalarining chizgan chizig'idan osonlik va ustalik bilan chiqib ketadi. Shu tarzda nutq badiiy degan sifatga sazovor bo'ladi.

O'zbek adabiy tilining so'z yasalishi me'yorlariga ko'ra sod ko'shimchasi o'simlik daraxt kabi narsalarni bildiradigan so'zlarga ko'shilib, shu narsalar ko'p bo'ladigan joyni ifodalovchi otlarni yasaydi; lola+zor, olma+zor, beda+zor kabi. So'z ustalari bu me'yordan estetik maqsad bilan chekinib, usmaydigan narsani bildirdigan so'zlardan ham bu qo'shimcha vositasida yangi so'z yasaydilar. Masalan, ulkan so'z san'atkori Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanida qorong'o'zor shaklida so'z yasagan: Uning (Otabekning) kungil mevasi bu kungi qora voqea bilan qanday o'ralib, yuqolib ketgan bo'lsa, bundagi daraxtlar ham o'z mevalarini kecha rangi bilan buyab, yashil yaproqlari ila kumgan edilar, ya'ni bunda usgan daraxtlar qanday meva beradir — ajratish qiyin edi. U shu qorong'o'zor bilan ko'shilishib ketgandek va qorong'ulikning quchogiga kira borgandek mevazorning ichkarisiga yura bordi. Bu go'zal va nafis tasvirdagi kungil mevasi, kora voqea, kecha rangi, bundagi daraxtlar, o'z mevalari, qorong'ulikning quchog'i, mevazorning ichkarisi kabi birikmalar bilan korong'o'zor so'zi favkulodda bir uyg'unlik hosil qilgan va Otabek qalbida "o'sgan, o'sayotgan" qorong'ulikning plastik tasviri jonlangan. Badiiy adabiyotda yozuvchi bunday yangi so'zlarni adabiy tilga kiritish uchun emas, balki aniq badiiy-estetik maqsad bilan yaratadi. Shuning uchun ham bunday so'zlar ayni maqsadga qay darajada xizmat qilganligi nuqtai nazaridan baholanadi

Grammatik me'yorlarni olib ko'raylik. O'zbek tilida, aytib o'tilganiday, ega shaxe bo'lmasa, kesim bilan 3-shaxs ko'plikda moslashmaydi, ya'ni kesim —lar qo'shimchasini olmaydi. Ammo badiiy nutqda bu me'yordan ham chekinish mumkin. A.Qodiriy "O'tgan kunlar"da bunday holatlarda ham —

-larni ko'llaydi, u shunday tasvir tarzini tanlaydiki, oddiygina —lar o'zgacha nozik ma'no ishvalarini ifoda etadi. Ayniqsa, Otabek va Kumush bilan alokali tasvirlarda bu holat juda yakqol ko'rinadi. Samimiyatga to'la bu tasvirlarda jonsiz va jun narsalarning erka va ho'zuili jonlanishi kitobxon kungliga ho'zur baxsh etadi: Bu xabarni eshituvchi — Kumushbibining qora ko'zlari jiq yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar... Guyo bu so'zlar Kumushbibining o'chgan chirog'ini qaytadan yoqarlar, umid osmonining yukolib, yashirinib ketgan yuldo'zlari yana qaytadan o'z o'rinlariga kelib ko'ngandek bo'lurlar, uning ko'z ungida joy olgan qoraliklar shu

yoqila boshlagan najot shamlari partavi bilan o'z-o'zlaridan yuqolgandek ko'rinarlar edi.

Bunday erka va go'zal tasvirni sohir so'zchi Cho'lponning "Kecha va kundo'z" romanida ham ko'rish mumkin. Ayrim misollar: Uning (Zebining) oyoklapu allaqanday yomon bir kuchning afsuniga ilashganlar, usha kuchning sudragan tomoniga borardilar... Shunday kilib, ikki alamzada kungil juda qisqa bo'lgan kuvonchlarga berildilar... Faqat bu to'rt devol orasiga kiradigan quvonchlar o'tkinchining nazariday bir nafasga kirib chiqadilar.

Grammatik me'yorlar so'zlarning o'zaro birikishi uchun tegishli sharoitlarni taqozo etadi. Avvalo, ma'nolarda mushtaraklik bo'lmasa, so'zlar bog'lana olmaydi. Aytayliq yashil o'tloq birikmasi mantiqan tug'ri, ammo yashil navo birikmasi mantiqan notug'ri yoki baqirgan odam — mantikan tug'ri birikma, baqirgan sukunat esa mantikan tug'ri emas. Tabiiy, ularning grammatik tabiatida ham uyg'unlik yuq. Nihoyat, so'zlarning o'zaro bog'lanishiga ularning har biriga xos leksik-uslubiy xususiyatlari ham monelik qilishi mumkin. Masalan, yutuqqa erishmoq, muvaffaiyatga erishmoq deb ishlatish mumkin, biroq kamchilikka erishmoq, muvaffaiyat- sizlikka erishmoq deb bo'lmaydi.

Badiiy nutqda so'zlarning o'zaro bog'lanish konuniyatlari adabiy tildagiga karaganda birmuncha o'ziga xos tarzda kechadi. So'zlarning o'zaro qo'shilish chegaralari kengayadi. Chunki badiiy nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash tendentsiyasi juda kuchli. So'zlarni kuchma ma'noda qo'llaganda esa ularning bog'lanishidagi cheklanishlar deyarli yuqoladi. Masalan, qora kuch, totli yil, ohang oqmoqda va shu kabi birikmalardagi so'zlar aynan o'z ma'nosida tushunilsa, bu birikmalar mutlaqo bemantiq bo'lib tuyuladi. Ammo ular badiiy nutq nuqtai nazaridan juda mantikli va obrazlidir. Shuning uchun badiiy asar tilini ob'ektiv borliq hodisalari bilan konkret mutanosibligiga ko'ra baholash asossiz va notug'ridir. Estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun narsalarning konkret mohiyati emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatliroqdir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy bulmagan nutqda o'zaro bog'lanishi chegaralangan so'zlarni bog'lash orqali turli ma'no nozikliklari, ekspressivlik emotsionallik va shu kabilarni yo'zaga keltirishidir. Badiiy nutqdagi bunday birikmalarni g'ayriodatiy birikmalar deyish mumkin. Bunday birikmalar o'zining "yangiligi", individualligi va ayni g'ayriodatiyligi bilan tezda diqqatni tortadi. O'quvchi beixtiyor bunday birikmalar ustida o'ylay boshlaydi, natijada yozuvchining niyatini chuqurroq tushunadi. Shuning uchun ham odatiy birikmalarga qaraganda g'ayriodatiy birikmalar badiiylik nuqtai nazaridan ko'proq ahami-yatlidir.

Zabardast shoir Maqsud Shayxzodaning "Shoir qalbi dunyoni tinglar" she'ridan olingan quyidagi parchada g'ayriodatiy birikmalarning badiiy va estetik salmog'ini to'la his qilish mumkin:

Tovushlarning kichiq ulug'i,
Tovushlarning hidi — buyi bor.
Tovushlarning sovuq,ilig'i,
Tovushlarning rangi-ruyi bor.

Tovushlarning shirin-achchig'i,
Bordir hatto yumshoq, qattig'i.
Shoir rassom bulsaydi agar,
chizar edi shundan lavhalar.

Parchadagi so'nggi ikki misradan boshka misralardagi barcha birikmalarning g'ayriodatiyligi, "yangiligi" aniq sezilib turibdi, chunki badiiy bo'lmagan nutqda bu birikmalar shakllana olmaydi. Ammo badiiy bo'lmagan nutqda ham shunday birikmalar uchraydiki, ularni tashkil etgan so'zlarning ma'nolari o'zaro sig'ishmaydi. Biroq shunga qaramasdan, bizga ular odatiy birikmalarday tuyuladi, so'zlarning umumiy bog'lanish qonuniyatlariga tula mosday ko'rinadi. Lekin yaxshiroq diqqat qilinsa, ularda ham bog'lanish qoidalaridan ma'lum ma'noda chekinishlar borligini ko'rish qiyin emas. Masalan, shirin so'z birikmasi ko'p uchraydi, undagi shirin so'zi ta'm bilish a'zosi orqali seziladigan belgini bildirsa, so'z so'zi eshitish a'zosi vositasida seziladigan tushunchani ifodalaydi. Bu esa ikki so'zning o'zaro bog'lanishi uchun monelik qiladigandek ko'rinadi. Lekin ularning har ikkisidagi yoqimlilik belgisi ularni tutashtiradi va shirin so'zi "yoqimli" ma'nosi bilan mazkur birikmaga kirish huquqiga ega bo'ladi. Hosil bo'lgan birikma dastlab g'ayriodatiy bo'ladi, o'zida "yangilik" buyog'ini saklaydi. Ammo bu va shunga o'xshash sovuq xabar, sovuq gap, shirin tush, shirin xotira, achchik g'am, achchiq pushaymon, qizil gap kabi bir qancha birikmalar o'zidagi "yangilik" buyog'ini yuqotgan, hozirda ular bizga odatiy birikmalarday tuyuladi. Bunday birikmalar vaqtlar utishi bilan doimiy qo'llanishga kirgan va "klisheleshib" qolgan. Misollarga e'tibor bering: Bu uy ichida Otabekning saodatli kunlarining shirin xotiralari saqlanar... (A.Qodiriy, "O'tgan kunlar" romani). Murdor ekan yurak naqadar, Ba'zan tanho achchiq yig'layman (Mirtemir, "Surat" dostoni). Bir shirin hid taralar erdan Va yurakka ketar ko'shilib... (Rauf Parfi, "Osmon-falakda" she'ri). Parchalardagi ajratib ko'rsatilgan birikmalar mualliflarning individual birikmalari emas, shuning uchun ular yangiligi bilan emas, balki alohida ekspressivligi bilan ajralib turadi.

Bir sezish a'zosi bilan bilinadigan belgini anglatadigan so'zni boshqa sezish a'zosi bilan bilinadigan tushunchaga nisbatan qo'llash yuli bilan yo'zaga keladigan kuchma ma'nolar (ular tilshunoslikda sinestetik metaforalar deb yuritiladi) deyarli hamisha kuchli ekspressivlikka ega bo'ladi. Bu ekspressivlik obrazlilik yangiligi, g'ayriodatiyligi aniq sezilib turgan va ana shu sinestetik metafora asosidagi individual-muallif birikmalarida yanada kuchayadi. Badiiy nutqda o'tkir ta'sir va tasvir vositasi sifatida estetik vazifa bajaradi.

Mahoratli so'z ustalari bu vositadan unumli foydalanadilar. Masalan, totli va cheksizlik so'zlarini nobadiiy nutqda bog'lash mumkin emas, chunki ularning ma'nolarida mutanosib qirralar yuq. Ammo hassos so'z san'atkori Oybek bu so'zlarni o'zaro bog'lab, betakror bir obraz yaratgan. Bunda totli so'zi konkretlikdan "cheksizlik" qadar kengaygan, abstraktlashgan va cheksizlik so'zi bilan munosabatda nozik bir hissiy holatning umumlashgan badiiy tasvirini yo'zaga keltirgan. Albatta, bu birikma ham sinestetik metaforaga asoslangan va o'zining g'ayriodatiyligi bilan tezda diqqatni tortadi: Oqshom, o'zoqlarga qarab tolamen, Totli bir cheksizlik ufqda yonar ("Qalbmida sezamen..." she'ri).

Ba'zan esa ma'nolari bir-biriga mutlako zid bo'lgan so'zlarni o'zaro bog'lash orqali g'ayriodatiy birikma hosil qilinadi. Bunda birikma betakror obrazning rasmiga aylanadi, kuchli emfatik intonatsiya bilan bog'liq holatda juda yuqori ekspressivlik va emotsionallik yo`zaga keladi. Adabi- yotshunoslikda bunday birikmalar oksyumoron nomi bilan urganiladi.

Ushbu parchaga e'tibor beraylik:

Lov-lov yonayotir kuyosh — ul najot,
Osmon chorlayotir, chorlar yuksak tog'.
Shunday yuragimda tovushsiz faryod,
Men senga inoqman istayman, evoh...

(Rauf Parfi, "Muhabbat" she'ri).

Tovushsiz faryod birikmasidagi so'zlarning ma'nolari bir-biriga zid, ya'ni faryod so'zi me'yoridan ortiq ovoz bilan nola (kilish) ni bildirgani holda, tovushsiz so'zi unga aniklovchi qilib qo'llangan. Ana shuning xisobiga lirik kaxramonning murakkab missiy holatiga emfatik intonatsiya berilgan, birikma kuchli emotsionallik kasb etgan.

Ayrim hollarda g'ayriodatiy birikmalardagi oksyumoron nutqda hazil, engil yumor ruhini berishi mumkin. Masalan, qari usmir g'ayriodatiy birikmasi quyidagi misralarda engil yumoristik fonni yo`zaga keltirgan: Etmishinchi yillarda qari bir usmir bo'lib, Kultiqda "Dante" bilan uning ortidan chopdim (A.Oripov).

Bunday g'ayriodatiy birikmalar, ayniqsa, hajviy va yumoristik asarlarda juda keng qo'llanadi. Ularda bunday birikmalar nozik kulgi chiqaruvchi vositalardan biri sifatida estetik vazifa bajaradi. O'zbek hajvining taniqli ustalaridan biri Ne'mat Aminov o'zining "Elvizak" nomli hajviy qissasida ana shunday birikmalarning o'xshashsiz namunalarini yaratgan. Ulardan ba'zi misollar: - Obbo soqolli chaqalog'-ey! — dedi Shamsi Turaevich, Usharovning elkasiga ko'l tashlab...

...Bozordan chiqib, o'zi yosh-yosh erkak tovuqchalardan olib kelib, "chexombil" va "tabaka" degan ovqatlarni pishiradi...

— Bu erkak tovuqcha deganingiz xo'rozmi?..

Bu o'qish juda yaxshi o'qish — bepul ovqat beradi, bepul yotokxona beradi, bepul stipendiya beradi, deb tushuntirdim.

Ijodkorlar tomonidan muayyan estetik maqsad bilan to'zilgan gayriodatiy birikmalardagi o'zvlardan birining rang bildiruvchi so'z bo'lishi ko'proq ko'zatiladi. Bunda ana shu rang bildiruvchi so'zlardagi konkret ma'no abstraktlik tomon siljiydi. Albatta, bu abstrakt mazmun tamoman mohi- yatdan ajralgan, muallaq holatda bo'lmaydi, balki so'zning konkret mazmunidagi imkoniyat sifatida mavjud bo'lgan ma'no qirralari, uning rang-barang kuchim zahiralari asosida yo`zaga keladi. Masalan, yashil barg birikmasida yashil so'zi konkret bir mazmunga ega, barg so'zini, aytayliq shabboda so'zi bilan almashtirilganda, bu konkretlik abstraktlashadi, umumlashadi. She'riy parchaga e'tibor beraylik:

Er yosh, soflik jimirlatar etni,
Zoriqqan g'unchalar ochildi bog'da.
Panjradan oshib chiqib ketdi
Maysazorda yurgan yashil shabboda

(A.Muxtor. "Tug'ilish" she'ri).

Aytish kerakki, yashil soʻzining konkret maʼnosida uning ana shunday abstraktlashuvi uchun imkoniyat mavjud, yaʼni u tinikdiq tozaliq navqironliq koʻrkamlilik va shu kabi assotsiatsiyalarni hosil qilish imkoniyatiga ega. Bu esa uning mazmunidagi mazkur abstraktlashuv mutlaqo muallaq holatda sodir boʻlmaganligini koʻrsatadi. Faqat shoir uning bu imkoniyatidan birinchi boʻlib foydalanayotgani uchun bunday birikma bizga gʻayriodatiy tuyuladi. Kolaversa, shoir mazkur birikmani juda mohirona qoʻllagan, ayni oʻrniga tushira olgan, yaʼni shabboda koʻm-koʻk maysazorda kezib yuribdi, u shu qadar nozikki, hatto "panjaradan oshib chiqib ketadi", ayni paytda hamma yoq "etni jimirlatar" darajada sof, begʻubor, shuning uchun bunday shabboda faqat yashil boʻlishi mumkin, xolos. Yashil shabboda birikmasi juda chiroyli va taʼsirli yaxlit emotsional obrazning nozik ifodasiga aylangan.

Gʻayriodatiy birikmalar baʼzan yaxlit bir tushunchaning poetik obrazi boʻlishi ham mumkin. Masalan, Ilk tong nuri kiprigingga kunar, Koʻkdan yuvib ketar qora uyqu tun (A.Muxtor, "Bolalik" sheʼri) parchasida qora uyku tun tushunchasi ifodasidir. Lekin tun soʻziga Karaganda, qora uyku birikmasi mazmunan boy va poetik jarangga ega. Parchadagi qora uyqu — bu faqat tun emas, balki shu tun bilan, korongʻilik bilan bogʻliq boʻlgan yana boshqa narsalar hamdir. Shu maʼnoda bu birikmaning oʻzi chiroyli bir poetik obrazdir.

Gʻayriodatiy birikmalardagi soʻzlar mazmunining konkretlikdan abstraktlik tomon siljishi, undagi moddiy tushunchaning yuqolishi, yaʼni nomoddiylashuvi natijasida yoʻzaga keladigan ekspressiv-emotsionallikning, obrazlilikning idrok etilishi koʻpincha individual xarakterda boʻladi. Chunki mazkur gʻayriodatiy birikmalar tarkibidagi soʻzlar mazmunidagi abstraktsiyani turli oʻquvchi turlicha tasavvur qiladi. Quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

Ogʻushimda zangori sezgi,
Kiprigimda suyuq hayajon,
Koʻzlarimda yumaloq sevgi,
Salomatman men ham, onajon.

(Rauf Parfi, "Yana qaytib keldim..." sheʼri)

Ajratib koʻrsatilgan soʻz birikmalari, avvalo, yangiligi bilan tez diqqatni tortadi. Bizni lirik kaxramonniig missiy holatiga olib kiradi. Ayni paytda ularning juda goʻzal obrazlar ekanini sezamiz. Bu hissiy holatlar bizga ham "yuqadi", lekin birikmalardagi zangori, suyuq, yumaloq soʻzlarining abstraktsiyasini hamma aynan bir xil tushunmaydi. Masalan, zangori sezgi yosh, toza tuygu va shuning kabilar, suyuq xayajon muayyan holatdagi koʻz yoshi va shuning kabilar, yumaloq sevgi xoʻzurli va ozorli, qutulish imkoni bulmagan sevgi, koʻzda aks etgan sevgi va shuning kabilar tarzida idrok etilishi mumkin.

Iqtidorli shoir Faxriyor "Sen ketgan joyda" nomli sheʼrida ana shunday uta gʻayriodatiy birikmalarning har birini betakror, ohorli obrazlar ifodachisi oʻlaroq yaratib, ularning satrlardagi tiriz zanjiri vositasida soʻlgʻin ayriliq azobi va armonining tirik rasmini mana bu shamoyilda chizadi:

Oʻzilib yotar bir enlik umid,

kasamlardan bo'shagan shisha,
sariqqa chalingan vido mavsumi,
yirtib tashlangan andisha.

Muhabbatning po'choqlarin betinim
Farrosh shamol supurar.
Qizarmagan kukning betiga
Favvoralar tupurar.

O'rindi, qobirg'alari qator
Gullar panasiga o'rmalab qochar.
Yulak bexush yiqilib yotar, Armon bola ochar...

Bu misralarda g'ayriodatiy birikmalar nakadar katta estetik salmoq bilan yukunganligidan zavklanmaslikning aslo iloji yuq.

G'ayriodatiy birikmalar ayrim hollarda bir so'z bilan ataladigan biror tushunchaning perifrastik ifodasi ham bo'ladi. Oybek bir she'rida (sochning) bo'ramlarni shunday ta'riflaydi: Sochlaringning, ey yosh qiz, Jingalak nozi qarshisinda, oh, tilsiz Shoirlar sozi. Ko'rinib turibdiki, jingalak noz perifrazasi yorqin va nozik poetik obrazdir. Bu o'rinda shoirning tilni naqadar "ingichka" tushunganligini sezish qiyin emas. Oybek boshqa bir "Radio tinglaydir..." nomli she'rida ayni jingalak noz birikmasi bilan kuy so'zini bog'lash orqali yana yangi g'ayriodatiy birikma to'zadi: Uchishurkan sho'x kuylarning jingalak nozi, Har bir yo'zdan. yuqoladi mashaqqat, g'amlar. Bu o'rinda ikkilangan g'ayriodatiylik birikmada ifodalangan obrazning yana ham nozikligi va ta'sirliligini kuchaytirgan.

Xalq og'zaki ijodi namunalarida ham iboralar tarkibining g'ayriodatiyligini ko'rish mumkin. O'zbek xalq og'zaki ijodining gultojlaridan bo'lmish "Alpomish" dostonidagi mana bu misralarga diqqat qilaylik: Har erda dushmanning ko'li boylansin, g'animging ichiga g'amlar joylansin. Adabiy tilimizda g'am emoaq iborasi bor, shunga ko'ra "g'amning odamning ichiga kirishi" hamisha hissiy bir tarzda idrok etiladi. G'amlar so'zi bilan bevosita bog'langan joylanmoq faqat "kirmoq"ning o'zigina emas, balki "batamom kirib, u erni egallab, usha erda tamomila muqim bo'lib qolmoq" xamdir. Shuning uchun ham "joylanadigan g'amlar" shunchaki bo'lmaydi, katta bo'ladi, kattiq bo'ladi, qattol bo'ladi. G'amlar joylansin birikmasi ana shunday mag'zi tuq va ekspressiyasi ortiq iboradir.

Yoki shu dostonidagi Mahram kelib, menga berdi xabardi, Zakot degan gapga kunglim qabardi misralarini olib ko'raylik. Ko'nglim qabardi iborasi qahramonning ranjli ruhiy holatini favkuloda bir badiiyat bilan akslantirgan. Adabiy tilimizda ko'ngli og'rinoq iborasi bor. Ammo ayni ko'ngli qabarmoq iborasi ma'no ifodasidagi obrazlilik jixtdidan undan anchayin kuchli. Ko'ngli og'rimokda ruhga etkazilgan ranj, ozor ibora tarkibidagi og'rinoq so'ziga ko'ra ochiq, ta'bir joiz bo'lsa, juda yalang'och ifodalangan. Ko'ngli qavarmoqda esa ichki obraz bor. Ma'lumki, ko'ngil — mavhum tushuncha, qabarmoq esa aniq tushunchaga nisbat beriladigan harakat, masalan, qo'l, oyoq qabarishi mumkin. Ko'l qavarganda, kaftda pufakchalar paydo bo'ladi, so'ngra u qadoqqa aylanadi, buni hamma biladi. Shuning uchun xam qabarmoq so'zi eshitalishi

bilan kishi ko'z ungiga darhol qo'lning xud- di shu aniq va otrildi ko'rinishi keladi. Qabarmiq kungilga nisbat berilar ekan, o'sha qo'l ko'rinishi ko'ngilga ham ko'chadiki, bu holatda endi ko'ngil aslo mavxum bula olmaydi. Shu tariqa mazkur iborada ozurdalik ichida tulg'ongan ko'ngilning qbariq obrazi yo`zaga kelgan.

Dostonda gap etaklamoq degan g'ayriodatiy ibora ham bor: Yurishimiz qirchin qizlar bilmasin, U ko'rgurlar gap etaklab yurmasin., El ichida malomat so`z bulmasin. Mazkur iboraning adabiy tildagi mukobili bo'lmish gap(ni) kutarib yurmoq iborasida gapning bevosita xarakati yuq, u guyo od- diy bir narsa, uni ko'tarib yuradilar, xolos. Gap(ni) etaklab yurmoq iborasi shuning uchun ham o'tkirki, unda gapning o'zi ham bevosita yuradi, faol harakatga qodir, faqat uni chirkin maqsadlarga xizmat qildirish uchun qayoqqa xoxlashsa, usha yoqqa etaklab yuradilar. Gap va etaklamoq so`zlaridan tarqib topgan bu g'ayriodatiy ibora ana shunday ma'no nozikliklari bilan tuyinib, betakror obrazli ifodaga aylangan.

Adabiy grammatik me'yorlardan chekinish, xususan, g'ayriodatiy birikmalar to'zish badiiy nutq uchun benihoya katta estetik imkoniyatlar manbaidir.

Adabiy tilning uslubiy me'yorlariga ko'ra bir uslubga xoslangan birlikni boshqasida qo'lash mumkin emas, ammo badiiy nutqda bu me'yorlardan ham muayyan estetik maqsad bilan chekiniladi. Bu holat ko'proq nasriy asarlarda ko'zatiladi. Masalan, janoblari so`zi tantanavor, ko'tarinki uslubga xos. Quydagi parchada uning qo'llanishiga e'tibor beraylik: - Yuq qorin janoblari tuqlap, ertalab baliq egan ediq faqat choy bulsa kifoya, — dedi u kulib (N.Aminov, "Shurlik" hikoyasi). Uslubiy me'yorga ko'ra, janoblari so`zi oddiy qorin so`zi bilan birga qo'llanmasligi kerak. Ammo ayni badiiy nutqda ularning kushilishi bayon qilinayotgan fikrga yumoristik ruh baxsh etgan. Yozuvchi xuddi shu kulgini ko'zgatish maqsadi bilan so`zni o'ziga "yot" uslubda qo'llagan. Bu badiiy adabiyotda keng tarqalgan usullardan biri bo'lib, yozuvchilar undan turli darajada foydalanadilar.

Bir uslubga oid so`z yoki sintaktik to'zilmalar boshqa uslubga ko'chirilganda, bu birliklarning eng nozik uslubiy va estetik imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Bu birliklar yumor, kinoya-kesatiq, xullas, komik ruhni ifodalovchi asosiy vositalardan biriga aylanadi. Komik ruhning kuchlilik darajasi esa ko'chiriladigan uslublarning bir-biridan qanchalik o'zokligi, keskin farklanishi bilan bog'likdir. Boshqacha kilib aytganda, boshqa uslubga ko'chirilgan birliklarning bu uslubga "yot"ligi qanchalik kuchli sezilib, farklanib tursa, komik effekt shunchalik yuqori va sezilarli bo'ladi. Shuning uchun ham badiiy asar tilida ko'proq rasmiy, ilmiy-tantanavor uslublarga xos birliklarning kuchirilishi ko'zatiladi.

Rasmiy-publitsistik uslubda bu uslubning o'ziga xoslangan, uni xarakterlovchi so`z va sintaktik to'zilmalar juda ko'p. Ular hatto doimiy birikmalarga, iboralarga aylanib qolgan. Ularni eshitishimiz (yoki o'qishimiz) bilan ixtiyorsiz ravishda rasmiy-publitsistik uslub xayolimizga keladi. Aytish mumkinki, bunday birikmalar rasmiy-publitsistik uslubning o'ziga xos tamg'alari sifatida odatiylashib qolgan. Masalan, yutuqlarga erishmoq, ta'kidlab utmoq, keng muhokama qilmoq, aloxida e'tiborni qaratmoq, kamchiliklarni bartaraf qilmoq, misli ko'rilmagan darajada mustaxramlamoq, tarixiy voqealarga guvoh bulmoq, qayd qilmoq, faktlarga murojaat qilmoq va boshqa bir kator shu kabi so`z, so`z birikmalarini esga olish mumkin. Bunday birliklarni hatto mazkur uslubning o'zida ham ko'plab qo'lash u qadar ham

maksadga muvofiq emas. Ular nutqning haddan ortik quruq va zerikarli bo'lishiga olib keladi. A.Qahhor o'zining "Nutq" feletonida bu usuldan juda katta mahorat bilan foydalangan. Feletonda ayrim notiqlarning haddan tashqari quruq va qolipli gapirishi o'tkir kulgi ostiga olingan. Notiq hatto xotini bilan (intim-maishiy mavzu) ham rasmiy-publitsistik uslubda gaplashadi. Bu kitobxonda achchiq va istehzoli kulgi qo'zgatadi:

— Urtoq rafiqam! Ijizat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunalik bajarib kelayotganimizga bir yil bo'lgan kunda siz ni bevosita tabrik qilishga... Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuklarga erishdik? Avvalo shuni ta'kidlab utish kerakki, biz u yoki bu masalada yo`z beradigan printsiptial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan, kuchimiz bilan, o'zaro keng muxokama qilish yuli bilan bevosita bartaraf kiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, urtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy ho'jalik jixatdan misli ko'rilmagan darajada mustaxqamladik. Men bu bobda faktlarga murojaat qilib utirmayman, chunki ordenli onangiz o'zlarining har bir tarixiy kelishlarida bu narsani ayrim ravishda qayd qildilar.

Badiiy so`z ustalari so`zlarni boshqa uslubga kuchirib kullar ekan, turli xil estetik imkoniyatlarni yo`zaga chiqaradilar. Badiiy nutqda adabiy tilning grammatiq uslubiy yoki boshqa me'yorlaridan badiiy-estetik maqsad bilan chekinilishi adabiy til me'yorlarining nainki bo'zilishi, balki badiiy nutqning mutlaqo o'ziga xos me'yorlarining voqe bo'lishi tarzida baholanadi. Nutqning tug'riligi sifati badiiy uslubda ana shunday o'ziga xos bir tarzda namoyon bo'ladi. Badiiy nutqda ko'zatiladigan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari va buning oqibatida yo`zaga keladigan estetik ta'sirning qimmatini idrok etmoq uchun, albatta, adabiy til me'yorlarini puxta bilmoq lozim.

III-MA'RUZA: Nutqning aniqligi

REJA:

1.Nutq aniqligi

2.Narsa va tushuncha aniqligi

3.Nutq aniqligining ahamiyati

Kishilar o'rtasidagi mulokotni talab darajasida ta'minlay oladigan nutq to'g'ri bo'lishi bilan bir qatorda aniklik sifatiga ham ega bo'lishi shart. Agar nutq aniq bo'lmasa, so'zlovchi etkazdirmoqchi bo'lgan muayyan fikr tinglovchi tomonidan to'lasicha va aynan anglanishi mahol. U holda fikr chala yoki yanglish tushunilishi mumkinki, bu anik bo'lmagan nutqning kishilar o'rtasidagi tabiiy va normal muloqot uchun yaroqsizligini ko'rsatadi.

Qadimgi yunon donishmandi Aristotel o'zining "Ritorika" kitobida nutqning asosiy fazilati uning anikligida ekanligini aytib, "agar nutq aniq bulmasa, u o'z maqsadiga erisha olmaydi" deb ta'kidlaydi. Shu narsa ham haqiqatki, nutqning maqsadi, ya'ni aytilmoqchi bo'lgan fikrning o'zi aniq va ravshan bo'lmasa, uni ifodalash uchun to'ziladigan nutq hech qachon aniq bulolmaydi. Nutqiy ifoda aniq bo'lishi uchun, avvalo, nutq to'zuvchining o'zi aytmoqchi bo'lgan fikrini tiniklashtirib olishi kerak. Ko'pincha tadqiqotchilar ulug' rus adibi L.N.Tolstoyning "So'zdagi noanikdiq shubhasiz, fikr noanikligining alomatidir" degan gapini iqtibos qiladilar. XVI asrda yashagan frantsoz faylasufi Mishel Montening quyidagi gapida ham katta ma'no bor: "Men Sukrotning xulosalariga tayangan holda uylaymanki, ongida biror narsa haqida tirik va aniq tasavvur shakllangan odam bu tasavvurlarni har qanday tilda, tarabar shevasida (tushunib bo'lmaydigan) bo'lsa-da, ifodalay oladi." Albatta, narsa-hodisalar haqida ongda aniq tasavvurlarning shakllanishi uchun tafakkur kilish lozim bo'ladi. Narsa-hodisalarni tug'ri va anik; nomlay olmasliq tabiiyki, ularni yaxshi bilmaslik oqibatidir. Tafakkur qila olmaslik yoki tafakkur tanballigi aniq nutq to'zishga imkon bermaydi. Zotan, til va tafakko'ring dialektik birligi hakida ko'p⁸⁹ gapirilgan, tilsiz tafakkur, tafakkursiz til yuq, bizning barcha bilimlarimiz til va tafayusurga ko'ra hosil bo'ladi, shakllanadi va rivojlanadi.

Real voqeliq tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning nutqda tug'ri va yakqol ifodalanishi aniq nutqning asosiy mohiyatidir. Shuning uchun ham aniklik kommunikativ sifati nutq va voqelik o'rtasidagi mutanosiblik zaminida belgilanadi. Bunda, asosan, nutqdagi asosiy birlik sanalmish so'zning tug'ri qo'llanishi nazarda tutiladi. Demaq nutqning anikligi so'zning tildagi ma'nosiga tamomila muvofiq tarzda qo'llanishi, so'zning voqelikdagi o'zi ifodalayotgan narsa-hodisa bilan qat'iy mosligi asosida yo'zaga keladigan kommunikativ sifatdir, Aniq nutq malakasining shakllanishida tavsiflanayotgan voqelikni bilish, tildagi so'z ma'nolari sistemasini yaxshi anglash, nutq mazmuniga e'tibor bilan qarash hal qiluvchi ahamiyatga molikdir. Ana shunda ifoda uchun eng uyg'un va almashtirib bo'lmaydigan aniq so'zni topish mumkin. Asqad Muxtorning "So'zlar" nomli she'ridan olingan quyidagi parchada so'zning nutqdagi o'z o'rni naqadar muhimligi ta'kidlangan:

"Ba'zan so`zlar "Bejoman" deb dod soladi,
Goh xuddi yov ustiga ot soladi.

Goh loqayd bo'ladilar har narsaga,
Na g'aflatga soladilar, na lag'zaga.

Esiz husnim deya o'ksib turadilar,
Yo azada guyo qah-qah uradilar...
So`zni kayliq saylagandek sevib sayla,
To kul ursa, muharrirga rashk ayla.

Gomer kabi mangukka tanla uni,
Mangu yonar topsang agar qalovini."

Frantso`z adibi Anatol Fransning juda chiroyli bir uxshatishi bor: "Lug'at — bu alifbo tartibidagi butun olamdir". Tilning lug'at boyligini — so`zlarni ana shu butun olamdagi narsalar, voqea-hodisalar, sifatlar, tuyg'ular, tasavvurlar, harakatlar, holatlar va shu kabilar bilan to'g'ri va aniq aloqalantirish, ular o'rtasidagi o'zaro mutanosiblikni ravshan idrok etish aniq nutq to'zishning asosiy shartidir. Shuning uchun ham o'qituvchi bu aloqalantirish va mutanosiblikni, avvalo, o'zi chukur bilishi, qolaversa, uquvchilari ongiga, ruhiyatiga olib kirishi zarur. Shunda o'quvchida nutqiy madaniyat, tirik til sezgisi shakllanadi. Ayniqsa, o'qituvchi uchun (albatta, boshqalar uchun ham!) nutqning aniqligi sifati juda ham muhimki, buni isbotlab utirishning ham hojati yuq. O'qituvchi dars berish uchun sinfxonaga kirarkan, o'z o'quv fani bo'yicha aytmoqchi bo'lgan gapini aniq, ravshan bilmasa, o'z fanini etarli egallamagan bulsa, har qancha chiranmasin, o'quvchi uning noaniq, tumta-roq nutqidan bir narsa chiqara olmaydi, uni tinglamaydi.

Aniq nutqda, avvalo, voqelikdagi narsa va uning nomi bo'lgan so`z bir —biriga mos bo'lishi shart. Ko'pincha ruyxatga olish kitobi tarzidagi birikma qo'llanadi, bunda u yoki bu narsani yozib, qayd etib boriladigan daftar qayd etiladi. Holbuki, kitobga yozilmaydi, u o'qish uchun mo'ljallangan. Demaq ayni birikmadagi kitob so`zi ifodalanmoqchi bo'lgan voqelikdagi narsaning nomi emas, shuning uchun birikma ham aniklikdan maxrum. Aslida ruyxatga olish daftari bo'lishi kerak. Yoki mana bu jumlaning ko'raylik: Tarbiyachi bolalarga tushunarli bo'lishi uchun kitobni olib, xontaxta tortmasiga kuyadi (S.Jo'raev, H.Qodirov). Bu jum- lada ham noaniklik bor, chunki hamma biladiki, xontaxtaning tortmasi bo'lmaydi.

Nutqni aniq to'za olish uchun, aytilganiday, eng avvalo, so`zning leksik ma'nosini to'g'ri tasavvur qilish lozim. Quyidagi jumlagacha e'tibor beraylik: Avlodlar merosini o'rganamiz ("Ma'rifat", 1998 yil 3 iyun). Bu jumlagacha ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun avlod so`zining leksik ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Avlod so`zi asli arabcha bo'lib (uning bir- lik shakli valad, ya'ni "bola" demakdir), o'zbek tilida "bir otabobodan tarqalgan nasl", "bir davrda tug'ilib usgan kishilar" kabi ma'nolarga ega,

Hamonki, gap meros haqida ketar ekan, ajdod soʻzi qoʻllanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha boʻlib, uning maʼnosi "ilgari utgan nasl-na sab, ota-bobolar" demakdir. Shunga koʻra mazkur jumla ajdodlar merosini urganamiz shaklida toʻzilishi kerak edi. Koʻrinadiki, avlod soʻzi tildagi leksik maʼnosiga muvofiq tarzda qoʻllanmaganligi uchun nutqning aniqligiga. putur etgan.

Yoki mana bu jumlaning olib koʻraylik: Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin xududlariga koʻplab "Santa-gentruda" zotli xoʻkizlar keltirildi ("Oʻzbekistan ovozi", 2006 yil 17 iyun). Bu jumlada ham nutqning aniqligi yuq. Hoʻkiz soʻzining tildagi leksik maʼnosi ayni jumladagi mazmun uchun mos emas, chunki uning maʼnosi "ikki yoshdan oshib, qushga yaraydigan holga kelgan bichilgan erkak qoramoldir. Nasl olish maqsadida boshqa yurtdan bichilgan qoramol keltirishning maʼnosi yuq. Bu maqsadda zotli buqa (maʼnosi "bichilmagan yosh erkak qoramol") keltirilishi tabiiy. Demaq xoʻkiz soʻzi tildagi leksik maʼnosiga muvofiq qoʻllanmaganligi uchun mazkur jumla aniklik sifatidan mahrum boʻlgan .

Gazetalardan birida Elbek tavalludining yoʻz yilligiga barishlangan maqolaga Tavallud sanasi — yoʻz deb sarlavha quyilgan ("Toshkent haqiqati", 1998 yil 18 aprel). Jumla mutlako aniq emas, chunki sana soʻzi oʻzining maʼnosiga muvofiq qoʻllanmagan. Sana soʻzining maʼnosi "yil; biror voqea sodir boʻlgan yil, oy, kun va shu hakidagi yozuv" degani ekanligi esga olinsa, mazkur sarlavhadagi fikr "Elbekning tugʻilgan yili — yoʻzinchi yil" kabilida tamoman yanglish anglashiladi.

Nutq toʻzuvchi nutq predmeti va tildagi maʼnolar sistemasini yaxshi bilsa hamda konkret nutq jarayonida bu predmet va maʼnolarni tugʻri aloqalantira bilish koʻnikmasiga ega bulsagina, uning nutqi aniq boʻlishi mumkii. Aytish mumkinki, aniq nutq uchun nutq toʻzuvchining soʻz qoʻlash mahorati jiddiy ahamiyatga molik.

Oʻzbek tilida aniq nutq yaratishga kumaklashuvchi vositalar juda koʻp. Nutq predmetini, ifodalanmoqchi boʻlgan narsa-hodisani butun iker-chikirlarigacha, turfa nozikliklarigacha ajratib ifodalash imkonini beruvchi sinonimlar qatori mavjudki, ular orasidan nutq predmeti ifodasi uchun eng uygunini tanlash orqali ham nutqning aniqligi taʼminlanadi.

Ulugʻ Alisher Navoiy "Muhokamatul-lugʻatayn" asarida tilimizning ana shunday bebaho boyligi haqida gapirar ekan, shunday yozadi: " ...Va sheʼrning bino va madori ishqqa evrilur va oshiklikda yigʻlamokdin kulliyroq (koʻproq) va doimiyroq amr yukdur va anda tanavvuʻ (xilma-xil boʻlish) bor: yigʻlamsinmoq mazmunidaki, turk mundoq debdurki,

Bayt: Zohid ishqin desaki, qilgʻay fosh,
Yirlamsiniru koʻziga kelmas yosh.

Va ingramak va singramakkim, dard bila yashurun ohista yiglamokdur va oralarida tafovut oz topilur, turkchada bu matlaʼ borkim,

Bayt: Istasam davr axdidin ishqingni pinhon aylamaq
Kechalar gah ingramakdir odatim, gah singramak.

Forsida bu mazmunki boʻlimgay, shoir ne chora kilgʻay?

Va siqtamoqkim yigʻlamokda mubolagʻadur, turk bu navʼ ado qilibdurki,

Bayt: Ul oyki, kula-kula kirog'latti (chetlatdi) meni,
Yirlatti meni demayki, siqatti meni.

Yana biyik un (baland ovoz) bilaki, e'tidolsiz (me'yorsiz) oshub (hayajon) bila yirlag'aylar, ani o'kurmak derlar va turkchada ul ma'nida bu matla' borkim,

Bayt: Ishim tog' o'zra har yon ashk selobini surmakdur,
Firoq oshubidin har dam bulut yanglig' o'kurmakdur.

Chun o'kurmak muqobalasida forsiy tilda lafz (so`z) yuqtur, forsiguy shoir munungdek g'arib (ajoyib) mazmun adosi (ifodasi)din maxrumdur. Yana yirlamoqning o'kurmaki muqobalasida inchkirmak dag'i bor va ul inchka un (ingichka ovoz) bila yig'lamokdur va ul turk lafzida bu nav' tarkib bila ado topibdurkim,

Bayt: Charx zulmidaki, burzumni qirib yig'larmen,
Igirur charx (kibi) inchkirib yirlarmen.

Ammo yirlamoqta xoy-xoy lafzin [adoda] o'zlarin turki-guylarga sharik qilibdurlar va bu lafz ham aslan turkiy uslubdur va faqirning bu maqtai mashhurdurkim,

Bayt: Navoiy, ul gul uchun xoy-xoy yig'lama ko'p,
Ki ha deguncha ne gulbun, ne g'uncha, ne gul bor."

Ko'rinib turganideq Alisher Navoiy birgina yig'lamaq fe'lining yig'lamsinmoq, ingramaq singramaq siqumamoq, o'kurmaq inchkirmaq hoy-hoy yirlamoq kabi 7 ta sinonimini keltirganki, ular ma'no nozikliklariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Navoiy keltirgan baytlarda bu sinonimlarning har biri o'z o'rnini benihoya aniq topgan va lirik kaxramon ruhiy holatining matnda ravshan va ta'sirli ifo- dalanishi uchun xizmat qilgan.

Sinonimlar narsa-hodisa, harakat-holat, belgilarning eng kichiq hatto sezilar-sezilmas nozik qirralarini, ularga bo'lgan sub'ektiv munosabat va yana qanchadan-qancha o'ziga xosliklarni farldab ko'rsata olar ekan, nutq to'zishda juda katta tanlash imkoniyati mavjudligi tabiiy, Shubhasizki, tilning sinonimlarga boyligi so`z tanlashga benihoya ehtiyotkorlik bilan munosabatda bulishni talab etadi. Xususan, tilimizning ulkan xazinasini bo'lmish sinonimik boyligini chukur va mukammal egallamasdan turib, nutqning aniqligi, ravonligi, ifodaliligiga erishish mumkin emas. Kishidagi lug'at zahirasiining kambag'alligi fikr ifodasiining kashshokligiga, so`z qo'lashdagi ko'pol noqisliklarga, so`zlarning ma'nolaridagi tovlanishlarni ilgay olmaslikka olib keladi.

Biz atrofimizdagi narsalar, voqea-hodisalarni, ularning xususiyatlarini, belgilarini, tabiatini, holatlarini butun nozikligi, o'ziga xosligi bilan ko'ramiz, anglaymiz. Ularni ifodalashda esa eng mos va ma'kul so`zlardan foydalanamiz, bunda, albatta, sinonimlar juda ko'l keladi. Shuni esdan chikarmaslik kerakki, sinonimlar birining o'rnida ikkinchisi qo'llanishi mumkin bo'lgan ma'nodosh so`zlar emas, ular qo'llanish o'rniga ko'ra ham farq kiladi. Atokli tilshunos A.Hojiev tomonidan to'zilgan "O'zbek tili sinonimlarining izoxli lug'ati" (Toshkent: O'qituvchi, 1975) da, masalan, yo`z so`zining sinonimik qatori shunday tavsiflangan: "Yo`z, bet, aft, bashara, chexra, jamol, diydor, oraz, o'zor, ruxsor. Kishi boshining old qismi, old tomoni. Bet so`zi ma'nosi, qo'llanishi bilan yo`z so`ziga juda yaqin bo'lib, yo`zga

nisbatan sal salbiy ottenkaga ega. Aft so`zi bet so`ziga nisbatan salbiy ottenkaga ega. Bashara so`zida salbiy ottenka aft so`zidagiga nisbatan xam kuchli. Chexra ijobiy ottenkaga ega. Jamol so`zida ijobiy ottenka chexra so`zidagiga nisbatan ham kuchli bo`lib, bu so`z, asosan, poetik stilga xos. Jamol so`zi "xusn", "chiroy" ma`nosida ham qo`llanadi. Diydor so`zi ko`rishmoq, tuymoq kabi bir-ikki so`z bilangina qo`llanadi. O`zor, oraz, ruxsor eskirgan, kitobiy". Keltirilgan sinonimik katordagi unta so`zdan har birining o`ziga xos ma`no nozikligi va qo`llanish o`rni bor.

Tilimizdagi dars, mashg`ulot, saboq so`zlarida ma`nodoshlik bor, ammo ularning qo`llanishi farkli. Shunga qaramasdan, ularning biri o`rnida ikkinchisini yoki aralash ishlatish natijasida nutq aniqligining bo`zilishi hollari ko`zga tashlanadi. Masalan, "Kichkintoylar nutqini o`stirish" nomli qo`llanmada bu so`zlarning uchalasi ham aralash ishlatilgan: 19-mashg`ulot. Mavzu: "Saboq"... Hozir qanday saboq? — deb suraydi tarbiyachi. — Hozir o`zbek tili sabog`i,- deb bir ovozdan javob beradilar bolalar... Hozir o`zbek tili darsi. Dars sinfda davom etyapti (61-63-betlar). Bu nutqni aslo aniq deb bo`lmaydi. Saboq so`zi eskilik bo`yog`iga ega bo`lib, u tarixiy mavzudagi matnda qo`llanishi mumkin, bu so`zning hozirgi tilda ikkinchi, kuchma ma`nosi ("ibrat, namuna") faol ishlatiladi: turmush saboqlari, tarix saboklapu kabi. Mashg`ulot so`zining ma`nosi umumiy, umuman mashg`ulliq masalan, amaliy mashg`ulot, sport mashg`uloti, tugarak mashg`uloti deyish mumkin, lekin tugarak darsi, sport darsi deb bo`lmaydi. Mazkur matnda nutq predmetini aniq ifodalaydigan so`z fakat dars so`zidir, maktab amaliyotida ham aynan shu so`z keng tarqalgan.

Keyingi paytlarda ba`zan familiya so`zining muqobili yoki sinonimi sifatida tarif so`zini mutlaqo notug`ri va ma`nosiga zid qo`lash uchrab qolmokda. Mazkur qo`llanmada o`qiyimiz: Tarbiyachi: Sening isming nima? Bola: Mening ismim Nosir. Tarbiyachi: Sening sharifing nima? Bola: Mening sharifim Usmonov (11'1-bet). Eski kitobiy uslubda Ismi sharifingiz nima? shaklidagi ibora bo`lib, uning mazmuni "Sharafli, muborak ismingiz nima?" demakdir, bu iborani "Ismingiz va familiyangiz nima?" tarzida behad dumbul tushunish oqibatida familiyata. sinonim "ixtiro qilingan". Bu "ixtiro" nutqning aniqligi bilan bir qatorda tilning va mantiqning mohiyatini ham ishdan chiqargan.

O`zbek tilida shkaf va javon so`zlari aynan bir narsani bildiradi, bunday sinonimlarni tilshunoslikda dubletlar deb ham atashadi. Kamida, Fapb bilan bog`liq mavzudagi nutq bo`lganda, shkaf so`zini qo`lash ma`kul bo`lar, har holda, bu so`z rus tilidan kirgan. Lekin ular ifodalagan predmet bevosita bir narsa, shuning uchun ularning ikkalasini birdaniga, boshqa-boshqa predmetlar nomi sifatida qo`llash nutqni mavhumlashtiradi, tinglovchi yoki o`quvchi bu ikki so`zga tegishli ikkita predmetni topolmaydi. Quyidagi nutqdagi fikrni tinglovchi aniq tasavvur qila olmaydi: Tarbiyachi shkaf va javon suratlarini ko`rsatib, bir necha bor "Bu javop", "U shkaf" deydi (S.Jo`raev, H.Qodirov). To`g`ri, qaysidir bir shevada bu so`zlar ifodalagan buyumlarda farq bordir, ammo adabiy tilda unday emas.

O`zbek tilida sovg`a, hadya, tortiq, tuhfa so`zlari sinonimlardir. Gazetalardan birida mana bunday yozilgan: Mirmuhsin ushbu asari bilan adabiyotimizga... munosib kuvonchli tuhfa hadya qildi ("O`zbekiston madaniyati", 1977 yil 14 oktyabr). Boshqa bir gazetada esa Quyidagicha yoziladi; ...Fermer xujaligi raxbari... o`z hadyasini tuhfa etmoqda ("Xalq so`zi", 2006 yil 4 iyul). So`zlarning leksik ma`nosi to`g`ri

anglanmaganligi, ularning sinonimligi nazardan qochirilganligi bois mazkur jumalarda aniklik sifati yuqolgan. Ajratib ko'rsatilgan tuhfa hadya qildi, hadyasini tuxfa etmokda birikmalari tavnologikdir, ya'ni ayni bir mazmun ikki marta ta'kidlangan, bu normal nutqda aniklikka xalaqit beradi. Mana bu jumalarda ham ana shu sababga ko'ra nutqning aniqligiga putur etgan: Uning (raqamli texnologiyaning) afzalligi shundaki, iqtisodiy sarf-xarajatlarni ancha tejaydi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 17 iyun) (sarf-xarajat, albatta, iqtisodiy bo'ladi). Musaxon aka... o'tgan asrning 1913 yili... Qozon universiteti meditsina fakultetiga tahsil olgani boradi ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul) (o'tgan asr bo'lgandan keyin 1913 yili emas, balki 13 yili bo'lishi kerak).

Sinonimlardan birining o'rnida ikkinchisini notug'ri qo'lash ham nutqning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi tayin. Masalan: Tosh suyakning mujda berishiga qaraganda, kitning o'zunligi to'rt yarim metr bo'lgan ("O'zbekiston madaniyati", 1974 yil 17 dekabr). Bu jumlada mujda so'zi noto'g'ri qo'llangan. Holbuki, bu o'rinda mujda so'zining sino- nimi bo'lgan xabar so'zi ishlatilishi lozim edi. Chunki bu ikki so'zning ma'nosida umumiylik mavjud bulsa-da, ular ma'no nozikliklariga ko'ra farklanadi, ya'ni xabar so'zi har qanday axborotni ifodalasa, mujda so'zi faqat quvonchli axborotni, xushxabarni ifoda etadi. Shuning uchun ham keltirilgan jumladagi fikr mujda so'zining emas, balki xabar so'zining qo'llanishini taqozo kiladi, ya'ni kuvonchli xabar emas, oddiy bir xabarning o'zi.

Badiiy nutqning aniqligini ta'minlash uchun so'z ustalari tinimsiz izlanadilar, yagona eng aniq, tasvirga tamoman uyg'un so'zni topish ustida muntazam ish olib boradilar. Masalan, o'lkan adib Oybek "Navoiy" romanining keyingi nashrlarida tasvir aniqligi uchun eng maqbul so'zni izlab, bir qancha so'zlarni ularning sinonimlari bilan almashtirgan, birgina misol: enkaymoq so'zini bukchaymoq so'zi bilan almashtirgan. Dastlabki nashrda: Arslonqul... madrasaning kudratli, yuksak peshtoqi ustida sallali, qalpoqli ustalarning dorbozday chaqqonligiga hayron bo'lib tikildi. Ularning ichida oppoq sokolli, enkaygan chollar ham bor edi. Keyingi nashrda: Arslonkul... madrasaning kudratli, yuksak peshtoqi ustida sallali, qalpokli ustalarning dorbozday chaqonligiga hayron bo'lib tikildi. Ularning ichida oppoq soqolli, bukchaygan chollar ham bor edi. Enkaymoq so'zida xarakatning ixtiyoriyligi, bukchaymoq so'zida esa harakatning g'ayriixtiyoriyligidan iborat ma'no nozikligi borki, mazkur tasvirning aniqligi uchun bukchaymoq joiz, chunki chollarining kaddi o'z ixtiyorlari, xohishlari bilan egilmagan, balki og'ir mehnat majburan eggan.

Aniq nutq to'zishda so'zlarning ko'p ma'noliligi, ya'ni polisemiya hodisasiga alohida e'tibor berilishi lozim. Tilda birdan ortiq ma'noga ega bo'lgan so'zlar juda katta mikdorni tashkil etadi, bu ham aslida tilning o'ziga xosligi va boyligini ko'rsatadi. Ammo ayni shu holat ham nutq to'zuvchidan ziyraklikni talab etadi. Ingliz adibi Jona- tan Svift "Gulliverning sayohatlari" romanida utkir satira tili bilan xayoliy Lagado akademiyasining hayotdan ajralib qolgan olimlari ustidan kular ekan, ularning so'z vositasida emas, balki narsalar vositasida o'zaro muloqot kilishlarini tasvirlaydi. Guyoki so'zlar narsalarning nomi bo'lganligi uchun yanglish anglanishi ham mumkin, shuning uchun narsalarning o'zini ko'rsatish orqali fikr almashish ma'qulrokdir. Asarda olimlar suhbat uchun bir erga boradigan bo'lsa, fikrini bildirishga kerak bo'ladigan narsalarni ham qopda olib borgan, ya'ni har bir olimning lug'at zahirasi

shu qopning hajmiga bog'liq, bo'lgan . Bu kulgining asosi - so'zning ko'p ma'noiligidan gul va dumbul tasavvur bilan qo'rqish. Hajv ustasi Svift tilning mu'jizaviy tabiatidan bexabarlik ustidan qo'lganday bo'ladi.

Polisemantik so'zning ma'nolari, bu ma'nolar o'rtasidagi munosabatlar, ma'nolarning har birini reallashtiruvchi kontekst etarli darajada idrok etilsa, polisemiya aniq nutq to'zishda o'ziga xos kumakchi. Aks holda, anik va ravshan nutqni shakllantirish anchayin qiyinlashadi. Mana bu jumalarga z'tibor beraylik: Gippokrat kasal ko'rayotganda, undan: "Siz kim tomondasiz? Men tomondami yoki kasal tomondami?" — deb surarkan. Shunda kasal: "Albatta, siz tomondaman-da", — desa, Gippokrat unga qarab: "Men tomon bo'lsangiz, biz ikkovlon kasalni engamiz. Agar kasal tomonda bo'lsangiz, men yakkalanib kolaman-da"der ekan ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul). O'zbek tilida kasal so'zi polisemantik bo'lib, uning 7 ta ma'nosi qayd etilgan, ya'ni 1) "organizm normal faoliyatining bo'zilganlik belgisi (sifat)", 2)"organizmining normal faoliyati bo'zilgan kishi", 3) "organizm normal faoliyatining bo'zilganlik holati, kasallik" 4)"kutulib bo'lmaydigan odat", 5)"kamchiliq illat" va h.k. Parchada bu so'z ikkinchi va uchinchi ma'nolari bilan ishlatilgan, lekin ikkinchi, ya'ni kasallik ma'nosida qo'llangandagi kontekst ayni ma'noni emas, balki uchinchi, ya'ni bemor ma'nosini reallashtirish uchun qulaydir. Shuning uchun nutqdagi fikrning birdaniga aniq anglanishi bir qadar qiyin, bu ma'no ifodasi uchun to'g'ridan-to'g'ri kasallik so'zini ishlatib quya qolgan ma'qul edi. Ehtimol, so'z uyini chiqarishga harakat qilingandir, ammo bu maqsadga erishilmaganday. Undan ko'ra kasallik so'zi qo'llanganda, ham nutq aniq bulardi, ham muayyan estetik effekt yo'zaga kelardi.

Katta so'z ustalari polisemiya dan ham nutq aniqligini ta'minlash, ham ta'sirchanlikni oshirish, ham kulgi chiqarish vositasi sifatida foydalanadilar. Abdulla Qahhor xayvon so'zining birdaniga ikki ma'nosini Quyidagicha reallashtiradi: O'zining aytishiga ko'ra "nafis adabiyot muallimi" o'rtoq Boqijon Bakrev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning kulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa kuymaydi — boshini silkiydi, pishqiradi.

Hayvon! Sigir emas, hayvon! — dedi og'ilning eshigi-ni qattiq yopib. — Hayvon!
Xotini Mukarram xovlida samovarga suv kuyar edi.

Hayvon! Bu sigirni sotib, puliga chuchqa olish kerak! ("Adabiyot muallimi" hikoyasi). Hayvon so'zi, bir qarashda, faqat ikkinchi, "tarbiyasiz, farosatsiz" ma'nosida qo'llanganday ko'rinsa-da, yozuvchi bu so'zni shunday kontekstga olib kirganki, uning asosiy, "jonivor" ma'nosi ham o'zini nakd ko'rsatib turibdi.

Hassos so'z san'atkori Cho'lpon tildagi bu imkoniyatni yanada o'ziga xos tarzda namoyon kiladi. Masalan, oy so'zining "samoviy jism" va kuchma "go'zal qiz" ma'nolari bilan alohida-alohida shunday qulay kontekstga olib kiradi- ki, ham ifoda aniqligi, ham tasvir tinikligi ta'minlana- di: Aravakash... miyasida, umrida birinchi martaba ularoq, ajib va shirin xayollar aylanardi. Kukdagi oyga qarab erdagi oyni uylar va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi ("Kecha va kundo'z romani"). Yoki yozuvchi yuk so'zining "ortiqcha tashvish, dahmaza" va "inonchga ko'ra aziz-avliyolarni ranjitish tufayli yo'z beradigan kasallik" ma'nolarini shunday farq- lagan holda qullaydiki, ham holatning aniq tasviri ta'minlanadi, ham engil kulgi paydo qiladi: Elkamda un putdan uttiz put yukim bor...- dedi mingboshi... Uchala xotin bu

yukning nimaligini anglab etolmadilar... (Xadichaxon:) — G'animlar qasd qilganga uxshaydi. Qaytarma koldirib ber sammi? — dedi. — Ayollarning bilgani irim, bilgani qaytarma, bilgani azayimxon... — dedi mingboshi... Xadichaxon yana e'tiroz qildi: - O'zingiz o'z og'zingiz bilan "yuk bosdi" dema- dingizmi?Mingboshi kulib yubordi: "Yuk bosdi" degan bulsam, "qanday yuk?" deb suragin-da, bachchag'ar — dedi u... — Uchalang kam yukmisan menga? — Nima otrimiz tushdi sizga? — dedi Xadichaxon ("Kecha va kundo'z" romani).

Shakldosh so'zlar, ya'ni omonimlarni ham farklay bilish so'zlarni to'g'ri qo'lash va demaq nutqning aniqligini ta'minlashga yordam beradi. Omonimlarni qorishtirish natijasida yo'zaga keladigan nutqiy noanikliklar ko'proq o'quvchilar nutqida ko'zatiladi, bu, albatta, ularda nutqiy kunikmalarning etarli darajada muntazamlashmaganligi bilan izoxdanadi. Bu boradagi nuqsonlarni, tabiiy, maktab ona tili ta'limi tarijiiy ravishda bartaraf etib boradi. Ayni paytda bu masalada yirik tilshunos Sh.Rahmatullaev tomonidan to'zilgan "O'zbek tili omonimlarining izoxdi lug'ati" (Toshkent: O'kituvchi, 1984) ham yaxshi amaliy qo'llanma vazifasini o'tashi mumkin.

Ko'pincha asosi bir ekanligi sezilib turgan va ma'nosida ham yaqinlik mavjud bo'lgan so'zlar farklanmaydi, qorishtiriladi, oqibatida nutqning aniqligiga putur etadi. Masalan, texnika va texnologiya so'zlarini olib ko'raylik. Tabiiyki, bu so'zlarning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin emas, chunki ular alohida-alohida ikki xil ma'noga ega. Biror ish bajaradigan mashina, mexanizm, apparat, moslama kabilar (masalan, yuk tashish texnikasi, paxta terish texnikasi), shuningdeq biror ish yoki harakatni bajarish usullari (masalan, ko'rash texnikasi, raqs texnikasi) texnika so'zi orkali ifodalanadi. Texnologiya so'zining ma'nosi esa "ishlab chiqarish jarayonlari, usullari va vositalari haqidagi bilimlarning jami (masalan, metallar texnologiyasi), shuningdeq ishlab chikarish jarayonlarini samarali amalga oshirish, ijtimoiy ehtiyojlarni to'laroq kondirish uchun muayyan usul va tartib bilan qullanadigan operatsiyalar majmui (masalan, dori ishlab chikarish texnologiyasi, ilg'or pedagogik texnologiyalar)" demakdir. Shunday ekan, tez-tez ko'zga tashlanayotgan korxonaga yangi zamonaviy texnologiya o'rnatildi qabilidagi jumlar noaniq va notug'ridir. Tabiiyki, "bilimlar jami" va "operatsiyalar majmui" moddiy narsa emas, ularni ko'lda ushlab bo'lmaydi, binobarin, moddiy bo'lmagan narsa o'rnatilmaydi, balki joriy etiladi. Mazkur jumla to'g'ri va demaq aniklik sifatiga ega bo'lishi uchun Korxonaga zamonaviy yangi texnologiya joriy etildi tarzida to'zilishi kerak. Texnikada moddiylik ta'kidi borligi uchun u joriy etilmaydi, balki o'rnatiladi: Korxonaga yangi zamonaviy texnika urnatildi.

O'zbek tilida talaffo'zi jihatidan o'xshash (bir xil emas), ammo boshqa-boshqa ma'noga ega bo'lgan bir qancha so'zlar bor, ular fonetik jihatdan bir-ikki tovushga ko'ragina farqlanadi. Bunday so'zlar tilshunoslikda paronimlar deb yuritiladi. Masalan: asl — asil, sado — sazo, utsishli — utsimish- li, tansiq — tsishchis, yonilgi — yoqilsh, nufo'z — nufus, oro — aro (ora), qayda — qaydam, bola — balo, xayol — xiyol, afzal — abzal, ma'kul — maqol, tip — tif, shox — shoh, taxlit — tak/iug, taxrir — max,l.il, nogiron - nigoron, murojaat — munojot, ma'naviy - ma'noviy kabi. Bunday so'zlarni nutqqa olib kirishda juda ham xushyor bulish, so'zning ma'nosiga aloxida e'tibor berish zarur. Ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'lash bayon

qilinayotgan fikrning bo'zilishiga, juda bo'lmaganda, yanglish anglanishiga olib keladi. Aniq nutq yo`zaga kelmaydi, fikrning aniqligi va ravshanligi tamoman yukoladi.

Tilimizdagi o'qishli so`zining ma'nosi "ho'zur qilib uqiladigan" demakdir, ushbu jumlada bu so`z ayni ma'nosini namoyon qilgan: Rus klassik yozuvchilaridan qaysi biri o'qib bo'lmaydigan kitob yozgan? Bularni jahonga tanitgan kitoblari eng o'qishli kitoblar emasmi? (A.Qahhor, "Kitob shavq bilan o'qilishi kerak" maqolasi). Ba'zan bu so`z o'rnida unga paronim bo'lgan o'qimishli so`zi mana bu tarzda yanglish qo'llanadi: Prilavka ortida yoshi o'tib kolgan bir qiz berilib kitob o'qib o'tirardi... Prilavkaga suyanib, sekin gap boshladim: - Turgenevning "Asya'si ham juda o'qimishli... (U.Umarbekov, "Gul sotuvchi qiz" hikoyasi) Holbuki, o'qimishli so`zining ma'nosi butunlay boshqa, ya'ni u "savodli, ma'lumotli" degan ma'noni ifodalaydi, demaq kitob o'qimishli bo'lishi mumkin emas. Shuning uchun o'qishli kitob, o'qimishli odam kabilida qo'lash aniq nutq uchun xizmat kiladi.

Tansiq — tanqis paronimlari ham nutqda ko'p qorishtiriladi, natijada nutqning aniqligiga putur etadi, chunki o'larning ma'nolari o'rtasida kattagina farq mavjud, ya'ni tansiq "suyumli, noyob" degani, tanqis esa "etishmaydigan, kamchil" ma'nosini anglatadi. Misollar: Uch-besh kishidan iborat bu oilaning kechki ovqatidan sung dasturxoniga kuyi- ladigan tansiq meva va ichimlikka ketadigan pul bilan Sharq o'lkalaridagi un oila o'n kun roxatda yashay oladi (I.Gasprinskiy, "Ovrupo madaniyatiga betarafona bir nazar" asari). Tug'ri, usha mamlakatlar ikdtisodiy rivojlangan, halqi nisbatan boy-badavlat. Ammo bizdagi insongarchiliq qadr-qimmat, mexr-oqibat u tomonlarda tanqis ("Xalq so`zi", 2006 yil 30 avgust).

Mana bu jumлага e'tibor beraylik: Fizika qonunlaridan birini esga olib, moddaning yuqdan bor bo'lmasligini inobatga olsaq bir avtomobilning bir yilda shuncha miqdorda zararli gaz chiqarishi uchun kamida shuncha, ya'ni 25 — 30 ming tonna benzin yoki boshqa yoqilg'i kerak bo'ladi ("Xurriyat", 2006 yil 16 avgust). Bu jumlada nutqning aniqligi bo'zilgan, chunki yoqilg'i so`zi o'rnida unga paronim bo'lgan yonilg'i so`zi qo'llanishi lozim edi. Suyuq yokilg'i, ya'ni ruschadagi goryuchee o'zbek tilida yonilg'i deyiladi, yoqilg'i so`zi esa issikdik energiyasi olish uchun yoqiladigan har qanday ashyoni ifodalaydi, u ruschadagi toplivo so`zining mukobilidir. Shunday ekan, yuqoridagi fikr ifodasida yoqilg'i emas, balki yonilg'i so`zi ishlatilganda, nutqning aniqligi bo'zilmagan bo'lur edi, chunki, ko'rinib turganiday, jumlada gap suyuq yokilg'i haqida ketmokda.

Nutq to'zuvchi paronimik so`z juftliklari bilan to'qnashganda, ulardan o'z fikri ifodasi uchun uykunini tanlashda ziyrak bo'lishi, so`z ma'nosini tug'ri idrok etishi shart. Ammo so`z ustalari paronimlardan o'ziga xos badiiy vosita sifatida ham foydalanadilar. Zero, tug'ri tanlangan va o'z o'rniga tushgan paronimlar badiiy nutqning aniqligi, ifodaliligi va obrazlilikini ta'minlaydi. Ijodkorlar ko'pincha paronimlarni yonma-yon ko'llaydilar. Bunda tovush jihatidan o'xshash bo'lgan bunday so`zlarning ma'noda bir-biridan keskin farq qilishiga alohida ypg'y beriladi. Paronimlarni ana shunday yonma-yon holatda solishtirish ularning mantiqan ta'kidlanishiga imkon beradi. Natijada paronimlar alohida estetik vazifa bajaradi, o'ziga xos ifodalilikni yo`zaga keltiradi: "Pichokni o'zingga ur, og'rimasa birovg'a ur" degan ma'qul bir maqol bor (G'.G'ulom, "O'rnida kuyilgan imzo" feletoni). Jumlada

ma'kul va maqol paronimlarining yonma-yon qo'llanishi bayon qilinayotgan fikrga ifodalilik baxsh etgan.

Paronimlarning ana shunday estetik maqsad bilan ishlatilishi, ayniqsa, she'riyatda keng tarqalgan:

Hali ko'ngil xoli pushaymonlardan,
Ahdu vafolardan kechilmaganmish

(A.Muxtor, "Tush" she'ri).

Xayol xiyol chertib o'tdimi —
Topib ber deb qiladi xitob

(Zulfiya).

Nega birdan uyalib,
Ko'zin yumdi o'ralib g'unchalar?
Kechalardan ko'chaga,
Ko'chalardan kechaga ko'chilar

(M.Shayxzoda, "Qushiq o'rnida" she'ri).

Badiiy nutqda qo'llangan paronimlarning ma'nosi bir- biridan qanchalik yiroq, bir-biriga qanchalik qarama-qarshi bo'lsa, ekspressivlik shunchalik aniq va kuchli bo'ladi. Chunki ohangdosh so'zlarning ma'nosidagi farqlilik karama- karshilik solishtirishni ko'tilmaganlik darajasiga olib chiqadi, ular o'rtasidagi kontrastlikni behad kuchaytiradi. Masalan, qabr — qasr paronimik juftligida so'zlarning ma'nosida konkret qarama-qarshilik mavjud. Ular ifodalagan tushunchalarni bir-biri bilan yonma-yon kuyish ham bir qadar notabiiy. Bu so'zlarni she'rda yonma-yon quyish esa kuchli ekspressivlikni yo'zaga keltiradi, chunki so'zlar o'zaro ohangdosh, ma'no jihatidan esa qarama-qarshi ekanligi aniq ko'rinib turadi:

Nabilar, rasullar, dohiylar unda,
Qabrlar, tsasrlar turgandir qator

(A.Oripov, "Ona sayyora" she'ri).

Mazkur holatni mana bu misolda ham ko'rish mumkin: Bolasi yuklap bolaga qiziqadi. Lekin bolaning balo bo'lgan i ham bor... (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Badiiy asarda komik ruh yaratishda ham paronimlar juda qo'l keladi. So'z ustalari ko'pincha paronimik so'zlardan birining o'rnida ikkinchisini ataylab yanglish ishlatish orqali kulgi yaratadilar. Albatta, bu ko'proq personajlar nutqida ko'zatiladi. Masalan, N.Aminovning "Elvizak" hajviy qissasidan olingan Quyidagi parchada tip — tif paronimi ana shunday maqsad bilan qo'llangan: - Xurmatli byuro a'zolari! Men Bashirjon akani o'zoq yillardan beri bilaman. U kishi juda g'alati, o'ziga xos odam. Adabiyotchilar tili bilan aytsak o'ziga xos bir "tip"... Bashirjon o'tirgan erida qimirlab kuydi. U "tip" so'zini "tif" deb tushunib: Yolg'on! Umrimda tif bilan og'rigan emasman! — deb qichqirmoqchi ham bo'ldi.

Shuningdeq kompost — kompot paronimiyasidagi kompost gungdan achitib tayyorlanadigan ug'itni, kompot esa mevalarni qaynatib tayyorlanadigan ichimlikni ifodalovchi soʻzlar boʻlib, Quyidagi parchada ular asosida juda chiroyli kulgi chikarilgan: Marhamat, - dedim-da, u yoq-bu yoqqa qarab olgach, lektsiya oʻqishga tushib ketdim, - urtoqlar, kompost juda foydali ichimlik uni asosan mevadan tayyorlashadi. Mevalarning xili qancha koʻp boʻlsa, u shuncha shirin boʻladi. Bizning Fargʻona tomonlarda kompostni oʻriq shaftoli qoqi va olchanning qurugʻidan tayyorlashadi. Xullas, kompost ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz... Gapimni tugatmasimdan oʻtirgan odamlar sharaqlab koʻlib yuborishdi... (X.Tuxtaboev, "Sariq devni minib" romani).

Paronimlar turli soʻz uyinlari qilish, xususan, askiya uchun bitmas-tuganmas manbadir.

Aniq nutq toʻzish uchun qoʻllanilishi chegaralangan soʻzlarning maʼnolarini etarli darajada bilish bilan bir qatorda ularning ishlatilish oʻrinlarini ham aniq tasavvur etish zarur.

Tilimizdagi soʻzlarning barchasi ham qoʻllanish kulami jihatidan bir xil emas. Soʻzlarning aksariyati nutqda keng, faol qullansa, ayrimlari juda kam, nafaol qullanadi. Hozirgi til nuqtai nazaridan baʼzi soʻzlarda eskilik buyoBI mavjud boʻlgan ligi uchun ular "eskirgan soʻzlar" nomi bilan yuritiladi. Ana shunday eskirgan soʻzlar nafaol qoʻllanuvchi soʻzlar sirasiga kiradi.

Soʻzlarning eskirishi, yaʼni bugungi adabiy til nuqtai nazaridan eskilik buyogʻini olishi turli sabablar bilan voqe boʻlishi mumkin. Soʻzlar, asosan, oʻzi anglatgan tushunchalarning butunlay yuqolib ketishi sababli yoki boshqa soʻzlarning sikuvi, "tazyiqi" bilan faol qoʻllanishdan chiqib, eskirib qoladi. Birinchi holatda tushunchaning oʻzi yuqolib ketgani uchun uni ifoda etgan soʻz kishilarning faol lugʻatida keraksiz boʻlib koladi. Ikkinchi holatda esa muayyan tushunchaning ifodasi boʻlgan soʻzning oʻrnini shu tushuncha ifodasi uchun yana ham qulayroq boʻlgan bopshcha soʻz olishi natijasida oldingi soʻz faol lugʻatdan oʻz-oʻzidan chiqib ketadi. Tilshunoslikda birinchi sabab bilan eskirgan soʻzlar istorizmlar, ikkinchi sababga koʻra eskirgan soʻzlar esa arxaizmlar deb yuritiladi.

Istorizm va arxaizmlar muayyan talab va maqsad bilan nutqda qoʻllanadi. Istorizmlar oʻzoq utmish voqeligi haqida gap borganda, usha davr tushunchalarini nomlash maqsadida nutqda olib kiriladi, chunki ular oʻsha tushunchalarning yagona nomidir, hozirgi tilda uning mukobili yoki sinonimi yuq. Shuning uchun istorizmlar badiiy boʻlmagan har qanday nutq koʻrinishida ham, badiiy nutqda ham mazkur maqsad bilan qoʻllanaveradi. Ular tarixiy davrni real tasvirlash zaruriyati bilan ishlatiladi. Masalan: Har bir mingboshiga oʻntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan boʻlishibdi (Choʻlpon, "Kecha va kundoʻz" romani). Haram doirasi bukun shovqin-suronsiz edi. Podshoxring bir-biriga yaqin, lekin ayrim-ayrim saroylarda yashagan xotinlari shoh xonadoniga mansub bir shahzodaning tuyiga ketishgan edi. Aksar qizlar — kanizaklar sultonning sevikli xotini Xadichabegimni koʻzatib borgani uchun "Bori safid'da, agar oqsochlar hisobga olinmasa, yigirma choqli ayol qolgan edi (Oybeq "Navoiy" romani).

Arxaizmlarning esa hozirgi tilda, albatta, sinonimi mavjud boʻladi. Ana shuning uchun ham arxaizm ishtirok etgan sinonimlar katoridan estetik va kommunikativ

maksadan kelib chiqqan holda yo arxaik so`z, yoki hozirgi tilga oid so`z nutqqa tanlab olinadi. Tabiiyki, arxaik so`z muay- yan estetik vazifa uchun xizmat qiladi. Bu, albatta, badiiy nutqda alohida qimmatga ega. Nobadiiy nutqda arxaizmlarni ishlatishda ma`lum bir me`yorni saqlash lozim, ularning keragidan ortiq ko`p bo`lishi nobadiiy nutqni chuchmallashtiradi yoki tushunilishini qiyinlashtiradi.

Badiiy nutqda arxaizmlar, avvalo, davr ruhini, tarixiy sharoitni ko`rsatish uchun ishlatiladi. Bu holat tarixiy mavzulardagi asarlar tilida ko`p ko`zatiladi. Bunday o`rinlarda arxaizmlar ham xuddi istorizmlar bajargan vazifani bajaradi. Quyidagi misollarda totiq (jazo), ilik (qo`l), taqya (do`ppi) arxaizmlariga e`tibor qiling: Otabek ularning totiqlarini xo`p boplab berdi (A.Qodiriy, "O`tgan kunlar" romani). Iliq o`z o`rnida aziz. Ko`z o`z o`rnida mu`tabar. Agar ko`z bilan iliq bir-biri bilan nizo qilsa, bundan har ikkisi jabr ko`rar (P.Kodirov, "Yuldo`zli tunlar" romani).

Yap-yangi ko`k shohi to`n kiygan ustod yangi taqyaga sallani bejab o`ramoqda edi (Oybeq "Navoiy" romani).

Quyidagi parchalardagi arxaizmlarning qo`llanishini ko`raylik: Kumushbibining sezilar-sezilmas kulimsirashidan yokutdek irinlari ostidagi sadafdek oq tishlari ko`rinib ketdi (A.Qodiriy, "O`tgan kunlar" romani).

Sal shoshib kolganim sezdiyov chog`i,
Kulgudan qimmildi g`uncha dudog`i —
Hozir, tong oldi,
Handalak buyli yor, chilgi rang oldi

(M.Kushmoqov)

Birinchi parchadagi irin arxaik so`zi butun gapga nazokatli, "yumshoq" bir ruh bag`ishlagan. Uning hozirgi tildagi sinonimi bo`lgan lab so`zi qo`llanganda esa ana shu "yumshoqlik" ma`lum darajada yuqolgan bo`lardi. Zotan, behad go`zal va suyak Kumushbibi obrazining o`zi g`oyat nozik bir tasvir tilini taqozo etadi. Xuddi shuningdeq she`riy parchadagi dudoq arxaizmi ham hozirgi tilda lab sinonimiga ega, biroq mazkur parchada ayni arxaik so`zni qo`lash bilan shoir lirik qahramonning intim kayfiyatiga mos keluvchi noziklik ruhini yo`zaga keltirgan. Ko`rinadiki, arxaizmning estetik imkoniyatlaridan yana biri uning badiiy nushchkd na- zokatlilik baxsh eta olishidir.

Nutqqa tantanavorliq ko`tarinkilik ruhini berish arxaizmlarning o`ziga xos estetik imkoniyatlaridan yana biridir. Ular ijodkor tomonidan ayni shu imkoniyat nuqtai nazaridan qo`llanganda, badiiy asar tili alohida rang va jarang kasb etadi, Quyidagi misollarda buni yaqqol kurish mumkin:

Zamon shiddatini qilolmay hisob,
Er chizib turibdi yosh bir munajjim
(A.Oripov, "Kenglik nuqtasi" she`ri).

Sarob girdoblari orqada koldi,
Tole qopqasini qoqdim asabiy
(M.Qo`shmoqov).

Ilk og`och gulladi Qrimda,

Olmaga o'xshatdim isidan

(O.Matjon).

Bu she'riy parchalardagi munajjim (astronom), qopqa (eshik) va og'och (daraxt) arxaizmlari misralarga ko'tarinki ruh bergan.

Arxaizmlar badiiy nutqda hazil-mutoyiba, masxara, kinoya ruhini ham berishi mumkin. Yozuvchi N.Aminovning "Qassob shoir" hajviyasidan olingan mana bu parchaga diqqat qilaylik: Qattiq e'tiroz bildirdim. Qassob o'rnidan turib, chuntak kavlashga tushdi. — Mana bizni ash'or! — dedi shimining ung chuntagidan bir varaq qog'oz chiqarib. — Mana, ana bunisi qizig', sekretar qizga besh so'm berib, mashinkada chop qildirganman. Qishda pavil'onga ot go'shti kelganda yozgan edim. Bu parchada ash'or arxaizmi kinoya, kulgi ifodasi uchun qo'llangan. Qassob o'zining oddiy mashqini ash'or deb ataydi. Ayni paytda u "ash'ori"ni mashinkada chop qildiradi. Hatto u chop qildirmoq so'zini "nashr ettirmoq" deb emas, balki "ko'chirtirmoq" deb tushunadi. Yozuvchi kas- sobni satirik fonda tasvirlaganligi uchun ham uning tilida poetik ifodaga ega bo'lgan mazkur arxaizmni qo'llash bilan kassobning goyat ko'lgili obrazini yaratgan.

Qo'llanilishi chegaralangan so'zlarning yana bir guruhi kasb-hunarga oid so'zlardir. O'lkamizda qadim zamonlardan beri duradgorliq yogochsozliq kulolchilik naqqoshliq zargarliq zardo'zlik temirchilik kashtachilik to'qimachilik poyabzaldo'zlik kabi xilma-xil kasb-xunar tarmoklari taraqqiy topib kelmokda. Albatta, bu sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi bo'lgan ko'plab so'z va birikmalar mavjudki, ular tilshunoslikda kasb-xunar leksikasi nomi bilan umumlashtiriladi. Bu leksika, tabiiyki, mazkur sohalardagi jarayonlarni tasvirlaganda faol qo'llanadi. Masalan, atlas to'qimachiligi tasvirida badiiy matnda ayni sohaga oid so'zlar mana bunday ishlatilgan: Marg'ilonda esa osoyishtalik. Faqat urchuqlar chirillab aylanadi. Taroqlar dam ko'tarilib, dam tushadi. Gulalarning og'zi ochiladi-yopiladi. Dastgohlar tinimsiz harakatda. Mokilar arqoqni sudrab, shaq-shuq borib keladi. Bu "Rivojiya" arteli tsexlaridagi tabiiy jarayon... Do'konlarda tarang tortilgan tandalar yashil kamalakday tovlanib ketdi. Ko'li ko'luga tegmay ipak qatimlarini terayotgan qiz-juvonlarning chehralarida ham ajib bir tarovat barq urdi. Saylixon ohor purkadi. 'Nozik taralgan tandani kuch bilan tortib, yug'on novvoyga o'rarkan, yo'z-ko'ziga tushgan iliq shu'ladan a'zoyi badani jimirladi (S.Anorboev, "Sayli" romani).

Ta'kidlash joizki, mazkur kasb-hunar sohalari u yoki bu darajada xalqning kundalik hayoti bilan bog'liq. Aytayliq arra, tasha, bolta, randa, parma kabi bir qancha so'zlar duradgorlikka oid bulsa-da, o'lar kundalik hayotda ishlatiladi, demakki, bu so'zlar nutqiy muloqotda anchayin faol qullanishi tabiiy. Ammo kasb-xunar sohalari yurtimizning turli hududlarida mavjudligi hisobga olinsa, ularga oid so'zlarda sezilarli shevaviy farqlar bo'lishini ham tasavvur etish mumkin. Masalan, Farg'ona, Toshkent, Samarkand, Buxoro shevalaridagi g'ulabur arra, dastarra, iskana, parma, bolg'a, andova, qirg'ich kabi so'zlar bilan ifodalangan duradgorliq qo'ruvchilik predmetlari Xorazm shevasida yorg'i, bichqi, qachov, burov, cho'kich, yulmola, siyxoh kabi so'zlar orqali ifodalanadi. Bu holatni nazardan qochirmaslik lozim. Kasb-hunarga oid so'zlarni nutqqa olib kirish zaruriyati paydo bo'lganda, muayyan bir shevada emas, balki nisbatan ko'proq shevalarda qo'llanadigan, shunga ko'ra til me'yorlariga anchayin yaqinlashgan so'zlarni tanlash maqsadga muvofikdir. Xususan, keltirilgan

misollardagi arra, iskana, parma, bolg'a, andova, qirg'ich kabi soʻzlar keng tarqalgan, shuning uchun tegishli mazmun ifodasi uchun aynan ulardan foydalanish nutqning aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qo'llanilishi chegaralangan soʻzlarning yana bir katta guruhi terminologik leksikadir. Terminlar muayyan bir ilmiy yoki texnik tushunchaning yagona nomi sifatida nutqning aniqligini ta'minlashda behad muhim ahamiyatga ega bo'lgan soʻzlardir. Aniklik talabi nutq uslublarining barchasiga kuyilsa-da, bu talab ularning hammasida ham bir xil darajada bo'lmaydi. Ayni talab rasmiy, publitsistik va ilmiy uslublarda alohida salmoq kasb etadi. Ayniqsa, ilmiy uslubda aniklik sifati birlamchi va bosh talab sifatida qaraladi. Ilmiy nutqning aniq va ravshan bo'lishi har Qanday fan rivoji uchun xal qiluvchi ahamiyatga molik bo'lgan zaruriyatdir. Ilmiy nutq aniqligining asosiy ustunlari- dan biri esa, shubhasiz, terminlardir. Har qanday ta'limning bosh maqsadi muayyan fan asoslarini o'quvchi ongiga joylashtirish ekan, ta'lim jarayonida, xususan, uqituvchining nutqiy faoliyatida terminlarning o'ri benihoya kattadir. Fanni chuqur bilmasdan to'rib, uning terminlarini etarli darajada bilish mumkin emas. O'z fanini mukammal biladigan o'qituvchi bu fanga oid terminlarning ma'no- mohiyatini tula biladi, demaq o'z nutqida ularni o'rinli qo'llashda yanglishmaydi, u yoki bu terminni noto'g'ri ishlatib, o'quvchisini ham adashtirmaydi. Aytish mumkinki, terminni yanglish qo'llashning bosh sababi ukqituvchi yoki mutaxassisning fanni yaxshi bilmasligidan boshqa narsa emas.

Albatta, terminning "yashash joyi" o'zi mansub bo'lgan fan yoki texnika sohasiga oid nutq (matn)dir. Lekin fan-texnika va uning yutuklarining kundalik hayotimizga muntazam kirib borayotgani bois minglab terminlar tilimizda faol qo'llanmokda yoki mutaxassis bo'lmagan kishilar tomo- nidan ham bemalol tushuniladigan bo'lib qolmokda, ya'ni ular "yashash joyi" ni sezilarli kengaytirmokda. Masalan, ukol, gripp, narkoz, kardiogramma, travmatologiya kabi tibbiyotga, aktyor, saxra, rol, grim kabi san'atshunoslikka, rul, tormoz, dvigatel, podshipniq korbyurator kabi texnikaga oid terminlarning ma'nosini butun har kim tushunadi. Quyidagi parchada ishlatilgan texnik terminlarga e'tibor Kiling: Svechasi yaramaydi. Zurt shatgacha yurgizib kelganman... Motor hamon ishlab to'rardi... Shundan keyin Shahlo bir g'ildiragi chiqazilib, o'qi tunkaga tirab kuyilgan traktor yoniga keldi.

Nima bupti?

Podshipmigi eyilib ketgan.

Essiz, shuncha pullik mashina. O'zellari moy degan narsani ko'rmagan (Sayid Ahmad, "Bahor kizlari" hikoyasi).

Ilmiy nutqda terminlarning o'rinli qo'llanishi fikrning aniq, ixcham, ikki xil talkinga yul bermaydigan tarzda ifodalanishiga yordam beradi. Ammo shuni ham unutmashlik kerakki, nutqda terminlarning me'yoridan ortiq qalashib ketishi nutqning tug'ri va oson anglanishini qiyin- lashtiradi.

Ilmiy mulokot tili haqida gap ketganda, gumanitar fanlar bayonida tabiiy til vositalarining asosiy rol uynashi, tabiiy fanlarda esa qo'shimcha semiotik sistemalarning ham muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi, Masalan, matematika, fizika, ximiya kabi aniq fanlarda turli formulalar, shartli belgilar va boshqa maxsus semiotik ishoralar muntazam qo'llanadigan unsurlardir, Shuning uchun ham tabiiy fanlarga va gumanitar fanlarga oid matnlarda terminlarning qo'llanish me'yorlarida sezilarli farq

bo'lishi tayin. Tabiiy fanlar mohiyatan ko'proq mutaxassisga mo'ljallangan, gumanitar, ijtimoiy-gumanitar fanlar esa, nomidan ham anglashilganiday, tor soha mutaxassislari- gina emas, balki keng ommani, jamiyatning barcha a'zolarini nazarda tutishi maqsadga muvofikdir. Atoqli qozoq shoiri, qadimgi yozma yodgorliklarning ajoyib tadqiqotchisi Oljas Sulaymonov "Yozuv tili" nomli kitobida bu borada haqqoniy fikrlarni bildirgan. Uningcha, fizika va matematikaning maxsus tilga ehtiyoji bor. Ammo bunday "jid- diy fanlar"ga ayni ehtiyoj nuqtai nazaridan takdid qilish gumanitar fanlarni, ayniqsa, tilshunoslikni halokatga olib keladi. Tilshunoslikni me'yoridan ortiq terminlashtirish foydali bulolmaydi, hozir tilshunoslik terminlari lug'atlari hatto ba'zi tabiiy til lug'atlaridan hajman katta. Bu uslub juda kulay, ammo "fanbozlik" fanning o'rnini bosa olmaydi. Platon va Aristotellar o'z asarlarini aniq va ravshan yozgan edilar, ularning asarlariga bag'ishlangan ayrim dissertatsiyalarni o'qish mumkin, lekin bu ishlarning mazmunini anglash mushkul. O. Sulaymonov yana shunday deb yozadi: "Ijtimoiy fanlar o'z tabiatiga ko'ra jamiyatga, hech bo'lmaganda, umumiy tarzda tushunarli bo'lishi lozim, aks holda ular o'z vazifasini bajara olmaydi". U yoki bu fan soxosiga oid matn to'zilar ekan, matnga terminlar olib kirilar ekan, albatta, ayni muloxozalarni e'tiborda tutish kerak. Ijtimoiy-gumanitar sohalarga oid nutqda terminlar xaqqoniy zaruriyatga muvofiq tarzda qo'llangandagina nutqning aniqligi uchun xizmat kiladi.

Aniqlik sifati badiiy nutqda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, chunki badiiy asar, ma'lumki, badiiy tafakkur mahsulidir. Yul-yulakay ko'rib o'tilganiday, badiiy nutqda obrazlilik birinchi planda bo'lganligi uchun so'z ma'nosidagi siljishlar, ko'chishlar ko'p ko'zatiladi. So'z va u ifodalagan predmet o'rtasidagi mutanosiblik badiiy nutqda ko'pincha ochiq va to'g'ridan-to'g'ri bo'lmaydi. Badiiy nutq o'zining ta'sir etishdan iborat asosiy maqsadiga erishish uchun so'zning turlicha qullanishi, tovlanishi, turlanishi, xil- ma-xil ma'nolarni ustiga olishiga keng imkoniyat yaratadi.

O'.Hoshimovning "Ikki eshik orasi" degan romani bor, ammo, aniqki, roman ikkita eshik va ularning orasidagi masofa haqida emas. Neytral nutq nuqtai nazaridan qaralsa, mazkur birikma aynan shu ma'noni ifodalaydi, ammo badiiy nutqda bu birikma umrning qisqaligini ifodalovchi o'ziga xos benixoya aniq obraz.

Badiiy nutqda so'zlar o'z va hatto kuchma ma'nolaridan tashkari ham o'ziga xos yangidan-yangi ma'no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada anikligini ta'minlashi mumkin. Mana bu jumlagaga e'tibor beraylik: Miryokub g'uro'ring kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yo'zini ham nuqrtalab oldi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Bu gapdagi g'uro'ring kaltaklanishi va kular yo'zini nuqtalamoq birikmalaridagi ajratilgan so'zlar kasb etgan ma'no nozikliklari (g'uro'rni azobli darajada poymol kilish, keskin va tamoman to'xtatmoq) bilan matnga ham anikliq ham ta'sirchanlik baxsh etgan.

Neytral nutqda Qor yonadi deyilsa, nutqning aniqligi bo'zilgan bo'ladi, chunki qor yonmaydigan narsa. Bunda til va voqelik mutanosibligi tamoman muvozanatdan chiqqan bo'ladi. Zakiy tilshunos A.Rustamov tavsiflaganiday, qalovini topsang o'tin yaxshi yonadi deyish mumkin, bu til qoidalariga tamoman muvofiq. "Biroq inson tab'i bu bilan to'la ravishda qoniqmaydi. Uning tab'idagi go'zallikka bo'lgan ehtiyoji shu gapni go'zallashtirishni talab qila boshlaydi. Bu bir yuq buyumning oldin o'zini yasab,

keyin uni chiroyli qilishga bo'lgan intilishning aynan o'zi. Shu talab bilan o'tin so`zini qor so`zi bilan almashtiradi-da, qalovini topsang, qor yonar deydi. Shu bilan u mazkur gapga go'zal tus beradi. Eshitganlarga bu yoqadi. Kishi o'ziga yoqqan narsani yuqotmaslikka harakat qiladi va xalq buni maqol qilib asrab yuradi."3 Bunday xolatda ta'kidlangan til va voqelik mutanosibligi o'ziga xos badiiy bir shaklda namoyon buladiki, bu o'rinda uning bo'zilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Badiiy nutqda so`z ijodkorning uslubi, tarixiy davr, adabiy oqim va yunalishlarga bog'liq holatda mavjud ma'nosidan farkli ma'nolar olishi, muayyan tushunchalarning obrazi yoki ramziga aylanishi ham mumkin. A.Rustamov bu munosabat bilan shunday yozadi: "Mayu mayxona va soqiyu paymona kabi so`zlarning klassik adabiyotda istiora sifatida qo'llanishini bilmaganlar, masalan, Navoiyning:

Zohid, senga xuru menga jonona keraq
Jannat senga bo'lsun, menga mayxona kerak.
Mayxona aro soqiyu paymona keraq
Paymona necha bo'lsa, tula yana kerak

degan ruboiysini o'qiganda, Navoiy ichkilik tarafdori ekan, degan xulosaga kelishi mumkin. Ko'pgina yoshlarimiz Sharq adabiyoti klassiklarining she'rlarini o'qiganda, may, sharob kabi so`zlarning istiora sifatida qo'llanishini hisobga olmaslik natijasida ichkilik va klassik shoirlarimizning ichkilikka bo'lgan munosabati hakida noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladilar... May so`zi haqiqat ma'rifati, unga bo'lgan ishqu muhabbat va uni idrok qilgandagi lazzatni bildiradi... Navoiy ...mayxona deganda ichkilikxonani emas, haqiqat oshiqlarining vaslgohini nazarda tutgan. May va mayxonaning ramziy ma'nolari ayon bo'ldi. Navoiyning Menga mayxona kerak deganda uning qovoqxona yoki vinoxona, umuman, ichkilik bor joyni nazarda tutmagani ma'lum bo'ldi. Navoiy o'z salafari singari mayxona deb ma'rifat hosil bo'ladigan erni tushunar va uni jannatdan afzal ko'rar ekan."

Nutqning aniqligi sifati badiiy nutqda mutlakr o'ziga xos tarzda, obrazning aniqligi va o'rinliligi tarzida namoyon bo'ladiki, bu badiiy adabiyotning mohiyati bilan bevosita alokadordir.

IV-Ma'ruza : Nutqning mantiqiyligi

Reja:

1.Narsa va tushuncha mantiqiyligi

2.Nutq mantiqiyligiga zid holatlarda

3.Matn to`zilishi va nutq mantiqiyligi

Mantiqiylik nutqning tinglovchi tomonidan to'g'ri va to'liq anglanishi uchun zaruriy bo'lgan sifatlardan biridir. Mantiqiylikdan maxrum bo'lgan biron-bir nutq kishilar o'rtasidagi tayinli aloqani ta'minlay olmaydi. Nutqning mantiqiyligini tug'rilik va aniklik sifatlaridan ajralgan holda ham tasavvur etib bo'lmaydi, chunki tug'ri va aniq bo'lmagan nutq hech qachon mantiqiy bo'lishi mumkin emas. Zotan, tug'ri va aniq bo'lmagan nutqdan mantiqiylikni izlab topib bo'lmaydi. Adabiy til me'yorlariga zid tarzda to'zilgan va tegishli birliklar noo'rin tanlangan nutqda mantiq begona bo'lishi tabiiy.

Fikr tarkibi va ko'rilishining tug'ri ifodalanishi nutq mantikdyligining asosi deyish mumkin. Nutqda til vositalarining mantiq va tug'ri tafakkur konuniyatlariga mos tarzda mazmuniy birikishi nutq mantiqiyligini baholashning bosh o'lchovi hisoblanadi. Ana shunga ko'ra mantikiylik sifatini nutqda so'zlar va gaplar o'rtasidagi semantik aloqalarning fikrning mantiqiy mohiyati hamda uning rivojlanib borishiga qat'iy mosligi tarzida ta'riflash maqsadga muvofikdir.

Aytish mumkinki, nutqning mantiqiyligi struktura nuqtai nazaridan ko'proq tilning sintaktik sathi bilan bog'likdir. Boshqacha qilib aytganda, nutq to'zuvchi nutqning mantiqiyligiga erishishi uchun til birliklarining sintagmatik (qo'shilish) imkoniyatlarini yaxshi bilishi lozim. Lekin buning o'zigina etarli emas. So'zlovchi (yozuvchi), eng avvalo, bayon etmoqchi bo'lgan fikrini, bildirmoqchi bo'lgan xabarini va u bilan bog'liq tafeilotlarni, ayni paytda mantiq konuniyatlarini etarli darajada tasavvur etmas ekan, u mantikdi nutq to'za olmaydi. Bu o'rinda nutq to'zuvchining tafakkur qobiliyati juda-juda muhimdir. Ko'rinadiki, nutqning mantiqiy bo'lishida ham lisoniy, ham g'ayrilisoniy omil ishtirok etadi.

Nutq madaniyati tushunchalarini ifodalovchi so'zlarga terminologik ma'no yuklashga alohida e'tibor qaratgan B.N.Golovin narsa mantikliyligi va tushuncha mantikiyliyiii farqlash maqsadga muvofikligini ta'kidlaydi. Uning ko'rsatishicha, narsa mantiqiyligi nutqdagi til birliklari mazmuniy aloqalari va munosabatlarining real borlikdagi narsa-hodisalar aloqalari va munosabatlari bilan mutanosibligidir. Tushuncha mantiqiyligi esa mantiqiy fikr tarkibi va uning mantiqiy rivojining nutqdagi til unsurlarining semantik aloqalarida to'g'ri aks etishidir. Mantiqiylikning bu ikki ko'rinishi bir-biri bilan bog'liq va konkret nutqda ular birlikda namoyon bo'ladi, lekin ertaq badiiy fantastika, majoziy asarlar kabi alohida nutq ko'ri- nishlarida narsa mantiqiyligidan ataylab voz kechilishi mumkin.1 Masalan, ertaklarda hayvonlar, turli buyumlar, o'simlik va shunga o'hshashlarning odamlarday gapirishi, kulishi, uylashi va boshqa harakatlarida narsa mantiqiyligi ataylab bo'zilgan bo'ladi, ammo tushuncha

mantiqiyliги sog'lom saklanadi. Mavjud an'anaga ko'ra bunday holatlardagi nutqda mantiqlik bo'zilgan deb qaralmaydi, mazmun to'g'ri anglashilaveradi.

Mantiqlik nutqning maqsad nishoniga bexato etishini, bu nishonni ortiqcha o'rinishlarsiz zabt etishini ta'min etadigan sifatlardandir. Mantiqiy nutq fikr tarkibini to'g'ri va aniq aks ettirishi bilan ta'sirchanlik kasb etadi, ayni paytda u tinglovchi idrokini zuriqtirmaydi. Har qanday mantiqiy fikr qanchalik murakkab bo'lmasin, nutq to'zuvchining mahoratli ko'magi bilan o'ziga loyiq va yarashikli, demakki, mantiqiy libosini kiya bilsa, tinglovchi shuuri uni osonlik bilan o'z bag'riga oladi.

Ulug' Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" asarida shunday bir voqeani hikoya qiladi. Bahorning yomrirli kunlaridan birida u "Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ul-kalom" Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Mavlono Lutfiy Amir Xusrav Dexlaviyning bir she'ridagi go'zal ma'no va o'xshatish haqida juda ham maqtov bilan gapirib beradi, ya'ni: "Mahbuba yomg'irli kunda yulda tiyganib yiqilib ketay deydi. U shu qadar go'zal va nozikki, yogayotgan yomrir rishtasini o'shlab, uning madadi bilan o'zini o'nglab oladi". Bu ta'rif Navoiyga behad ma'kul tushadi. Saroydagi oliy adabiy majlislarining birida Navoiy bu o'xshatish haqida shoh Xusayn Boyqoro xo'zurida gapirib, shohning ham hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqoro "Yuqoridan pastga tushayotgan yong'in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo'la olmaydi" deb, e'tiroz bildiradi. Navoiy Boyqoroning o'tkir va nozik mantig'i va she'rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qoladi. Shoh va shoir Husayn Boyqoro mazkur o'xshatishda tushuncha mantiqiylikdagi bo'zilishni ilg'agan.

Katta iste'dod sohibi shoir Xurshid Davronning bir she'rida shunday misralar bor:

Har so'zimni ko'ng'iroqning tillari. kabi

Yuragimga urib-urib jaranglataman...

Ko'rinib turganiday, juda ham chiroyli, benihoya original, yangi o'xshatish, tasvir kuchli emotsionallikka ega. Parchada g'oyat ohorli badiiy obraz mavjud. Ammo shunga qaramasdan, bu erda ham tushuncha mantiqiylikdagi muayyan saqталikni sezmaslik mumkin emas. Bilamizki, odatda ovoz chiqaradigan qism qung'iroqning korpusi, ya'ni kung'iroqning tillari jaranglamaydi, qung'iroqning o'zi jaranglaydi. Demaq mantiqqa ko'ra "so'zni kung'irokding tillari kabi yurakka urilsa", so'z emas, balki yurak jaranglashi kerak. Mantikdagi nomuntazamlilik benihoya go'zal obraz va tasvir muvozanatining ham muallaklashuviga olib keladi.

Maktab ona tili ta'limida o'quvchilarda bog'li nutq malakalarini shakllantirishga, ijodiy va mustaqil matn to'zish kobilyatini o'stirishga katta e'tibor beriladi. Bu malaka va qobilyatlarning tarkib topishi va rivojlanishini mantiqiy nutq tushunchasiz tasavvur ham etib bo'lmaydi. Mantiqiy nutq to'zish bog'li nutq to'zish, ijodiy matn yaratishning birlamchi asosidir. Buni, qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar har bir o'qituvchi hamisha yodda tutmog'i lozim.

Mantiqiy nutq to'zish uchun so'zlovchi fikr predmetini atroflicha bilish, mantikiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo'lish kabi g'ayrilisoniy talablar bilan bir qatorda til birliklarining leksik-semantik mohiyati, ularning sintagmatik xususiyatlari kabi lisoniy bilimlarni ham nazardan qochirmasligi kerak. Aytayliq so'zlarning jumla tarkibida mantikdy-mazmuniy zidaiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg'un qo'llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini etarli darajada bilish lozim.

Ushbu jumlaning mantiqiy deb aytish qiyin: Ona Tereza doim o'zini Ollah ko'lidagi siyohman, deb ta'kidlab kelgan ("Bekajon", 2006 yil 24 avgust), Ma'lumki, ona Tereza xristianlikning katolik mazhabiga e'tiqod qilgan rohiba, Ollah esa islomiy tushuncha, shunday ekan, u mantiqan Ollah qo'lidagi siyohman deya bilar (xudo so'zi barcha dinlardagi yaratuvchiga nisbatan qo'llanadi). Ollah so'zining leksik-semantik mohiyatini yaxshi bilmaslik natijasida mazkur nutqda mantiq bo'zilgan.

Mana bu jumladan mantiq izlab ko'raylik: Ilm-fanda faraz qilish yoki uylab chiqarishga o'rin yuq. Fanning rivojlanishi faqat kashfiyotga bog'lik. Fonda fikr bildirish, ishonaman deyish — bilmagan bilan barobar ("Hurriyat", 2006 yil 5 iyul). Birinchi jumlada faraz so'zining leksik-semantik mohiyati yanglish anglangan, ya'ni faqat mavxumlik tarzida tushunilgan. Aslida bu so'zning ma'nosi anchayin keng, ya'ni "biror narsa-hodisa haqida oldindan chiqarilgan taxminiy hukm, mulohaza, gipoteza" demakdir. Ushbu jumlada bu ma'no yaqqol namoyon bo'lgan : Fan uchun tajriba va faraz, qiyos va taxlil juda zarur, - dedi professor (B.Rahmonov, "Xurmat-ehtiro"). Aytish joizki, farazeiz, gipotezasiz fanning o'zi yuq, shuning uchun ham fanshunolikda faraz, gipoteza ilmiy bilimning o'ziga xos alohida shakli sifatida ta'riflanadi.⁴ Keyingi jumlar va bu jumlar o'rtasidagi munosabatda ham mantiq u qadar cog'lom emas. Tug'ri, fanning rivojlanishi kashfiyotlarga bog'liq, ammo kashfiyotlar uchun ayni farazlar, tajribalar, fikr bildirishlar zamin hozirlaydi. Bu o'rinda nutq mantiqiylikning mo'rtlashuvida lisoniy omillar bilan bir qatorda g'ayrilisoniy omillar, ya'ni fikr predmetiga oid tasavvurlarning etarsizligi ham rol uynaganligi tabiiy.

So'zlarda ifodalangan tushunchalar o'rtasidagi munosabatni tug'ri tushunmasdan turib, bu so'zlarni o'zaro aloqalantirish ham mantiri noraso jumlalarining shakllanishiga olib keladi. Mana bu gapni ko'raylik; Surxon vohasiga qarashli Sherobod tumanining tog'li xududida "Xatak" posti joylashgan ("Darakchi", 2006 yil 24 avgust). Ma'lumki, voha so'zi "atrofi saxro bilan o'ralgan obod, suvli o'lka" ma'nosi bilan geografik-hududiy tushunchani bildiradi, tuman esa ma'muriy-hududiy tushuncha ifodasidir. Mantiqan bu ikki tushuncha o'rtasida tobeliliq qarashlilik munosabati bo'lishi mumkin emas, chunki ular farqli satxlarga mansub tushunchalardir. Ma'muriy-xududiy bo'linish ierarxiyasiga ko'ra tuman viloyatga, viloyat respublikaga qarashli, shunga ko'ra Surxondaryo viloyatiga qarashli Sherobod tumani deyish yoki vohani ta'kidlash zaruriyati bo'lsa, Surxondaryo vohasidagi Sherobod tumani tarzida birikma to'zish lozim, ana shunda jumlaning mantiqiylikni mo'rt bo'lmaydi.

Bir-biriga mantikan tamoman zid, qarama-qarshi bo'lgan , shuning uchun o'zaro aloqalantirilishi mumkin bulmagan tushunchalarni ifodalovchi so'zlarni jumlada munosabatga kiritish natijasida mantiqiylik bo'zish, hatto kulgili holatlar yo'zaga chiqishi ham ba'zan ko'zatiladi. Masalan, "qiyalik" va "chuqurlik", "chuqurlik" va "balandlik" kabi tushunchalar bir-biriga zid yoki, kamida, biri ikkinchisiga nisbatalanmaydigan tushunchalardir. Shuning uchun ham qiyalikning chuqurlik, chuqurlikning balandligi, chuqurlikning o'zunligi kabi birikmalarda mantiq sog'lom

emasligi anik. Hech bo'lmaganda, chuqurlik degani "satxdan pastlik", balandlik esa "satxdan yukorilik" ekanligi tasavvur etilsa, bu ikki so'zni ko'shish mantiq muvozanatini qanchalik bo'zishi va kulgiga sabab bo'lishini anglash qiyin emas. Bunday mazmu- niy nosog'lom birikmalar qo'llangan ushbu parchada nutqning mantiykiyligi haqida gapirib bo'lmaydi: O'zbekiston geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi bergan axborotga ko'ra, meteoritning qulashi shu qadar kuchli bo'lgan-ki, uning natijasida elliptik shakldagi qiyalik paydo bo'lgan. Qiyalikning chuqurligi taxminan 40 metrni, o'zunligi 10 kilometrni, eni 7 kilometrni tashkil etadi. Yo'zaning shimoli-g'arbida balandligi 60 metr va o'zunligi 1 kilometr bo'lgan chuqurlik paydo bo'lgan ("Darakchi", 2006 yil 24 avgust).

Ba'zan uyushiq bo'laklarni qo'lashdagi mantiqiy-mazmuniy xatoliklar tufayli ham nutqning mantiykiyligiga putur etishi ko'zatiladi. Bir xil harakat-holat, belgiga mantiqan ega bo'lishi mumkin bo'lmagan narsa-hodisalarni ifodalovchi so'zlar uyushiq bo'laklar tarzida qo'llanadi va narsa-hodisalarning biriga nisbatlanishi mumkin bo'lgan harakat-holat, belgi ularning barchasiga tegishli bo'lib qoladi. Buning natijasida jumlada mantiq bo'ziladi. Masalan, ushbu jumlagi diktat qilaylik: Buldozer, "Zil" avtomashinamiz miltiqning o'qiday uchadi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 20 iyun). Jumlada buldozer va "Zil" avtomashinamiz so'zlari bilan ifodalangan egalar uyushik holatda qo'llangan. Ular bildirgan narsalarning har ikkalasiga xam kesim vazifasidagi uchadi so'zi ifodalagan harakat nisbatlangan. Holbuki, buldozer bu harakat (buning ustiga, miltikning o'qidayni) bajarishga mantiqan qodir emas, u "uchish" u yokda tursin, hatto tez yura olmaydi. Ayni shu o'rinda mantiq muvozanati bo'zilgan.

Quyidagi jumlada ham uyushiq bo'laklar orqali ifodalangan tushunchalar bir xil xarakterga ega emas, ularning bir sathga tizilishi mantiqiylikka ziddir: Hikoya va suhbatdan tashqari, o'zbek tilini yaxshi o'rganish, unga qiziqishni uyg'otish maqsadida til o'rganishga oid uyinlar, kichik-kichik she'rlar, badantarbiya va ashulalar berib boriladi (S.Jo'raev, H.Qodirov). Uyin, she'r, ashulalarning berib borilishini tasavvur qilish mumkindir, ammo badantarbiyaning "berib borilishi" mantikdan tashqari ekanligi aniq.

Mashxur yunon allomasi Aristotel o'zining "Ritorika" asarida yuqoridagi kabi holatlardagi xatoliklarga alohida e'tibor beradi. Uning ta'kidlashicha, bir-biridan farqli ikki tushunchaning ham unisi, ham bunisiga birdaniga muvofiq kelmaydigan belgini qo'lash xatodir, masalan, tovush va rang uchun ko'rmoq ifodasi mos emas, ilg'amoq ifodasi esa mosdir. Zotan, rangni ko'rish mumkin, tovush esa eshitish orqali idrok etiladi. Ilg'ash esa ularning har ikkalasi uchun ham umumiydir.

Jins — tur munosabatidagi tushunchalarni ifodalovchi so'zlarning uyushiq bo'laklar vazifasida qo'llanishi ham nutqning mantiqiylikka xalaqit beradi. Ushbu jumlagi e'tibor beraylik: Shu qisqa vaqt ichida shogirdlarim bilan bir nechta xalqaro musobaqa va to'rnirlarda ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritdik ("O'zbekistan ovozi", 2006 yil 29 iyun). Ma'lumki, yaxshi natijaga erishganlarni aniqlash maqsadida uyushtiriladigan har qanday bellashuv musobaqa deyiladi, to'rnir esa qatnashuvchilarning har biri ma'lum tartibda barcha qatnashuvchilar bilan bir martadan uchrashadigan musobaqadir. Shunday ekan, musobaqa so'zi jins tushunchani, to'rnir esa to'r tushunchani bildiradigan so'zdir, ya'ni to'rnir

musobaqaning bir turidir. Bu tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarning uyushiq boʻlaklar sifatida qoʻllanishi, ular oʻrtasida tenglanish munosabatining boʻlishi mazkur tushunchalar jins — tur munosabatida emas, balki mustaqil, teng munosabatdadir degan mantiqan yanglish talqinga yul ochadi va nutq mantiqiylikdan mahrum boʻladi.

Mazmunan bir yoki yaqin boʻlgan til birliklarini muayyan uslubiy maqsadsiz ortiqcha, takror qoʻllash ham nutqning mantiqiyligiga soya soladi, Bunday holatlarda muayyan bir maʼnoning keraksiz ikki marta ifodalanishi natijasida tavnologiya yoʻzaga keladiki, bu mantiq nuqtai nazaridan xato sanaladi. Masalan: Tarbiyachi ikki koʻlini yuqori koʻtarib, "Bu darsxona" deb qarsak chaladi. Bolajonlar bu mashqni ham takrorlaydilar. Tarbiyachi ikki koʻlini kuyi tushirib, "Bu er" deb harakat qiladi (S.Joʻraev, H.Qodirov). Tabiiyki, koʻtarmoq soʻzida "yuqoriga" degan maʼno, tushirmoq soʻzida esa "kuyiga" degan maʼno mavjud, keltirilgan misoldagi ajratib koʻrsatilgan birikmlarda ayni maʼnolar ikki marta takror, yaʼni tavnologik ifodalangan. Holbuki, kuyiga koʻtarmoq yoki yuqoriga tushirmoq deb boʻlmasligi aniq.

Quyidagi misollarda ham ana shunday tavnologik qoʻlashlar nutq mantiqiyligining boʻzilishiga olib kelgan: ...Chul kuynida tashkil etilgan bunday zagonlarda mol soyalaydigan soya, qish qaxratonida esa panaroq joy boʻlmadi ("Oʻzbekiston ovozi", 2006 yil 17 iyun). Saboq darsi (rukn) ("Tong yuldoʻzi", 2006 yil 18-24 sentyabr). Oʻn kishiga moʻljallangan mazkur maxsus joylarning har birida oʻntadan odam uyinlarni bemalol tomosha qilishi mumkin ("Xalq soʻzi", 2006 yil 21 iyun). Imzoga kul kuyish mahalida gurs etib erga kuladi ("Xonadon", 2006 yil 21 avgust).

Nutq mantiqiy boʻlishi uchun fikrning ifodalanishiga zaruriy boʻlgan soʻzlarning barchasi jumlada ishtirok etishi lozim. Ixchamliq qisqaliq lundalikka keragidan ortiq intilib, baʼzi soʻzlarning tushirib qoldirilishi nutqdagi mantiqiylik sifatining izdan chiqishiga olib keladi. Mana bir misol: Tarbiyachi: Bolajonlar, endi urgangan soʻzlaringizni bir chizib beringlar-chi? deb vazifa topshiradi. Bolalar qalam va daftarlarini olib, chiza boshlaydilar (S.Joʻraev, X.Qodirov)- Oddiy mantiqqa koʻra, soʻz chizilmaydi, balki yoziladi, rasm esa chiziladi. Mazkur jumlada ham rasm chizish haqidagi fikr aytilmoqchi. Aslida bu fikr ifodasi uchun Urgangan soʻzlaringiz ifodalagan narsalarning rasmini chizib bering tarzida jumla kurulishi kerak edi. Ehtimolki, nutq toʻzuvchi ixchamlik maqsadi bilan bir necha soʻzni tushirib qoldirib, oʻz nazdida shaklan ixchamlikka erishsa erishgandir, lekin mantikda jiddiy putur etgan. Mantiqning mujmalligi, nodurustligi hisobiga yoʻzaga keladigan ixchamlik yoki lundalik nutqiy aloqa uchun aslo foydali emas, balki tamoman zararlidir.

Muayyan bir soʻzning tushirib qoldirilishi ham nutqdagi mantiq muvozanatining yaxshigina boʻzilishiga olib kelishi mumkin. Mana bu jumlaning koʻraylik: Nazarimda, nimani qanday yozish kerak degan azaliy muammoning qalovi topilgani, materiallar did bilan saralanib, xalqona ravon tilda yoritilgani taxririyatga koʻl kelmoqda ("Xurriyat", 2006 yil 24 may). Bu gapda "xalqona ravon tilda yoritilgan" narsani ifodalaydigan soʻz tushib qolgan, uning oʻrni borligi bilinib turibdi. Ayni boʻsh oʻrin bunday sintaktik koʻrilishlar konuniyatiga koʻra oldingi ravishdosh oborot tarkibidagi materiallar soʻzi tomonidan mazmunan egallanadi, yaʼni materiallar xalqona ravon tilda yoritilgani tarzida anglanadiki, bunda mantiq sogʻlom boʻlmaydi. Zotan, material yoritilmaydi, balki materialda xalq hayoti, xoʻjalik faoliyati, odamlarning orzu-umidlari, umuman, u yoki bu mavzu yoritiladi. Yoritmoq soʻzining kuchma maʼnosi "yozib bayon qilmoq,

tasvirlamoq, mohiyatini ochib bermoq" demakdir. Shuning uchun bu kabi halatlarda tegishli soʻz tushirib qoldirilmasdan, masalan, mavzular... yoritilgani tarzida aniq qoʻllanishi maqsadga muvofiq (Bu oʻrinda mazkur misoldagi muammoning qalovi topilgani ifodasining ham u qadar muvaffaqiyatli emasligini taʼkidlamoq joizdir).

Gapda soʻzlar tartibining tugʻri, tilning sintaktik tabiatiga uygʻun boʻlishi mantiqiy nutq toʻzishda jiddiy ahamiyatga molikdir. Soʻz tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikki yoklama anglanishiga sabab boʻladi. Masalan: Loqaydlik tufayli koʻrsak ham indamaymiz ("Xurriyat", 2006 yil 24 may). Bu jumladagi soʻz tartibidagi saktalik sabab fikr ikki xil tushunilishi mumkin, yaʼni "loqaydlik tufayli koʻrish" (bu, albatta, mantiqqa zid) va "loqaydlik tufayli indamaslik". Aslida ifodalanmoqchi boʻlgan fikr ularning ikkinchisi. Jumladagi soʻz tartibi Koʻrsak ham loqaydlik tufayli indamaymiz tarzida toʻzilsa, mantiq oʻzining tugʻri ifodasini topadi.

Nutq mantiqiyligining boʻzilishi matn sintaksisi sathida, yaʼni jumalarning oʻzaro semantik-sintaktik bogʻlanishidagi nodurustliklar natijasida ham koʻzatiladi. Maʼlumki, matn tarkibidagi jumlar bir-biri bilan bogʻlangan boʻladi, shunga koʻra bogʻli nutq tushunchasi mavjud. Matnda bogʻlilikning uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq. Birinchi jihat mazmuniy bogʻlilik boʻlib, u abzats va mustaqil jumalarni bogʻlovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, koʻrsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi) ning qoʻllanishi orqali namoyon boʻladi. Ikkinchisi mantiqiy bogʻlilikdir, u jumlar, abzatslar oʻrtasidagi mantiqiy munosabatlarning funktsional-sintaktik vositalar (demaq shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas kabi kirish soʻzlar, yuqorida, quyida, endi, bundan keyin kabi soʻz va soʻz shakllari, va hamda, ammo, lekin, biroq kabi bogʻlovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon boʻladi. Nihoyat, uchinchi jihat kompozitsion bogʻlilik boʻlib, u qayd etmoq lozimki, aniq, taʼkidlamoq joizki, yuqorida aytib oʻtilgani kabi tarzidagi sintaktik koʻrilmalar yordamida ifodalanadi.

Mana bu nutqiy parchaga eʼtibor beraylik: Tarbiyachi bolalarga tushunarli boʻlishi uchun kitobni olib, xontaxta tortmasiga (tagiga) kuyadi va: "Kitob xontaxtada", deydi. Shu jumlaning yakka tarzda Nargiza, Madina, Ulugʻbekka aytiradi va hamma bolalar birgalashib aytadilar. Tarbiyachi kitobni xontaxta ustiga kuyib, "Kitob stol ustida", deydi (S.Joʻraev, H.Qodirov). Bu parchada jumlar oʻrtasidagi bogʻlilik mazmuniy jihatdan oqsok, shuning uchun nutq mantikiylik sifatidan tamomila maxrum. Avvalo, xontaxtaning tortmasi boʻlmaydi va "xontaxtaning tortmasi" deganda, uning tagi tushunilmaydi, Buning ustiga, "kitob xontaxtada" deyilganda, uning tagi emas, balki usti nazarda tutiladi. Mazmuniy bogʻlilik xontaxta tortmasi — xontaxta qabilidagi leksik takror orqali emas, balki xontaxta — xontaxta tarzidagi leksik takror orqali ifodalanishi lozim edi. Parcha oxirida esa mazmuniy bogʻlilik umuman mohiyatini yuqotgan. Kitobni xontaxta ustiga kuyib, uni "stol ustida" deyish mazmuniy bogʻlilik tushunchasini tamoman ishdan chikarishi aniq.

Nutqda mantikiy bogʻlilikni tugʻri ifodalash uchun tildagi funktsional-sintaktik bogʻlovchi vositalar bilan bir qatorda jumlar va abzatslar oʻrtasidagi mantikiy munosabatlarni aniq tasavvur etish lozim, aks holda nutqning mantiqiyligini taʼminlab boʻlmaydi. Masalan: Har yili jahon boʻyicha 1000 xil yangi hilli atirlar paydo boʻladi, ulardan koʻpchiligi tezda havoga uchib ketadi. Ammo, maʼlum bulishicha, faqatgina un foiz ayollargina atirni yaxshi sovgʻa sifatida tan oladi ("Darakchi", 2006 yil 24 avgust).

Parchada ikki mustaqil jumla mavjud bo'lib, ular o'rtasidagi mantiqiy munosabat zidlikdan iborat emas, balki odatiy ketma-ketlik aloqasidan iborat. Mustaqil jumlar o'rtasidagi zidliq qarama-qarshilik munosabatini ifodalovchi ammo bog'lovchisi mazkur o'rinda mutlaqo o'rinsiz qo'llangan, ya'ni mavjud mantiqiy munosabatning muvofiq ifodachisi bo'la olmagan. Jumlar o'rtasida mantiqiy zidlik bo'lmaganligi uchun bu bog'lovchi vosita muallaq holatda qolgan. Ayni shu muallaqlik matnning mantiqiylikiga jiddiy putur etkazgan. Mazkur ikki jumla leksik-grammatik bog'lovchi vosita, ya'ni atir so'zining takrori orqali bog'langan.

Bobli nutq tarkibidagi jumalarning o'zaro bog'lanishida kesimlarning bir xil grammatik shaklda bo'lishi ham muhimdir, aks holda bu bog'lanish turi voqe bo'lmaydi va matndagi mantiqiylik zarar ko'radi. Masalan, mana bu matnga e'tibor qilaylik: Romashkaning gulini 1 stakan sutga solib qaynatamiz. Iliq holgacha sovigach, qalinroq matoga aralashmani kuyib, buyinga o'rang. Keyin sochiq yordamida 15 daqiqa ushlab turasiz. Kompresii aslo yuvmang. Artib tashlab, krem surasiz. Bu usulni muntazam bajarish sharm ("Xonadon", 2006 yil 24 avgust). Parchadagi fe'l kesimlarning goh ijro maylida, goh buyruq maylida kelishi, ayni paytda bir o'rinda 1-shaxs, boshqa o'rinda 2-shaxsda bo'lishi fikr mantiqiy rivojining tug'ri va xolis ifodalanishiga xalaqit bergan, natijada nutqning mantiqiylik bo'zilgan.

Yozma bog'li nutqning mantiqiylikini ta'minlashda uni abzatslarga to'g'ri ajratish ham juda katta ahamiyatga ega. Yaxlit, butun bir fikr qismlarini ajratib ifodalash, bir fikr qismidan boshqasiga o'tish, ular o'rtasidagi munosabatlarni qabariq holda ko'rsatish abzatsning asosiy mazmuniy mohiyatidir. Matnning ifodalanmochi bo'lgan yaxlit fikr rivoji, dinamikasiga to'la uyg'un tarzda abzatslarga bo'lingan holda to'zilishi nutqning mantiqiylikini kuchaytiradi. Bu ayni paytda nutq to'zuvchining fikr mantiqini tug'ri va anik tasavvur qilishga ko'maklashadi. Abzatslarga noto'g'ri ajratilgan nutqda mantiqiylik kuchsiz bo'ladi, bu nutqning tez va xolis idrok etilishini sezilarli darajada mushqullashtiradi. Masalan:

Xalifalik davlatini o'rnatish g'oyasi musulmon olimlari tarafidan ham keskin tanqid qilinadi. Mashhur ilohiyotchi Muhammad Xalafulloh islom ta'limotini siyosiy emas, balki axloqiy ta'limot bo'lib, insonlarni hidoyat yuliga boshlash uchun berilgan ilohiy dastur, deya ta'riflaydi.

Ushbu ta'rifda islom siyosiy xokimiyatni qo'lga kiritish vositasi emas, balki insonlarni tug'ri yulga boshlovchi ta'limotligiga urg'u berilayotgani yaqqol ko'rinib turadi (S Abdullaev, "Islom — egulik dini").

Ko'rinib turganiday, parchada muayyan bir fikr rivoji ifodalangan. Shuning uchun ham bu o'rinda matnni ikki abzatsga ajratish maqsadga muvofiq emas, yaxlit fikr bir abzatsda ifodalangan ma'qul edi.

Yaxlit matnning mantiqiylikini ta'minlashda matnning kompozitsion to'zilishini to'g'ri tashkil etish ham hal qiluvchi ahamiyatga moliqdir, Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik aloqadorlik bog'liqliq umuman, sistema mavjud. Mazmundagi ana shu sistema nutqiy ifodada ham ruyi rost o'z aksini topmog'i lozim. Mantiq'i soglom matn "biri tog'dan, biri bog'dan" fikrlar "butqa"sidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojining o'zagini bo'zmaydigan aniq kompozitsiya bo'lishi zarur. Maktab inshosini olib ko'raylik. Uning kompozitsion to'zilishi uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda

mavzu, uning ahamiyati, o'rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo'lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, "qissadan hissa" qilinadi. Shu tariqa fikr mantiqiy bir o'zanda ifodalangan yaxlit matn yo`zaga keladi.

Umuman, badiiy bo'lmagan matnlarning deyarli barchasida ayni shu uch qismlilik kompozitsion kurilish (bu qismlarning nomi bevosita yozib ko'rsatilishi yoki yozib ko'rsatilmashligi ham mumkin) ko`zatiladi. Dars konspekti, ma'ro`za, maqola, risola, qo'llanma, darsliq monografiya, dissertatsiya kabi xilma-xil matnlar mavjudki, ularning har birida mazkur uch qismlilik fikr bayoni usuli ustuvordir.

Ta'kidlash lozimki, mantiqiylik sifati nutqning barcha ko'rinishlari uchun xosdir, ammo bu sifat, ayniqsa, ilmiy uslubda favqulodda ayricha ahamiyat kasb etadi. Mantiqiylik ilmiy nutqning mohiyati bilan bog'liq sifatdir. Zotan, ilmiy tafakkur va ilmiy bayon mantiq qonuniyatlariga muntazam tobelikdagi faoliyat sifatida yashab keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka quyiladigan talablar tamoman o'ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur maxruli ekanligi bilan aloqadorligini har kim biladi.

Badiiy matnda, masalan, kompozitsion kurilish ham yuqoridagi uch qismlilikdan farkli. Badiiy matnda, masalan, romanda alohida ifodalangan kirish, xulosalar bo'lmaydi. Ijodkor voqealarni o'z badiiy niyati, badiiy g'oyasiga muvofiq tarzda tasvirlaydi, bu voqealarning xronologik ketma-ketligiga ham hamisha amal qilmaydi. Tasvirda mantiqiy izchillik yukday, xuddi "biri bog'dan, biri tog'dan" bayon qilinayotganday tuyuladi. Ammo bu voqealarni yozuvchining badiiy g'oyasi birlashtiradi. Masalan, atoqli adib O.Yokubovning "Ulug'bek xazinasi" romanidagi asosiy syujetni Ulug'bekning mahdud kuchlar vakillari bilan so'nggi to'qnashuvi bilan bog'liq voqealar tashkil qiladi, ammo romanda ancha oldingi voqealar, Ulug'bek fojiasini aks ettiradigan turli davrlardagi hodisotlar o'rni-o'rni bilan berilaveradi. Bu yozuvchining badiiy uslubi va maqsadi bilan izohlanadi, romanning badiiy-mantiqiy, lisoniy-estetik fazilatlarini rost va rasodir.

Nobadiiy nutqda mantiqiylikning bo'zilishi tarzida talqin etiladigan bir qator nutqiy holatlar badiiy nutqda o'ziga xos tasvir usuli, obrazli ifoda, qisqasi, badiiy fazilat maqomini oladi. Xilma-xil alogizmlar, g'ayriodatiy birikmalar, jonlantirish va boshqa shu kabi ko'llanishlar ijodkorning badiiy mahorati bilan matnning zaruriy unsurlariga aylanadi (hozirgacha yul-yulakay buning misollari ko'rib o'tildi).

Agar nobadiiy nutqda Ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar qabilidagi jumla qo'llansa, bu jumlaning mantiqdan tamoman mosuvo nutq namunasi sifatida baholanishi goyat tabiiy, chunki tinglash uchun "qurol" og'iz emas, balki kuloq ekanligi gudakka ham ma'lum bir haqiqatdir. Ammo Cho'lponning "Kecha va kundo`z" romanidan olingan ushbu parchada bu jumla nafaqat nomantiqiy, balki betakror badiiy obraz tasviri sifatida favkuloda o'tkir mantiq ifodasidir: O'tirganlar bir seskanib oldilar.

— Qanaqa pul, taqsir? — dedi Matxoliq amin.

Hammaning ko'zi uning og'ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko'zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og'ziga osildilar. Ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar.

Anglanib-anglanmagan, ammo kutilayotgan, odamni xush-bexush holatga tushirishi sezilayotgan noxush va shum xabarni hayronlik va chorasizlik ichida og'izlar ochilib qotgan kuyi eshitmoqning rasmini shu tarzda chizish mumkin.

Yoki mana bu badiiy parchadagi cho'lni uylantirmoq birikmasidagi badiiy mantiqning estetik kuchiga diqqat qiling: Otaboy kayf qilib qoldi. Gandiraklab o'rtaga tushib, Kokilani uyindan to'xtatdi. U ko'l ko'tarib shovqinni bosaman dedi-yu, yiqilay dedi. Odamlar birdan jim bo'lishdi.

— O'rtoooqlarr! Qancha tuying bo'lsa, ko'rsat! Opke, cho'lingniyam uylantirvoraman! Qancha kerak? Pulning hammasi Otaboy akangda-da! (Sayid Ahmad, "Tuyboshi" onkoley).

Umuman, nutqning mantiqiyligi fikr rivojining izchilligi, tushunchalar va fikrlar o'rtasidagi munosabatlarning mantiqiyligi, nutq predmetining aniqligi, fikr libosining fikrga majburiyatsiz loyiqligi asosida yo`zaga keladi. Mantiqiylikdan maxrum bo'lgan matn nutqiy muloqot uchun yarashiqsiz va mutlaqo yaroqsizdir.

V-Ma'ruza: Nutqning sofligi

Reja:

- 1.Adabiy til me'yorlari**
- 2.Nutqni sofligiga putur etkazuvchi unsurlar**
- 3.Nutqni sofligi va badiiy asarlar**

Har qanday narsaga baho berilganda, avvalo, uning asilligi, boshqa keraksiz unsurlardan xoliligi, o'z mohiyatiga muvofiq toza tarkibga egaligi kabi me'yorlardan

kelib chiqiladi. Soflik sifati nutqning ana shunday baholash me'yorlaridan hisoblanadi. Aytish lozimki, nutqning bu kommunikativ sifati nutq bilan adabiy til va nutq bilan jamiyat munosabatida namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra nutqning sofligini nutqning adabiy til me'yorlariga va jamiyatdagi ma'naviy-axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanuvchi kommunikativ sifat tarzida ta'riflash mumkin. Aytish joizki, kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga putur etkazuvchi unsurlarning asosiylari sifatida Quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: 1) shevaga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, ypg'y va talaffo'z; 2) o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar); 3) jargon va argo- lar; 4) dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar); 5) "ish- lamaydigan" yoki parazit so'zlar; 6) idoraviy so'z va iboralar (kantselyarizmlar) va sh.k. Nutq to'zuvchi o'z nutqining sofligi haqida qayg'o'rar ekan, albatta, mazkur unsurlarni qo'llashdan tiyilishi lozim.

Ma'lumki, shevaga xos so'zlar adabiy tilning leksik me'yorlaridan tashqarida, shuning uchun ham uning nutqda ishlatilishi soflik sifatining bo'zilishiga olib keladi. Bu esa hatto nutqning tug'ri tushunilishiga ham xalaqit beradi. Masalan, Dasturxonga sumalak halisa, holvaytar va turli shifobaxsh ko'katlardan tayyorlangan somsalar tortiladi (S.Jo'raev, H.Qodirov) gapida Buxoro shevasiga xos bo'lgan halisa so'zining qo'llanishi nutqning sofligini bo'zgan, tabiiyki, bu so'zni boshqa sheva vakillari tushunmasligi ham mumkin. O'zbek adabiy tilida esa bu so'zning muqobili halimdir. Ayni paytda ta'kidlamoq joizki, badiiy adabiyot tili mutlaqo o'ziga xos nutq uslubi sifatida shevaga xos so'z va boshqa birliklarning muayyan maqsad bilan qo'llanishiga imkoniyat yaratadi. Sheva so'zlari va grammatik shakllari, ya'ni dialektizmlar badiiy nutqda aniq estetik vazifani ko'zda tutgan holda qo'llanadi. Ta'kidlash kerakki, dialek tizmlarning estetik qimmat kasb etishi ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va aynan qanday turlarining tanlanishi bilan ham bog'likdir. Badiiy asar tilida xam dialektizmlarning me'yoridan ortik darajada bo'lishi asarning estetik qimmatini va ta'sir kuchini pasaytiradi, asar tilining sofligiga, ravonligiga putur etkazadi.

Dialektizmlarni badiiy asar tiliga olib kirish o'ziga xos badiiy-poetik usuldir. Bu usul, albatta, dialektizmlar bilan adabiy til me'yorlarining munosabatiga asoslanadi, Ana shu munosabat asosida adabiy tilga oid so'zlar (va shakllar) bilan qarshilantirilgan dialektizmlar alohida estetik qimmat kasb etadi. Xususan, ular mahalliy koloritni kabarik tasvirlash, asar qahramonlarining nutqiy tavsifini berish uchun o'ziga xos imkoniyat yaratadi. Ayni paytda ular nutqiy ekspressiya, ifodalilik uchun ham xizmat qiladi.

So'z leksik dialektizm sifatida badiiy nutqda ishtirok etar ekan, adabiy tilda bu so'zning sinonimi mavjud bo'lishi mumkin. Bunda dialektizm adabiy tildagi so'zlar bilan semantik va stilistik jihatdan qarshilantirilishi natijasida mahalliy koloritning muhim qirralarini o'zida aks ettiradi. Masalan: Men buvimdan beruxsat mehmon chaqirmayman (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ma, bacham, choy- ni o'zing qaytar (O.Muxtor, "Yillar shamoli" romani). Birovi "aba" deb mani chaqirmish (H.Sa'dulla, "Onaizor" she'ri). Muhammad Rahimxon qattiq kasalmish, ulli-ulli tabiblar ham kasalining davosini topolmayotganmish (J.Sharipov, "Xorazm" romani).

Bu jumalardagi buvi (ona) Andijon-Farg'ona shevasiga, bacham (bolam) Buxoro shevasiga, aba (ona) Namangan shevasiga va ulli (katta, ulug') Xorazm shevasiga xos soʻzlar boʻlib, ular kitobxon diqqatini oʻziga jalb etadi va tegishli hududlarga oidlikni alohida taʼkidlaydi.

Baʼzan adabiy tilda dialektal soʻz ifodalagan tushunchani bildiradigan bir soʻzdan iborat atama mavjud boʻlmaydi. Bu tushunchani ifodalash uchun bir necha soʻzdan iborat tavsifdan foydalanishga tugʻri keladi. Bunday holatlarda yozuvchi mazkur dialektizmning oʻzini ishlatib kuya qoladi. Ana shu tariqa ham nominativ, ham uslubiy maqsadga erishiladi. Tabiiyki, bunda muayyan mahalliy kolorit yorqin namoyon boʻladi va, demaq dialektizm oʻzining estetik vazifasini ham bajaradi. Masalan, Farg'ona shevasida qurigan joʻxoripoyaning bir boʻgʻimini boʻriq deyishadi: ...Tor koʻprikning ustida boʻriq yotgan ekan, shuni tepib zovurga tushirmoqchi boʻlganimda, ikkala oyogʻim kutarilib ketdi, shekilli, yiqildim (AQahhor, "Utmishdan ertaklar" qissasi).

Dialektizmlarning ekspressivligi maʼlum darajada ularning qoʻllanish oʻrni, yaʼni asarning qaysi qismida, personaj nutqidami, muallif nutqidami, manzara tasviridami va h.q. qoʻllanishi bilan ham bogʻliq. Masalan, badiiy asarning nomida qullangan dialektizm alohida va yorqin ekspressivlikka ega boʻladi. Ularning maʼnosi bir soʻz doirasidan chiqib, oʻzida ramziy bir umumlashmani paydo qiladi. Ulkan soʻz ustasi A.Qahhor qissalaridan birini "Sinchalak" deb atagan. Maʼlumki, sinchalak Farg'ona shevasiga xos soʻz boʻlib, uning adabiy tildagi muqobili chittak soʻzidir. Andijon shevasida uning jinqarcha tarzidagi muqobili ham bor (Jinqarchaday hamma vaqt va har qayda koʻrinib qoladigan bu "asl mingboshi"ga salom bermoqdan bellaringiz toladi. Choʻlpon, "Kecha va kundoʻz" romani). Ammo bu uch soʻz semantik-uslubiy jihatdan bir-biri bilan aynan teng emas, ular muayyan maʼno nozikliklari va shunga koʻra ekspressivligi bilan farqlidir, Sinchalak soʻzining maʼno strukturasi bu soʻz ifodalagan kushning noziklik nimjonlik belgisi asosiy oʻrinda turadi (Bu soʻzning kelib chiqishi shevadagi sinchaloq (adabiy tilda jimjiloq) soʻzi bilan aloqador. Andijon shevasida: Birdaniga tilla oʻzukni oʻz koʻzi oldiga olib bordi, u yoq-bu yogʻini aylantirib xoʻp qaragandan keyin sekingina koʻl oʻzatib, uni Umrinisobibining sinchalagʻiga kigizib kuydi. Choʻlpon, "Kecha va kundoʻz" romani). Chittak soʻzida bu kushning bir joyda turmaslik kunimsizlik belgisi, jinqarcha soʻzida kichiklik va keraksiz serharakatlik belgisi boʻrtib koʻrinib turadiki, bu holat ayni soʻzlar metaforik qoʻllanadigan bulsa, maʼlum maʼnoda salbiylik buyogʻining yoʻzaga chiqishiga olib keladi. Shuning uchun ham tilni behad nozik tushungan yozuvchi asarning bosh qaxramoniga, oʻzi alohida muhabbat bilan tasvirlagan tinchimas va gʻayratli ayolga nisbatan metaforik ifoda sifatida adabiy tilga xos chittak soʻzini emas, balki shevaga xos boʻlgan sinchalak soʻzini koʻllagan (Qissaning tarjimoni atoqli rus yozuvchisi K.Simonov ham buni juda yaxshi anglagan. Shuning uchun asarning nomini ruschaga adabiy tilga oid sinitsa soʻzi bilan emas, balki ptichka-nevelichka birikmasi bilan mohirona tarjima qilgan). Ana shu tarzda sinchalak dialektizmi konkret estetik qimmat kasb etgan.

Badiiy asarda kaxramonlarning nutqiy tavsifini, tasvirlanayotgan xududga xos mahalliy koloritni yaratish va ekspressivlikni yoʻzaga keltirish kabi maqsadlar bilan, asosan, muayyan sheva uchun eng xarakterli boʻlgan dialektizmlarigina qoʻllash

etarli hisoblanadi. Albatta, dialektizmlarni badiiy nutqda qo'lashning turli yullari, usullari bor. Ayrim hollarda dialektizm qo'llanadi-da, agar u keng kitobxonlar ommasiga etarli darajada tushunarli bulmasa, sahifa ostida bu so'zga izoh beriladi. Masalan: Zumrad: "Ayollar noziq ular ...yo`z kilo paxta joylangan qopni ko'tarib, o'smasak bo'lib qolish uchun yaratilmagan!" — deb aytdi (O.Muxtor, "Yillar shamoli" romani). Sahifa ostida o'smasak dialektizmiga izoh berilgan: "Nogiron" demoqchi. Buxoro shevasi.

Ba'zi hollarda esa matn ichida dialektizm adabiy tilda mavjud bo'lgan sinonimi bilan yonma-yon holatda keltiriladi. Masalan: Mexryunxonaning devorlaridan biriga shoti — narvon kuyilgan (I.Sulton, "Istehkom" pesasi). Shu sulfayu yutal mani axir xarob qildi (N.Aminov, "Elvizak" qissasi). Ko'rinib turganiday, birinchi misoldagi shoti dialektizmi adabiy tildagi narvon so'zi bilan yonma-yon keltirilgan va bu dialektizm mahalliy kolorit (Farg'ona) ifodasi uchun xizmat qilgan. Ikkinchi misolda esa sulfa so'zi dialektaldir (u tojik tilidan utgan bo'lib, ma'nosi "yutal" demakdir). Uning adabiy tildagi yutal mukobili ham keltirilgan, ham mahalliy kolorit, ham personaj tavsifi ta'kid olgan.

Ma'lumki, ayrim shevalarda kelishiklarni almashtirib qo'lash ko'zatiladi, ya'ni bir kelishik qo'shimchasi o'rnida boshqasi ishlatiladi. Bunday qo'lashlar, ya'ni grammatik dialektizmlar badiiy nutqda qahramon nushchini xarakterlovchi yordam vositalardan biridir (bunda ular bilan bir qatorda dialektal so'zlar ham ishtirok etishi mumkin). Avvalo, grammatik dialektizmlar adabiy tilning grammatik me'yorlaridan tashqarida bo'lganligi uchun kitobxon diqqatini o'ziga tez jalb qiladi, o'quvchiga g'ayritabiiy tuyuladi. Grammatik dialektizmlar ayni shu g'ayritabiiyligi bilan estetik assotsiatsiyalarni paydo qiladi, nutqning xududiy mansubligini osonlik bilan ta'kidlaydi. Masalan: Sizning Toshkentingizga Toshxon, Toshbibi degan ayollar bormi? Bale, bizning Buxor tiliga Sangcha degani Toshkent tilit Toshcha degani. Onalari "Boshing toshdan bo'lsin, do'xtarim", deb shunaqa ism kuyadilar. Oyti degani asli Oytuta degani. Bu Oyxola degan ma'no beradi, o'rislarning "tyota" degan so'zi ham shundan olingan bo'lishi kerak. Sizlar erkaklarni "mulla aka" deysizlar, biz "akamullo" deymiz, "opamullo" deymiz. Do'xtir opaning ismi dakumentga boshqacha. Ya'ni Istat Fo'zaylovna. Tushundingizmi? (S.Ahmad, "Azroil o'tgan yullarda" hikoyasi).

Har bir shevaning o'ziga xos fonetik qonuniyatlari mavjud. Shunga ko'ra u yoki bu sheva vakili adabiy tildagi so'zlarni ham ko'pincha nutqa e'tiborsizlik tufayli ana shu qonuniyatlarga mos tarzda talaffo'z qiladi. Talaffo'zdagi ana shunday shevaga xos farqli holatlarning adabiy asar tiliga kiritilishi muallifning personajni individuallashtirish, turmush tarzi, mahalliy muhit va turli sharoitlarni badiiy ishonchli va etnografik aniq, real tasvirlash kabi maqsadlari bilan o'zviy bog'langan bo'ladi. So'zlar talaffo'zidagi bunday kichik farqliliklar badiiy asarda juda katta ekspressiv vazifani bajaradi. Bunday fonetik dialektizmlar, asosan, Personaj nutqida qo'llanadi. Albatta, ular dialektizmlarning boshqa turlariga qaraganda badiiy nutqda erkinroq ishlatiladi, chunki talaffo'zdagi u qadar katta bo'lmagan bunday farqlar keng kitobxonlar ommasining (ular qaysi sheva vakillari bo'lishidan qati nazar) bu so'zlarni erkin tushuna olishiga aslo xalaqit bermaydi. O'quvchi bu dialektizmlarning ekspressivligini, estetik qimmatini aniq seza oladi. Misollar: Shunaqa ekanmi? Voy

tuvva-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy tuvva-ey!.. — deb uning eng qitit keladigan joylariga chang solishardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ilgari noyib turaning mamilasini, sizga nimalar deganini gapirib bering (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Bumam, birga ishlashar ekanmiz (Sh.Xolmirzaev, "So'nggi bekat" romani). Onam qal'adan galdimi? — deb so'radi (J.Sharipov, "Xorazm" romani).

Dialektizmlar, ko'rib o'tilganiday, badiiy nutqda kattagina estetik vazifani bajaradi, ammo bunda muayyan me'yorni saqlash, imkon qadar qo'shimcha izoh talab qilmaydigan, o'quvchi umumiy kontekstdan ma'nosini tushunib olaveradigan dialektizmlarni ishlatish maqsadga muvofiq.

O'rinsiz qo'llangan chet birlik ya'ni adabiy til me'yorlariga kirmagan so'zlar, birikma va iboralarning nutqqa kirib qolishi, shuningdeq boshqa til sintaktik qoliplari asosida jumla to'zish nutqning sofligini bo'zishi tabiiy.

Atoqli adib Fitrat o'zining "Adabiyot qoidalari" asarida nutqning ("uslubning") umumiy zaruriy sifatleri ("hollari") tarzida to'g'rilik ("to'zuklik"), aniqlik ("ochiqlik"), soflik kabilarni taxdid etar ekan, xususan, soflikka shunday ta'rif beradi: "Uslubda soflik so'z to'zushda, gap to'zushda yotchilik ko'rsatmasliq asarda yot so'zlar yo eski onglashilmas so'zlarni kirgizmasliq yot tillarning nahviy qo'idalariga qarab gap to'zmaslikdir.

O'qug'uchilarning qaysilarikim, tirishmaylar o'z bilimlarini orttira olmaslar deganimizda gapning to'zulishi o'ruschaning gap to'zulishiga ergashgan, uning ta'siri bilan bo'lgandir. Buning tug'risi: Tirishmayturgan o'quchilar o'z bilimlarini orttira olmaydilar shaklida bo'ladir."5

Tilshunoslikda varvarizmlar deb yuritiladigan boshqa til birliklarini o'zbek tiliga o'zlashgan, adabiy tilning leksik me'yorlari sirasidan o'rin olgan chet so'zlardan farqlash lozim. Har qanday chet so'z emas, balki fakat varvarizmlar nutqning sofligini bo'zadigan unsurlar sifatida karala- di. Rus, ingliz, arab, fors va boshqa tillardagi so'z va birikmalarni o'zbekcha nutqda ishlatish, avvalo, nutqning sofligini tamoman yuqotadi, qolaversa, bunday qilish o'zbek tiligagina emas, balki ayni paytda mazkur xorijiy tillarga ham xurmatsizlikni ko'rsatadi. Ba'zi kishilar nutqlarida varvarizmlarni ko'llarkan, bu bilan o'zlarining boshqa til- larni ham bilishlarini, madaniy saviyasining yukoriligini ko'rsatgandek bo'ladi. Aslida esa bu madaniy-ma'rifiy saviyaning pastligi, tafakko'ring torligi, ma'naviyatning qashshokligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nopisandlikning ildiz otganligini namoyon etuvchi holatdir. Masalan, zvonok chalindi (ko'ng'iroq chalindi), pererivga chiqdik (tanaffusga chiqdik), zvonit qildi (kung'iroq qildi), voobshche (umuman), koroche (qisqasi), tak (xo'sh) kabi bir qancha so'z va birikmalarning o'zbekcha nutqda bo'lishi nutq to'zuvchi til sezgisining tubanligi va ma'naviy dunyosining yuqligini ko'rsatishdan boshqa bir ishga yaramaydi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tmoq lozimki, ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarda misol, dalil sifatida boshqa tillardagi manbalardan fikrning aniqligi, ishonchliligini ta'minash maksadini ko'zda tutib aynan olingan, iqtibos qilingan xorijiy tildagi so'z, birikma va jumlar varvarizm deb baholanmaydi. Bu bayon qilinayotgan ilmiy fikr-

ning asosligini, manbaga yondashuvning xolisligini kursatishga xizmat qiladigan maqbul usul sifatida dunyoning aksar mamlakatlarida, tillarida an'ana tusini olgan. Masalan, ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" (Toshkent: O'qituvchi, 1992) **137** asarida fikrining dalili sifatida hadisi shariflarga murojaat etar ekan, oldin asl arabcha matini keltiradi, sung uning o'zbekchasini beradi: Rasuli akram nabiiyi muxtaram sallolloxu alahi vasallam afandimiz: "Xubbul-vatani minal imoni — Vatanni suymak imondandur", - demishlar... Rasuli akram nabiiyi muxtaram sallolloxu alayhi vasallam afandimiz: "Annajotu fissiddiqi — Najot rostlikdadur", — demishlar (28, 29-betlar).

Yoki, aytayliq adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda boshqa tildagi manbalar o'rganilganda, misol usha tilda, masalan, fors tilida keltiriladi va uning tarjimai beriladi. Bu, albatta, ilmning maqsadi va tadqiqot tabiatining taqozosidirki, bunday holatlarda ham nutqning soflik sifati aslo zarar ko'rmaydi. Mana Alisher Navoiyning forsiy asarlari tadqiqidan parcha: ...Yozning boshlanishi ajoyib so'z uyini va jonlantirish san'ati bilan tasvirlangan:

Fikand otashi ayyomi sayf dar olam, Chu barshchi oh zi anfosi oshishi shaydo

Yozning olovini olamga tushirdi. Bu xuddi shaydo oshshch nafasidan chaqilgan chaqmoqday edi).

Bu baytda "sayf" ikki ma'noli: 1) yoz va 2) qilich. Shu bois qilich va olov, qilich, olov va chakryuq shchyoslab olinib, chiroyli tasvir hosil qilingan. Ya'ni yozning otashi qilich dami — chakryushchay tushdi. Bu issiklik shiddati oshiq ohining shiddatini eslatadi.

Tilshunoslikka oid ilmiy ishlarda ham bunday holat ko'zatiladi: Ot oborot (substantivnuy oborot) deb rus tilida ikki hodisa ko'rsatiladi: a) ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi, b) ajratilgan izoxlovchi. Ajratilgan moslashmaydigan sifatlovchi yakka so'z shakl bilan ham, birikma bilan ifodalanishi mumkin: Etu kashu, bez myasa i morkovi, kak mojno nazivat plovom?! O'zbek tilida sifatlovchining bunday turi yuq.

Varvarizmlar badiiy nutqda yozuvchining mahorati bilan o'ziga xos estetik vazifani bajaradigan vositaga aylanadi. Badiiy asardagi personajlarning milliy mansubligi, harakteri, ichki dunyosi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi bir qator jihatlarni ta'kidlab ifodalashda varvarizmlar alohida o'rin tutadi. Albatta, varvarizmlar, asosan, ayni shu personajlarning nutqida qo'llanadi.

Ko'pincha varvarizm qahramonning u yoki bu millatga mansubligini ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Masalan: Miryokub biroz dovdiranib xonimning yoniga o'tdi.

Mumkinmi, xonim?

Xonim ko'zi bilan yonidan joy ko'rsatdi:

Pojalyusta... (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Ma'lumki, mustaqillikkacha bo'lgan davrda obed, tolko,

rovno, prostoy, pryamo, tak kabi bir qator ruscha so'zlar keksayu yoshning jonli so'zlashuv tiliga kirib ketgan edi. Tabiiyki, bu so'zlar o'zbekcha talaffo'z bilan aytilgan. Ular varvarizmlar sifatida badiiy asar tilida usha davr ruhini biroz yumoristik

fon bilan aks ettirishga yordam beradi. Quyidagi misollarda buni ko'rish mumkin: Sangcha chiqib ketar ekan, "Bilib kuyinglar, bolakaylarim, televizorni rovna soat o'nda o'chirib ketaman", dedi... Men unaqa mashxur odam emasman, po'ristoy polvonman, xolos... Tandirdan yangi o'zilgan, ushlagan kulni kuydiradigan moyli patirni shirchoyga turrab egan odam prama jannatga to'tadi (S.Ahmad, "Azroil o'tgan yullarda" hikoyasi).

Ba'zan badiiy nutqdagi varvarizmlar qaxramonning ham milliy mansubligini, ham ichki dunyosini, xarakterini bir chimdim achchiq kulgi bilan ochishga xizmat qiladi. Quyidagi misolda tatarcha va ruscha varvarizmlar ana shunday estetik vazifani bajargan: Bugungi yig'inga qatnashayotgan tuman partiya komitetining ideologiya ishlari bo'yicha sekretari Fatxullin o'tirgan joyida gapga kushildi:

O'xu, talkoviy malay shul. Bundan otlichniy kommunist chiqa. Ul partiya uchun atisidan kechdi. Dinsiz ekanini dokazat etish uchun kolbasa yib ko'rsatdi. Buni o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz. Tolko patriot kommunistgina kolbasani shulay eyishi mumkin. Bravo, bravo!.. **139**Partiya safiga fidoyi patriot kelib kushilayotganidan gorjus! (S.Ahmad, "Bukdlamun bilan uchrashuv" hikoyasi).

O'tkir so'z ustasi Sayd Ahmad "Qorako'z majnun" nomli hikoyasida dinu imonidan, tilidan tongan, onaga muhabbatdan mosuvo bo'lgan, o'zga yurtni vatan tutgan, itdan-da tuban ug'il — Burixonning o'zi anglamagan fojiasini tasvirlar ekan, uni bor-yug'i ikki marta bir jumladan ruscha gapirtiradi. Ana shu ikki varvarizm bu xudo bexabar ug'ilning butun ichki qiyofasini namoyon etishga xizmat qilgan, salmolqi estetik qimmat bilan yukungan: Ug'li uning barridan chiqishga o'rinar, ammo kampirning qoq suyaq chayir kullari uni bushatmasdi.

Nu zachem, zachem plachet, mama, vot i priexal, xvatit, xvatit, — derdi ug'li...

...Qassob shunday deb kuyning burziga pichoq tortdi.

Nu zachem, zachem? — dedi Bo'rixon. — **Ved barana jalko, vse ravno ya stolko myaso ne em! U nas baranina ne edyat...**

Rostdan ham shu odam mening bolammi, deb uylardi kampir... Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bulmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan. Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi.

Yana shuni ham aytish kerakki, varvarizmlar badiiy nutqda engil yumoristik ruh ifodasi uchun ham qo'llanadi, bunda, aytayliq ruscha so'z o'zbekcha talaffo'z bilan bo'zib aytiladi: tolko — tolko, spletnya — ispletniy, stolovaya — istalovoy, zaveduyushchiy - zavidit kabi: Kampir mazasi yuq ayol. Tolka kelinini qiynagani qiynagan... O'zzukun yulakka utirib olib, o'tgan-ketganni **ispletniy** qiladi (S.Ahmad, "Hasrat" hajviyasi). Vey, vey, shchmoshcha yigitning guli tushadi. Ish bilgan odam har erda ham nonini topib ketaveradi. Stalovoyga zavidit bo'ldim. Ha, ushatdayam tortib turdik (S.Ahmad, "Nomi yuq tuy" hajviyasi).

Nutqning sofligiga soya solishi mumkin bo'lgan yana bir so'zlar guruhi jargon va argolardir. Bunday so'z va iboralar, ya'ni muayyan kichik ijtimoiy qatlam (savdogarlar, ug'rilar, qimorbozlar kabi) va kasbiy doyra vakillari orasidagina tushunarli bo'lgan sun'iy yoki shartli tarzda yaratilgan birliklar o'zbek tilida u qadar ko'p emas. Masalan, ba'zi ana shunday ijtimoiy guruhlar orasida yakan, loy ("pul"

ma'nosida) kabi soʻzlar qoʻllanadi. Yoki baʼzan bolalar uyin uchun guyo boshqalar tushunmaydigan "til" yaratadilar, bunda soʻzning har buginidan oldin yoki keyin zi, ra, ba, sa kabi tovushlarni kushib aytadilar. Masalan, **Zi-ku- zi-tub-zi-xo-zi-na-zi-dan zi-ki-zi-tob zi-ol-zi-dim** kabi. Ammo aytish kerakki, oʻzbek tilida bunday jargon va argolar koʻp emas. Albatta, tasvir zaruriyati, estetik maqsad bilan bogʻliq holda bunday soʻz va iboralar badiiy nutqda oʻrni bilan qoʻllanaverishi mumkin.

Umumtilda dagʻal, haqorat soʻz va iboralar ham mavjud. Ammo tilshunoslikda vulgarizmlar nomi bilan yuritiladigan bunday soʻz va iboralar jamiyatda barqarorlashgan maʼnaviy-axloqiy qoidalarga zid boʻlgan i uchun ularni nutqda kiritish nutqning sofligini tamoman izdan chiqarishi bilan bir qatorda jamiyat aʼzolarining hamiyatiga ham daxl qiladi. Nutqda vulgar soʻzlarni ishlatish nutq toʻzuvchining tarbiyalanganlik darajasining tubanligini koʻrsatadi, zotan, tarbiyalanganlikning mohiyati shaxsning jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-siyosiy va maʼnaviy-axloqiy tartibotlarga soʻzsiz va muntazam hurmat bilan qarashi va demakki, qatʼiy amal qilishidan iboratdir. Ming yillik milliy anʼanalarimizda ham, maʼnaviy-maʼrifiy tarbiya davlat siyosatining ustuvor yunalixlaridan biriga aylangan bugungi kunimizda ham sukinib gapiriga insonga behurmatliq nopisandliq hatto bezorilik sifatida baholanadi.

Aytish lozimki, faqat badiiy nutq baʼzan bunday soʻzlarga oʻz tarkibidan joy ajratadi. Soʻz sanʼatkorlari badiiy asarlarda, albatta, muayyan meʼyorga amal qilgan holda qahra- mon xarakteri, ichki dunyosi, hissiy holati kabi jihatlar- ni kabariq, aniq, ochik ifodalash maqsadida vulgar soʻz iboralardan ham foydalanadilar. Masalan, Choʻlpon "Kecha va kundoʻz" romanida Razzoq sufining kir va tang maʼnaviy dunyosi, maʼrifatining muntazamsizligini xolis va ochiq tasvirlash niyati bilan uning nutqiga vulgarizmlarni kiritadi: Sufi bular uyga kirib olguncha eshik oldida boʻzarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Kurvonbibiga oʻzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irgʻitdi va oʻzining oddiy ovozi bilan:

Qanjiqlar! — deb baqirdi.

Yosh narsalar uynashsa nima boʻlibdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? — dedi Kurvonbibi.

Gapirma, eshak!

Choʻlpon vulgarizmlarni u qadar koʻp kullamaydi, kulla- ganda ham, asosan, xotin taloq qiztaloq, sintaloq, zangar, bachchagʻar, dayus, hez kabi nisbatan "engilroq" dagʻal soʻzlarga murojaat qiladi. Agar tasvirlanayotgan holat anchayin "ogʻip" haqorat soʻz yoki iborani talab etsa, yozuvchi ularni aynan emas, balki umumiy perifriza yuli bilan ifodalaydi va shchu tarzda nutqda ochiq vulgarizmlar meʼyoriga qatʼiy amal qiladi. Mazkur romandan bir-ikki misol: Mingboshi erkin-erkin kuldi:

Tavba de, betavfiq! Astagʻfurullo ge!

Miryokub astarfurullo oʻrniga **uyat bir soʻz aytdi...**

Mingboshi **nihoyat darajada odobsiz bir soʻz bilan baqirib javob qildi.** Ikkala yosh xotin sekin-sekin orqalariga tisarilib oʻz uylariga kirib ketdilar. Xadichaxon turgan joyida qotib qoldi...

Baʼzan soʻz ustalari qaxramonning benihoya tarang hissiy-emotsional holati, alam va qahru gʻazabini ifodalash uchun ham haqorat soʻzlardan foydalanadilar. Masalan: Tergovchi Qoʻchqor Jalol meni qamoqqa olgan kuniyoq oltinlaringni, boyliklaringni

qaerga yashirgansan, deb kechasiyu kundo'zi uxlatmay so'roq qildi. Menda bunaqa narsalar yuq desam, ishonmaydi. Uradi, tepadi, ko'llarimni qayiradi... Qo'chqor Jalol **haromi, g'arning bolasi** bitta gapni biladi. Oltin, oltin qani?... (S.Ahmad "Azroil utgan yullarda" hikoyasi). Ana shunday beadoq gazab-nafratni ifodalash uchun

ayrim hollarda juda og'ir haqorat shaklidagi beodob iboraning qisqartirilib, ixchamlashtirilib qo'llanishi ham ko'zatiladi: Bu uydagi qimmatbaho buyumlar mo'zeylarda shchm topilmasdi... Men qamalganimda bolalarim bir chekkadan sotib usha onangni... Qo'chqorga oborib berishipti, na gilam qopti, na chinni asbob (S.Ahmad, usha hikoya).

Dag'al, haqorat so'zlarni o'rnida kayillatib qo'lashning betakror namunasini ulmas "Alpomish" dostonida ham kurish mumkin. Alpomishning singlisi Qaldirg'och "ahmoq qalmoq" elida tuqson alpning orasida talash bo'lib, ular zurumidan azoblar ichra urtangan Barchinni qutqarmoqqa shoshilmagan akasidan upkalab, "Nomardsan!" desa kamlik kiladiganday,

Aka, aytgan so'zim og'ir olmagin,

Nar-moda ishini bunda qilmagin, — deydi. **Nar-moda** ("erkak-urg'ochi") vulgar so'zi Alpomishning alp qalbini qattiq silkitadi. Alpomish tuganmas hayrat va hasrat bilan:

Nar-moda deb meni silkib solasan,

Juda ham akangni nomard bilasan, — deydi. Shunda Qaldirg'och o'sha gaplarini yana ham qattiqroq, qamchinliroq qilib aytadi:

Har kim o'z elida bekmi, to'rami,

Nar-modalar sendan kamroq bo'lami,

Mardning yori toy-talashda qolami?!

Ayni shu nar-moda so'zi o'zining qiyossiz ta'nador qudrati bilan Alpomishning yuragidagi hamiyat degan bikir tuyg'uni tiriltirib, uni Boychibarga mindiradi...

Tabiiyki, nutqqa olib kiriladigan har bir so'z va ibora, albatta, "ishlashi", muayyan ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Nutq tarkibiga olib kirilgan so'z yoki ibora nutqning mazmuniy kurilishi uchun bir "rishtcha" bo'lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuq demakki, nutqning sofligiga xalaqit beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so'zlar deb ataladigan bunday birliklar ko'proq og'zaki nutqda ko'zatiladi. Aytilmoqchi bo'lgan fikrni etarli darajada aniq tasavvur qilmasliq fikrlar o'rtasidagi tizimli munosabat idrokining etishmasligi, fikrning kuyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yo'zaga keladigan o'zilishni, qanday bo'lmasin, "yopish", tegishli uyg'yn ifodani uylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta'minlash ehtiyoji bilan bog'liq holatda e- e-e, xm-m-m, he-e-e kabi tovush "oqim"lari, xo'-o'-o'sh, haligi, anaqa, masalan, demaq shu, innaykeyin, ya'ni, aytayliq bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang kabi lug'atlarda aniq ma'nosi mavjud so'z va iboralar ayni ma'nosidan begona qilingan tarzda qo'llanadi. Bunday qo'lashlar bora-bora nutq to'zuvchida o'ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir haligi, kimdir demaq yana boshqa birov bildingizmi so'zini og'zaki nutqida parazit so'z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so'zlar u yoki bu notiqning so'zlashuv uslubining o'ziga xos

ko'rsatkichi bo'lib qoladi (hatto bu "ko'rsatkich" shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, "shu-shu" domla, "xo'sh-xo'sh" usta kabi). Bu, albatta, nutqning sofliğini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan informatsiyani qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg'itadi, nutqning o'z maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham, ayniqsa, o'qituvchi va asosiy quroli so'z bo'lgan boshqa mutaxassislar parazit so'zlarning o'z nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim. Maktab o'quv- chilarida ham parazit so'zlarning nutqiy odatga aylanmasligi uchun o'qituvchi bu yunalishda doimiy ish olib borishi maqsadga muvofiq.

So'z san'atkorlari qahramon xarakteri, ma'naviy-ma'rifiy saviyasini ko'rsatishda badiiy asarda parazit so'z va iboralardan ham foydalanadilar.

Rasmiy ish qog'ozlari, umuman, idoraviy yozishmalar uslubida doimiy qo'llanadigan, turg'unlashgan, qoliplashgan so'z, so'z birikmasi va iboralar ham mavjudki, ularni ishlatishda aqlga kuch kelmaydi, ular ayni uslubda matn to'zishda nutqiy odatga aylangan. Tilshunoslikda idoraviy so'z va iboralar yoki kantselyarizmlar deb yuritiladigan bunday birliklar hujjatlar tili uchun zaruriy unsurlardir, chunki ularning qoliplashganligi ham nutq to'zishni, ham bu nutqni jadal tushunishni sezilarli darajada qulaylantiradi. Ammo kantselyarizmlar so'zlashuv, publitsistik va badiiy nutqda kiritilar ekan, nutqning sofligi anchagina zarar ko'radi.

Muayyan nutqiy qo'llanishda turg'unlashgan so'z va iboralarga ortiqcha ruju qo'yish nutq to'zuvchining o'z nutqiga e'tiborsizligi, kerakli ifodani tanlashga erinchoqligi, ta'bir joiz bo'lsa, undagi tafakkur tanballigi, ruhiy lisoniy loqaydliq "tayyorga ayyor" moyasiga moyillik tarzida baholanishi mumkin. Bunday nutqda nafadat sofliq balki tirik til sezgisi ham kulog'ini ushlab ketadi, unda nutq to'zuvchining o'z tili, ko'zi, qulog'i, disqasi, tayinli qiyofasi ham bo'lmaydi. Bunday notiq jungina Er haydaldi jumlasini Erni sifatli haydash ishlari muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi shaklida to'zadi (Yana ...tupni tepiishi ustalik bilan amalga oshirdi, ...binoni ta'mirlash amalga oshirildi kabi ko'plab ifodalarni eslash mumkin). Uningcha, rasmiy qolip "kuyuishchoni" shuni taqozo etadi. Chin so'z zargari Abdulla Kahhor "Quyushqon" asarida bu holat hakida shunday yozadi: "Hozirgi vaqtda tilimizning boyligini, uning qochiridlarini o'rganishga eringan, so'z san'atiga hunar deb emas, kasb deb qaraydigan, bisotidagi bir hovuch so'zni yillar davomida aylantirib kun ko'rib yurgan bir turkum qalam aqlining "faoliyati", chala mulla ba'zi olimlarning "ilmiy xulosa"lari natijasida ajib bir til bunyodga kelgan. Bu tilda hech kim gapirmaydi, zotan, gapirish mumkin ham emas, faqat yozib o'qib berish mumkin... Bu tilning hech qaerga yozilmagan, lekin amalda joriy bo'lgan temir qonuniga ko'ra "yaxshi ovqat edim!" deb yozib bo'lmaydi, albatta, "sifatli ovkatlandim" deb yozish shart. "Papiros chekadigan kishi gu- gurtini olib yurishi kerak" deb yozish tug'ri emas, "Papiros chekish odatiga ega bo'lgan kishi o'zini tegishli gugurt bilan ta'minlab yurishi kerak" deb yozilsa tug'ri bo'ladi. Bu tilda latifa aytib bo'lmaydi, yozib bo'lmaydi! Bu tilda hazilga, maqolga, matalga, ajoyib xald iboralariga o'rin yuq. Bu til har qanaqa jonli fikrga kafan kiygizadi, har qanaqa o'ynoqi mazmunni taxtaga tortadi, har qanaqa lektorii g'urbatning uyasiga, har qanaqa auditoriyani o'lik chiqqan hovliga aylantiradi. ...Bir talay jurnalistlar, redaktorlar, notiqlar, lektorlar, agitatorlar singari bu odam ham mazkur tilni rasmiy, qaerdadir tasdiqlangan til deb bilar, bu tilda so'zlanadigan o'lik nutq jon kirgizgani qolinadigan har bir harakatni "Kuyushkrndan

tashqari chiqish" deb hisoblar ekan. Lektorii, agitatorii g'urbatning uyasiga, nutqni og'ir yukka aylantiradigai bu "quyushqon"ni qancha tezroq uloqtirib tashlasaq shuncha yaxshiroq!"

Tabiiyki, turgunlashgan nutqiy qoliplardan qo'tulish uchun, avvalo, tafakkurdagi qoliplardan voz kechish, mustaqil va ijodiy tafakkur malakalarini oshirib borish zarur. Bunga, ayniqsa, maktabda alohida ahamiyat berilishi kerak. Rasmiy uslubdan boshqa uslublarda qo'llangan tayyor nutqiy krliplar o'quvchining ijodiy tafakkur ko'nikmalarining tarkib topishi, barqarorlashishiga xalaqit beradi. Sof nutqning go'zal namunalari bo'lmish har jihatdan pishiq-puxta badiiy asarlarni muntazam mutolaa qilib borish, bunda badiiy nutqda o'z tajassumini topgan soflik sifatiga doimiy diqqat qilish o'z samarasini berishi tayin.

VI-Ma'ruza: Nutqning boyligi

Reja:

1.Co'z boyligini ta'minlovchi manbalar

2.Nutq boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlar

3.Badiiy nutq va nutqning boyligi

Nutqning ta'sir quvvati, tegishli axborotni tinglovchiga tugal va qulay, "yukumli" tarzda etkazivda imkoniyati muhim kommunikativ sifatlardan bo'lmish boyligiga ham bog'liq. Boy nutq tinglovchining joniga tegmaydi, balki u bunday nutqni jon qulog'i bilan tinglaydi,

Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq kiladigan unsurlari (so`zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik to`zilmalar, iboralar va sh.k) dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unso`rining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi. Ulug' Alisher Navoiy aytganideq "Bir deganni ikki demak xush emas, So`z chu takror o'ldi, dilkash emas". Shuning uchun nutqning bu sifati rang-baranglik tarzida ham talqin etiladi, ya'ni boylik tegishli fikr ifodasi uchun qo'llangan til birliklarining xilma-xilligi, rang-barangligi bilan ulchanishiga urg'u beriladi. Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy (eramizdan oldingi I asr) "So`zlarning ko'shilishi haqida" nomli asarida nutqning rang-barangligi (boyligi) sifatining zaruriyati to'g'risida shunday yozadi: "Umuman barcha yokimli narsalarday hatto har qanday go'zallik ham tinimsiz takrorlansa, jonga tegadi; xilma-xil, rang-barang o'zgarishlarda esa bu go'zallik mangu yangi bo'lib qolaveradi,"

Boy nutq to`zish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli "libos"lar tanlash va kiydirish lozim. Buning uchun esa nutq to`zuvchida til vositalarining boy va faol zahirasi mavjud bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, notiq etarli darajadagi so`zlar, ularning ma'nolari, so`z birikmasi va gap modella- ri, jumlaning intonatsiya va melodika turlari zahiralarga sohib bo'lmog'i talab etiladi. Bu zahira qancha boy bo'lsa,notiq o'z nutqning maqsadiga muvofiq

tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik ko'proq ega bo'ladi.

Leksiq semantiq grammatik intonatsion jihatdan rang-baranglik nutqning boyligini yo`zaga keltiradi.

Tayinki, faol lug'ati qashshoq bo'lgan leksik bisoti uch-to'rt ming so`zdan oshmaydigan kishining boy nutq to'zishi maxl. Boy, shirali nutq to'za bilmoq uchun, eng avvalo, ana shu bisot zangin va rangin bulmog'i shart. Atokli so`z san'atkorlarida, masalan, ulug' Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq rus shoiri Pushkinda 21 mingdan ortiq so`z boyligi mavjudligini mutaxassislar ta'kidlaydilar. Albatta, bunday ulkan so`z boyligiga ega bo'lish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo o'z nutqini boy, ta'sirchan, o'tkir bo'lishini istaydigan har bir kishi tasarrufidagi lug'at boyligini kengaytirib borish haqida qayg'urishi lozim.

Bor-yug'i 9 ta jumladan iborat ushbu badiiy nutq parchasida birgina kapalak so`zi 7 marta takrorlanganki, bu ham ayni nutqning leksik jihatdan boyligiga putur etkazganligini sezish qiyin emas: **...Kapalaklarni** aytmaysizmi? Bir-birini ko'vlab guldan gulga qo'nayotgan kapalaklarga mahliyo bo'lmay ilojing yuq. Bularning hammasi o'tkirni butunlay sexrlab kuydi. O'tkir o'rtoqlari bilan gul terib yurib, chiroyli **kapalakka** ko'zi tushib qoldi. Buncha chiroyli o'chmasa. O'tkir **kapalakni** o'shlamoqchi bo'ldi. Biroq kaftlari orasiga qisib o'shladim deganda, kapalak ko'z ochib yumguncha boshqa gul ustida paydo bo'lardi.

O'tkir **kapalakning** orqasidan qo'vlab charchadi, ko'p ovora bo'ldi. Axiyri kapalakni ko'zdan yuqotib kuydi (A.Sodiqov, "Tog'da" hikoyasi).

Mana bu jumlagi e'tibor beraylik: Qo'llanmadagi uslubiy echimlar mashg'ulot rejasi va mashrulot matnidani iborat ikki qismdan iboratdir (S.Jo'raev, H.Qodirov). Bu jumlaning qashshokligi, nafaqat qashshokligi, balki uslubiy g'alizligi ochiq ko'rinib turibdi. Ayni bir iborat so`zi ikki marta takrorlanganki, bu nutqning boylik sifatini tamoman ishdan chiqargan. Ayni holat, shubhasiz, nutq to'zuvchidagi so`z boyligining chegaralanganligi, o'z nutqiga e'tiborsizligi mahsulidir. Aslida mazkur iborat so`zining biri o'rnida, masalan, tarkib toptan yoki tashkil topgan ifodalari qo'llanganda, nutqning bu qadar qashshokligi yo`zaga kelmas edi.

O'zbek tili har jihatdan, xususan, lug'at xazinasini nuqtai nazaridan benihoya boy va rivojlangan tildir. Shuning uchun ham bu qadim tilda "oldidan o'tganda bugungi Ovrupo adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadigan" (Fitrat) adabiyot yaratilgan. Bu adabiyot, albatta, tilimiz so`z ganjinasining xira tortmas ko'zgidir. Tilimizda muayyan bir tushunchani ifodalashning bir emas, balki bir qancha, xilma-xil imkoniyatlari mavjudki, ularni ishga solish, nutqning boyligini ta'minlashga xizmat qildirish uchun muntazam e'tibor va sa'y-harakat lozim bo'ladi. Ana shu e'tibor susaydimi, nutqning boyligi tushunchasining mohiyatiga putur etaveradi.

Tilimizdagi ana shunday xilma-xil imkoniyatlarning biri sinonimiya yoki ma'nodoshlik hodisasining benihoya kulamdorligidir. Ma'lumki, sinonimiya faqat so`zlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik shakllar doirasida ham keng tarqalgan.

Matnda so`z takroridan qochishning eng sinalgan va maqbul yullaridan biri ayni shu so`z ma'nodoshligidan farosat va mahorat bilan foydalanishdir. Boburning bu boradagi betakror san'atkorligi haqida iste'dodli olim M.Olimov shunday yozadi:

"Boburnoma" matnini ko'zati, biz shunga amin bo'lamizki, hozirgi kunda qalam axdiga tanish bo'lgan taxrir tamoyillari Boburga aslo begona bo'lmagan. U ham sahifalar ustida faqat ilhom bilan qalam uynatgan emas, balki ter to'kib mehnat qilgan, boqiy so'z dunyoga kelishining azobli to'lg'oklarini boshidan kechirgan.

Quyidagi parchani ko'zdan kechiraylik: Kypg'on eli yuqoridin bulag'a **dud** qildilar. Alar to'shukni berkitgan bila tutun yuqori ko'rg'on elig'ao'q yonib, ko'rg'on eli o'lum ichi bo'lub, qochib chiqtilar. Xush, nega Bobur dastlab dud so'zini, keyingi jumlada esa xuddi shu ma'nodagi shutun kalimasini qo'llagan? Tabiiyki, bu bekorga emas. Biz hozir uslubshunoslikda urganadigan va taxrir amaliyotida rioya qiladigan tak-rordan qochish tamoyili Bobur uchun ham qat'iy qoida hisoblangan.

Bobur Farg'ona viloyati haqida yozadi: Etti pora qasabasi bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida, ikki shimol jonibida. Boshqa o'rinlarda ham ushbu tushunchaga murojaat etishga to'g'ri kelganda, taraf va jonib so'zlari bir-biri bilan o'rin almashib keladi. Matn mazmuni izn bergan o'rinlarda esa bu so'zlarning boshqa sinonimlari qo'llanadi.

Quyidagi narchada barg va yaproq so'zlari o'zaro almashinib kelgan va matnga rang-baranglik baxsh etgan (ta'kid bizniki. — N.M.): Daraxtlarning bargini otqa berurlar edi. Anda tajriba bo'ldikim, bori yafroqlardin tut yafrog'i va qaro yig'och yafrot otqa sozvorroq emish. Yoki: Qalin kishisi uqqa, qilichqa borib, g'alaba kishisi ilikka tushti, suvda ham ko'p kishisi o'ldi."

Sinonimlar (lisoniy va nutqiy) ning bu tuganmas imkoniyatlaridan so'z ustalari hamisha unumli foydalanadilar. Misollar: Ikkala o'rtoqing sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan kuvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi... Xudo xadeb shunaqa insofsizlarga berar ekan-da! Biz bechoralarga ham bir narsa o'zatsa-chi!.. (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Kanal ko'prigidan oshib, cho'l tomonga jilovni burdim. Ot negadir tixirlik qilib, yurmay turib oldi. Jonivor bir-ikki qamchidan keyin ham oldinga jilish o'rniga orqasiga tisarilib, taysallardi (S.Admad, "Cho'l burguti" hikoyasi).

Ta'kidlash joizki, faqat takrorlangan bir so'z yoki bir so'z shakligina emas, balki so'z yasalishi va grammatik shakl yasalishida asos bo'lgan so'zning takrori ham nutqning boylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mana bu jummalarni ko'zdan kechiraylik: Xulosa qilib aytganda, islom dini va falsafasi yangi axloqiy komillikka intiluvchi tarbiyani vujudga keltirishga intildi. Bu intilish hamon o'z kuchida qolmoqda (M.Qodirov). Parchada intilmoq fe'li uch o'rinda asos sifatida takrorlangan. Birinchi jumladagi intiluvchi va intildi so'zlaridagi asos (intil) ning takrori nutqning boylik sifatini bo'zgai. Matn sintaktikasi qoidalariga ko'ra ikkinchi jumla tarkibidagi intilish so'z shaklining qo'llanishi o'rinli, ayni so'z shakli (harakat nomi) bu olmoshi bilan birgalikda mazkur ikki jumlaning o'zaro bog'lanishi uchun xizmat qilgan, ya'ni ...intildi. Bu intilish... Ammo birinchi jumlada takror qo'llangan intil- asosi mavjudligiga ko'ra bu uchinchi qo'llanish nutq to'zuvchining so'z zahirasida ifodalar tanqisligini yanada ta'kidlaganday bo'ladi,

Ba'zan ana shunday takrorlangan leksik asoslar muayyan bir nutqiy parchadagi har bir jumlada ishtirok etadiki, bunday nutqning boyligi haqida gapirish qiyin. Qiziq— asosi turt marta takrorlangan ushbu misolda bunga ishonch hosil qilish mumkin: Ko'pchilik singari men ham sport turlaridan futbolga qiziqaman. Jahon va Evropa

chempionatlari, mamlakatimizda hamda jahonning kuchli (?) birinchiliklarini qiziqish bilan ko'zating boraman. Ayniqsa, futbol statistikasi bilan 25 yillardan buyon qiziqib kelaman. Qiziqarli futbol uyinlarini televizor orqali tomosha qilish bilan birga futbolga oid materiallar ham beradigan "Erudit" gazetasini muntazam ravishda o'qib boraman ("Xurriyat", 2006 yil 18 oktyabr).

Muayyan bir grammatik shaklning keragidan ortiq takrori ham nutqning boyligini ta'minlashga xizmat qilmaydi. Bir jumla yoki undan katta nutq parchasida, masalan, bir kelishik shaklining takror-takror, qalashib kelishi nutqni g'ariblashtiradi, ayni paytda ifodalanmoqchi bo'lgan fikr o'zanini birdan idrok etilishini ham qiyinlashtiradi. Mana bu jumlaning ko'raylik: "Amsterdam — Pekin" avtorallisi yunalishiga O'zbekistonning ko'shilishi boy madaniy merosimiz va 15 yil oldin o'zining mustaqil taraqqiyot yulini tanlagan xalqimizning bugungi hyotiga jaxon jamoatchiligining katta qiziqishining yana bir tasdig'i bo'ldi ("O'zbekiston ovozi", 2006 yil 1 avgust). Bir jumlaning o'zida 5 ta qaratqich kelishigi shakli qo'llangan. Bu jumlaning boy deb ham, anglanishi qulay deb ham, ravon deb ham bo'lmaydi. Holbuki, tilimizning grammatik imkoniyatlari ichiga chuqurroq kirilsa, mazkur takrordan qochishning ming bitta yulini topish mumkin. Xech bo'lmaganda, o'zining mustaqil taraqqiyot yuli so'z birikmasida belgisiz qaratqich kelishigi (o'z taraqqiyot yuli tarzida)ni qo'lash, xalqimizning bugungi hayoti so'z birikmasida bugungi so'zini ishlatmasdan belgisiz qaratqich kelishigi (xalqimiz hayoti tarzida) dan foydalanish, jahon jamoatchiligining katta qiziqishi birikmasidagi mazmunni jahon jamoatchiligidagi katta qiziqish shaklidagi boshqa sintaktik to'zilma orqali berish bilan 3 ta qaratqich kelishigi shaklidan qutulish mumkin edi. Morfologik va sintaktik sinonimiyaning mavjud imkoniyatlari etarlicha ishga solinsa, bu kabi holatlarda nutqning boyligini bemalol ta'minlash mumkin.

Muayyan bir mazmuniy munosabatni xilma-xil sintaktik shakllarda ifodalash mumkin, ya'ni tilda buning uchun boy sinonimik zahira mavjud. Masalan, sabab munosabatini olayliq bu munosabat sodda gaplarda sabab holi orqali namoyon bo'ladi. Sabab holi odatda ravishdosh, ravish, turli kelishiklardagi yoki ko'makchilar bilan kelgan ot, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, takdidiy so'zlar bilan ifodalanadi, aytish mumkinki, sabab munosabatini ifodalaydigan sintaktik shakllar ana shunday xilma-xil va ko'p. Bu shakllarning faqat bittasinigina nutqda takror-takror ishlatish nutqning tussizligiga olib keladi. Bir badiiy matndan terib olingan ushbu jumalalarda buni ko'rish mumkin: Unga yotoqxonada hozircha bush o'rin yuqligini aytishdi. Shu boisdan u Bozori gul mahallasidagi bir hovli boloxonasini ijaraga oldi... Elmurodni qishlog'ida ko'ngli ochiq, fe'li kengligidan talay qizlar yoktirishardi... Shodlanganidan yigitning yuragi uynoklab ketdi... Elmurod shu kuni uyalganidan derazani shart yopdi Dedi ota servant qiziga yoqqanligidan quvonib... ...Xursand bo'lganidan ko'ngli yayrab ketdi Prorabning so'zini erda qoldirganidan ko'ngli bir oz xijil edi... Tuyga bir qishloqi yigitni ergashtirib borayotganingizdan iymansizmi?.. Ancha-muncha aroq ichganidan yonoqlapu lovullardi Ichimlik kayfiyatidan

ancha dadillangan Irodasini hirs dovuliga tizginsiz tutqizganidan qiz dudoqlaridan... bo'sa olardi... Opasi ko'ngli siqqanidan unta ayrim yumushlarni buyurar... Zamira singlisining hurmati, mehri ortib borayotganidan g'oyat mamnun edi

(S.Ravshan, "Manzillar" qissasi). Bunday holatda nutqning sintaktik rang-barangligi tamomap yuqolganligini ta'kidlash joiz.

Nutqning boyligini yo'zaga keltirishda tilning sintaktik vositalari favkulodda ahamiyatga molikdir. Ta'bir joiz bo'lsa, sintaksis ma'nolarning xilma-xil va rang-barang qatimlarini yaxlit bir butunlik holiga keltirib to'qiydigan mexanizm vazifasini utaydi. Shunisi yanada hayratlanarliki, bu yaxlit butunlikni ham faqat bir shakl yoki tus- dagina emas, balki nutq to'zuvchi "usta"ning maqsadiga muvofiq va mahoratiga bog'liq holatda turfa shamoyil yoki ranglarga kiritishi mumkin. Ana shu shamoyil va ranglar yaxlit butunlik bo'lmish nutq boyligining poydor belgilari sifatida namoyon bo'ladi.

Tilimizdagi sodda va ko'shma gaplar, murakkablashgan gaplar, ularning xilma-xil qolip (model) lari, bu qoliplar asosida yaratilishi mumkin bo'lgan millionlab jumlar boy nutq to'zish uchun cheksiz-chegarasiz imkoniyatdir. Bulardan xabardor kishining nutqi qurilishi nuktai nazaridan faqat bir xil qolipdagi jumladan tarkib topmaydi, ya'ni bir xil sintaktik birliklar takroridan iborat bo'lmaydi. Bunday odamning nushchi, albatta, sintaktik kurilishi jihatidan rang-barang, demakki, boy bo'ladi.

Iste'dodli adiblar o'z asarlarining tili ustida ishlarkan, ayni shu sintaktik rang-baranglikka alohida e'tibor beradilar. Katta mahorat bilan yaratilgan badiiy asarlar sintaktik boy nutqning o'ziga xos namunalaridir.

Abdulla Qahhor asarlarining sintaksisi bu jihatdan ham ulkan ibrat maktabidir, Ularda muayyan bir sintaktik struktura ketma-ket kelavermaydi, aksar hollarda gap strukturasi ko'p tarmokdi, ya'ni xalqning ayni jonli so'zlashuviga xos bo'lgan kurilish, tom ma'nodagi tirik nutq. Tirik nutq esa qashshok bo'lmaydi. Yozuvchining xalqchilligi u qo'llagan sintaktik birliklarda ham yaqqol ko'rinadi. Misol: U avval nemisni qarg'adi, keyin yigitdan koyidi:

— Axir, seni bola-chaqangdan ayirgan-ku shu qurib ketgurlar edi, uni otaman degan kishining nega qo'lini tutasan! Xat o'qiyotibdi emish-a! Bola-chaqasi bilan qo'shmozor bo'lmaydimi!.. O'ziga o'zi qilibdi-da ("Asror bobo" hikoyasi).

Bunday xalqona, rang-barang jumlar A.Kahhor asarlarida faqat qahramonlar nutqidagina emas, balki muallif nutqida ham muntazam ko'zatiladi. Yozuvchining deyarli har bir jumlasida jonli nutqqa xos sintaktik ohang baralla eshutilib turadi, muayyan bir gap qolipi ketma-ket qo'llanavermaydi, aksincha, xilma-xil gap qoliplari doimiy al- mashinib keladi. Masalan "Qizlar" hikoyasi mana bunday boshlanadi: Qani biron xolis odam bo'lsa, aytsin: butun O'zbekistonni qidirganda Nurmatjonga o'hshagan yigitdan yana bironta topilarmikin? Bo'lgan taqdirda ham u yoshligida oynaga qarab, Nurmatjonday "men qanaqa xotin olar ekanman" degan emasdir.

Ba'zi odamlar — hazilmi, chinmi — har xil gaplar tarqatishadi: yozda uning ketidan pashsha ergashib yurar emish. Yolg'on! Nima qiladi ergashib? Labining ikki burchi hamisha oqarib turadi deyishadi. Bu ham... kusura emas, balki fazilat — ma'sumlik nishonasi... Ko'rinib turganiday, parchadagi hech bir jumla sintaktik kurilish nuqtai nazaridan biri ikkinchisini takrorlamaydi. Sodda gaplarning ham, qo'shma gaplarning ham farqli va o'ziga xos koliplaridan foydalanilgan, ularga asosan to'zilgan jumlar o'rtasidagi aloqa ham juda mustahkam va tabiiy. Parchada intonatsion rang-baranglik ham o'quvchi diqqatini jalb etadi, xilma-xil tinish belgilari bunga ishora qilib turibdi. Ayni paytda qo'llangan sintaktik birliklar kurilishidagi

o'ziga xoslik bilan bog'liq holatda ham intonatsion rang-baranglik ta'minlangan. Aytish kerakki, mustaqil jumalarning o'zaro bog'lanishi, bu bog'lanishni ta'minlovchi leksik-semantik va sintaktik-funksional vositalarning qo'llanishida ham A.Qahhor ijodi ibratlidir. Zotan, nutqning sintaktik boyligi ana shu bog'lovchi vositalarning rang-barangligi bilan ham o'lchanadi. Matnda takror-takror ayni bir bog'lovchi vositaning qo'llanishi nutqning qashshoklashuviga olib keladi.

Bu o'rinda shuni ham aytish kerakki, nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi, qashshoklashtiruvchi leksiqlik semantika morfologiya sintaktik va intonatsion takrorlarni ifodalilik tasviriylik va ekspressivlikni oshirish maqsadi bilan atayin qo'llanadigan takrorlardap farqlash lozim. Ko'proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmuni alohida ta'kidlash, o'quvchi diqqatini tortish, ohangdorlikka erishish, missiy holatga urg'u berish kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Bu usul o'ziga xos nutq figuralari bo'lib, ular nutqning boylik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, balki ijodkorning mahorati bilan ifodalilikni yo'zaga keltiruvchi vositalarga aylanadi. Masalan, Quyidagi she'riy parchalarda buni ko'rish mumkin:

Yurt bu kun karvonlar boshida nordir,
Yurt bu kun Sharq ichra tengsiz bir diyor.
Yurt bu kun oxuday xo'p ishvakordir,
Sir kabi seravjdir, Pomirday poydor

(A.Oripov, "Hamid Olimjon xotirasiga" she'ri).

Sen borsan — men uchun bu hayot go'zal,
Sen borsan — men uchun dilbar koinot.
Sensiz qolar edim zulmatda tugal,
Sensiz qolar edim butkul bemurod

(A.Oripov, "Sen borsan..." she'ri).

Ey dust!
Uchmoq uchun **qanot kerak qanot kerak**
Qanot kerak lekin uni **qoqmoq kerak**.
Qoqmoq kerak osmonlarni **quchmoq uchun**,
Quchmoq uchun sabot keraq sabot kerak

(A.Suyun she'ri).

Istaysizmi - yukmi, gardun aylana,
Istaysizmi —**yukmi**, qaytib kelaman.
Sog'inmagan ko'zingizdan aylanay,
Istaysizmi — **yuqmi**, sizni sevaman

(I.Mirzo, "Istaysizmi - yuqmi" she'ri).

Tabiiyki, nutqning boylik sifati tilning faqat muayyan bir sathiga oid rang-baranglik bilan baholanmaydi. Nutq leksiqlik semantikli morfologikli sintaktikli va intonatsion jihatlardan rang-barangliklarning jamul jami tarzida shakllanganda, chinakam ma'noda boy bo'la oladi. Shuning uchun nutq to'zuvchi bu jihatlarning har birini tugal tasavvur etmog'i maqsadga muvofiq.

Uslublar nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, nutqning boyligini ta'minlash uchun eng qulay makon badiiy uslub ekanligi shubhasiz. To'g'ri, publitsistik uslub ham nutq boyligining namoyon bo'lishi uchun yaxshigina imkoniyat beradi. So'zlashuv uslubiga oid nutqda leksiqlik semantikli va, ayniksa, intonatsion rang-baranglik notiqning mahoratiga kura muntazam yo'zaga chiqishi mumkin. Ilmiy va rasmiy nutqda esa boylikka qaraganda mantiqliqlik va qoliplashganlik ustuvorlik qiladi.

Aytish mumkinki, badiiy nutq o'z tabiati, mohiyati va maqsadiga uyg'un holatda boylikka moyilligi bilan ajralib turadi. Qashshoq nutq hech qachon estetik ta'sir quvvatiga sohib bo'la olmaydi, estetik kuvvatsiz esa badiiy nutq o'zining bosh vazifasini bajarishi mushkul. Shuning uchun ham haqiqiy so'z san'atkorlari asar tilining boyligi ustida muttasil mehnat qilganlar, tinimsiz izlanganlar, tilning turli satxlaridagi rang-baranglikning betakror imkoniyatlarini kashf etganlar. Chinakam boy, rangin nutqning nodir namunalarini yaratganlar. Badiiy adabiyotimiz tili jamiyatimiz a'zolarining boy nutq to'zish sinoatlarini urganishlari uchun bitmas-tuganmas manba, o'ziga xos maktabdir. Bu benazir maktabning a'lochi o'quvchilari bo'lish o'zini madaniyatli, ma'rifatli, ma'naviyatli kurmoqni istagan har bir kishining burchidir.

VII-Ma'ruza: Nutqning jo'yaliligi va ifodaliligi

Reja:

1.Nutqning jo'yaliligi va nutqiy muloqot

2.Nutqning og'zaki yozma shakllari

3.Nutqning ifodaliligi va uslublar

Agar nutq o'zida barcha kommunikativ sifatlarni mujassam etsayu har jihatdan juyali, ya'ni o'z o'rnida bo'lmasa, u maqsad manziliga borib etmaydi. Juyalilik yuq joyda nutqning boyliqlik aniqliqlik ifodalilik kabi muhim sifatlarning mohiyati yuqoladi.

Sharqning buyuk pandnomachisi Kaykovusning shunday ug'iti bor: "...Tilingni yaxshi xunar bila o'rgatg'il va muloyim so'zdin boshqa narsani odat qilmag'il. Nedinkim, tilga har nechuk so'zni urgatsang, shuni aytur, so'zni o'z joyida ishlattil so'z agar yaxshi bo'lsa ammo noo'rin ishlatilsa. garchand u har nechuk yaxshi so'z bulsa ham yomon nobop eshutilur (ta'kid bizniki. - N.M.). Shuning uchun bexuda so'zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so'z ziyon keltirur va har so'zki undan

xunar isi kelmasa, bunday so`zni gapirmaslik lozim. Hakimlar debdurlar: "So`z bir nash`adur, undan humor paydo bulur".

Xalqimiz donoligining bebaho yombilari, o`ktam o`zbek so`zining ko`rki bo`lmish maqol va matallarda ham ayni fikr bot-bot ta`kiddangan. Ularning ayrimlariga quloq tutaylik: "So`zga tushmagan so`zni aytma, Sozga tushmagan — g`azalni"; "Juyali so`z juyasin topar, Juyasiz so`z iyasin (egasin) topar"; "Juyaga tuya ham chukadi"; "O`rinli so`zga tuya cho`kadi, O`rinsiz so`zga hamma so`kadi". Notiq nutq to`zar ekan, "tuyaning cho`kishi va hech kimning uni so`kmasligi" uchun nutqining juyasini, o`rnini aniq tasavvur qilishi shart. Masalan, kimningdir og`ir kasalligi yoki vafoti haqidagi fikrni ifodalash uchun to`ziladigan nutqda ortiqcha chiroyliligi jimjimadorlik kutarinkilik tantanavorlik bo`lmasligi lozim, aks xrla nutq juyali hisoblanmaydi.

Nutqning juyaliligi, aytish kerakki, nutqiy muloqotda jiddiy ahamiyatga ega. Bu sifat ("umestnost rechi") rus tilshunosi B.N.Golovin tomonidan juda yaxshi belgilangan.

Bu tavsifni ham hisobga olgan holda nutqning ayni sifatini shunday ta`riflash mumkin: juyalilik til vositalarini shunday tanlash, ularni shunday alokalanirish va bir-biri bilan bog`lashki, buning natijasida nutq konkret mulokotning maqsadi va sharoitlariga tamomila javob beradigan tarzda tarkib topadi. Ayni ta`rifdan kelib chiqqsa, juyali nutq ifodalanmoqchi bo`lgan axborotning mavzusi, uning mantiqiy va hissiy mazmuni, tinglovchi yoki o`quvchilar tarkibining yosh, ijtimoiy, madaniy-ma`rifiy va boshqa xususiyatlari, yozma yoki og`zaki nutqning xabar berish, tarbiyaviy, estetik va shu kabi vazifalariga tula mos kelishi asosida yo`zaga keladi.

Qadimgi yunon faylasufi Galikarnaslik Dionisiy nutqning juyaliligi haqida gapirar ekan, muayyan bir mazmun uchun tanlangan ayrim so`zlar va ularning ko`shilishi o`rinli, boshqalari esa o`rinsiz bo`lishini ta`kidlaydi va borliqning o`zi bunga misol ekanligini aytib, shunday yozadi: "...Axir, biz jahlimiz chiqqanda va xursand bo`lgan imizda, noliganimizda va qurqqanimizda, boshimizga baxtsizligu musibat tushganida va qaygusiz, sokin xayollarga chumganimizda aynan bir xil so`z va so`z kutilishlaridan foydalanmaymiz-ku." Albatta, har qanday tilda fikrni ayni holatlarga uyg`un, ya`ni juyali ifodalash uchun etarli lisoniy vositalar mavjud.

Nutq uslublari haqida gap ketganda, ularning har biri uchun xoslangan til vositalari borligi hamisha ta`kidlanadi. Masalan, bir uslubga xoslangan so`z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o`tkazilishi nojoiz, o`rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarni uslubiy juyalilikning bo`zilishi tarzida baholash mumkin.

Bu o`rinda aytish kerakki, juyalilik sifatini o`rganishda nutqning yozma va og`zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida juyalilik o`ziga xos tarzda namoyon bo`ladi. Ma`lumki, yozma va og`zaki nutqning voqe bo`lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko`ra bu ikki nutq shakliningo`ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning juyaliligiga putur etishi mumkin.

Yozma nutqda ko`p qo`llanadigan, demakki, uyga xoslangan yuqorida ko`rsatib o`tilganideq yuqorida aytib o`tilganideq yukorida kurganimizdek; quyida kurib o`tamiz, Quyidagi guruhlariga bo`linadi, mazmuni Quyidagicha shaklidagi bir qancha sintaktik qurilmalar mavjud. Albatga, ular faqat yozma nutqda juyali, lekin bu iboralar og`zaki nutq tarkibiga kirarkan, nutqning juyaliligi tamoman bo`ziladi. Oddiy mantiq

bilan qaralsa, yozma nutq qog'oz (yoki boshqa material) ga bitilgan bo'ladi, sath, makon nuqtai nazaridan moddiylik kasb etadi. Sath, makondagina "yuqori" va "kuyi" tushunchalari ma'noga ega. Ammo og'zaki nutqning moddiyligi makonga emas, balki zamonga, vaqta ko'radir, ya'ni og'zaki nutq talaffo'z paytidagina mavjud. Shunday ekan, zamonga nisbatan "yuqori" va "kuyi" tushunchalari ma'noga ega emas. Zamon "oldin, avval, ilgari" va "keyin, sung" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ko'rinadiki, yozma nutqdagi, masalan, Yukorida ta'kidlanganideq mustaqillikni istamaydigan xalq yuq tarzidagi juyalilik sifatini mujassamlashtirgan jumla og'zaki nutqda Avval (ilgari, oldin) ta'kidlanganideq mustaqillikni istamaydigan xalq yuq shaklida berilsa, nutqning juyaliligi joyida bo'ladi.

Ba'zan kishilarning og'zaki nutqida Yuqorida so'zga chiq- qinlarnang hamma yaxshi tilaklariga biz ham qo'shib, yubilyarni chin dildan tabriklaymiz qabilidagi jumlar uchraydi-ki, yuqorida so'z shakli tufayli nutqning nafaqat juyaliligi, balki mantiqiyiligi, to'g'riligi, aniqligi kabi sifatlari ham izdan chiqadi. Bu nutq juyali va boshqa sifatlarga ham ega bo'lishi uchun, masalan, Oldin (oldinroq, bizdan oldin, bizgacha) so'zga chiqanlarning hamma yaxshi tilaklariga biz ham qo'shib, yubilyarni chin dildan tabriklaymiz shaklida bo'lishi lozim edi.

Nutq to'zishda ifodalanmoqchi bo'lgan axborotning mavzusi, uning mantikiy va hissiy-ruhiy mazmuni anik; tasavvur qilinmog'i va ana shularga uyg'un holatda til vositalari tanlanmog'i kerak. Mavzuga, mantiqiy va hissiy mazmunga muvofiq bo'lmagan har qanday til birligi, sintaktik struktura, intonatsiya, hatto metafora, metonimiya, epitet, o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari, maqol, matal, turli iktiboslarning nutqda begonaligi, bejoligi juda tez bilinadi va bunday nutqni juyali deb bo'lmaydi.

Aytayliq yaqin kishisini yuqotgan odamning hissiy-ruhiy holati ma'lum. Shunday odamdan kungil surash, unga ta'ziya bildirish uchun to'ziladigan nutqda "o'lmoq" ma'nosini ifodalash uchun aynan o'lmoq so'zini tanlash o'rinli emas, bu so'z so'zlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutq- ning juyaliligini ta'minlash madsadida mazkur so'zning vafot etmoq, bo'lmay qolmoq, o'tib qolmoq, olamdan o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq boqiy dunyoga rixlat qilmoq kabi "yumshokroq" (evfemistik) muqobillari qo'llanadi.

Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqda olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantig'i va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning juyaliligi haqida gapirish qiyin. Atoqli rus adibi M.Yu.Lermontov o'zining mashhur "Zamonamiz qahramoni" romanining dastlabki variantida oshiq ofitser Grushnitskiyning mundiridagi epo- letlar (maxsus pogon) ni ikkita kotletga o'xshatadi. Romanning keyingi tahririda esa bu o'xshatishdan voz kechadi va oshiq Grushnitskiyning epoletlarini Amo'ning qanotchalariga o'xshatadi. Ta'kidlash joizki, birinchi o'xshatish juda ham anik va konkret, chindan ham, epoletlar shaklan kotletga aynan uxshaydi, ammo oshiq qahramonning hissiy-ruhiy holati bilan mutlaqo bog'lanmaydi; ikkinchi o'xshatish esa oshiqning ruhiy holati bilan assotsiativ aloqadorlikka ega, ya'ni Amur — yunon afsonalarida sevgi xudosi demakdir. Shuning uchun ham ayni shu keyingi o'xshatish bejo yoki beta'sir emas, balki behad juyali va ta'sirlidir.

Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romanida, masalan, Razzoq so'fining eng mudhish, fojiviy ruhiy holatini tasvirlar ekan, o'rinli, qahramon ruhiyatiga monand o'xshatishlarni qo'llaydi. Mana bir misol: Piyoladagi choyni yarim qoldirib, ko'chaga chiqqan vaqtida so'fi o'z-o'zini taniyolmay qoldi. Oyoqlari xuddi tobut ko'tarib borayotgan musulmonning oyog'iday bir- biriga tegmasidi.

Nutqdagi har qanday kiyoslash ham o'z o'rnida bo'lishi lozim. Noo'rin qo'llangan kiyoslash nutqning juyaliligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan mana bu jumladagi qiyoslashni juyali deb bo'lmaydi: Kishi hayotini saqlab qolish etti qavatli imorat kurishdan ham murakkabroq, deyishadi ("Xurriyat", 2006 yil 5 iyul). Avvalo, xech kim bunday de- maydi, xalq orasida bunday matalnamo ibora yuq, demaq deyishadi so'z shakli joiz emas, Bunday kiyoslashning juyali emasligi shundaki, kishi hayotini saqlab qolish, albatta, murakkab va sharafli ish, ammo uning murakkabligini aynan etti qavatli imorat qurish bilan solinttirishning biron-bir mantiqiy asosi ham, me'yorga daxldor ma'nosi ham yuq. Nega olti yoki sakkiz, un, yigirma qavatli imorat kurish qiyos etaloni sifatida olinmagan? Ko'rinadiki, mazkur jumlada nutqning juyalilik sifati oqsoq.

Mana bu parchaga e'tibor beraylik:

- Kechirasiz, o'zingizni tanishtirmadingiz.

- Asli farg'onalikman. Ismim Kamola. Hozirda ikkinchi oilam bilan Toshkentda yashayman.

O'z tug'ilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...

Albatta. O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l deganlari haq ekan ("Xonadon", 2006 yil 24 avgust).

Bu nutqiy parchadagi O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l maqoli o'z o'rnida qo'llanmagan, chunki bu kabi vaziyatlarga maqolning mazmuni muvofiq kelmaydi. Tabiiyki, Farg'ona va Toshkent boshqa-boshqa yurtlardagi shaharlar emas. Nutqiy olib kiriladigan maqol-mataldir, turli hikmatli so'zlardir yoki asarlardan olingan iqtiboslardir, albatta, nutq vaziyati, ruhiyati va mantig'i bilan uyg'un bulsagina, juyali nutq sifatini ola biladi.

O'z nutqining juyali bo'lishini istagan kishi nutq to'zar ekan, bu nutqni tinglovchi yoki o'quvchining yoshi, ijtimoiy makomi, madaniy-ma'rifiy saviyasi kabi jidatlarni ham nazardan qochirmasligi zarur. Ayniqsa, o'qituvchi bu borada juda xushyor bo'lishi, o'z o'quvchilari uchun ibrat ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Uning har bir jumlasida ana shu jihatlarni tulasicha o'zida mujassamlashtirgan namuna darajasida to'zilishi kerak.

Kichkintoylar nutqini o'stirishga bag'ishlangan qo'llanmada (S.Jo'raev, H.Qodirov) juyalilik sifatidan mahrum bo'lgan ancha-muncha jumalarni ko'rish mumkin. Masalan, bog'cha bolalari uchun Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsaq albatta, ko'rishamiz! kabi iboralarni o'rganish tavsiya etilgan. Holbuki, bu jumalalar bog'cha yoshidagi bola nutqi uchun mutlaqo xos emas, bola tilida ular juyali nutq sifatiga sohib bula olmaydi. Ular bola nutqida hatto chuchmal, kulgili eshivilishini isbotlash kerak emas. Bunday jumalalar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatlarni ola biladi. Yoki yana bir jumlaning ko'raylik: Mashg'ulot davomida "yaxshi" va "a'lo" baholar olgan bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi. Bu jumlada minnatdorchilik bildirmoq iborasi nojuya qo'llangan, shuning uchun nutqni

juyali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'lashga monelik qiladi, bunday o'rinda juyalilik sifati rag'batlantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Umuman, nutqning juyalilik sifatini ta'minlash uchun nutq to'zuvchi nutqiy vaziyatni, o'zi ifodalamokdi bo'lgan mazmunni, tinglovchining turli xususiyatlarini, mulohazaning ijtimoiy-madaniy, axlokiy-estetik jihatlarini etarli darajada tasavvur etmog'i lozim.

Nutqning bu sifati ba'zan ta'sirchanlik tarzida ham talqin etiladi. Ammo ta'sirchanlik keng qamrovli tushuncha bo'lib, u yaxlit yaxshi nutqqa xosdir. Tabiiyki, har qanday nutqning asosiy maqsadlaridan biri tinglovchi yoki o'quvchi ongiga ta'sir etishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirishda esa nutqning muayyan bir sifati emas, balki barcha kommunikativ sifatlari u yoki bu darajada ishtirok etadi. Zotan, to'g'ri yoki aniq bo'lmagan, boy yoki mantiqiy bo'lmagan, sof yoki juyali bo'lmagan nutqning ta'sirchanligi hakida gapirib bo'lmaydi. Lekin ayni paytda nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda ifodalilik sifatining alohida, hatto hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlamok joiz.

Nutq tinglovchi yoki o'quvchining kuruq kulog'ini emas, balki qalb kurg'onini, aql qal'asini zabt etmog'i uchun, eng avvalo, uning tarkibi va kurilishi diqqatni tortadigan, qizg'in qiziqish uyg'otadigan bo'lishi lozim. Bu esa ayni ifodalilik sifatining mohiyatini tayin etadigan xususiyatdir. Boshqacha qilib aytganda, ifodalilik nutqning tarkibiy to'zilishi va boshqa lisoniy xususiyatlariga kura tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qila olishdan iborat kommunikativ sifatidir.

Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog'ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e'tibor qilinsa, ilmiy uslubda o'rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo'ladi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar muammolari yoritilar ekan, nutqning ifodaliligi ayricha ahamiyat kasb etadi. Til nazariyasi va poetika masalalari bo'yicha fundamental tadkikotlar yaratgan mashhur rus, keyinchalik amerika filologi R.O.Yakobson (1896-1982) poetika va uslubshunoslikdan o'zok tilshunos ham, lingvistika muammolariga loqayd qaraydigan adabiyotshunos ham o'zini zamonaviy olim deyishga haqli emas deb hisoblagan. "O'zi esa ayni shu aqidaga qat'iy amal qilgan, shuning uchun ham asarlarini juda ham qiziqarli, diqqatni ushlab turadigan, ifodalilikka boy tarzda yozgan, uta ifodali nutq bilan baxslashgan va fikriga ko'shilmaganlarni ham ishontirib, o'z tomoniga og'dirgan. Uning ijodini urgangan olimlar "uning nazariy va metodologik kontseptsiyasidagi ichki ziddiyatlar qisman shuning uchun hamisha ham tadqiqotchilar e'tiborini tortmagan bo'lishi mumkin"ligini ta'kidlaydilar.

Tabiiyki, tashviqot xarakteridagi ma'ro'za yoki dars jarayonidagi bayon nutqida ham ifodalilik alohida zaruriyatga aylanadi. O'qituvchi dars mavzusini tushuntirar ekan, o'z nutqining ifodaliligiga e'tibor bermasa, ifodalilikni ta'minlaydigan vositalardan foydalanmasa, nutqi quruq, shirasiz, jozibasiz bo'ladi va natijada bunday nutq o'quvchi diqqatini torta olmaydi. Mavzu aslida qanchalik qiziqarli bo'lmasin, mazkur ifodalilik sifatidan maxrum nutq sabab o'quvchida tayinli qiziqish uyg'onmaydi, dars tinglovchi uchun zerikarli bir yumushga aylanadi. O'z-o'zidan o'quvchi bunday darsning tezroq tugashini kutadi, undan qutulish umidi bilan vaqt o'tkazadi.

Ifodaliliq ayniqsa, chinakam badiiy nutqning benihoya zaruriy sifatlaridandir. Zotan, ta'kidlab o'tilganideq aynan badiiy nutqda tilning estetik vazifasi birinchi planga chiqadi, butun kulami bilan namoyon bo'ladi. Bu vazifaning amalga oshishida esa aynan nutqning ifodalilik sifati favkulodda muhim o'rin tutadi.

Tilda ifodalilikni yo`zaga keltirishga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ham ko'p va xilma-xil. Bunday imkoniyat hech bir istisnosiz tilning barcha satxlarida mavjud. Tilning tovush kurilishi, so`z xazinası, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya, uslub kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq to'zuvchi bu manbalarning mohiyati, tabiati va ularni unumli ishga solish usullaridan etarli xabardor bo'lsa, nutq-ning ifodalilik sifatini ta'minlashga qiynalmaydi.

Aloxida estetik maqsad bilan qo'llangan bir tovush, bug'in, ypg'y kabi fonetik birliklar nutqda ifodalilikka xizmat qiladigan vositalarga aylanadi. Masalan, Kurqayman! jumlası va uning Kur-may-man! tarzida butinlab aytilgan varianta o'rtasida ifodalilik jihatidan ancha-muncha fark bor, albatta, butinlangan jumla sezilarli darajada ifoda- li, demakki, ta'sirli. Yoki adabiyotshunoslikda alliteratsiya, assonans deb yuritiladigan unli va undoshlar takrori natijasida nutqda yo`zaga keladigan ifodalilikni eslaylik. Hassos so`z ustasi E.Vohidovning ushbu turtligidagi q undoshining takroridan tug'ilgan ifodaliliq dilbar bir ohangdorlik ham diqqatga, ham hayratga molik:

Qaro qoshing, quyuq qoshing, qiyiq kayrilma qoshing, qiz,
Qilib qatling'a qasd, qilich qayrar qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb kushin qiynab, qanot qoqmoqqa quymaysen,
Qarab quyg'il qiyokim, qalbni qizdirsin kuyoshing, qiz.

Tilning so`z xazinası nutqiy ifodalilikning o'ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug'at boyligi haqida gap ketar ekan, lug'aviy birlik hisoblanmish frazeologik iboralar ustida ham tuxtalmoq joiz, chunki so`z bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtai nazaridan katta imkoniyatga ega ekanligini sezmaslik mumkin emas.

Frazeologik iboralarning ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka ega bo'lmagan ko`rinishlari tilda aytarli yuq darajada. Shuning uchun ham o'zbek tali frazeologiyasi ilmiga tamal toshini quygan Sh.Rahmatullaev iboralarni "nutqimiz kurki" deb ta'riflaydi. Iboralar ma'no hajmi, qamrovi jihatidan ham so`zga nisbatan ustun- likka ega. Bu munosabat bilan A.Hojiev shunday yozadi: "Fra- zeologizmlar so`zlar kabi yaxlit bir ma'no (belgi, harakat kabilarni) ifodalasa-da, lekin frazeologik ma'no ko'p jihatdan leksik ma'nodan farq qiladi. Shu sababli frazeologizmlar so`zlarga sinonim bo'lgan hollarda ham frazeologik ma'no bilan leksik ma'no bir-biriga teng bo'lmaydi. Qiyoslang: o'taketgan — uchchiga chiqqan, beqiyos(juda) — er bilan osmoncha, albatta — turgan gap, hech qachon — ikki dunyoda (ham), yashirin (xufiya) — eng ichida. Keltirilgan frazeologizmlar o'z sinonimlari bo'lmish so`zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ular obrazlilik ottenkasiga ega.

Umuman, frazeologik ma'noning hajmi leksik ma'noning hajmiga nisbatan keng, murakkab bo'ladi. Ko'pina frazeologizmlar ma'nosida so'zning ma'nosida yuq komponent bo'ladi. Masalan: yoqasini ushlamoq, boshida yonyaoq chaqmoq, er-kukka ishonmaslik oddiygina hayron bulish, azoblash, ardoqlash emas, balki ortiq darajada hayron bulish, nihoyat darajada azoblash, uta darajada ardoqlashdir. Demaq bu frazeologizmlar ma'nosida "uta (ortiq) darajada" komponenti bor".1

Nutqning ifodaliligini ta'minlashda frazeologik iboralar yana shuning uchun ham betakror vositadirki, ular "hayotdagi voqea-hodisalarni ko'zlatish, jamiyatdagi maqbul-nomaqbul harakat-holatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir" So'z san'atining ustalari tildagi bu vositadan unumli foydalanadilar. Masalan, kutmagan so'zi etti uxlab bir tushiga kirmagan iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan so'zdan ustun. Ayni ma'noda iborani qo'lash nutqning ifodaliligini ta'minlashi tabiiy: Mingboshi hayron bo'lib qoldi. Bu etti uxlab bir tushiga kirmagan fikr edi. Ko'zini keng-keng ochib, mexmonga qaradi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Hech qachon so'zi va tuyaning dumi erga tekkanda iborasi urtasidagi ekspressiv farq yanada sezilarlidir: Otaboy tuyaning dumi erga tekkanda osh qilib beradi, — deb pungilladi Ko'ziboy ensasi qotib (S.Ahmad, "Tuyboshi" hikoyasi). Ko'pincha yozuvchi iboraning tarkibini o'zgartirishi, yangilashi, boshqacharoq qilib to'zishi va shu tarzda ifodalilikni yanada kuchaytirishi mumkin. Birgina misol, Cho'lpon o'z romanida ko'z-quloq bo'lib turmoq iborasini ko'z-quloq qilib bermoq tarzida o'zgartirib kullagan, bu nutqqa alohida obrazlilik baxsh etgan: Maslahat natijasida qaynona bilan kelin uyda qoladigan bo'lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko'z-quloq qilib berilgan edi.

Ma'lumki, frazeologik iboralar ma'nosi ular tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nolari umumlashmasidan iborat bo'lmaydi, balki frazeologik ma'no mazkur so'zlardan biri yoki bir nechasini muayyan bir obraz asosida kuchma ma'noda qo'lash orqali yo'zaga keladi. Ijodkorlar ibora tarkibidagi so'zlarning to'g'ri ma'nolarini "tiriltirish" va ularni frazeologik ma'no bilan qarshilantirish yuli orqali kulgi chiqarish, o'ziga xos obrazlilikni yaratishga ham harakat qiladilar. O'tkir o'zbekcha kulgining hadisini olgan S.Ahmadning "Chuchvara" hajviyasidan olingan ushbu parchada buni ko'rish mumkin: Majlisda unga:

— Sen bola, chuchvarani xom sanab yuribsan. Shoshma hali, jujani ko'zda sanaymiz. Bu qanaqasi, sirkang suv kutarmaydigan bo'lib qopti, — deyishdi...

Endi menga navbat! Mening sha'nimga juda ko'p nojuya gaplarni aytdinglar. Hammasiga javob tayyor: chunonchi, sirkasi suv kutarmaydi, dedinglar. Nimaga shama qilyapganlaringni bilaman. O'zumchilik zvenosida ishlaganimda sirka solganman. U suv kutaradimi, yumi, o'zim bilaman. Ikkinchi masalaga o'taylik: jujani ko'zda sanaymiz, dedinglar. Bundan ikki yil oldin parranda fermasini uchma-uch qilib topshirganman. Jujasi ham, ho'rozi ham tuppa-to'g'ri chiqqan. Endi uchinchi masala: chuchvarani xom sanaydi, deysizlar. Mana shu gap menga og'ip botdi. Qani aytinglar-chi, mening chuchvara sanayotganimni kim ko'ripti? Kimning uyiga kirib, chuchvarasiga kul tekkizibman? Voobshe, men chuchvara emayman...

So'zning ifodalilikni ta'minlashdagi imkoniyatlari ham benihoya katta. Taqlidiy (va tasviriy) so'zlarni olib ko'raylik. Ma'lumki, tovushga yoki obrazga takdid asosida

yo`zaga kelgan so`zlar tildagi eng sodda va kadimiy so`zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo`lishi borasidagi talldinlarda takdidiy so`zlar masalasiga ham alohida o`rin beriladi. Hatto til tabiatdagi xilma-xil tovushlarga taqlid qilish natijasida paydo bo`lgan degan qarash ham mavjud. Aytish joizki, muayyan predmetga xos bo`lgan tovushli harakat, asosan, taqlidiy o`zakli fe'l bilan ifodalanadi. Bunday so`zlar tegishli predmetni juda aniq, tiniq tasavvur qilish imkonini beradi, usha predmetning tovushi yoki obrazi qo`lokdar ostida aks sado berib turadi. Ana shu ma`noda taklidiy so`zlarning nutqdagi ifodalilik badiiylik kuvvati beqiyosdir. Mana Alpomishning Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan elib borayotgani tasvirlangan badiiy nutq:

Dubulg'a boshda **dungullab**,
Kark kubba qalqon **qarqillab**,
Tilla poyanak urilgan
O`zangilarga **sharqillab**,
Bedov otlari **dirkillab**,
Olg'ir kushdayin **charqillab**,
Kulda nayzasi **suqillab**,
Yurmoqchi o`zoq yuliga,
Qaramay ungu so`liga,
Etsam deb yorning eliga,
Siltab yuradi Boychibor...
Yul yurar davlatli shunqor.

So`zlarni ko`chma ma`noda qo`lash ham nutq ifodaliligini ta`minlash uchun tunganmas manbadir. Kuchma ma`noning deyarli barcha asosiy holatlarda emotsional-ekspressiv buyoqdorlikka ega bo`lishi ma`lum. Mana bu jumlagi e`tibor beraylik: Men har gal Matyokubnkiga borganimda uning xonasiga kirishdan avval un-un beshta kitobni xarid qilish uchun ajratib kuygan bo`lardim. Lekin ularni silab-siypab, varaklab ko`rib, yana qaytarib berardim — karmon qurg`ur uncha

semiz emas edi (O.Sharafiddinov, "Snayperlikdan — aka- demiklikka" maqolasi). Ikkinchi jumlaning karmon kurg`ur uncha semiz emas edi qismi alohida ifodalilikka ega. Bu ifodalilik esa semiz so`zining ko`chma ma`noda qo`llanishi hisobiga yo`zaga kelgan (albatta, bunda og`zaki nutqda xos kurg`ur so`zining ham ishtirokini ta`kidlash mumkin). Ayni qismdagi fikr bunday qo`llanishsiz, ya`ni Karmonimda pul ko`p emas edi shaklida ifodalanganda edi, nutqning ifodalilik sifati buy ko`rsatmagan bo`lardi.

Nutqda so`zlarni kuchma ma`noda ishlatishning xilma-xil ko`rinishlari mavjud bo`lib, ular kuchimlar (yoki troplar) nomi bilan umumlashtiriladi. Kuchimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya`ni ikki narsa yoki tushuncha o`rtasidagi muayyan munosabat (o`xshashliq umumiylik aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik ifodalilik aniklikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga kuchiriladi. Shuning uchun ham ko`chimlar o`ziga xos tasviriy vositalar sifatida nutqning ifodaliligini ta`minlashda alohida o`rin tutadi.

Nutqning ifodaliligini ta`minlashga xizmat qiladigan ana shunday tasviriy vositalardan biri epitet bo`lib, uni sifatlash ham deyishadi. Buning sababi shuki, epitet

narsa yoki tushunchaning belgi-xususiyati, sifatini aniq, ravshan va obrazli ifodalaydi, ayni paytda bu ifoda ekspressiv-emotsionallikka ega bo'ladi. Epitet tildagi mavjud imkoniyatga ko'ra faqat nutqda voqelanadi. Masalan, temir qoshiq birikmasidagi temir so'zi o'z ma'nosida, bu so'z, aytayliq "Temir xotin" (Sh.Boshbekovning asari nomi) birikmasida esa ko'chma ma'noda, ya'ni epitetdir. Mazkur epitet nutqning emotsionalligi, ekspressivligini, demakki, ifodaliligini oshirishi aniq. Bardoshli xotin, chidamli xotin, toqatli xotin kabi holatlarda temir xotin birikmasidagi ma'no umuman ifodalanar, ammo tushunchaning qamrovliligi, ifodaliliq obrazlilik tamoman yuqoladi. Aytish mumkinki, epitetlar asosida ham qiyos yotadi, ya'ni ularni qisqargan o'xshatishlar deyish mumkin. Boshqacha aytganda, yuqoridagi misolga qaytsaq temir bilan xotin chidamlilik belgisiga ko'ra qiyoslangan, ya'ni temirday chidamli (bardoshli, toqatli) xotin tarzidagi o'xshatish konstruksiyasini tasavvur qilayliq qiyos uchun asos bo'lgan "chidamlilik" belgisi avvalo temirga xos, temir so'zi ayni belgining etaloni sifatida to'g'ridan-to'g'ri xotin so'ziga sifatlovchi tarzida qo'llangan. Kuchli ekspressivlikka ega va mazkur belgilarni qabariq hamda boshqa ikir-chikirlari bilan ifodalaydigan ko'chma ma'no voqelangan. Nutqda epitetning yo'zaga kelishi mexanizmi, asosan, shu zaylda bo'ladi. Badiiy nutqda epitetlar o'ziga xos badiiyat vositasi sifatida faol qo'llanadi. Bir necha misol: Holbuki, u o'zini bil- masdan va hech narsa uylayolmasdan telba qadamlar bilan bitta-bitta bosib ilgari yurardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Lablarimda, peshonamda sezaman mo'z nafasini (Zulfiya). Oltin O'zbekiston tuprog'i bu kun bir pari faslning og'ushida mast (A.Oripov, "O'zbekistonda ko'z" she'ri). Ko'rg'oshii xayollar ezadi bag'rim, janda umidlarga solaman yamoq (Faxriyor, "Ayolni eslamoq..." she'ri). Ko'chimlarning eng keng tarqalgan turlaridan yana biri metaforadir. Bunda narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi uxshashlik asosida nom ko'chadi. Masalan, qozonning kulog'i birikmasidagi kuloq so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u odamning kulog'iga o'xshashligi asosida yo'zaga kelgan. Lekin ayni so'zning bu ma'nosi tilda doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashgan, mazkur tushunchaning nomiga aylanib, tilning lug'at boyligidan joy olib bo'lgan. Shunga ko'ra bunday metafora nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qimmatga ega emas. Metafora qanchalik yangi, ohorli, tutilmagan bo'lsa, shunchalik ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orkali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misollarda buni kurish mumkin: Zotan, ularning o'zlarini unutar darajada bir-birlari bilan bu xilda uynashuvlari usha g'am-g'ashlar purjinasining bo'shalishi, siqintilar oqimining tug'onni bo'zib oldinga tomon yul solishi emasmidi?! (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). "Telbaning ishini unglaydi xudo", yillarning og'zida saqich bu naql (I.To'lakov, "Maqol" she'ri). Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor, Terlab ketganini kursang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor (I.Mirzo, "Izimdanda sudralib" she'ri).

Ta'kidlanganiday, metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida yo'zaga keladi, lekin qiyoslanuvchilardan faqat birining, ya'ni o'xshatish etaloning nomigina lisoniy ifodalanadi, metaforik ko'chma ma'no ayni shu so'zda vokrlanadi. Shunga ko'ra metaforani yashirin yoki qisqargan o'xshatish ham deb nomlashadi. Ayni paytda nutqda to'liq (ya'ni qiyoslanuvchilarning har ikkisi ham, o'xshatish asosi

va o'xshatish ko'rsatkichi ham lisoniy ifodalangan) o'xshatishlar ham borki, ular ham nutq ifodaliligini ta'minlashga ko'maklashadigan tasviriy vositalar sirasiga kiradi.

Badiiy nutqning ifodaliligi nuqtai nazaridan qaralganda, o'xshatishlarning musichadek beozor (odam), ayiqday ko'pol (yigit), toshday qattiq (narsa), mo'zday sovuq (suv), qorday oppoq (rang) kabi qo'llanishi an'anaga kirib qolgan, hammaga ma'lum bo'lgan turlaridan ko'ra nutq to'zuvchining, ijodkorning o'zi tomonidan yaratilgan, ya'ni xususiy-muallif o'xshatishlari ahamiyatlirokdir. Tug'ri, mazkur an'anaviy o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligi uchun ma'lum darajada xizmat qiladi. Masalan, musichadek beozor odam birikmasi beozor odam birikmasiga nisbatan, ayiqday ko'pol yigit birikmasi ko'pol yigit birikmasiga nisbatan, toshday qattiq narsa birikmasi qattiq narsa birikmasiga nisbatan ifodalibroq, ekspressivroq ekanligi ko'rinib turibdi. Shuning uchun odatdagi nutqning ifodaliligini ta'minlash uchun ulardan ham foydalanish lozim. Ammo nutqning, ayniksa, badiiy nutqning ifodaliligini kuchaytirish uchun xususiy-muallif o'xshatishlari alohida ahamiyatga molikdir. Ijodkorning bevosita o'zi yaratgan, uning o'tkir ko'zi, ko'lamli tasavvuri va bepoyon taxayyuli, ziyrak ko'zlatishlari mahsuli sifatida yo'zaga kelgan va o'z o'rnida qo'llangan o'xshatishlar betakror obrazlarning go'zal ifodachilariga aylanadi, haqkoniy ta'sirli tasvir uchun xizmat qiladi, nutqda kuchli poetik mazmun kasb etadi. Mana bu parchaga e'tibor beraylik:

Men ipak qurti kabi
Xayolimga o'raldim,
Tuyg'ularning girdobi
Orasida yuqoldim

(Oybeq "Shoir bilan suhbat" she'ri).

Parchada murakkab hissiy holatning go'zal va real tasviri berilgan, bu hissiy holatning asosiy va ajoyib mazmuni birinchi ikki misradagi ko'tilmagan, favkuloda o'ziga xos o'xshatishda nozik ifodasini topgan. Ipak qurti kabi tarzidagi o'xshatish etaloni nixoyatda original, ayni holat ifodasi uchun juda mos. Ma'lumki, ipak qurti ipak chiqarib o'zini o'zi o'raydi va pilla hosil bo'ladi, o'zi esa oppoq pilla ichida pinhon bo'ladi. Shoir esa o'z xayoliga o'raladi, u pilladay oppoq xayollar ichra pinhon bo'ladi. Teran va tarang tasvir, haqiqiy oybekona o'xshatish. Aytish mumkinki, mazkur o'xshatish hissiy holatning benihoya emotsional rasmini chizish imkonini bergan. Yana misollar: So'fning tani shu topda Arabiston toklarining saratondagi toshlariday qizib yonardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Uning xumor bilan kuyib yongan miyasi shoshilish poezdning o'txonasiday tez va soat mexanizmasiday muntazam ishlardi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). She'r tuqiyman urgimchak kabi muhabbatning tolalaridan (Faxriyor, "Ruhning kulankasi" she'ri). Maydalab o'rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar — nay kuksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (I.To'lakov, "Paxtazorni sog'inganda" she'ri). Kunglim ham bu kecha oyday yarimta (A.Oripov, "Bahor" she'ri).

So'z ustalari ba'zan o'xshatish asosini umumlashtirgan holda o'xshatish yaratadilar, bunda o'xshatishning mazmun hajmi yanada kengayadi. Bunday o'xshatishlarda qiyoslanuechilar muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki barcha belgilariga ko'ra, ya'ni umuman o'xshatiladi. Masalan, hassos adib Oybek "Hamza"

nomli dostonida Shohimardon qishlog'ining o'tmishdagi manzarasini tasvirlar ekan, shunday o'xshatish yaratadi:

Pastda qishloq, toshlarga qapishibdi zich —
Faqir uylar **qaldirg'och inlari kabi**.

Shoir faqir uylarni qaldirg'och inlariga o'xshatadi. Albatta, qaldirg'och inlarining o'xshatish etaloni sifatida tanlanishi Oybekning tiyrak nigohi maxrulidir. Agar faqir uylar to'lig'icha tavsiflanadigan bo'lsa, hatto bir-ikki sahifa ham kamlik qilardi va shunda ham bu o'xshatish etaloni ifodalaganiday yorqin va ta'sirli tavsif yo`zaga kelmagan bo'lardi. Faqir uylar qaldig'och inlariga bir emas, balki bir necha, ya'ni guvaladan kurilganliq kichiklik ko'rimsizliq osilganlik kabi belgilar asosida yaxlit holatda o'xshatilgan, mazkur ifoda aniqlik bilan bir qatorda ekspressiv buyokda ham ega. Mana yana bir oybekona o'xshatish:

Mana suvga tushar polvon qiz,
Tulqinlarni hech pisand qilmay...
Sochlar suvda qora ilonday

("Qizlar" she'ri).

Ko'chimlarning yana bir turi bo'lmish metonimiya tasviriy vosita sifatida nutqning ifodaliligini ta'minlashga xizmat qiladi. Narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishi metonimiyaning mohiyatidir. Masalan, Dasturxoniga qarang! jumlasidagi dasturxon so'zi metonimik qo'llan- gan, ya'ni dasturxondagi noz-ne'matlar nazarda tutilgan. Badiiy nutqdan olingan Quyidagi misollardagi metonimiya tufayli yo`zaga kelgan ifodalilikka e'tibor qiliig: Uning aytishicha, mingboshi etib borguncha qishlokning qariyb yarmi qirilib bitadi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ko'ltiqda Pasternak yo Pushkin, Hislarda uchadi dilgirlik (Oybeq "Bo'sh kunim..." she'ri). Bu erga termulib parishon dunyo To'g'rilab oladi kulda soatin (A.Oripov, "Kenglik nuktasi" she'ri).

Narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirish tarzida talqin etiladigan sinekdoxa ham ifodalilik uchun xizmat qiladi. Masalan, Bu kishi tirnoqa zor jumlasidagi tirnoq so'z sinekdoxa yuli bilan "farzand" kuchma ma'nosida qo'llangan, ya'ni nutqda "bo'lak" (tirnoq) nomi bilan "butun" (farzand) nomlangan. Ammo bu tasviriy vosita o'zbek nutqida u qadar keng tarqalgan emas, Ayrim misollar: **Shop muylov** o'rnidan turib ketdi: - Nafisamisan.? Voy-voy, - deb yuborganini o'zi bilmay qoldi (S.Ahmad, "Bahor qizlari" hikoyasi). Do'stlar eshigi ham taq-taq yopilgay, Fyccali qalb u yon gar kuysa qadam (A.Oripov, "Baxtiyor..." she'ri). Shunday o'tib borar umrimiz bekor... Oramizda sarson bir juft qora ko'z (A.Oripov, "Yondimu va lekin..." she'ri).

Mubolag'a va kichraytirish ham badiiy tasvir vositalaridan bo'lib, ular ham kuchma ma'noga asoslanadi. Mubolag'ada narsa, belgi-xususiyat oshirib, burttirib ifodalansa, kichraytirishda ular haddan ortiq darajada kichraytirib tasvirlanadi. Har ikki tasviriy vosita ham ifodalilikka xizmat qiladi, tinglovchi yoki o'quvchi diqqatini darhol jalb etadi. Xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyot, so'z ustalari nutqida bu tasviriy vositalar

anchayin keng qo'llanadi. Quyidagi parchalardagi mubolag'aga e'tibor qiling: Oh urarman, oh urarman, Oxlarim tutsin seni. Ko'z yoshim dars bo'lib, Baliklari yutsin seni (Xalq kushig'i). Sovchining ko'pligidan ostonasi eyilib ketgan deydilar (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani). Ilojin topsa agar, ketmoning dastasini ham Erga qadab, termulib, ko'kartirguvchi bu xalq. Jazm etsa ko'kka buyar jahon xaritasini ham, Bugun cho'lga chiqibdi, niyati topsin barhaq (A.Oripov, "Qarshi kushig'i" she'ri). Ushbu parchalarda esa kichraytirish qo'llangan: Tariqday zaminning ustida beun Yashab utdi shundoq buyuk bir yurak (A.Oripov, "Noma'lum odam" she'ri). Shu zamon ko'zingiz oldida birdan Kichik chumolicha qolgusi Farhod... Yo'z yilda qaytibdi bunday falokat, Yo'z yil-ku tarixga — qoshning orasi (A.Oripov, "Avlodlarga maktub" she'ri).

Nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya ("ironiya" ham deb ham yuritiladi, turli ko'rinishlarga ega) ham alohida o'rin tutadi. Bunda so'z yoki ibora o'z ma'nosiga tamomila qarama-qarshi bo'lgan kuchma ma'noda ishlatiladi. Kinoya so'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushuichaga kesatikdi, pichingli, istehzoli, umuman, salbiy munosabatini ifodalash vositalaridan bo'lganligi uchun xam so'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, salbiy buyokdi ma'no vokelanadi. Bunday kinoyaviy ma'noning vokelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiyaning ham alohida rol uynashini ta'kidlamog' lozim. Masalan, Bugun jug'rofiya o'qituvchisi darsga kelmadi. Xottok qilaman deb so'ridan yiqilib, oyog'ini sindiripti. Ajoyib "xushxabar"- dan keyin bir zumda sinf bo'shadi-qoldi (S.Ahmad, "Bir o'pichning bahosi" hajviyasi) parchasida xushxabar so'zi "shumxabar" tarzidagi kinoyaviy ma'noda qo'llangan. Kinoyada so'z yoki iboraning tildagi ma'nosi bilan nutqda reallashgan kuchma ma'nosi o'rtasidagi zidlik kuchli ta'kid oladi va shunga ko'ra birdaniga diqqatni jalb etadi. Quyidagi misollarda ham buni kurish mumkin: Yozuv mashinasi bo'lmagan tergovchi maxramasining mirzasi bechora protokolni juda zur diqqat va hafsala bilan ko'chirgan. Ori rost, erli halqning nomlarini yozishda u ham chalasavod bolalarning ishini qiladi, ya'ni "Akbarali" degan so'zni bir joyda "Umarali", yana bir joyda "Amir ug'li", yana bir joyda "Qambarvali" deb yuboradi (Cho'lpon "Kecha va kundo'z" romani). Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi — Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va erini haydab olgani bitta emas, ikkita xukiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor. Bu shart ko'zda ma'lum bo'ladi (A.Qahhor, "Ug'ri" hikoyasi). — Ikromjon akamni qamokda olib ketishdi. Hamma narsani xatlab ketishdi.

Hojar derazadan bosh suqdi:

— Kelinning oyog'i "kutlug'" keldi-da! Ha, qadami "yoqdi" (S.Ahmad, "Poyqadam" hajviyasi).

Ko'chimlarning yana bir turi jonlantirish bo'lib, unda insonga xos xususiyatlar jonsiz yoki mavhum narsalarga nisbatlanadi, ya'ni jonsiz narsalar insonlar kabi harakat qiladi, uylaydi, gapiradi. Bu tasviriy vosita ham nutqning ifodaliligini oshirishga xizmat kiladi. Jonlantirish ko'prok xalq og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyotda ko'zatiladi. Misollar:

Chultoq xassasini o'qtalib Hasad

Ilxomning boshiga tushirdi chunon:

— Kim quyibdi senga parvozni, nomard, Bizlar er yo`zida yursak sargardon (A.Oripov, "Shoir va ilhom" she'ri). Supurgi etgan joyidan nariga o'tmasdan erga yonboshladi (Cho'lpon, "Kecha va kundo'z" romani).

Nutqning ifodalilik sifatini yo`zaga keltiradigan ko'chimlar, tasviriy vositalar juda ham xilma-xil, rang-barangdir. Tabiiy, ular faqat yukorida kurib o'tilganlar bilangina chegaralanmaydi. Aytish lozimki, nutqning ifodaliligini ta'minlash xaqida uylanar ekan, albatta, mazkur tasviriy vositalarning me'yorini ham unutmash kerak. Muayyan bir matnda bu tasviriy vositalarning barchasini kalashtirib tashlash, o'rinli-o'rinsiz ularga murojaat qilaverish nutqning ifodaliligiga, ta'sirchanligiga salbiy ta'sir etishi tayin. Keragidan ortiq qo'llangan tasviriy vositalar nutqning chuchmallashuviga olib keladi.

Tilning fakat leksik sathigina emas, balki sintaktik sathi ham nutq ifodaliligini ta'minlashda benihoya keng imkoniyatlarga ega. Sintaktik kurilmalarning rang-barangligi, sinonimikasi ifodalilikni kuchaytirishga qanchalik xizmat qilsa, muayyan bir sintaktik birlikning atayin qilinadigan takrori ham bu jixatdan shunchalik diqqatga sazovor, ifodalilikni yo`zaga keltirishda sintaktik figuralar, gapdagi so`z tartibi, intonatsion vositalarning rolini xam esdan chiqarmaslik lozim. Ifodali nutq to`zish malakasini shakllantirishda tildagi barcha vositalar — leksik-semantiq leksik-sintaktik sintaktik intonatsion vositalarning imkoniyatlarini to'g'ri va to'la tasavvur etish muhimdir.

VIII-Ma'ruza: O`qituvchining nutq texnikasi

Reja:

- 1.Nutq texnikasida ovozning o'rni**
- 2.Nutq jarayonida nafas olish va nafas chiqarish**
- 3.Tovushlarni aniq talaffo`z qilish**

Tuliy, mukammal shakllangan, talab darajasidagi nutq texnikasi o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim o'zvi, ta'bir joiz bo'lsa, tamallaridandir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini tug'ri vokelantirish kunikma va

malakalarining jami nutq texnikasi demakdir, Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush kushilmalarini aniq talaffo'z qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasidagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy kuroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

XIII asr Sharqining ulkan adibi Shayx Sa'diy Sheroziyning mashxur "Guliston" asarida shunday bir hikoyat bor: "Sanjariyya masjidida bir kishi rag'bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulq-lik. Xoxdamas erdiki, aning kunglini mukaddar aylasa, aydi: "Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga un tillo berurmen, tokim bulak mahallaga ketarsen". Bu so'zga ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin sungra amirning ho'zuriga qaytib keldi va aydi: "Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, un tillo bilan meni bu mahalladin junatding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bulak mahallaga ketsam qabul etayurmen". Amir kuldi va aydi: "Aslo olmagaysen, zero ki ellik tilloga ham rozi bulurlar". Yoqimsiz ovoz kishilarni o'ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan barcha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo'la-di.

Mashxur rus olimi M.V.Lomonosov o'zining "Notiqlik bo'yicha qisqacha qo'llanma"sida notiq bulish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa rudy va jismoniy turlarga bulinishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yokimli ovoz, o'zun nafas va bakuvvat kukraq shuningdeq sog'lom tana va kelishgan komatni nazarda tutadi.'

Bugungi kunda siyosatchilarning imiji ("qiyofasi")ni yaratishda bir qancha tashki omillar qatorida ularning ovoz tembri ham muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi. Umuman, siyosatchimi, o'qituvchimi, aktyormi, jurnalistmi, kim bo'lishidan kat'i nazar, uning og'zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlar mavjud bulsa-yu ovozida u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta'sir kuchini kamida yarmiga yuqotadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yo'z kishigami, boringki, ming kishigami, buning fardi yuq, o'zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovozning, ovoz sifatining o'rne favquloda, a mudimdir.

"Tabiiy jismoniy qobiliyat" sifatidagi, aytayliq xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yokimli bulolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini kiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan "libos kiygan" fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish kulokdan utolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad — muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda etkazish uchun kulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Tabiatan ana shunday "kuloqni qiynaydigan" ovozga ega bo'lgan odam o'z ishining samarasidan chinakam ho'zur tuyushi, Shayx Sa'diyning "Guliston" idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy kuroli nutq bo'lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani ma'qul.

Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lgan kasblar orasida o'qituvchilik birinchi o'rinda turadi, buning ustiga, o'qituvchilar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg'ul bo'lganlar sonidan sezilarli darajada ortikdir.

O'qituvchining ovozi, talaffuzi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha o'quvchilar, ayniksa, kichik sinflardagi o'quvchilar uchun o'ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. O'qituvchining tirik nutqidagi, kattadir, kichikdir, har qanday nukson o'quvchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nukson o'qituvchi nutqida muntazam ko'zatilisa, o'quvchi o'qituvchidan nohaq bulsa-da, ranjigan hollarida mazkur nukson asosida uni sirtidan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, o'quvchilar o'zaro ana shunday o'qituvchi haqida gaplashganda, uni mazkur nuksonli ovoz, talaffo'z yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'zi ungida qusursiz va qadrli ustoz imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri, tugma xirqirokdiq chiyildokdik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman kutulishning iloji yuq. Ammo nutq texnikasini etarli darajada bilmaslik oqibatida yo'zaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlardan xabardorliq ovozni yulga quyish (ruschada "postanovka golosa"), aniq talaffo'z qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bulish mumkin.

Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffo'zi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chukur urgangan olim S.Inomxo'jaev ta'kidlaganideq keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir erto'la qazib, shu erto'lada ovozini rivojlantirish, diktsiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashklar qiladi. Talaffo'zidagi nuqsonlar, "r" tovushini aytolmasliq ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maksadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi.

Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya kiladi. Demosfen gapirayotganda bir elkasini xadeb ko'taraverish odatidan ko'tulish uchun ertulasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib kuyib, elkasini xanjarning ayni uchiga tug'rilab turib, mashklarini davom ettiradi. Ana shunday mashakatli va muntazam mashklar tufayli Demosfen notiqlikning chung cho'qqisini zabt etgan.

"O'qituvchi nutqida ko'zatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bulish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yulga kuyilishi kerakki, nafas olish zuriqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, o'zun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chikarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chikarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning etmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bulinib ketishi, mantikiy mazmuni bo'zadigan noo'rin pao'zaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rtaga chiqadi. Masalan, Qadimiy va boy tilimizning sofligini saklash har birimizning burchimizdir jumlasini aytilarkan, masalan, har so'zidan keyin nafas tutab qolsa, ilojisiz, nafas olish uchun tuxtalish majburiyati paydo

bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bulinishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas jumlaning oxiriga borib etmay qolsa, jumladagi sunggi so'z "yamlanib" talaffo'z qilinadi, so'zlovchi xudud bo'tilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada kiynoq tug'diradi.

Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qurqqanida yoki og'ip musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy xolatlarga tushganida so'zlarkan, iafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay koladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri takrimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yotmay qoladi. Tabiiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. O'qituvchi bunday xolatlarni ham hisobga olishi maksadga muvofiq. U dars jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi keraq aks xolda bu xolatlar uning nutqiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (buyokdorligi), cho'zikliki kabi sifatlardan tarkib tottadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bulmish nutq me- lodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, "nutqda ovozning (tonning) baland- past tarzda tulqinlanishi melodikani yo`zaga keltiradi, me- lodika esa gapning ifoda maksadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv- stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi". O'qituvchi o'z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni tug'ri va o'rinli namoyon eta bilishi lozim.

Ayrim o'qituvchilar ko'pincha dars jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yul bilan guyoki sinfdagi shovqinni "bosib" quyganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat o'kituvchining ovoz apparati keraksiz zo'rikadi, o'zi tez charchaydi, Yana ba'zi o'qituvchilar borki, ular darsda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham o'kdtuvchi- ning o'zi kiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iq, tussiz eshitiladi va o'quvchining dikkatini ushlab turmaydi.

Tajribali o'qituvchi faqat baland yoki faqat past ovozda dars utmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'zikedigidan iborat akustik sifatlarning turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon kilinayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi o'quvchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, ya'ni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan maxrum nutq shaklidan kutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi.

O'qituvchining nutq texnikasi bilan bog'liq nuksonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maksadga ko'ra mu'tadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifodalanayotgan fikr strukturasiga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq aks

holda, ya'ni o'qituvchi materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, o'quvchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida tilgashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshkacha qilib aytganda, o'quvchining idrok sur'ati o'qituvchining nutqi tezligidan orqada qoladi, unga "etib yurolmaydi". Zotan, o'qituvchi nutqidagi me'yoridan ortiq jadal temp dars berish metodikasi koidalari uchun ham begonadir. O'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni dars paytidagi ruxiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni qanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni o'zni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogiq ham psixologik jixatdan to'g'ri bo'ladi.

Nutq texnikasida diktsiya masalasi ham alohida o'rin tutadi. Xar bir tovush, so'zning to'g'ri va aniq talaffo'z qilinishi, nutq oqimida so'z shakllari va gaplarning "chaynalmasligi", ayniksa, o'qituvchi nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zai o'qituvchilar nutqida ham diktsiya noaniqligi bilan bog'liq nuksonlar ko'zatiladi. Masalan, ba'zan "z" tovushini jaraigsiz "s" tovushiga moyil tarzda talaffo'z qilish uchraydi: siz — sis, eshitdipgiz — eshit-dingis kabi. Bu va bu singari nuksonlar nutq tovushlarining hosil bulish o'rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigai nutq a'zolari)ning etarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo'ladi. Noto'g'ri yoki noaniq talaffo'z qilinadigan tovushning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq a'zolarining faolligini oshirish yuli bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni to'zatisish mumkin. Buning uchun xilma-xil mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqol va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chikarib takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko'rinishidir.

Umuman, o'qituvchi o'zining nutq texnikasini takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, fonetika, fonologiyaga oid bilimlardan umumiy tarzda bulsa-da, xabardor bo'lishi, kerak bo'lgan da, o'z nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yordam beradigan mashklardan muttasil foydalanib borishi maqsadga muvofiq. Chunki tugal nutq texnikasisiz o'qituvchiing, har bir nutq to'zuvchining og'zaki nutqi madaniyatini aslo raso deb bo'lmaydi.

Adabiyotlar:

Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: "Sharq", 1997. 64 b.

Milliy istikdol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: "O'zbekiston", 2000. 80 b.

Ona tili — davlat tili. Toshkent: "Adolat", 2004. 80 b.

Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: "O'qituvchi", 1992. 160 b.

Begmatov E., Mamatov A. Adabiy norma nazariyasi. 1- qism. Toshkent: "Navro'z", 1997. 95 b.

Begmatov E. "O'zbek adabiy tilining mustaqillik davri rivojiga doyr // "O'zbek tili va adabiyoti", 2006, N4, 3 — 9- betlar.

Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: "Talqin", 2005. 272 b.

Jumaxuja N.A. Istiklol va ona tilimiz. Toshkent: "Sharq", 1998. 160 b.

Yuldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. Toshkent: "Ma' - naviyat", 2002. 80 b.

Kaykovus. Qobusnoma. Tuldirilgan 2-nashri, Toshkent: "Istikdol", 1994. 173 b.

Maxmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent: "Ma' - naviyat", 1999. 64 b.

Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. Toshkent: F.Fulomov nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.

Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. Toshkent: "Ma' - naviyat", 2003. 112 b.

Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini shakllantirish masalalari (O'zbek tili 5-doimiy anjumani tezislari). Toshkent: "Sharq", 1999. 256 b.

Fitrat A. Tanlangan asarlar. IV jild. Toshkent: "Ma' - naviyat", 2006. 336.

Ko'ng'upov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent: "Uqituvchi", 1992. 160 b.

Rasulov.R, Xusanov.N, Nutq madaniyati va notiqlik san'ati.Toshkent,Moliya-iqtisod,2007,132b.

Ma'ruzalar mundarijasi

Kirish

1-Ma'ruza: "O`qituvchi nutqi madaniyati" kursining mundarijasi, maqsadi va vazifalari. Nutq madaniyati va boshqa fanlar.

2-Ma'ruza: Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari.. Nutqning to'g'riligi.

3-Ma'ruza: Nutqning aniqligi

4-Ma'ruza: Nutqning mantiqiyliigi

5-Ma'ruza: Nutqning sofligi

6-Ma'ruza: Nutqning boyliigi

7-Ma'ruza: Nutqning juyaliligi va ifodaliligi

8-Ma'ruza: O`qituvchining nutq texnikasi

Adabiyotlar

«O`qituvchi nutqi madaniyati» ma`ruza matni- T.: TMI, 2014. 109-bet.

Muharrir:

Bosishga ruxsat etildi:

Adadi:

Shartli bosma tabog'i:

Buyurtma № _____

Toshkent Moliya instituti bosmaxonasida "RISO" nusxa ko'paytirish qurilmasida chop etildi.

700084, Toshkent shahri X. Asomov ko'chasi, 7- uy.

“O'QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

ANNOTATSIYALAR

Toshkent-2014

Mustaqilligimiz tufayli respublikamizda bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar hayotimizning turli sohalarida, shuningdek, ta'lim-tarbiya bo'yicha yuksak ijobiy siljishlarga sabab bo'lmoqda.

Nutq madaniyati inson umummadaniyatining bir qismi bo'lib, fikrni adabiy til me'yorlariga muvofiq to'qri, erkin, mantiqan izchil va ta'sirli bayon qilishdir. Nutq madaniyati deyilganda til birliklaridan, nutq jarayonida to'g'ri va o'rinli foydalanish nazarda tutiladi. Nutq madaniyati talabdan nutq uslublari va ularning me'yorlarini yuqori darajada bilishni talab etadi. Bundan tashqari, kishining shaxsiy madaniy saviyasi bilan ham bog'liqdir.

Ta'kidlash kerakki, til mustaqilligisiz mustaqil davlatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu boisdan tilimiz jozibasi, tilimizning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, ahamiyati benihoya kattadir.

Nutq madaniyatining yana bir jihati shuki, fikrni og'zaki yoki yozma shaklda ifodalashda, albatta, mantiqiy izchilikka rioya qilishdir. Ifodali va yoqimli so'zlash uchun til boyliklaridan mazmunga mos so'zni tanlay olish qobiliyatini takomillashtirish zarur. Buning uchun so'zni o'rinsiz takrorlamaslik, so'z shaklini, gap to'rini to'g'ri qo'llash, har bir uslubning o'ziga xos belgi va mezonlarini ongli idrok qilish maqsadga muvofiqdir. Nutq madaniyati so'zlovchining shaxsiy madaniy saviyasi mezonni bo'lganligi uchun kishidan katta mehnat talab etiladi. Buning uchun nutqda xalq maqollaridan, iboralardan unumli va o'rinli foydalana olish; hadis, hikmatli so'zlardan nutq jarayonida iqtiboslar keltira olish va ularning mohiyatini tahlil qila olish mahoratini takomillashtirish lozim. Bo'lajak o'q'ituvchi esa yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarga to'la amal qilishlari bilan birga pedagogik tilning barcha me'yorlari va mezonlarini zarur darajada o'zlashtirishlari maqsadga muvofiqdir. O'qituvchining nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda iqtisodchi-pedagog sohasida maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir.

O'qituvchi nutq madaniyati fani talabalarni bo'lajak o'qituvchilikka tayyorlash jarayonida ularning madaniy nutq malakalarini shakllantirishga

va rivojlantirishga yordam beradi. Chunki nutq madaniyatini mukammal egallash jamiyatimizdagi har bir soha egasi uchun zaruriy qurol sanaladi.

Ana shu yaxshi niyatni ro'yobga chiqishida Toshkent moliya instituti talabalariga mo'ljallab yozilgan mazkur majmua o'qitish sifati hamda samaradorligini oshirishga ijobiy samara beradi degan umiddamiz. Bu o'quv majmuadan nafaqat talabalar balki, iqtisod moliya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

Taqdim qilinayotgan o'quv-uslubiy majmua moliya instituti talabalariga nutq madaniyati bo'yicha malaka va ko'nikmalarni hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Majmuaning qimmatli tomonlaridan biri unda nutq madaniyati mutaxassislik bilan, ya'ni iqtisod, moliya bilan bog'lab berilgan.

Har bir darsga adabiy me'yor, uslubshunoslik, nutq texnikasi, nutqning kommunikativ sifatlari, leksik-semantik ma'no, ifodali o'qishga doir mashqlar kiritilgan. Olingan materiallar tarbiyaviy xarakterga ega bo'lganligi ta'lim va tarbiya birligiga e'tibordan dalolat beradi. Ushbu majmua o'z ichiga shu fan bo'yicha o'quv va ishchi dasturlarini, ma'ro'za, amaliy mashg'ulotlarni o'tish uchun asos bo'ladigan uslubiy materiallarni, jumladan, tayanch konspektni, o'quv qo'llanmasini va ta'lim texnologiyalarini hamda tarqatma materiallarni, talabalar bilimini aniqlash uchun umumiy savollar, nazorat savollari, mustaqil ish mavzularini, baholash mezonlari va talabalar shu fanni o'zlashtirishi uchun zarur bo'ladigan o'quv materiallarni, adabiyotlar ro'yxatlarini, mashqlar to'plamini o'z ichiga olgan.

“O' QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

FOYDALI MASLAHATLAR

Toshkent-2014

Ma'lumki, til jamiyatda aloqa va fikr almashishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ma'lumotlarga qaraganda turli millat, elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha til mavjud. Bu tillar, o'zining qurilishi, xususiyatlari, so'zlashadigan aholining miqdoriga ko'ra, bir-biridan keskin farq qiladi.

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fani tanlov fani hisoblanib, “Kasb ta'limi” yo'nalishining bakalavriat (3-kurs) 1-semestrida o'qitiladi.

Toshkent moliya instituti “Kasbiy ta'lim” yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar quyidagi foydali maslahatlarga rioya qilsalar, nutq madaniyati bo'yicha yetarli bilim va malakaga ega bo'ladilar.

- Bakalavr tizimida o'qiyotgan talaba o'z Vatani tarixini, tilini, undagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotini bilishi, milliy qadriyatlarini hurmat qilishi va e'zozlashi, “O'qituvchi nutqi madaniyati” fanining ilmiy asoslarini puxta egallashi, shuningdek, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi lozim.

- “O'qituvchi nutqi madaniyati” fanini o'qitishdan maqsad talabalarga - nutq madaniyatini o'rganish tarixiga oid ma'lumotlar, madaniy nutq, unga qo'yiladigan talablar haqida to'la ma'lumot berish;

- nutqning kommunikativ sifatlari (to'g'riligi, aniqligi, tozaligi mantiqiyliqi, ta'sirchanligi, maqsadga muvofiqligi) to'g'risida ma'lumot berish;

- olingan nazariy bilimlar asosida adabiy nutq malakalarini shakllantirish. “O'qituvchi nutqi madaniyati” fanini o'qitishda talabalarning o'zbek tilshunosligi, falsafa, mantiq, kabi fanlardan egallagan bilimlariga asoslaniladi.

- “O'qituvchi nutqi madaniyati” fani talabalarni bo'lajak o'qituvchilikka tayyorlash jarayonida ularning madaniy nutq malakalarini shakllantirishga va rivojlantirishga yordam beradi. Chunki nutq madaniyatini mukammal egallash jamiyatimizdagi har bir soha egasi uchun zaruriy qurol sanaladi.

- Talaba nutq madaniyatini chuqur egallashi uchun nutq madaniyati tarixi, Sharq va G'arb olimlari, adiblari, jamoat arboblarning bu boradagi qarashlari; adabiy til norma (me'yor)lari; nutq madaniyatiga qo'yiladigan talablarni bilishi kerak;

- nutq uslublari va nutq madaniyati masalalari; madaniy nutq ko'nikmalari;

- o'z nuqtai nazarini ilmiy sharhlashi, asoslab berishi va bulardan amaliy masalalarni yechishda foydalana bilish malakalariga ega bo'lishi kerak.

- talaba nutq madaniyati bo'yicha keng grammatik bilimga ega bo'lishi uchun quyidagilarni bilishi lozim: og'zaki nutq ko'rinishlari (adabiy so'zlashuv, notiqlar nutqi, radio-televideniye nutqi, sahna nutqi), akademik notiqlik va unda bayon usuli (ilmiy ma'ro'za, ilmiy sharh, ilmiy axborot), sud notiqligi va uning turlari (sudya nutqi, advokat nutqi, prokuror nutqi va h.) haqida tasavvurga ega bo'lishi va o'zbek

tilining (soʻzlashuv, ilmiy, badiiy, rasmiy, publitsistik) uslublarida yoza olish malakasiga ega boʻlishi lozim.

- talaba iqtisodchi-pedagog nutqi va uslubini egallashi uchun alohida salohiyat, qunt va chidam bilan izlanishi zarur.

- avallo nutq va uslub, til va nutq uslublari, leksikologiya va uslubshunoslik, uslubning oʻziga xos xususiyatlari haqida chuqur tasavvurga ega boʻlishi lozim. Ixtisosligi boʻyicha referat, kurs ishi, hisobotlarni yoza olishi, ixtisosligiga doir hujjatlarni toʻgʻri yozish va toʻldirish malakasiga ega boʻlishi maqsadga muvofiqdir.

- bilimlarni chuqur egallashi va ularni Oʻzbekiston taraqqiyoti yoʻlida sarflashi lozim.

Oraliq nazorat - semestr davomida “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” fanidan 2 marta oʻtkaziladi, oʻquv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini oʻz ichiga olgan) boʻlimi tugagandan keyin talabanning bilim va amaliy koʻnikma darajasini aniqlaydi va baholaydi. “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” fanidan oraliq nazoratning soni va shakli (yozma, ogʻzaki, test va h.) oʻquv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda kafedra tomonidan belgilanadi.

Oraliq nazoratni oʻtkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda oʻrganib boriladi va uning tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda oraliq nazorat qayta oʻtkaziladi. Umuman talaba “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” fanidan joriy nazoratda 35 ball, oraliq nazoratda 35 ballgacha olishi mumkin.

Yakuniy nazorat – semestr yakunida “Oʻqituvchi nutqi madaniyati” fani boʻyicha nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarni talabalar tomonidan oʻzlashtirish darajasini baholash usuli boʻlib, maksimal 30 ballgacha belgilanishi mumkin. Yakuniy nazorat “Oʻqituvchi nutqi madaniyati ” fani mavzular boʻyicha tuzilgan testlardan, savollardan iborat boʻladi.

“O' QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

NORMATIV HUJJATLAR

Toshkent-2014

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining qarori
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASINING QARORI

1995-yil 24-avgust

339-son

Toshkent sh.

O`zbekiston Respublikasining “Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosini joriy etish tog`risida”gi Qonunini bajarish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O`zbek tilining asosiy imlo qoidalari tasdiqlansin.

2. Respublika vazirliklari, idoralari, mahalliy hokimiyat va boshqaruv idoralari, ommaviy axborot vositalari lotin yozuviga asoslangan O`zbek alifbosidagi barcha turdagi yozishmalarda, matbuotda, ish yuritishda ushbu qoidalarni joriy qilish yo`zasidan tegishli tadbirlarni ishlab chiqsinlar va amalga oshirsinlar.

3. O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Oliy va o`rta ta`lim vazirligi, Xalq ta`limi vazirligi, Davlat matbuot qo`mitasi uch oy muddat ichida maktablar uchun qo`llanma sifatida o`zbek tilining imlo lug`atini, kishi ismlari va joy nomlari lug`atlarini tayyorlasinlar va nashr etish choralarini ko`rsinlar.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Vazirlar Mahkamasining Ta`lim va fan hamda ijtimoiy masalalar va madaniyat bo`limlariga yuklansin.

Vazirlar Mahkamasining Raisi

I.Karimov

O`zbekiston Respublikasining ”Davlat tili haqida”gi Qonuni

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

DAVLAT TILI HAQIDA

(yangi tahrirda)

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili O'zbek tilidir.

2-modda. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda. O'zbek tilining O'zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog'iston Respublikasida amal qilishiga bog'liq masalalar, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog'liq udumlarni ado etishda qo'llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o'qitish amalga oshiriladi.

5-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi.

6-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta'lim olish, tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o'rta maxsus va oliy ma'lumot olishni ta'minlaydi.

7-modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta'minlaydi, shu jumladan unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda. O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi.

9-modda. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruratga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek qatnashchilarning o'zlari tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda. Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko'pchiligi o'zbek tilini bilmaydigan jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda. Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish va hal qilishda davlat tili qo'llaniladi. Xo'jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko'rib chiqilishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning talabiga ko'ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan rus tilida yoki imkoniyat bo'lgan taqdirda - boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda. Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda. O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga, jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi ta'minlanadi.

15-modda. O'zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o'z millatidan qat'iy nazar, o'z ismini, ota ismi va familiyasini milliy-tarixiy an'analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda. Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda. Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga oshiriladi.

18-modda. Pochta-telegraf jo'natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko'ra - boshqa tilda ham amalga oshiriladi.

19-modda. Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo'shma korxonalarining, shuningdek milliy madaniyat jamiyatlari va markazlarining muhrlari, tamg'alari, ish qog'ozlari matnlarining tarjimasini davlat tilida takrorlanadi.

20-modda. Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot matnlari davlat tilida rasmiylashtiriladi va e'lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasini berilishi mumkin.

21-modda. Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar, yo'riqnomalar, etiketkalar bilan ta'minlanadi.

22-modda. Respublikaning ma'muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko'chalari va geografik obyektlarining nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o'zida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda. O'zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o'zaro muomala, tarbiya va ta'lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Toshkent shahri, 1995-yil 21-dekabr.

“O' QITUVCHI NUTQI MADANIYATI”

fanidan

BAHOLASH MEZONI

Toshkent-2014

O`qituvchi nutqi madaniyati” fani bo`yicha baholash mezonlari

“**O`qituvchi nutqi madaniyati**” fani uchun o`quv rejada bakalavriatning barcha yo`nalishining 3 kurslarida *1-semestrda* o`qitiladi. Fan uchun jami 60 soat, shundan 18 soat ma`ruza, 18 soat seminar auditoriya soati va 24 soat mustaqil ta`lim uchun ajratilgan.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida”gi qonunlariga hamda O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirining 2010 yil 25 avgustidagi “Oliy ta`lim muassasalaridagi talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risidagi nizomga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish haqida”gi 333-sonli buyrug`i va Toshkent Moliya instituti 2010-yil 20-sentabr 236-sonli “Institutda talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to`g`risida”gi buyrug`i talabalar bilimni nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi. Nizomda ko`rsatilganidek, talabaning fan bo`yicha o`zlashtirishini baholash muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali (ilovaga muvofiq) amalga oshiriladi:

- Joriy nazorat (J.N.);
- Oraliq nazorat (O.N.);
- Yakuniy nazorat (Ya.N.).

“**O`qituvchi nutqi madaniyati**” fani bo`yicha talabalarning semestr davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi. U 100 ballik baholash turlari bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

YaN.-30 ball, qolgan 70 ball esa o`zaro muvofiqlashtirilgan holda J.N. – 35 ball, va O.N. – 35 ball qilib taqsimlanadi.

Fan bo`yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning 55 % (39 ball) saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam bal to`plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

“**O`qituvchi nutqi madaniyati**” fanidan talaba bilimni nazorat qilish quyidagi tartibda o`tkaziladi:

Joriy nazoratda fanning har bir mavzusi bo`yicha talabaning bilimi va amaliy ko`nikmalarini aniqlab borish, dolzarb mavzulardan nazorat ishi yozish, konspekt qilish, mustaqil ish topshirish nazarda tutiladi va u seminar mashg`ulotlarida uzluksiz amalga oshiriladi.

Oraliq nazoratda fanning bir necha mavzularini qamrab olgan qismi bo`yicha nazariy mashg`ulotlar o`tib bo`linganidan so`ng, talabaning nazariy bilimlari test yechish va oraliq yozma ish yozish orqali baholanadi, ya`ni uning muayyan savolga javob berishi yoki muammoni yechishdagi mahorati va qobiliyati aniqlanadi. O.N. ma`ruza darslari bo`yicha amalga oshiriladi.

Yakuniy nazoratda semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" yoki test shaklida o'tkaziladi.

Mazkur fan bo'yicha YaN test shaklida institut test markazida o'tkaziladi. Unda talabaning fanni o'zlashtirishi 0-30 ballgacha bo'lgan mezon asosida baholanadi.

Talabaning JN,ON va YaN bo'yicha ballarda ifodalangan o'zlashtirishi quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi.

Talabaning fan bo'yicha nazorat turlarida to'plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining «O'quv rejasida ajratilgan soat» ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o'quv yuklama soatlari, «fandan olingan baho» ustuniga esa, talabaning 100 ballik tizimdagi o'zlashtirilishi qo'yiladi.

Fan bo'yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo'lgan o'zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fani bo`yicha talabalarning bilimlarini baholashda quyidagi namunaviy mezonlar inobatga olinadi.

Ball	Baho	Talabalarning bilim darajasi
1	2	3
86-100	«A'lo»	Fan yo`zasidan ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish O`qituvchi nutqi madaniyati fani bo`yicha mavzularning mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish va tasavvurga ega bo`lish;
71-85	«Yaxshi»	Fan yo`zasidan fikrlay olish; O`qituvchi nutqi madaniyati fani bo`yicha mavzularni bilish, aytib berish va tasavvurga ega bo`lish; Olgan bilimlarni amalda qo`llay olish;
55-70	«Qoniqarli»	O`qituvchi nutqi madaniyati fani yo`zasidan past darajada mushohada yuritish, fan mohiyatini to`la bayon qila olmaslik. O`qituvchi nutqi madaniyati fani haqida qisman tasavvurga ega bo`lish.
0-54	«Qoniqarsiz»	O`qituvchi nutqi madaniyati fani haqida aniq tasavvurga ega bo`lmaslik, bilmaslik.

“O`qituvchi nutqi madaniyati” fanidan joriy va oraliq nazoratlarida talabanning bilimni reyting tizimi asosida baholash

№	Ko`rsatkichlar	JN ballari	ON Ballari	Jami
1	Darsga qatnashganlik darajasi Ma`ro`za darsi jarayonidagi faolligi (masalan: konspekt yuritishi va shu kabi)	9	9	18
2	Fan mavzulari bo`yicha yozma ish yozish yoki test yechish	X	20	20
3	Amaliy mashg`ulotlaridagi faolligi (mavzu dolzarbligi va qo`yilgan maqsadga erishganligining mazmuni ochib berilishi, huquqiy-me`yoriy aktlardan foydalanilgan, mavzu bo`yicha berilgan situatsiyalarni to`g`ri hal etishi va boshqalar).	18	X	18
4	Mustaqil ta`lim topshiriqlarini bajarish, ularning mazmunini o`zlashtirish darajasi	8	6	14
5	O`tilgan mavzular bo`yicha yozma ish savollariga javob uchun	X	X	X
	Jami:	35	35	70

**4.5. Yakuniy nazoratni yozma yoki og`zaki tarzda o`tkazish
M E Z O N I**

Talabalar “O`qituvchi nutqi madaniyati” fani bo`yicha yakuniy nazoratni “Test” shaklida topshiradilar va ularni o`zlashtirish ko`rsatkichi 0 dan 30 ballgacha baholanadi.

Fan bo`yicha yakuniy nazoratning yozma ish variantlari 3 (uchta) savollardan iborat. Har bir savolga berilgan javobi 0-10 ballgacha baholanadi.

Berilgan har bir savolga to`g`ri va to`liq javob yozilsa, fanning nazariy va uslubiy asoslari to`g`ri qo`llanilsa, ilmiy tushunchalar haqida ijodiy oid o`z mustaqil fikriga ega bo`lsa va uni yozma shaklda bayon eta olsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o`zlashtirish ko`rsatkichi 8,6-10 ballar oralig`da baholanadi.

Berilgan savollarga to`liq javob yozilsa, fanga oid va jarayonlarga ta`sir etuvchi omillar to`liq va to`g`ri aniqlansa, omillar ta`siriga ijodiy yondoshgan holda xulosa va fikrlar bildirilsa, 7,1-8,5 ballar oralig`da baholanadi

Berilgan har bir savolga to`g`ri javob yozilsa, fanining nazariy va uslubiy asoslari to`g`ri qo`llanilsa, javobda mantiqiy yaxlitlikka erishilsa, o`zlashtirish ko`rsatkichi 5,5-7 ballar oralig`da baholanadi .

Berilgan har bir savolga javob yozilmasa, noto`g`ri javob yozilsa yoki o`quv adabiyotidan so`zma-so`z ko`chirib yozilsa 0-5,4 ballar oralig`da baholanadi.

4.6. Σ (JN+ON) bo'yicha baholash mezonlari

Σ (JN+ON) 0-70 gacha bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq umumlashtirilishi belgilangan:

Baholash mezonlari	Reyting ballari		Σ (JN+ON)
	JN	ON	
“O`qituvchi nutqi madaniyati” fani mashg`ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarda dunyoqarash tavsifidagi bilimlar tizimining o`rni, insonning inson, jamiyat, atrof-muhitga bo'lgan munosabati bilan bog`liq masalalar bo'yicha xulosa va qaror qabul qila oladi, falsafiy tushunchalar haqida ijodiy fikrlaydi, falsafiy qonun va kategoriyalarning mohiyatini tushuntirib beradi, mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	30-35	30-35	60-70
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg`ulotlarda “O`qituvchi nutqi madaniyati” fani haqida tasavvurga ega bo'ladi ,mustaqil mushohada yurita oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	25-29	25-29	50-59
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg`ulotda fan bilan bog`liq masalalar bo'yicha mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	20(19)24	20-24	39-49
Fan mashg`ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg`ulotda fan bilan bog`liq masalalar yo`zasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-19	0-19	0-38

4.7. YaN ni baholash mezonlari

YaN “Yozma ish” yoki “Test sinovi” shaklida (0-30) ballgacha belgilangan mezon asosida yoki majmual shaklda Yozma ish + test sinovi shaklida (6/24) ballik tizim asosida o'tkaziladi. YaN og'zaki shaklda o'tkazilganda 0-30 bo'lgan reyting ballari quyidagi mezonlarga muvofiq belgilangan:

YaN bo'yicha baholash mezonlari	YaN
O'qituvchi nutqi madaniyati fani mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Nazariy va amaliy mashg'ulotlarda nutqi madaniyati va notiqlik san'ati tarixini biladi, nutqning kommunikativ tasnifi bo'yicha o'z nuqtai nazarini bayon etadi, til va nutq haqida bilimlarga ega bo'ladi, xulosa va qaror qabul qila oladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	60-70
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha to'la bilimga ega. Mashg'ulotlarda til va nutq haqida yaxlit tasavvurga ega bo'ladi, mustaqil mushohada yurita oladi, amalda qo'llay oladi, mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	50-59
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarli bilimga ega. Amaliy mashg'ulot mavzulari bilan bog'liq masalalar bo'yicha mavzu savollari mohiyatini tushuntira oladi, aytib beradi, tasavvurga ega.	39-49
Fan mashg'ulotlari mavzulari bo'yicha qoniqarsiz bilimga ega. Amaliy mashg'ulotda mavzu savollari bilan bog'liq masalalar yo`zasidan aniq tasavvurga ega emas, bilmaydi.	0-38

“O'qituvchi nutqi madaniyati” fanidan 2013-2014 o`quv yilida talabalar bilimni baholashning asosiy reyting tizimi

№	Nazorat turlari	I juftlikning nazorati		Jami ballar	
		Min.	Mak.	Min.	Min.
Auditoriya ishi					
1	Mashg'ulotlarga qatnashish	-	0,4	4	8
2	Topshiriqlarni og'zaki bajarish	0,2	1	10	18
3	Yozma topshiriqlarni bajarish	0,2	0,5	5	9
4	Mashg'ulotlardagi faollik	-	0,4	4	8
5	Daftarlarni to'ldirib borish	0,2	0,5	5,5	9
6	Mustaqil ish	0,2	1	10	18
	Joriy nazorat	1,1	3,5	38,5	70

№	Mustaqil ta`lim	Jami ballar
1	Mavzular bo`yicha ma`lumotlar keltirish	3
2	Seminar va konferensiyalardagi ma`ro`zalar	3
3	Mustaqil ishlarni bajarish (monolog, matn, she`r)	5
4	Slaydlar, jadvallar, kartochkalar tayorlash	2
5	Gazeta va jurnallarda maqolalar e`lon qilish	2
6	Ish o`yinlarida ishtirok etish	3
	Jami:	18

* Mustaqil ta`lim uchun ajratilgan ballar joriy va oraliq ballar tarkibiga singdiriladi

	Yakuniy nazorat:	Min.	Mak.
	Yakuniy nazorat vaqtdagi javoblar	15	30